



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI**

O'ZBEKISTON IQTISODIYOTI

**FANIDAN
O'QUV-USLUBIY MAJMUA
(2-kurslar uchun)**

Bilim sohasi:	200000	Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq
Ta'lim sohasi:	230000	Iqtisod
Ta'lim yo'nalishlari:	5231000	Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik (mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha)
	5231000	Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik (Xitoy Xalq Respublikasi)

TOSHKENT – 2015

O‘quv-uslubiy majmua namunaviy dastur va ta’lim yo‘nalishining o‘quv rejasi asosida ishlab chiqilgan va kafedra majlisining 20..... yildagi-sonli majlisida, fakultet ilmiy-uslubiy kengashining 20..... yildagi-sonli majlisida muhokama qilingan.

Tuzuvchilar:

To‘xliev N.T. - Toshkent davlat sharqshunoslik instituti «Iqtisodiyot nazariyasi» kafedrası professori, i.f.d.

Xolmatov N.B. - Toshkent davlat sharqshunoslik instituti «Iqtisodiyot nazariyasi» kafedrası dotsenti, i.f.n.

Imomova N.A. - Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, «Iqtisodiyot nazariyasi» kafedrası katta o‘qituvchisi

Taqrizchilar:

Kamilova M.H. - Toshkent davlat sharqshunoslik instituti «Iqtisodiyot nazariyasi» kafedrası dotsenti, i.f.n.

Xoshimov P. - O‘zMU “Iqtisodiy nazariya” kafedrası dotsenti, i.f.n.

Fanning o'quv-uslubiy majmuasi Toshkent davlat sharqshunoslik instituti
O'quv-uslubiy kengashida ko'rib chiqilgan va tasdiqlangan. (201.. yil
“.....”dagi “.....” - sonli bayonnoma).

ANNOTASIYA

“O‘zbekiston iqtisodiyoti” fanidan o‘quv-uslubiy majmua bozor islohotlari va iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida talabalarda mamlakatimiz iqtisodiyoti barpo bo‘lishi, tarkibi, uning o‘zgarishi va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning ustuvor yo‘nalishlari, milliy iqtisodiyot bosqichma-bosqich rivojlanishidagi murakkab jarayonlarni tahlil qila olish, ularda yuzaga chiqayotgan qonuniyatlarni aniqlash, to‘g‘ri baholay olish va tegishli xulosalar chiqarish bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikmalar hosil qilishdan iborat.

Ushbu o‘quv-uslubiy majmua kirish, meyoriy hujjatlar, fanning o‘quv dasturi, ishchi dasturi, tayanch konspekt, seminar mashg‘ulotlari uchun topshiriqlar to‘plami, o‘quv materiallari, ta’lim texnologiyasi, talabalar bilimini baholash mezonlari, mustaqil ta’limni tashkil etish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatma, nazorat turlari, test savollari, umumiy savollar, tarqatma materiallar, muataqil ish mavzulari, fanni o‘zlashtirish bo‘yicha tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati, xorijiy adabiyotlar, glossariy kabi qismlardan iborat.

O‘quv-uslubiy majmua TDShI XMI va mamlakatshunoslik fakulteti professor-o‘qituvchilari, talabalari uchun mo‘ljallangan.

KIRISH

O'zbekiston milliy iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish orqali mamlakat aholisining turmush farovonligini yaxshilab borish islohotlar strategiyasining bosh yo'nalishi hisoblanadi. Ushbu maqsadga erishishda milliy iqtisodiyotni, jumladan, xo'jalik majmualarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa, milliy iqtisodiyotning shakllanish va rivojlanish shart-sharoitlari, omillari, mustaqillik yillaridagi ustuvor yo'nalishlari va yaqin istiqboldagi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning muhim jihatlari hamda bu boradagi davlat iqtisodiy siyosatini doimiy takomillashtirib borishni taqozo etadi va O'zbekiston iqtisodiyotini tizimli o'rganishni dolzarb vazifaga aylantiradi.

Ushbu fanni o'qitishdan asosiy maqsad talabalarda mamlakatimiz iqtisodiyoti barpo bo'lishi, tarkibi, uning o'zgarishi va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning ustuvor yo'nalishlari, milliy iqtisodiyot bosqichma-bosqich rivojlanishidagi murakkab jarayonlarni tahlil qila olish, ularda yuzaga chiqayotgan qonuniyatlarni aniqlash, to'g'ri baholay olish va tegishli xulosalar chiqarish bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalar hosil qilishdan iborat.

"O'zbekiston iqtisodiyoti" fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr milliy iqtisodiyotning barpo bo'lish va rivojlanish shart-sharoitlarini, omillarini va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga ta'sir ko'rsatuvchi ichki va tashqi muhitning asosiy belgilarini bilishi; ma'ruza materiallarini o'zlashtirish va chuqur tahlil qila olish asosida O'zbekiston iqtisodiyotiga oid nazariy materiallarga tayangan holda amaliy va ilmiy faoliyatni mustaqil tashkil etish, O'zbekistondagi islohotlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlari, uning natijasi, milliy iqtisodiyotning asosiy, tub muammolari, milliy iqtisodiyotning jahon xo'jaligidagi mavqei va roli o'zgarib borishi jarayonlarini tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'lishi hamda milliy xo'jalikning amal qilishi, boshqarilishi va bozor islohotlarini chuqurlashtirish va bozor munosabatlarini takomillashtirish bilan bog'liq ilmiy va amaliy faoliyatni mustaqil tashkil etish malakalariga ega bo'lishi maqsadga muvofiq.

Milliy iqtisodiyot jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligi va farovonligining moddiy asosi bo'lib, uning kengayib, iqtisodiy o'sish sur'atlarining jadallashishi davlat kuch-qudratining uzluksiz oshib borishida ham hal qiluvchi rol o'ynaydi. Milliy iqtisodiyot rivojlanishining shart-sharoitlari va omillarini o'rganmasdan uning tarkibiy tuzilishini takomillashtirish va barqaror iqtisodiy taraqqiyotning mustahkam asoslarini yanada kuchaytirib bo'lmaydi. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan, ijtimoiy yo'naltirilgan va kuchli fuqarolik jamiyatini ham milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash va uning raqobatbardoshligini oshirish orqali barpo etish mumkin. Yuqorida ta'kidlanganlar ushbu fanni o'rganishning ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

O'ZBEKISTON IQTISODIYOTI FANINING ME'YORIY HUJJATLARI

(diskda ilova qilinadi)

1. ““O‘zbekiston iqtisodiyoti” Davlat ta’lim standarti O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2015 yil 16 sentyabrdagi 387-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.
2. “O‘zbekiston iqtisodiyoti” o‘quv rejasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2015 yil 14 martdagi 107-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.
3. “O‘zbekiston iqtisodiyoti” ishchi o‘quv dasturi ToshDShI Ilmiy kengashining 2015 yil 4 iyuldagi 12 – sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

Ro‘yxatga olindi:

№ _____
201__yil “__” _____

Oliy va o‘rta maxsus ta’lim
vazirligi

201__yil “__” _____

O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	200000	Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq
Ta’lim sohasi:	230000	Iqtisod
Ta’lim yo’nalishlari:	5231000	Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik (mamlakatlar va mintaqalar bo’yicha)
	5231000	Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik (Xitoy Xalq Respublikasi)

Toshkent – 2015

O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligining 201__ yil "____" _____dagi "____" - sonli buyrug'ining __- ilovasi bilan fan dasturi ro'yxati tasdiqlangan.

Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 201__ yil "____" _____dagi ____ - sonli bayonnomasi bilan maqullangan.

Fan dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik institutida ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar:

To'xliev N.T.	Toshkent davlat sharqshunoslik instituti "Iqtisodiyot nazariyasi" kafedrası professori, i.f.d.
Imomova N.A.	Toshkent davlat sharqshunoslik instituti "Iqtisodiyot nazariyasi" kafedrası katta o'qituvchisi

Taqrizchilar:

Xolmatov N.B.	Toshkent davlat sharqshunoslik instituti "Iqtisodiyot nazariyasi" kafedrası dotsenti, i.f.n.
G'ulomova G.P.	Toshkent Islom Universiteti "Xalqaro iqtisodiy munosabatlar" kafedrası katta o'qituvchisi, i.f.n.

Fanning o'quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik instituti Kengashida tavsiya qilingan. (201__ yil "____" _____dagi ____-sonli bayonnomasi).

KIRISH

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarning asosiy maqsadi milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish orqali mamlakatimiz aholisining turmush farovonligini yaxshilashdan iborat. Ushbu maqsadga erishishda milliy iqtisodiyotni, jumladan, xo‘jalik majmualarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa, milliy iqtisodiyotning shakllanish va rivojlanish shart-sharoitlari, omillari, mustaqillik yillaridagi ustuvor yo‘nalishlari va yaqin istiqboldagi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning muhim jihatlari hamda bu boradagi davlat iqtisodiy siyosatini takomillashtirishni taqozo etadi va O‘zbekiston iqtisodiyotini tizimli o‘rganishni shart qilib qo‘yadi.

Fanning maqsad va vazifalari

Fanni o‘qitishdan maqsad - talabalarda mamlakatimiz iqtisodiyoti barpo bo‘lishi, tarkibi, uning o‘zgarishi va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning ustuvor yo‘nalishlari, milliy iqtisodiyot bosqichma-bosqich rivojlanishidagi murakkab jarayonlarni tahlil qila olish, ulardagi qonuniyatlarni aniqlash, to‘g‘ri baholay olish va tegishli xulosalar chiqarish bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikmalar shakllantirishdan iborat.

Fanning vazifasi – talabalarga mamlakatimizning tabiiy-xom ashyo resurslari salohiyati, aholisi, mehnat resurslari, milliy iqtisodiyot tarkibi, moliya-kredit, bank, byudjet tizimi, tashqi iqtisodiy faoliyati, bozor munosabatlarining qaror topishi va rivojlanishi hamda davlatning iqtisodiy-ijtimoiy siyosatining asosiy yo‘nalishlarini o‘rgatishdan iborat.

Fan bo‘yicha talabalarning tasavvur, bilim, ko‘nikma va malakalariga qo‘yiladigan talablar

“O‘zbekiston iqtisodiyoti” fanini o‘zlashtirish jarayonida bakalavr:

- milliy iqtisodiyotning barpo bo‘lish va rivojlanish shart-sharoitlarini, omillarini va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga ta’sir ko‘rsatuvchi ichki va tashqi muhitning asosiy belgilarini **tasavvurga ega bo‘lishi;**

- O‘zbekiston iqtisodiyotiga investitsiyalar jalb etish bo‘yicha xorijiy investorlarga taqdim etilayongan shart-sharoitlar, mamlakatimizning resurs salohiyati, demografik salohiyati, ilmiy-texnika va innovatsiya salohiyatini **bilishi va ulardan foydalana olishi;**

- ma’ruza materiallarini o‘zlashtirish va chuqur tahlil qila olish asosida O‘zbekiston iqtisodiyotiga oid nazariy materiallarga tayangan holda amaliy va ilmiy faoliyatni mustaqil tashkil etish, O‘zbekistondagi islohotlar strategiyasining ustuvor yo‘nalishlari, uning natijasi, milliy iqtisodiyotning asosiy, tub muammolari, uning jahon xo‘jaligidagi mavqei va roli o‘zgarib borishi jarayonlarini tahlil qilish **ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;**

- milliy iqtisodiyotning amal qilishi, boshqarilishi va bozor islohotlarini chuqurlashtirish va bozor munosabatlarini takomillashtirish bilan bog‘liq ilmiy va amaliy faoliyatni mustaqil tashkil etish **malakalariga ega bo‘lishi kerak.**

Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviyligi

“O‘zbekiston iqtisodiyoti” umumkasbiy fan hisoblanib, bakalavriat bosqichining 4 semestrida o‘qitiladi. Ushbu o‘quv dasturiga kiritilgan savollar boshqa iqtisodiy fanlar, jumladan, gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar (Iqtisodiy nazariya), umumkasbiy fanlar (Iqtisodiy statistika, Makro va mikroiqtisodiyot, Tashqi iqtisodiy faoliyat)ning dasturlari bilan uzviy bog‘liq va uslubiy jihatdan o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi mazmundadir.

Fanning ilm-fan va ishlab chiqarishdagi o‘rni

Milliy iqtisodiyot jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligi va farovonligining moddiy asosi bo‘lib, uning kengayib, iqtisodiy o‘sish sur‘atlarining jadallashishi davlat kuch-qudratining uzluksiz oshib borishida ham hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Milliy iqtisodiyot rivojlanishining shart-sharoitlari va omillarini o‘rganmasdan uning tarkibiy tuzilishini takomillashtirish va barqaror iqtisodiy taraqqiyotning mustahkam asoslarini yanada kuchaytirib bo‘lmaydi. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan, ijtimoiy yo‘naltirilgan va kuchli fuqarolik jamiyatini ham milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash va uning raqobatbardoshligini oshirish orqali barpo etish mumkin. Jahon iqtisodiyotida globallashuv jarayonlari chuqurlashib borayotgan sharoitda milliy xo‘jalik yuritishda yuzaga kelgan qiyinchiliklar, mutanosiblik va nomutanosiblik muammolari, ularni hal qilish bo‘yicha hukumatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan tizimli chora-tadbirlar natijalarini ham talabalarga tushuntirish dolzarb hisoblanadi. Shuning uchun bu fanni o‘rganish amaliy ahamiyatga egadir.

Fanni o‘qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Talabalarning “O‘zbekiston iqtisodiyoti” fanini yuqori darajada o‘zlashtirishlari uchun o‘qitishning ilg‘or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi axborot texnologiyalarini ushbu jarayonga tadbiq etish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o‘zlashtirishda, fan bo‘yicha bilim berishda va o‘qitishda ko‘rgazmali qurollar, tarqatma materiallar, interaktiv va masofaviy usullardan keng foydalaniladi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo‘mitasi, Iqtisodiyot vazirligi, Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar va ilmiy-tadqiqot markazlari tomonidan nashr etilgan statistik va tahliliy to‘plamlar materiallaridan keng foydalaniladi.

ASOSIY QISM

Fanning nazariy mashg‘ulotlari mazmuni “O‘zbekiston iqtisodiyoti” faniga kirish

“O‘zbekiston iqtisodiyoti” fanining maqsadi va vazifalari. “O‘zbekiston iqtisodiyoti” fanining predmeti. Fanni o‘rganish usullari va boshqa iqtisodiy fanlar bilan aloqalari.

Iqtisodiy taraqqiyotning “O‘zbek modeli”

Bozorga o‘tishning zarurligi. “O‘zbek modeli” shakllanishining omillari va shart-sharoitlari. “O‘zbek modeli”ning mazmuni. O‘zbekistonda bozorga o‘tishning asosiy tamoyillari. “O‘zbek modeli”ning Prezident I.Karimov asarlarida yoritilishi. Bozorga o‘tish bosqichlari. Islohotlarning strategik yo‘nalishlari. “O‘zbek modeli” va iqtisodiy o‘tish. “O‘zbek modeli” va jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi. Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash “o‘zbek modeli”ning mantiqiy davomi.

Milliy iqtisodiyot rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari

Milliy hisoblar tizimi. Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar. Yalpi ichki mahsulot (YaIM) va Yalpi milliy mahsulot (YaMM), ularning farqli jihatlari. Yalpi ichki mahsulotni hisoblash usullari: daromadlar oqimi bo‘yicha YaIMni hisoblash, xarajatlar oqimi bo‘yicha YaIMni hisoblash, ishlab chiqarish usulida YaIMni hisoblash. Sof milliy mahsulot (SMM), Milliy daromad (MD), tasarrufdagi daromad (TD). Makroiqtisodiy proporsiyalar. Makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o‘tish. Iqtisodiy o‘tishni hisoblash. Real va nominal YaIM, YaIM deflyatori.

O‘zbekistonning demografik salohiyati

Mamlakatning iqtisodiy salohiyati tushunchasi. O‘zbekiston aholisining tabiiy o‘tishi. Aholining tarkibi. Aholining geografik joylashuvi xususiyatlari. Migratsiya jarayonlari. Immigratsiya. Aholi ko‘chishining sabablari. Mehnat resurlari va ulardan foydalanish. Mehnat resurslari dinamikasi. Iqtisodiy faol aholi. Iqtisodiyotda band bo‘lganlar. Mehnat bozorining amal qilishi. Mehnat resurslaridan samarali foydalanish yo‘nalishlari.

Mineral-xom ashyo resurslari

O‘zbekistonning mineral-xom ashyo salohiyati. Mineral-xom ashyo salohiyatining tasnifi. Mineral-xom ashyo resurslarining joylashishi. Mineral-xom ashyo resurslarining iqtisodiy rivojlanishdagi roli va ahamiyati. Tog‘-kon sanoati majmuasining shakllanishi va ishlab chiqarish imkoniyatlari. Tabiiy boyliklarni boshqarish mexanizmi. Mineral-xom ashyo resurslaridan samarali foydalanish muammolari. Yoqilg‘i resurslari zahirasi va turlari. Yoqilg‘i-energetika resurslarining tasnifi. Energetika manbalari, ularning joylashishi. Yoqilg‘i mustaqilligi. Yoqilg‘i mustaqilligining strategik ahamiyati. Yoqilg‘i mustaqilligini ta‘minlash bosqichlari. Energiya manbalaridan oqilona foydalanish imkoniyatlari va istiqbollari.

Yer va suv salohiyati

Yer iqtisodiy resurs sifatida. Yer milliy boylik sifatida. Yer va uning tarkibi. Yerning tasniflanishi. Yer kadastri. Yer boniteti. Yer munosabatlari va agrar islohotlar. Yer resurslarini boshqarish xususiyatlari. Suv resurslari va uning holati.

Suv resurslari manbalari. Suv resurslarini boshqarish mexanizmi. Yer va suv resurslaridan samarali foydalanish yo‘llari.

O‘zbekistonning ilmiy-texnika va innovatsiya salohiyati

Ilmiy-texnika taraqqiyotining mohiyati va yo‘nalishlari. Ilmiy salohiyat. Ilmiy-texnika salohiyati. Innovasion salohiyat. Fan va ta’lim tizimini isloh qilish. Fan, ta’lim va ishlab chiqarish o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni oshirish muammolari. Ilmiy-texnika taraqqiyotini jadallashtirish muammolari. Ilmiy-tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlari. Ilmiy-texnika va innovasion salohiyatni oshirishning dolzarb yo‘nalishlari.

Iqtisodiyotning hududiy salohiyati

O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining hududiy xususiyatlari. Mintaqalarning tabiiy-iqtisodiy salohiyati va ulardan samarali foydalanish yo‘nalishlari. O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida hududlarning o‘rni va roli. Hududiy tafovutlar va ularni yumshatish yo‘llari.

Sanoat majmuasi

Milliy sanoat ishlab chiqarishining mohiyati. Milliy sanoatning shakllanishi. Sanoat ishlab chiqarishining tarmoq va hududiy tarkibi. Sanoat tarmog‘idagi tarkibiy siljishlar. Milliy sanoat rivojlanishining bosqichlari. Sanoatlashuv va sanoatlashtirish strategiyalari. Sanoat rivojlanishidagi ziddiyatlar va muammolari. Sanoat taraqqiyotining istiqbollari.

Agrosanoat majmuasi

Agrosanoat majmuasi va uning tarkibiy qismlari. Agrar munosabatlarni takomillashtirish bosqichlari. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining tarmoq va hududiy tarkibi. Qishloq xo‘jaligi rivojlanishining hozirgi holati. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash muammolari. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash imkoniyatlari. Mexanizatsiyalashtirish va qishloq xo‘jaligiga xizmat ko‘rsatish tarmoqlari. ASMni rivojlantirish istiqbollari.

Transport majmuasi

Transportning milliy iqtisodiyotda tutgan o‘rni va roli. Transport majmuasi rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari. Transport turlari, ularning afzalliklari va kamchiliklari. O‘zbekistonda transport tarmog‘ini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari. Transport majmuasini modernizatsiyalash. Transport koridorlari. Milliy iqtisodiyotning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvida transportning o‘rni va roli.

Aloqa va telekommunikatsiya majmuasi

Aloqa va telekommunikatsiya majmuasining O'zbekiston iqtisodiyotida tutgan o'рни va roli. Aloqa va telekommunikatsiya rivojlanishining asosiy tendensiyalari. O'zbekistonda zamonaviy aloqa va telekommunikatsiya tarmoqlarining rivojlanish xususiyatlari. Axborot-texnologiya kommunikatsiyalarining rivojlanish holati.

Qurilish majmuasi

Kapital qurilish, uning yo'nalishlari. O'zbekistonda qurilish majmuasi rivojlanishining asosiy tendensiyalari va xususiyatlari. Investisiya-qurilish majmuasi. Majmuaning shakllanishi. Majmuani rivojlantirish imkoniyatlari. Kapital qo'yilmalarining samaradorligini oshirish yo'llari.

Iste'mol bozori

Iste'mol bozori, uning mohiyati va tarkibi. Iste'mol bozori rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar. O'zbekistonda chakana savdoning rivojlanish tendensiyalari. Chakana savdo aylanmasining mulkchilik shakllari bo'yicha tarkibi. O'zbekistonda iste'mol tovarlari savdosining rivojlanishi. Madaniy-maishiy va xo'jalik ehtiyojlariga mo'ljallangan tovarlar savdosi dinamikasi. O'zbekistonda chakana savdo aylanmasini oshirish yo'nalishlari

Xizmat ko'rsatish sohasi

Xizmat ko'rsatish sohasining mohiyati va milliy iqtisodiyot rivojlanishida tutgan o'рни va roli. Xizmat ko'rsatish sohasining tarkibiy tuzilishi. Aholiga pullik xizmat ko'rsatish dinamikasi va unga ta'sir etuvchi omillar. Aholiga pullik xizmat ko'rsatish hajmining asosiy xizmat turlari bo'yicha taqsimlanishi. Pullik xizmatlarning mulkchilik shakli bo'yicha tarkibi. O'zbekistonda aholiga maishiy xizmat ko'rsatishning rivojlanish xususiyatlari.

Investitsiyalar

Investitsiyalarning mohiyati, ahamiyati va turlari. Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning tarmoq tarkibi. Investitsiyalarning moliyalashtirish manbalariga ko'ra taqsimlanishi. Investitsiyalarning hududiy tarkibi. Investitsiyalarning mulk shakliga ko'ra tarkibi. Asosiy kapitalga kiritilgan kapitalning texnologik tarkibi. Investisiya siyosatining asosiy yo'nalishlari. Xorijiy investitsiyalar, uning turlari, ahamiyati. Xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga jalb etish mexanizmi va muammolari. Xorijiy investitsiyalarning samaradorligi ko'rsatkichlari. Xorijiy investitsiyalarning barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashdagi rolini oshirish imkoniyatlari.

O‘zbekiston iqtisodiyotida mulk munosabatlari

Mulk munosabatlari milliy iqtisodiyotning asosi sifatida. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish. O‘zbekistonda mulkni davlat tomonidan chiqarish va xususiylashtirish bosqichlari. Xususiylashtirish muammolari. Xususiylashtirish sektorining iqtisodiyotdagi o‘rni. Kichik va xususiy tadbirkorlik rivojlanishining asosiy bosqichlari. Xususiylashtirishni rivojlantirish istiqbollari.

O‘zbekiston iqtisodiyotida raqobat va monopoliya

Raqobat, uning mohiyati va turlari. Sof raqobat. Monopoliya. Tabiiy monopoliya. Monopolistik raqobat. Oligopoliya. Raqobat bozor iqtisodiyotining muhim unsuri sifatida. O‘zbekistonda raqobat muhitini shakllantirishning me‘yoriy-huquqiy asoslari. Mamlakatda raqobat muhitini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari.

Davlat va xususiy sektor hamkorligi

Davlat va xususiy sektor hamkorligining mohiyati va ob‘ektiv zarurligi. Davlat va xususiy sektor hamkorligi fan, ta‘lim, ishlab chiqarish va moliya sohalarining integratsiyasini ta‘minlovchi muhim omil sifatida. O‘zbekistonda davlat va xususiy sektor hamkorligining me‘yoriy huquqiy asoslari. O‘zbekistonda davlat va xususiy sektor hamkorligi mexanizmining tadbiriq etilish holati.

O‘zbekiston iqtisodiyotida korporatsiyalar

Korporatsiyalarning mohiyati va milliy iqtisodiyot rivojlanishida tutgan o‘rni va roli. O‘zbekistonda korporatsiyalar rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari. Korporatsiyalar faoliyatini rivojlantirish yo‘nalishlari.

O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mohiyati. Kichik biznesning afzalliklari va zaif jihatlari. O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishining me‘yoriy-huquqiy asoslari. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishiga ta‘siri. Kichik biznes korxonalarining tashqi iqtisodiy faoliyati. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash shakllari va mexanizmi.

O‘zbekiston moliya-byudjet tizimi

Moliya, moliya munosabatlari, moliya tizimi va moliya siyosati. Davlat byudjeti, uning tarkibiy qismlari. Byudjetning daromadlar qismining shakllanishi. Byudjetning xarajatlar qismi. Byudjet jarayonlari. Byudjet qonunchiligi. Soliq tizimi va uni takomillashtirish yo‘nalishlari. Banklar va bank tizimi. Kredit munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishi.

Davlat soliq siyosati

Soliq va soliqqa tortishning mohiyati. Davlat soliq siyosati va uning asosiy tamoyillari. Soliq yuki. Soliq yukini optimallashtirish. Xo‘jalik sub’ektlari iqtisodiy faolligini ta’minlashda soliq siyosatining ahamiyati. O‘zbekistonda soliq siyosatini takomillashtirish yo‘nalishlari.

Kredit-bank tizimi

Kreditning paydo bo‘lishi, zarurligi va mohiyati. Kreditning asosiy funksiyalari va tashkil qilish asoslari. Kredit davlat xarajatlarini moliyalashtirish manbasi sifatida. Mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilish jarayonlarida kreditning ahamiyati. Kreditning shakllari va turlari.

Banklarning mohiyati. Bank tizimi. Bank turlari, uning elementlari va bog‘liqligi. Zamonaviy bank tizimining shakllanishi. Tijorat banklari va ularning funksiyalari. Markaziy bank va uning faoliyati. Markaziy bankning pul-kredit siyosati va asosiy dastaklar.

Qimmatli qog‘ozlar bozori

Qimmatli qog‘ozlarni xususiyatlari va turlari. Aksiyaning mohiyati va o‘ziga xos xususiyatlari. Oddiy aksiyalar. Imtiyozli aksiyalar. Divedendlar va obligatsiyalar. Veksel. Depozit sertifikatlari. Xazina majburiyatlari.

Qimmatli qog‘ozlar kotirovkasi. Hosilaviy qimmatli qog‘ozlar. Opsion shartnomalari. Fyuchers shartnomalari. Qimmatli qog‘ozlar bozori. Qimmatli qog‘oz bozori turlari. Fond birjasi faoliyati. Fond birjalarning hozirgi zamon tashkiliy asoslari. “Toshkent” RFB.

O‘zbekiston iqtisodiyotining ijtimoiy yo‘naltirilganligi

O‘zbekiston iqtisodiyotining ijtimoiy yo‘naltirilganligi. Kuchli ijtimoiy siyosat yuritishning ijtimoiy-iqtisodiy sabablari. O‘zbekiston ijtimoiy siyosatining asosiy yo‘nalishlari

Aholini ijtimoiy himoyalash

Aholini ijtimoiy himoyalashning mohiyati, maqsadi va vazifalari. Aholini ijtimoiy himoyalash sub’ektlari va ob’ektlari. Ijtimoiy fondlar va ularning ahamiyati. O‘zbekistonda adresli ijtimoiy himoyalashga o‘tishning sabablari va yo‘nalishlari.

O‘zbekiston aholisining hayot darajasi va sifati

Turmush sifati. Turmush shart-sharoitlari. Aholi turmush darajasi, uni ifodalovchi ko‘rsatkichlar. Real daromad, Nominal daromad. Ish haqi. Eng kam ish haqi. Oila byudjeti. Iste’mol savati. Yashash minimumi. O‘zbekiston aholisi turmush darajasidagi o‘zgarishlar va aholi turmush darajasini oshirish yo‘llari.

O‘zbekiston jahon iqtisodiyoti tizimida

O‘zbekistonning ochiq iqtisodiyotga o‘tishi. O‘zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyati. Tashqi iqtisodiy faoliyatning tashkiliy-huquqiy asoslari. Tashqi iqtisodiy siyosat. Tashqi savdo, uning tarkibi va dinamikasi. Tashqi iqtisodiy munosabatlarni boshqarish vositalari va dastaklari. TIFni erkinlashtirish zaruriyati, maqsadi, vazifalari, bosqichlari. O‘zbekistonning xalqaro tashkilotlar va integrasion jarayonlarida ishtiroki. O‘zbekiston va MDH, O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlari bilan tashqi-iqtisodiy va integratsiya aloqalari.

Amaliy mashg‘ulotlarning taxminiy ro‘yxati

1. “O‘zbekiston iqtisodiyoti” faniga kirish
2. Iqtisodiy taraqqiyotning “O‘zbek modeli”
3. Milliy iqtisodiyot rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari
4. O‘zbekistonning demografik salohiyati
5. Mineral-xom ashyo resurslari
6. Yer va suv salohiyati
7. O‘zbekistonning ilmiy-texnika va innovatsiya salohiyati
8. Iqtisodiyotning hududiy salohiyati
9. Sanoat majmuasi
10. Agrosanoat majmuasi
11. Transport majmuasi
12. Aloqa va telekommunikatsiya majmuasi
13. Qurilish majmuasi
14. Iste’mol bozori
15. Xizmat ko‘rsatish sohasi
16. Investisiyalar
17. O‘zbekiston iqtisodiyotida mulk munosabatlari
18. O‘zbekiston iqtisodiyotida raqobat va monopoliya
19. Davlat va xususiy sektor hamkorligi
20. O‘zbekiston iqtisodiyotida korporatsiyalar
21. O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
22. O‘zbekiston moliya-byudjet tizimi
23. Davlat soliq siyosati
24. Kredit-bank tizimi
25. Qimmatli qog‘ozlar bozori
26. O‘zbekiston iqtisodiyotining ijtimoiy yo‘naltirilganligi
27. O‘zbekiston aholisining hayot darajasi va sifati
28. Aholini ijtimoiy himoyalash
29. O‘zbekiston jahon iqtisodiyoti tizimida

Amaliy mashg‘ulotlarini tashkil etish bo‘yicha tavsiyalar

Fan uchun ishchi dastur tuzish jarayonida mazkur mavzular ro‘yxatida seminar mashg‘uloti uchun ajratilgan soat xajmiga mos xolda mavzular tanlab beriladi.

Shuningdek, seminar mashg'ulotlarida talabalar "O'zbekiston qisodiyoti" fanidan ma'ruza darslarida olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash bilan birga, seminarlar mavzulari bo'yicha tayyorgarlik ko'rish jarayonida qo'shimcha adabiyotlar va statistik ma'nbalar bilan tanishish orqali qo'shimcha bilim oladilar. Natijada ularning bilim doiralari ilmiy jihatdan asoslangan holda kengayadi.

Laboratoriya ishlarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar

Fan bo'yicha laboratoriya ishlari namunaviy o'quv rejada ko'zda tutilmagan.

Kurs ishini tashkil etish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar

Fan bo'yicha kurs ishi namunaviy o'quv rejasida rejalashtirilmagan

Mustaqil ta'limning shakli va mazmuni

Talaba mustaqil ishining asosiy maqsadi – o'qituvchining rahbarligi va nazoratida muayyan o'quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishdan iborat.

Talaba mustaqil ishini tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalanadi:

- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar (statistik to'plamlar, hisobotlar, ilmiy jurnal va to'plamlar materiallari asosida) bo'yicha fan bo'limlari va mavzulari ustida ishlash;
- talabaning o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fan bo'limlari va mavzulari bilan ishlash;
- faol va muammoli o'qitish uslublaridan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari;
- masofaviy (distansion) ta'lim.

Mustaqil ish mavzulari talabalar tomonidan tavsiya qilingan adabiyotlardan foydalangan holda darsdan tashqari o'zlashtirishni ko'zda tutadi va amaliy mashg'ulot yoki oraliq nazorat muddatlarida yozma ish yoki so'rovlar o'tkazish shakllarida nazorat qilib boriladi.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari

1. Yoqilg'i mustaqilligi strategiyasi va uni ta'minlash.
2. Energiya manbalaridan oqilona foydalanish imkoniyatlari.
3. Milliy sanoat rivojlanishining bosqichlari.
4. Sanoatlashuv jarayoni va sanoatlashtirish strategiyalari.
5. Agrar munosabatlarni takomillashtirish bosqichlari.
6. Fermer xo'jaliklarini tashkil etish bosqichlari.
7. Investisiya siyosatining asosiy yo'nalishlari.
8. Xorijiy investisiyalarning barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashdagi o'rni.
9. Bozor infratuzilmasi. Ulgurji va chakana savdo.
10. Makroiqtisodiy o'zgarishlar va makroiqtisodiy barqarorlik.

11. Iste'mol bozori rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar.

12. Aholi turmush darajasini yaxshilash imkoniyatlari.

Mustaqil ish mavzulari talabalar tomonidan tavsiya qilingan adabiyotlardan foydalangan holda darsdan tashqari o'zlashtirishni ko'zda tutadi va amaliy mashg'ulot yoki oraliq nazorat muddatlarida yozma ish yoki so'rovlar o'tkazish shakllarida nazorat qilib boriladi.

Dasturning informatsion – uslubiy ta'minoti

Mazkur fanni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy ilg'or interfaol usullaridan, pedagogik va axborot – kommunikatsiya texnologiyalarining prezentatsiya (taqdimot), multimedia va elektron-didaktik texnologiyalardan foydalaniladi. Amaliy mashg'ulotlarda aqliy hujum, klaster, blis-so'rov, guruh bilan ishlash, insert, taqdimot, keys stadi kabi usul va texnikalardan keng foydalaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Asosiy adabiyotlar

1. Ишмухамедов А., Асқарова М. Ўзбекистон миллий иқтисодиёти. Ўқув қўлланма Т.: ТДИУ,. 2004, 342 б.

2. Касымов Г.М., Махмудов Б.Ж. Основы национальной экономики. Учебник. Т.: Мехнат, 2004, 384 с.

3. To'xliiev N., Xaqberdiev Q., Ermamatov Sh., Xolmatov N. O'zbekiston iqtisodiyoti asoslari. O'quv qo'llanma. T. O'zME. 2006, 280 b.

4. Abulqosimov H.P., Shodmonov Sh.Sh. Iqtisodiy bilim asoslari. O'quv qo'llanma. T., Akademiya, 2010.

5. To'xliiev N. O'zbek modeli: taraqqiyot tamoyillari. O'zME. 2014 yil, 264 b.

6. To'xliiev N. Osiyo taraqqiyot modeli. O'zbekiston. 2015 yil, 158 b.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Ислон Каримов “Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этиш йўллари ва чоралари”Т.:“Ўзбекистон”.2009.

2. Курс экономической теории: учебник – 6-е исп. - Киров: «АСА», 2009.- 848с.

3. Йиллик статистик тўплам. 2008. Т. ЎЗР ДСҚ., 2009. 386 б.

4. Ўзбекистон иқтисодиёти. 2013. Статистик тўплам. Т. ЎЗР ДСҚ., 2014.

5. Йиллик статистик тўплам. 2012. Т. ЎЗР ДСҚ., 2013. 392 б.

6. Ўзбекистон иқтисодиёти. 2014. Статистик тўплам. Т. ЎЗР ДСҚ., 2015.

Internet saytlari

www.mf.uz

www.custom.uz

www.cbu.uz

www.stat.uz

www.cisstat

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

Ro‘yxatga olindi:

№ _____

_____ “TASDIQLAYMAN”
O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor v.v. b.
Umarova S.M.

201_ y. “ _____ ”

“ _____ ” _____ 201_ yil

“O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI”
(2-kurs)

FANINING

IShChI O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi: 200000 - Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq

Ta’lim sohasi: 230000 - Iqtisod

Ta’lim yo‘nalishi: 5231000 – Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik
(Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlari)

5231000 – Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik
(Uzoq Sharq mamlakatlari)

5231000 – Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik
(MDH mamlakatlari)

5231000 – Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik
(Xitoy va Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlari)

Toshkent–2015

Fanning ishchi o'quv dasturi o'quv, ishchi o'quv reja va o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqildi.

Tuzuvchi:

To'xliiev N.T. - ToshDShI, "Iqtisodiyot nazariyasi" kafedrası professori,
i.f.d.

Imomova N.A. - ToshDShI, "Iqtisodiyot nazariyasi" kafedrası katta
o'qituvchisi.

Taqrizchilar:

Xolmatov N.B. - ToshDShI, "Iqtisodiyot nazariyasi" kafedrası mudiri,
dotsent, i.f.n.

Xoshimov P. - O'zMU "Iqtisodiy nazariya" kafedrası dotsenti, i.f.n.

Fanning ishchi o'quv dasturi "Iqtisodiyot nazariyasi" kafedrasining 201_ yil
"_____" dagi "_____" - son yig'ilishida muhokamadan o'tgan va fakultet
kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri: _____Xolmatov N.B.

Fanning ishchi o'quv dasturi "Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va
mamlakatshunoslik" fakulteti kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya
qilingan (201_ yil "_____" dagi "_____" - sonli bayonnoma).

Fakultet kengashi raisi: _____Mahmudov E.A.

Kelishildi:

O'quv-uslubiy bo'lim boshlig'i _____ Umarova S.

KIRISH

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning asosiy maqsadi milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish orqali mamlakatimiz aholimining turmush farovonligini yaxshilashdan iborat. Ushbu maqsadga erishishda milliy iqtisodiyotni, jumladan, xo'jalik majmualarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa, milliy iqtisodiyotning shakllanish va rivojlanish shart-sharoitlari, omillari, mustaqillik yillaridagi ustuvor yo'nalishlari va yaqin istiqboldagi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning muhim jihatlari hamda bu boradagi davlat iqtisodiy siyosatini takomillashtirishni taqozo etadi va O'zbekiston iqtisodiyotini tizimli o'rganishni shart qilib qo'yadi.

Fanning maqsad va vazifalari

Fanni o'qitishdan maqsad - talabalarda mamlakatimiz iqtisodiyoti barpo bo'lishi, tarkibi, uning o'zgarishi va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning ustuvor yo'nalishlari, milliy iqtisodiyot bosqichma-bosqich rivojlanishidagi murakkab jarayonlarni tahlil qila olish, ulardagi qonuniyatlarni aniqlash, to'g'ri baholay olish va tegishli xulosalar chiqarish bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalar shakllantirishdan iborat.

Fanning vazifasi – talabalarga mamlakatimizning tabiiy-xom ashyo resurslari salohiyati, aholisi, mehnat resurslari, milliy iqtisodiyot tarkibi, moliya-kredit, bank, byudjet tizimi, tashqi iqtisodiy faoliyati, bozor munosabatlarining qaror topishi va rivojlanishi hamda davlatning iqtisodiy-ijtimoiy siyosatining asosiy yo'nalishlarini o'rgatishdan iborat.

Fan bo'yicha talabanning malakasiga qo'yiladigan talablar

“O'zbekiston iqtisodiyoti” fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- milliy iqtisodiyotning barpo bo'lish va rivojlanish shart-sharoitlarini, omillarini va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga ta'sir ko'rsatuvchi ichki va tashqi muhitning asosiy belgilarini **bilishi kerak**;

- ma'ruza materiallarini o'zlashtirish va chuqur tahlil qila olish asosida O'zbekiston iqtisodiyotiga oid nazariy materiallarga tayangan holda amaliy va ilmiy faoliyatni mustaqil tashkil etish, O'zbekistondagi islohotlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlari, uning natijasi, milliy iqtisodiyotning asosiy, tub muammolari, uning jahon xo'jaligidagi mavqei va roli o'zgarib borishi jarayonlarini tahlil qilish **ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak**;

- milliy iqtisodiyotning amal qilishi, boshqarilishi va bozor islohotlarini chuqurlashtirish va bozor munosabatlarini takomillashtirish bilan bog'liq ilmiy va amaliy faoliyatni mustaqil tashkil etish **malakalariga ega bo'lishi kerak**.

Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

“O'zbekiston iqtisodiyoti” fani umumkasbiy fani hisoblanib, bakalavriat bosqichining 3-semestrida o'qitiladi. Ushbu o'quv dasturiga kiritilgan savollar o'quv rejasidagi gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar «Iqtisodiyot nazariyasi» matematik va tabiiy-ilmiy fanlar «Axborot texnologiyalari», «Oliy matematika», umumkasbiy fanlar «Mikro- va Makroiqtisodiyot», «Iqtisodiy statistika», «O'rganilayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti», maxsus kurslardan «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik» kabilarning dasturlari bilan uzviy bog'liq va uslubiy jihatdan o'zaro bir-birini to'ldiruvchi mazmundadir. Fanni o'qitishda shuningdek, iqtisodiy nazariya muammolariga, bozor transformatsiyasi, rivojlanayotgan va rivojlangan mamlakatlarda kuzatilayotgan qonuniyatlar va tendensiyalarga tayaniladi.

Fan o'qitilishida zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalari

Axborot texnologiyalarning zamonaviy vositalarini tatbiq etish ijodiy shaxsiyatning shakllanishiga, tez o'zgarib borayotgan sharoitlarga shaxsiyatning ko'nikish mexanizmlarini ishlab chiqishga, doimiy rivojlanib va takomillashib borishga, kasbiy faoliyatning yangi sohalarini egallashga tayyorgarlik va qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan barcha ilg'or pedagogik g'oyalar, yondashuvlar va konsepsiyalarni amalga oshirish imkonini yaratadi. Birinchi navbatda bunday yondashuv ta'lim jarayonini “o'quvchi-vositalar-o'qituvchi” tizimida tashkil qilish imkoniyatini beradi. “Vositalar” deganda ta'limni individual yondashuvda uzluksiz o'zaro aloqani ta'minlab beruvchi axborot texnologiyalarning zamonaviy vositalari hisoblanadi.

Mazkur fanning o'qitilishi texnik vositalar (audio va videomateriallar)ni keng tatbiq etish orqali jadal usullarda olib boriladi. Ushbu usul kurs davomida talabalarga taqdim etilayotgan materialni faol o'zlashtirib, talab qilingan bilim va ko'nikmalarni hosil qilish imkoniyatini yaratadi.

Talabalarning “O'zbekiston iqtisodiyoti” fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informasion - pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, monografik asarlar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallardan foydalaniladi. Ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulotlarida mos ravishdagi ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi.

O'quv jarayoni bilan bog'liq ta'lim sifatini belgilovchi holatlar quyidagilar: yuqori ilmiy-pedagogik darajada dars berish, muammoli ma'ruzalar o'qish, darslarni savol-javob tarzida qiziqarli tashkil qilish, ilg'or pedagogik texnologiyalardan va mul'timedia vositalaridan foydalanish, tinglovchilarni undaydigan, o'ylantiradigan muammolarni ular oldiga qo'yish, talabchanlik, tinglovchilar bilan individual ishlash, erkin muloqot yuritishga, ilmiy izlanishga jalb qilish.

O'quv jarayoni bilan bog'liq ta'lim sifatini belgilovchi holatlar quyidagilar: yuqori ilmiy-pedagogik darajada dars berish, muammoli ma'ruzalar o'qish, darslarni savol-javob tarzida qiziqarli tashkil qilish,

ilg'or pedagogik texnologiyalardan va mul'timedia vositalaridan foydalanish, tinglovchilarni undaydigan, o'ylantiradigan muammolarni ular oldiga qo'yish, talabchanlik, tinglovchilar bilan individual ishlash, erkin muloqot yuritishga, ilmiy izlanishga jalb qilish.

“O'zbekiston iqtisodiyoti” fanini loyihalashtirishda quyidagi asosiy konseptual yondoshuvlardan foydalaniladi:

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim. Bu ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ta'lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshilishni nazarda tutadi.

Tizimli yondoshuv. Ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam etmog'i lozim: jarayonning mantiqiyiligi, uning barcha bo'g'inlarini o'zaro bog'langanligi, yaxlitligi.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondoshuv. Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o'quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo'naltirilgan ta'limni ifodalaydi.

Dialogik yondoshuv. Bu yondoshuv o'quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o'z-o'zini faollashtirishi va o'z-o'zini ko'rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish. Demokratik, tenglik, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

Muammoli ta'lim. Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta'lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni ob'ektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo'llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta'minlanadi.

Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo'llash - yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llash.

O'qitishning usullari va texnikasi. Ma'ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallashtirish), muammoli ta'lim, keys-stadi, pinbord, paradoks va loyihalash usullari, amaliy ishlar.

O'qitishni tashkil etish shakllari: dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o'zaro o'rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh.

O'qitish vositalari: o'qitishning an'anaviy shakllari (darslik, ma'ruza matni) bilan bir qatorda - kompyuter va axborot texnologiyalari.

Kommunikatsiya usullari: tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o'zaro munosabatlar.

Teskari aloqa usullari va vositalari: kuzatish, blis-so'rov, oraliq va joriy va yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili asosida o'qitish diagnostikasi.

Boshqarish usullari va vositalari: o'quv mashg'uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta ko'rinishidagi o'quv mashg'ulotlarini rejalashtirish, qo'yilgan maqsadga erishishda o'qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg'ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.

Monitoring va baholash: o‘quv mashg‘ulotida ham butun kurs davomida ham o‘qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs oxirida test topshiriqlari yoki yozma ish variantlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi.

“O‘zbekiston iqtisodiyoti” fanini o‘qitish jarayonida kompyuter texnologiyasidan, “Excel” elektron jadvallar dasturlaridan foydalaniladi. Ayrim mavzular bo‘yicha talabalar bilimni baholash test asosida va kompyuter yordamida bajariladi. “Internet” tarmog‘idagi rasmiy iqtisodiy ko‘rsatkichlaridan foydalaniladi, tarqatma materiallar tayyorlanadi, test tizimi hamda tayanch so‘z va iboralar asosida oraliq va yakuniy nazoratlar o‘tkaziladi.

“O‘zbekiston iqtisodiyoti” fanidan mashg‘ulotlarning mavzular va soatlar bo‘yicha taqsimlanishi:

t/r	Mavzular nomi	Jam i soat	Soat		
			Ma’ruza	Amaliy mashg‘ulot	Mustaqil ta’lim
1.	“O‘zbekiston iqtisodiyoti” faniga kirish. Iqtisodiy taraqqiyotning “O‘zbek modeli”	8	2	2	4
2.	Milliy iqtisodiyot rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari	8	2	2	4
3.	O‘zbekistonning demografik salohiyati	8	2	2	4
4.	Mineral-xom ashyo resurslari	8	2	2	4
5.	Yer va suv salohiyati	8	2	2	4
6.	O‘zbekistonning ilmiy-texnika va innovatsiya salohiyati	8	2	2	4
7.	Sanoat majmuasi	8	2	2	4
8.	Agrosanoat majmuasi	8	2	2	4
9.	Transport majmuasi. Aloqa va telekommunikatsiya majmuasi	8	2	2	4
10.	Qurilish majmuasi	8	2	2	4
11.	Iste’mol bozori	8	2	2	4
12.	Xizmat ko‘rsatish sohasi	8	2	2	4
13.	Investitsiyalar	8	2	2	4
14.	O‘zbekiston iqtisodiyotida mulk munosabatlari	8	2	2	4
15.	Davlat va xususiy sektor hamkorligi	8	2	2	4
16.	O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik	8	2	2	4
17.	O‘zbekiston moliya-byudjet tizimi	8	2	2	4
18.	O‘zbekiston iqtisodiyotining ijtimoiy yo‘naltirilganligi, O‘zbekiston aholisining hayot darajasi va sifati	8	2	2	4
19.	O‘zbekiston jahon iqtisodiyoti tizimida	8	2	2	4
	Jami:	152	38	38	76

Asosiy qism: Fanning uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

Asosiy qismda (ma’ruza) fanni mavzulari mantiqiy ketma-ketlikda keltiriladi. Har bir mavzuning mohiyati asosiy tushunchalar va tezislar orqali ochib beriladi. Bunda mavzu bo‘yicha talabalarga DTS asosida yetkazilishi zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar to‘la qamrab olinishi kerak.

Asosiy qism sifatiga qo‘yiladigan talab mavzularning dolzarbligi, ularning ish beruvchilar talablari va ishlab chiqarish ehtiyojlariga mosligi, mamlakatimizda

bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy va demokratik o'zgarishlar, iqtisodiyotni erkinlashtirish, iqtisodiy-huquqiy va boshqa sohalaridagi islohatlarning ustuvor masalalarini qamrab olishi hamda fan va texnologiyalarning so'ngi yutuqlari e'tiborga olinishi tavsiya etiladi.

Ma'ruza mashg'ulotlari

1-mavzu. "O'zbekiston iqtisodiyoti" faniga kirish. Iqtisodiy taraqqiyotning "O'zbek modeli"

O'zbekiston iqtisodiyotining konseptual jihatlari. Bozorga o'tishning zarurligi. Iqtisodiy rivojlanishning "o'zbek modeli". O'tish davri mamlakatlarining bozorga o'tish xususiyatlari. Bozorga o'tish bosqichlari. Islohotlarning strategik yo'nalishlari. Resurslar salohiyati, uning mazmuni, tarkibi.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: Axborot ma'ruzasi, bayon qilish, blis-sorov, iqtisodiy esse, "Milliy iqtisodiyot", "O'zbek modeli" tushunchalariga klaster, Venna diagrammasi.

Adabiyotlar: A1; A2; A3; A4; A5; A6; Q1; Q2; Q3; Q4; Q5; Q6.

2-mavzu. Milliy iqtisodiyot rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari

Ijtimoiy ishlab chiqarishning mohiyati va tarkibi. YaIM, YaMM. Ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligi tushunchasi, unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar. Makroiqtisodiy o'zgarishlar. Iqtisodiy o'sish. Iqtisodiy o'sishni aniqlash usullari. Iqtisodiy o'sish modellari. Makroiqtisodiy barqarorlik, uning ko'rsatkichlari, uni ta'minlash yo'llari

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: Axborot ma'ruzasi, blis-sorov, Muammoli usul, aqliy hujum, prezentasiya, "B.B.B." jadvali.

Adabiyotlar: A1; A2; A3; A4; A5; A6; Q1; Q2; Q3; Q4; Q5; Q6.

3-mavzu. O'zbekistonning demografik salohiyati

Aholi va uning tarkibi. O'zbekistonning demografik xususiyatlari. Aholining geografik joylashuvi xususiyatlari. Migrasion harakatlar. Immigratsiya. Aholi ko'chishining sabablari. Mehnat resurlari, uning holati va dinamikasi. Iqtisodiy faol aholi. Iqtisodiyotda band bo'lganlar. Mehnat bozorining amal qilishi. Mehnat resurslaridan samarali foydalanish yo'nalishlari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: Vizual ma'ruza, blis-sorov, Muammoli usul, aqliy hujum, "Mehnat resurslari" tushunchasiga klaster.

Adabiyotlar: A1; A2; A3; A4; A5; A6; Q1; Q2; Q3; Q4; Q5; Q6.

4-mavzu. Mineral-xom ashyo resurslari

Mineral-xom ashyo salohiyati. Mineral-xom ashyo salohiyatining tasnifi. Mineral-xom ashyo resurslarining joylashishi. Mineral-xom ashyo resurslarining iqtisodiy rivojlanishdagi roli va ahamiyati. Tog' kon sanoati majmuasining shakllanishi va ishlab chiqarish imkoniyatlari. Tabiiy boyliklarni boshqarish mexanizmi. Mineral-xom ashyo resurslaridan samarali foydalanish muammolari.

Yoqilg'i resurslari zahirasi va turlari. Yoqilg'i-energetika resurslarining tasnifi. Energetika manbalari, ularning joylashishi.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: Vizual ma'ruza, savol-javob, birgalikda oqiyimiz, iqtisodiy esse, "Mineral-xom ashyo salohiyati" tushunchasiga klaster.

Adabiyotlar: A1; A2; A3; A4; A5; A6; Q1; Q2; Q3; Q4; Q5; Q6.

5-mavzu. Yer va suv salohiyati

Yer iqtisodiy resurs sifatida. Yer milliy boylik sifatida. Yer va uning tarkibi. Yerning tasniflanishi. Yer kadastri. Yer boniteti. Yer munosabatlari va agrar islohotlar. Yer resurslarini boshqarish xususiyatlari. Suv resurslari va uning holati. Suv resurslari manbalari. Suv resurslarini boshqarish mexanizmi. Yer va suv resurslaridan samarali foydalanish yo'llari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: Ma'ruza-axborot, "B.B.B." jadvali, Venna diagrammasi, blis-so'rov.

Adabiyotlar: A1; A2; A3; A4; A5; A6; Q1; Q2; Q3; Q4; Q5; Q6.

6-mavzu. O'zbekistonning ilmiy-texnika va innovatsiya salohiyati

Ilmiy-texnika taraqqiyotining mohiyati va yo'nalishlari. Ilmiy salohiyat. Ilmiy-texnika salohiyati. Innovation salohiyat. Fan va ta'lim tizimini isloh qilish. Fan, ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni oshirish muammolari. Ilmiy-texnika taraqqiyotini jadallashtirish muammolari. Ilmiy-tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlari. Ilmiy-texnika va innovation salohiyatni oshirishning dolzarb yo'nalishlari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: Axborot ma'ruzasi, blis-sorov, Muammoli usul, aqliy hujum, prezentasiya, "B.B.B." jadvali.

Adabiyotlar: A1; A2; A3; A4; A5; A6; Q1; Q2; Q3; Q4; Q5; Q6.

7-mavzu. Sanoat majmuasi

Milliy sanoat ishlab chiqarishining mohiyati. Milliy sanoatning shakllanishi. Sanoat ishlab chiqarishining tarmoq va hududiy tarkibi. Sanoat tarmog'idagi tarkibiy siljishlar. Milliy sanoat rivojlanishining bosqichlari. Sanoatlashuv va sanoatlashtirish strategiyalari. Sanoat rivojlanishidagi ziddiyatlar va muammolari. Sanoat taraqqiyotining istiqbollari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: Axborot ma'ruzasi, Insert, blis-sorov, iqtisodiy esse, munozara.

Adabiyotlar: A1; A2; A3; A4; A5; A6; Q1; Q2; Q3; Q4; Q5; Q6.

8-mavzu. Agrosanoat majmuasi

Agrosanoat majmuasi va uning tarkibiy qismlarni. Agrar munosabatlarni takomillashtirish bosqichlari. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining tarmoq va hududiy tarkibi. Qishloq xo'jaligi rivojlanishining hozirgi holati. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash muammolari. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta

ishlash imkoniyatlari. Mexanizatsiyalashtirish va qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatish tarmoqlari. ASMni rivojlantirish istiqbollari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: Ma'ruza-axborot, "B.B.B." jadvali, Venna diagrammasi, blis-so'rov.

- тармоқлараро мажмуалар, уларнинг таснифи, миллий иқтисодиётнинг тармоқ ва ҳудудий таркибда юз бераётган силжишлар;
- такрор ишлаб чиқариш хусусиятлари, макроиқтисодий пропорциялар ва иқтисодий мувозанат;
- иқтисодиётни бошқариш ва унинг давлат ва бозор механизмлари;
- давлат молияси, кредит-банк тизими ва қимматли қоғозлар бозори;

- иқтисодиётнинг ижтимоий асослари, аҳолини ижтимоий ҳимоялаш, халқнинг ҳаёт даражаси ва сифати;

- глобаллашув шароитида Ўзбекистон иқтисодиётининг очиқ иқтисодиёт сифатида жаҳон хўжалиги доирасида ривожланиш хусусиятлари ва бошқалар.

Ўзбекистон иқтисодиёти курсида глобаллашув жараёнининг объективлиги, миллий иқтисодиётнинг ривожланишида халқаро иқтисодий ва молиявий ташкилотлар, интеграцион гуруҳлар, иттифоқлар, альянслар (БМТ, Жаҳон савдо ташкилоти, Халқаро Валюта фонди, Жаҳон банки, МДХ, ШХТ, Марказий Осиё ҳамкорлиги), трансмиллий корпорациялар роли кўриб ўтилади.

Ҳозирги замон Ўзбекистон иқтисодиётида катта ижобий ўзгаришлар юз бермоқда. Ишлаб чиқариш ва экспорт, импорт таркиби жиддий ўзгармоқда, устувор соҳаларни ривожлантиришга ўзгаришлар киритилмоқда, аҳоли даромадлари ва турмуш даражаси ўсмоқда, сифати яхшиланмоқда. Бу муаммолар ҳам ўқув курсининг предмети бўлади. Шу билан бирга яна бир қатор муҳим масалалар курсни ўқитиш давомида талабалар диққат марказида бўлади.

1.3. Курсни ўрганиш усуллари ва бошқа иқтисодий фанлар билан алоқалари

Ҳар қандай фан тажриба ва амалиётдан келиб чиқиб, ўзининг борлиқни ўрганиш усулларига эга. “Ўзбекистон иқтисодиёти” фан сифатида ижтимоий-фалсафий ва табиий (математика) усулларида фойдаланади. Таҳлил усуллариининг вазифаси – иқтисодий жараёнлар ва ҳодисаларнинг моҳиятига кириб бориш ва уларни очиқ беришдан иборатдир. Бунга борлиқни билишнинг турли хил усулларида фойдаланиш орқали эришилади. Масалан, аниқ (конкрет)ликдан абстрактликка, ёки аксинча, таҳлил ва синтез, индуктив ва дедуктив усуллар, диалектик, формал, математик логика, моделлаштириш, тизимли ёндошув ва бошқалар. “Ўзбекистон иқтисодиёти” курсининг аниқ усулларида яна муҳимлари миқдор ва сифат таҳлилининг бирлиги, хўжалик юритишда умумийлик, ўзига хослик ва ягоналикнинг бир бутунлигидир.

Ўзбекистон иқтисодиёти хўжалик субъектларининг феъл-атвори орқали белгиланадиган ижтимоий муҳит, шароит билан боғлиқ. Аммо бу фан (курс) абстракт тушунча ва қоидалардан иборат эмас. У қуйидаги кўрсаткичларда ифодаланадиган аниқ рақам, иқтисодий ҳодиса ва тенденцияларга асосланади:

- мутлақ ўлчамда (миқдор кўрсаткичлари, ишлаб чиқариш омиллари ҳажми кўрсаткичлари);

- нисбий ўлчамда (улуши, ҳиссаси, иқтисодиётнинг ўсиш суръатлари, қўшимча ўсиш суръатлари) ;

- ўртача ўлчамда (ишлаб чиқаришнинг ўртача йиллик ҳажми, меҳнат унумдорлигининг ўсиш суръатлари).

Иқтисодий ҳодисалар статика ва динамикада таҳлил қилинади. Статика – ўзгармаган ҳолат. Динамика эса тўхтовсиз ҳаракат, бир сифат ҳолатидан бошқасига ўтишни билдиради. “Ўзбекистон иқтисодиёти” курси учун динамик таҳлил тўғри келади, чунки мустақилликдан кейин миллий иқтисодиёт ва бозор муносабатлари қарор топиб, ижтимоий-иқтисодий соҳаларда мутаасил ўсиш кузатилмоқда. Бу жараёнга индустриал-ахборот технологиялари, саноат ишлаб

чиқаришни модернизациялаш минтақавий интеграция ва глобаллашув каби ички ва ташқи омиллар ўз таъсирини ўтказмоқда.

Бу курснинг, бошқа ижтимоий-гуманитар курслардан сезиларли фарқи шундан иборатки, ўқув жараёнида олинган билим, хулоса ва таклифларнинг ишончлилиги хўжалик амалиётида ўз аксини топиб боради. Ходимлар ёки хўжалик субъектлари билан боғлиқ иқтисодий экспериментлар тез-тез ўтказилиб боради.

“Ўзбекистон иқтисодиёти” курсининг асоси назарий иқтисодий фанлар тизими – “Иқтисодий назария”, “Макро ва микро иқтисодиёт (экономикс)”, “Институционал иқтисодиёт” ҳисобланади.

Иқтисодий назария ишлаб чиқариш ва такрор ишлаб чиқаришнинг бирламчилигидан келиб чиқади, мамлакат иқтисодиётининг динамикасини ишлаб чиқарувчи кучлар ва ишлаб чиқариш муносабатлари, иқтисодий қонунлар ўзаро таъсири асосида кўради. Шу билан бирга у миллий иқтисодиётни бошқариш ва ташкил этиш бўйича тавсиялар беради.

Макро ва микро иқтисодиёт Ўзбекистон иқтисодиёти фаолияти моделини макро-, мезо- ва микродаражада давлат бошқаруви бўйича тавсиялар ишлаб чиқади. Институционал иқтисодиёт эса хўжалик субъектлари, кишилар фаолиятининг меъёр ва қоидаларини очиқ беради.

“Ўзбекистон иқтисодиёти” ўқув курси сифатида назарий иқтисодий фанларнинг юқорида санаб ўтилган йуналишларидан ўзига зарур бўлган қоида, хулоса ва тавсияларни олади. У миллий иқтисодий тизим фаолиятининг назарий асослари ва ривожланиш қонуниятларини кенг эмпирик материалдан фойдаланиш орқали ёритиб бериши лозим.

II БОБ. ИҚТИСОДИЙ ТАРАҚҚИЁТНИНГ “ЎЗБЕК МОДЕЛИ”

2.1. “Ўзбек модели”га ўтиш зарурати ва шарт-шароитлари

Маълумки, XX асрнинг 90-йилларида Ўзбекистон ижтимоий-иқтисодий тараққиётида мутлақо янги мазмун ва моҳиятга эга тарихий вазият юзага келди. Бу, аввало, мамлакатнинг мустақилликка эришгани билан боғлиқ вазиятдир. Истиқлол шарофати билан иқтисодиётга бозор муносабатларини жорий этиш, мавжуд ижтимоий-иқтисодий, халқаро масалаларни ўз миллий манфаатлардан келиб чиққан ҳолда мустақил ҳал этиш имконияти яратилди. Бошқача айтганда, мамлакатда бозор иқтисодиётига ўтиш жараёни қадимий миллий давлатчилиқни қайта тиклаш ва миллий иқтисодиётни шакллантириш билан уйғунликда олиб борилди.

Айни пайтда, бозор муносабатлари ўзбек халқи учун бутунлай янги тушунчалар эмасди. Осиё ва Европанинг савдо йўли – Буюк ипак йўли чорраҳасида жойлашган ўзбек замини асрлар оша Шарқ ва Ғарб ўртасида ўзига хос кўприк бўлиб келди. Ўзбекистон ўзининг ана шу тарихий ва анъанавий ўрнини эгаллаши учун замонавий бозор муносабатларини ва аҳоли ўртасида эса бозор маданиятини шакллантириши лозим эди. Буэса осон иш эмасди. Зеро, коммунистик мафкура ҳукмронлик қилган совет замонида – 70 йил мобайнида халқ бозор қадриятларидан бутунлай узоклаштирилган, одамлардаги бозор муносабатларига хос ташаббускорлик, изланувчанлик ва тадбиркорлик сўндирилган, боқимандалик кайфияти чуқурлашган эди.

Ўзбекистонда катта табиий ресурслар, турли хил озиқ-овқат

маҳсулотларини етиштириш учун кенг экин майдонлари, йирик индустриал салоҳият, малакали кадрлар, қисқаси, жамият аъзолари эҳтиёжларини тўла қондириш учун зарур барча имкониятлар мавжуд бўлса-да, у қашшоқ мамлакатлар қаторига тушиб қолган, жамиятда энг зарур истеъмол молларининг ҳам кескин танқислиги вужудга келган эди. Сабаби – шахсий манфаат ва меҳнат натижалари ўртасида бевосита узвийлик йўқ эди. Бу узвийлик эса ҳар қандай жамиятда тараққиётнинг локомотиви вазифасини бажаради, мавжуд барча ресурслардан оқилона ва самарали фойдаланишга хизмат қилади.

Мустақилликкача ҳам бир қанча иқтисодий ислохотлар ўтказилганлигини таъкидлаш лозим. Улар хўжалик механизмини такомиллаштириш, моддий манфаатдорликни оширишга қаратилган ислохотлар эди. Лекин, бундай уринишларнинг бирортаси ҳам кутилган самарани бермади, бериши ҳам мумкин эмасди. Чунки, шахсий манфаат ва меҳнат натижалари ўртасидаги бевосита узвийлик ҳисобга олинмаган эди. Бу масала эса жамият пойдевори ҳисобланадиган мулк муносабатларини қайта куриш билан боғлиқ. Мулк муносабатларини ўзгартириш эса бевосита социализмнинг тақдири билан боғлиқ эди. Бу ислохотлар хўжалик юритишнинг айрим бўғинларини такомиллаштиришдан нарига ўта олмади, бутун иқтисодиётни жонлантиришга ожизлик қилди. Натижада, яна одатдагидек, маъмурий-буйруқбозлик тартиботига зўр берилди. Ишлаб чиқарувчи ва истеъмолчи ўртасидаги алоқа экстенсив омиллардан кенг фойдаланиш орқали наридан бери таъминланиб келинди.

Экстенсив омиллар имкониятларининг борган сари торайиб кетавериши, интенсив хўжалик юритиш механизмнинг эса яратилмаганлиги эртами-кеч иқтисодий танқислик ва тангликни келтириб чиқариши муқаррар эди. Иқтисодий танглик XX аср 80-йилларининг охирига келиб янада кескин ва ҳалокатли тус олди. Бу, аввало, маҳсулот ишлаб чиқаришнинг бутунлай пасайиб кетишида, ишлаб чиқариш қувватларининг иш билан таъминланмаганлигида, ишсизликнинг ўсишида, пул-кредит ва валюта тизимининг издан чиқишида намоён бўлди.

Ўзбекистонда бозор муносабатларига ўтишнинг иқтисодий асослари анча заиф эди. Бунинг устига иқтисодиёт хом ашёга йўналтирилган ва асосий ишлаб чиқариш фондлари ғоят эскирганлигини ҳам айтиб ўтиш лозим.

Ўзбекистонда бозор иқтисодиётига ўтишда катта йўқотиш ва талатўплардан четлаб ўтилди. Ижтимоий адолатсизликка, аҳолининг кескин табақаланишига йўл қўйилмади. Бозор иқтисодиётига ўтишнинг эволюцион, босқичма-босқич йўли танланди. Бу борада ижтимоий адолатни таъминлашда давлатнинг ислохотчилик роли катта аҳамиятга эга бўлди.

Мулкни давлат тасарруфидан чиқариш ва хусусийлаштириш, рақобат муҳитини яратиш, кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни ривожлантириш бозор муносабатларини қарор топтиришнинг асосий шарт ва йўналишларини ташкил этди. Ўтган давр ичида иқтисодиётга оид қабул қилинган қонунлар, қарорлар меъёрий ҳужжатларнинг асосий қисми ана шу уч йўналишни ривожлантиришга қаратилди. Бу йилларда минглаб давлат корхоналари хусусийлаштирилди, акциядорлик жамиятлари ёки мулкчиликнинг бошқа

нодавлат корхоналари сифатида қайта ташкил этилди. Улар хўжалик бирлашмалари, кўшма корхоналар, хусусий фермер хўжаликлари, аҳоли хусусий мулкнинг бошқа объектлари сифатида фаолият юрита бошлади.

2.2. “Ўзбек модели”нинг моҳияти ва шакл-шамойиллари

“Ўзбек модели” тушунчасининг пайдо бўлганига 20 йилдан ошди. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислом Каримов 1992 йилда чоп этилган “Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли” асарида ўзбек моделининг моҳияти ва шакл-шамойиллари ҳамда тамойилларини белгилаб берган эди. Кейинчалик бу ғоя унинг 1993 йилдаги “Ўзбекистон – бозор муносабатларига ўтишнинг ўзига хос йўли” китобида янада ривожлантирилди.

Ўтган қисқа давр мобайнида бу тушунча шунчаки оддий ғоя эмас, балки улкан ҳаётбахш куч эканлигини тўла намоён этди. Ўзбек модели иккита катта синовдан ўтди. Биринчи синов – ўтган асрнинг 90-йилларини ўз ичига олган ёш мустақил мамлакат бошдан кечирган ўтиш даври эди. Ҳали ўтиш даври давом этаётган паллада Ўзбекистон постсовет майдонида биринчи бўлиб макроиқтисодий барқарорликка эришди, саноат ва ялпи ички маҳсулот ишлаб чиқаришда ислохотдан олдинги йиллардаги кўрсаткичлардан ошиб кетди. Бошқача айтганда, инқироздан ривожланиш орқали чиқиб кетиш бирдан-бир тўғри йўл эканлигини исботлади. Иккинчи синов – 2008 йилда бошланган глобал молиявий-иқтисодий инқироз бўлди. Тараққиётнинг ўзбек модели нафақат бутун жаҳонни қамраб олган молиявий-иқтисодий инқироз зарбаларига қарама-қарши тура олди, балки дунёдаги 10 мамлакат қаторида иқтисодий ўсишнинг энг юқори (йилига 8-9 фоиздан кам бўлмаган) суръатларини таъминлади. Ислом Каримовнинг шу муносабат билан чоп этилган “Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари” асарида ҳамда жаҳон молиявий-иқтисодий инқирозининг салбий оқибатларини бартараф этиш бўйича 2009-2012 йилларга мўлжалланган Инқирозга қарши чоралар дастурида Ўзбекистон иқтисодиётининг инқироздан кейинги янада кучли, барқарор ва мутаносиб ривожланиш концепцияси илгари сурилди.

Ўзбекистонда эришилаётган бу қадар улкан ижтимоий-иқтисодий муваффақиятлар асосида Президент Ислом Каримов илгари сурган иқтисодиётнинг мафкурадан холилиги, сиёсатдан устуворлигидан иборат прагматик иқтисодий сиёсат, давлатнинг бош ислохотчилик вазифасини ўз зиммасига олиши, жамият ҳаётида қонун устуворлигини таъминлаш, кучли ижтимоий сиёсат юритиш, ислохотларни босқичма-босқич юритишни кўзда тутадиган машҳур беш тамойилни ўзида акс эттирган “ўзбек модели” ётибди.

Ўзбек модели мамлакатимизнинг ўзига хос тараққиёт йўлидир. Умуман, иқтисодий ривожланиш модели деганда иқтисодиётни ташкил этиш, ривожлантириш стратегияси, мақсадлари, умумий тамойиллари ифодаланган назарий қарашлар ва амалий фаолиятлар мажмуи тушунилади. Бу тушунча XX асрнинг 50-йилларида пайдо бўлди. Бу даврда жаҳондаги кўпчилик мамлакатлар истиқлолга эришиб, миллий давлат қуриш йўлига ўтган эдилар. Ҳар қандай жамиятбир тузумдан бошқасига ўтар экан, шубҳасиз, ўзига хос ва мос тараққиёт йўлини танлашга ҳаракат қилади. Бу жараёнда ўзгаларнинг хато ва ютуқларини ўрганади, улардан тегишли хулосалар чиқаради.

Ислом Каримов Ўзбекистоннинг ўз йўли, ўз тараққиёт модели бўлиши зарурлигини таъкидлади. “Агар айнан нусха олинса мамлакатнинг ўзига хос шарт-шароитлари, мавжуд имкониятлари, яқин ва олис ҳамкорлик билан кўп йиллар давомида таркиб топган иқтисодий ҳамда маънавий алоқалари эътибордан четда қолади.... ўз ижтимоий-иқтисодий ривожланиш йўли ва андозаси ... иқтисодиёти бозор муносабатлари асосига қурилган ривожланган мамлакатларнинг кўп асрлик тажрибасига, шунингдек Ўзбекистон халқининг миллий, тарихий мероси, турмуш тарзи, анъаналари ва руҳияти хусусиятларига таяниши лозим”¹.

Ўзбек моделининг қайси глобал ёки минтақавий модел билан уйғунлашуви тез ва осон кечади, деган саволнинг қўйилиши ҳам бу вақтда табиий эди. Бунда Ғарб андозалари афзалми ёки Шарқ? Қайси бозор қадриятлари биз учун қулай?

Масалага янада аниқроқ ёндашиладиган бўлса, XX асрнинг 90-йиллари бошларида Ўзбекистоннинг олдида бир қатор стратегик ривожланиш йўллари турганини таъкидламоқ лозим. Уларни 4 йуналиш – хом ашё, аграр, индустриал ва хизмат кўрсатиш соҳалари бўйича гуруҳлаштириш мумкин. Улардан ҳар бири жозибали, республика учун реал иқтисодий тараққиёт модели бўлиши мумкин эди. Аммо хом ашё йўлини тутиш табиий бойликларнинг янада талон-торој қилинишига, ўз имкониятларини тугатган экстенсив ишлаб чиқариш омилига ёпишиб олишга, аҳолини иш билан таъминлаш муаммосини ҳал этишдан юз буришга, саноатнинг фақат муайян тармоқларини ривожлантиришгагина зўр беришга олиб келиши муқаррар бўларди. Аграр йўл иқтисодий тараққиёт тақдирини агросаноат мажмуи тармоқларини ривожлантириш асосига қуришни тақозо қилар, аҳолининг асосий қисмини қишлоқ хўжалиги билан банд қилишга олиб келарди. Бундай тараққиёт нисбатан қолоқ, ҳозирги замон цивилизациясидан анча узоқда бўлган мамлакатлар учун хосдир. Индустриал иқтисодий тараққиёт моделининг самарадорлигини Жанубий-Шарқий Осиё мамлакатлари тажрибаси тўла тасдиқлади. Тараққиётнинг хизмат кўрсатиш йўналиши ҳам Ўзбекистонга қўл келиши табиий эди.

Ўзбекистон юқорида саналган йўлларнинг биронтасидан ҳам бутунлай воз кечмади, балки ўзининг иқтисодий тараққиёт моделида улардан самарали ва оқилона фойдаланиш билан боғлиқ муҳим вазифаларни белгилаб олди. Чунки “бизнинг қатъий нуқтаи назаримиз жаҳон тажрибаси ва ўз амалиётимиздан олдинги жамики фойдали тажрибаларни рад этмаган ҳолда ўзимизнинг ижтимоий-иқтисодий тараққиёт йўлимизни танлаб олишдан иборатдир”² деб таъкидланди. Бой табиий ресурслар, уларни чуқур қайта ишлаш чет эл инвестицияларини жалб қилиш имкониятини беради. Агросаноат мажмуини ривожлантириш мамлакат аҳолисининг катта қисми истиқомат қиладиган қишлоқни диққат марказида ушлаб туришга ундайди. Индустриал тараққиёт иқтисодиётни экспортга, импорт ўрнини босадиган товарлар ишлаб чиқаришга йўналтиради. Кўриниб турибдики, уларнинг ҳар бири Ўзбекистон

¹ Ислом Каримов, Асарлар, Т., «Ўзбекистон», 1996, Б276.

² Ислом Каримов, Асарлар, Т., «Ўзбекистон», 1996, Б289.

учун кулайликдан холи эмас.

Ўзбекистоннинг иқтисодий тараққиёт модели ўз халқининг тарихий тажрибаси, миллий ва маданий анъаналарига асосланди.

Бу борада илгари сурилган муҳим назарий хулосалардан бири бозор иқтисодиётига инқилобий йўл (“шок терапияси”) билан эмас, балки эволюцион йўл билан, босқичма-босқич ўтиш эди. Бу концепция Ўзбекистон Президенти илгари сурган «Янги уй қурмай туриб, эскисини бузманг» тамойилида ўзининг ёрқин ифодасини топди.

Бозор иқтисодиётига ўтишда минтақага хос хусусиятларни ҳисобга олиш қанчалик муҳим бўлса, ҳамма учун барабар бўлган муштарак қоидаларни назарда тутиш ҳам шунчалик шартдир. Шу боис давлат тасарруфидан чиқариш ва хусусийлаштириш, эркин тадбиркорликни ривожлантириш, рақобат майдонини вужудга келтириш масалаларига алоҳида эътибор қаратилди. Бозор иқтисодиётининг мазкур «учта устуни» бозор йўлини танлаган барча мамлакатларга хосдир.

2.3. “Ўзбек модели” ва иқтисодий ўсиш

Ўтган йиллар мобайнида Ўзбекистоннинг иқтисодий ва ижтимоий қиёфаси тубдан ўзгариб, у халқаро ҳамжамиятда ўзининг муносиб ўрнини эгаллади. Бугун Ўзбекистон иқтисодиёти изчил, барқарор ва жадал ўсаётган жаҳондаги жуда кам сонли мамлакатлар сафидан мустаҳкам ўрин олди. Ижтимоий, маданий соҳалардаги эришилаётган улкан ютуқлар нуфузли халқаро ташкилот ва экспертлар томонидан эътироф этилиб, юқори баҳоланмоқда.

Ялпи ички маҳсулот ишлаб чиқаришнинг ўсиш суръатлари глобал молиявий-иқтисодий инқироз даврида ҳам барқарор бўлди. Жумладан, Халқаро валюта жамғармаси миссиясининг баёнотида Ўзбекистон изчил ўсишга эришганлиги ва глобал молиявий инқирозга қарши муваффақиятли чоралар кўраётганлиги қайд этилди, шунингдек, ўрта муддатли истиқболда иқтисодий ўсишнинг юқори суръатлари сақланиб қолиши ҳақида ижобий прогноз берилди.

Бу ўзбек модели доирасида бозор иқтисодиётининг ҳуқуқий асослари, инфратузилмаси яратилгани ва тобора мустаҳкамланаётгани, барча соҳаларда амалга оширилаётган ислохотларнинг изчиллиги таъминланаётгани самарасидир. Хом ашёни қайта ишлашга қаратилган юзлаб, минглаб янги замонавий корхоналарнинг ишга туширилиши мамлакатнинг индустриал салоҳиятини юксалтирмоқда.

Жаҳонда умумэътироф этилган ривожланишнинг “ўзбек модели” ҳамда мамлакатда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси устувор йўналишларининг изчил амалга оширилиши самарасида, жаҳон иқтисодиётида инқирозли ҳолатларга қарамай миллий иқтисодиёт ўсишининг юқори суръатлари, макроиқтисодий мувозанат ва барқарорлик таъминланиб келинмоқда.

Давлат бюджети ижроси ва ташки савдо профицити, инфляция ва ишсизлик даражаларининг прогноз кўрсаткичларидан ошмаётганлиги ўзбек модели таъминлаётган иқтисодий ўсиш ва юксалишнинг аниқ натижаларидир.

Тараққиётнинг ўзбек модели юксак замонавий техника ва технологиянинг

мавжудлиги, ишлаб чиқаришнинг индустриал тавсифи, ривожланишда ахборот технологияларининг ўрни ва аҳамиятининг юқорилиги, хизмат кўрсатиш соҳасининг муттасил ўсиб бориши, иқтисодий ўсишнинг интенсив йўли устуворлиги, иқтисодиётнинг очиклиги, давлат тасарруфидан чиқариш ва хусусийлаштириш, рақобат муҳитини яратиш, эркин тадбиркорликни кенг йўл очиш орқали бозор муносабатларини чуқурлаштириш, иқтисодиётнинг ижтимоий йўналтирилганлиги, халқ фаровонлигининг изчил юксалиши, миллий иқтисодиётнинг глобал иқтисодиёт билан интеграциялашувининг кучайиши тенденциялари билан тавсифланмоқда.

III БОБ. МИЛЛИЙ ИҚТИСОДИЁТ РИВОЖЛАНИШИНИНГ АСОСИЙ КўРСАТКИЧЛАРИ

3.1. Миллий ҳисоблар тизими

Миллий ҳисоблар тизими (МХТ) – иқтисодий жараёнлар ва уларнинг натижаларига ўзаро боғлиқ статистик кўрсаткичлар орқали комплекс тавсиф беришни таъминлайдиган баланс усулидир. Уни макроиқтисодий фаолият натижаларини тавсифловчи ҳисоб варақлари ва жадвалларнинг муайян тўплами кўринишида ифодаланган ўзаро боғлиқ статистик кўрсаткичлар ва таснифлар тизими сифатида ҳам аниқлаш мумкин. МХТ дастлаб давлат бошқаруви органлари томонидан иқтисодиётни тартибга солиш мақсадида 1953 йилдан бошлаб ривожланган мамлакатларда қўлланилган. Бугунги кунда эса жаҳоннинг 150 дан ортиқ мамлакатида бу тизимдан фойдаланилади. “Миллий ҳисобчилик” атамаси голландиялик иқтисодчи В.Клифф томонидан таклиф қилинган ва муомалага киритилган.

МХТ – мамлакат, унинг минтақалари ва секторлари иқтисодий фаолиятини комплекс тадқиқ этиш учун қўлланиладиган иқтисодиётнинг ўзига хос модели ҳисобланади.

Жаҳон амалиётида миллий ҳисоблар тизими самарали бўлиши ва макроиқтисодий қонуниятлар ва ўзаро боғлиқликларни аниқлашга имконият яратиши учун бир қатор муҳим қоидаларга риоя қилинади.

1993 йилдан бошлаб хўжалик юритувчи субъектлар иқтисодий жараёнда бажарадиган функциясига кўра қуйидаги институционал секторларга киритилади:

- номолиявий корпорациялар ва квазикорпорациялар (товарлар ва номолиявий хизматлар ишлаб чиқариш функцияси);
- молиявий корпорациялар ва квазикорпорациялар (бўш молиявий ресурсларни жамлаш ва муайян шартлар билан инвесторларга тақдим этиш функцияси);
- давлат бошқаруви (миллий даромад ва бойликни қайта тақсимлаш ҳамда бепул хизматлар тақдим этиш функцияси);
- уй хўжалиги (бозорда товар ва хизматлар сотиб олиш, ишчи кучини тақдим этиш функцияси);
- уй хўжаликларига хизмат кўрсатувчи нотижорат ташкилотлари (жамоатчилик, сиёсий, диний ташкилотлар, уларнинг функциясиушбу ташкилотлар аъзоларига бепул хизмат кўрсатишдан иборат).

МХТ доирасида макроиқтисодий ҳисоб-китобларнинг мақсади муайян давр учун асосий иқтисодий оқимларнинг умумлаштирувчи кўрсаткичларини

ёритишдан иборат бўлиб, уларнинг шаклланиши ва ўзаро боғлиқлиги МХТ таркибининг моҳиятини ташкил этади.

МХТ таркибининг асосини ҳисоб варақлари ва баланс жадваллари ташкил этади.

Ҳисоб варақлари хўжалик бирликларининг операциялари, активлари ва мажбуриятларини акс эттиради ва икки ёқлама жадвал кўринишида бўлади. Унда баланслаштирувчи моддалар ёрдамида миқдорлар ўртасидаги тенгликка эришилади. Бу моддалар макроиктисодий кўрсаткичлар ҳисобланади. Баланслаштирувчи моддалар бир ҳисоб варағидан иккинчисига ўтиш имконини беради ва ҳисоб варақларини ягона тизимга бирлаштиради. МХТ таркибида жорий нархларда ишлаб чиқиладиган қуйидаги ҳисоб варақлари гуруҳлари ажратилади:

1. Ички иқтисодиёт ҳисоб варақлари.
2. Иқтисодиёт тармоқлари ҳисоб варақлари гуруҳи.
3. Ташқи иқтисодий алоқалар (“ташқи дунё”) ҳисоб варақлари.

Ҳар бир тизимга кирувчи ҳисоб варағи у ёки бу ресурслар ҳажми ва улардан фойдаланиш ўртасидаги тенгликни ифодаловчи баланс ҳисобланади. Унга баланслаштирувчи моддани ҳисоб-китоб қилиш эвазига эришилади. Ҳар бир ҳисоб варағининг баланслаштирувчи моддаси ўрганилаётган иқтисодий жараёнлар натижаларини тавсифлашда мустақил қийматга эга бўлади. У шунингдек, ҳар бир олдинги ҳисоб варағини кейингиси билан боғлаш учун ишлатилади. Пировардида ҳисоб варақларининг баланслаштирувчи моддалари ҳар бири иқтисодий таҳлилда мустақил аҳамиятга эга натижаларнинг макроиктисодий кўрсаткичлари тизими сифатида намоён бўлади.

МХТда такрор ишлаб чиқариш жараёнининг барча босқичлари (ишлаб чиқариш, алмашув, тақсимлаш, истеъмол ва жамғариш) орқалитовар ва хизматлар қийматининг ҳаракати ўз аксини топади. Тизим баланс жадвалларини тузиш билан яқунланади. Бу жадваллар берилган йилда меҳнат натижасида миллий бойликдаги якуний ўзгаришларни ўзида акс эттиради. Шу билан бирга товар ва хизматлар ишлаб чиқариш ва улардан фойдаланишни ўзида акс эттирувчи тармоқлараро баланс ва ундаги ўзгаришларни ҳам ифодалайди.

3.2. Макроиктисодий кўрсаткичлар

Миллий иқтисодиёт миқёсида алоҳида иқтисодий субъектлар фаолиятининг натижасига миллий ҳисоблар тизимининг турли кўрсаткичлари асосида баҳо берилади. Миллий ҳисоблар тизими ёрдамида муҳим макроиктисодий кўрсаткичлар аниқланади. МХТнинг энг асосий кўрсаткичлари – ялпи ички маҳсулот (ЯИМ), ялпи миллий маҳсулот (ЯММ), соф миллий маҳсулот (СММ) ва миллий даромад (МД) ҳисобланади.

Ялпи ички маҳсулот – МХТнинг энг асосий кўрсаткичи бўлиб, мамлакат иқтисодий бирликлари-резидентларнинг маълум давр ичида (кўпинча бир йилда)ги иш фаолиятининг натижаларини ифодалайди. У пировард истеъмолнинг бозор баҳоларида, яъни харидор томонидан тўланадиган (товарларга солинадиган солиқлар ва барча савдо-транспорт устамаларини ҳам ўз ичига оладиган) баҳоларда ҳисобланади.

ЯИМ одатда мамлакатнинг иқтисодий ривожланиш даражаси ва суръатларини ифодаловчи умумий индикатор вазифасини бажаради. Айтилиши вақтда иқтисодий таҳлилда ЯИМ барча аҳоли, иқтисодий фаол ва банд аҳоли сони билан солиштирилади. Бу эса аҳоли турмуш фаровонлигига баҳо бериш имконини беради. Шунингдек, истеъмол қилинган ресурслар, асосий фондлар, инвестициялар, ҳар хил йўналишдаги давлат харажатлари бирлигига тўғри келадиган ЯИМ ҳажми ҳам аниқланади. Бундай ҳисоб-китоблар ресурслар, асосий фондлар ва сарфланган харажатларнинг самарадорлигини таҳлил қилишда муҳим роль ўйнайди.

Аҳоли жон бошига тўғри келадиган ЯИМ ҳажми асосида мамлакатнинг халқаро ташкилотлар бюджетига тўлови миқдори аниқланади, улар томонидан бериладиган кредитларнинг шартлари ва миқдorigа ойдинлик киритилади, турли мамлакатларга бериладиган молиявий ва бошқа ёрдамлар амалга оширилади, инвестиция муҳитига баҳо берилади.

ЯИМ пул ўлчовида аниқланади. Аммо бозор иқтисодиёти шароитида пул birlikлари курсининг тебраниши юз беради, шунингдек, товар ва хизматларга бўлган нархлар ўзгариб туради. Натижада ЯИМнинг жисмоний ҳажми бир хил бўлган шароитда ҳам унинг пулдаги ифодаси турли қийматга эга бўлади. Шу сабабли ЯИМ жорий ёки ҳақиқий баҳоларда ҳам, нарх даражалари ва пул birlikи курсининг ўзгаришини ҳисобга оладиган нархларда ҳам ҳисобланади. Шу муносабат билан ЯИМ номинал ва реал турларга ажратилади.

Номинал ЯИМ амалдаги ёки жорий нархларда ҳисобланса, реал ЯИМ инфляция ва пул birlikи курсини ҳисобга олиб аниқланади. Номинал ва реал ЯИМ ўртасидаги нисбат эса ялпи ички маҳсулот дефлятори деб юритилади:

Ялпи ички маҳсулот билан бирга ялпи миллий маҳсулот (ЯММ) кўрсаткичи ҳам қўлланилади. ЯММ – кенг тарқалган умумлаштирувчи макроиқтисодий кўрсаткичлардан бири бўлиб, мамлакат томонидан муайян давр (одатда бир йил) ичида ишлаб чиқарилган пировард маҳсулотлар ва хизматларнинг бозор баҳосидаги қийматлари йиғиндисини ифодалайди. ЯИМ ва ЯМД ўртасидаги фарқ қуйидагилардан иборат:

1. ЯИМ мамлакат ҳудудида жойлашган корхоналарнинг қайси мамлакатга тегишли эканлигидан қатъий назар улар томонидан ишлаб чиқарилган пировард товар ва хизматларнинг бозор қийматлари йиғиндисини ўзида акс эттиради. Бошқача қилиб айтганда, ЯИМни ҳисоблаш асосига ҳудудий тамойил қўйилган.

2. ЯМД миллий корхоналар қаерда жойлашганлигидан қатъий назар улар томонидан ишлаб чиқарилган пировард товар ва хизматларнинг бозор қиймати йиғиндисини ифодалайди. Шундан келиб чиққан ҳолда ЯМД ҳажми ЯИМ ҳажмидан хорижда ушбу мамлакат ресурсларидан фойдаланиш эвазига олинган омилли даромадлар (ёлланма ишчилар даромадлари, рента даромадлари, ссуда фоизи, фирмалар фойдалари)дан хорижликлар томонидан олиб чиқиб кетилган худди шундай даромадлар қийматини чегириб ташлангандан кейинги қолган қийматга фарқ қилади. Шу сабабли ЯМДни ҳисоблаш учун ЯИМ қийматига хорижда мамлакат корхоналари ва жисмоний шахслари томонидан олинган фойда ва даромадлар билан ушбу мамлакатда хорижий инвесторлар ва хорижий ишловчилар томонидан олинган фойда ва даромадлар ўртасидаги фарқ

қўшилади. Агар фарқ ижобий бўлса, ЯМД ҳажми ЯИМдан кўп бўлади ва аксинча. Бундай фарқ бозор иқтисодиёти ривожланган мамлакатлар учун 1 фоиз атрофида кузатилади.

Ялпи ички маҳсулотни ишлаб чиқариш жараёнида, даромадларнинг ҳосил бўлиши жараёнида ва даромадлардан фойдаланиш жараёнида кузатиш мумкин. Ишлаб чиқариш жараёнида ялпи ички маҳсулот резидентлар томонидан товар ва хизматларни ишлаб чиқариш жараёнида яратилган қўшилган қийматни тавсифлайди.

Даромадлар ҳосил бўлиш жараёнида ялпи ички маҳсулот ишлаб чиқарувчиларнинг ишлаб чиқариш жараёнида олган ва ишлаб чиқариш қатнашчилари орасида тақсимланадиган бирламчи даромадларини ифодалайди.

Даромадлардан фойдаланиш жараёнида ЯИМ миллий иқтисодиёт секторлари томонидан пировард истеъмол ва жамғариш миқдорлари ва товар ва хизматларнинг соф экспортини ифодалайди. Шунлардан келиб чиққан ҳолда ялпи ички маҳсулот уч хил усулда аниқланади:

- ишлаб чиқариш усули;
- тақсимлаш усули;
- пировард фойдаланиш усули.

ЯИМни қўшилган қийматлар йиғиндиси сифатида аниқлаш ишлаб чиқариш усули деб юритилади. Бу усулда ЯИМни ҳисоблашнинг умумий кўриниши қуйидагича:

Ялпи қўшилган қиймат ЯИМнинг асосий ташкил этувчиси ҳисобланади. Ялпи қўшилган қиймат ялпи ишлаб чиқариш билан оралиқ маҳсулот ўртасидаги фарқ сифатида аниқланади. Оралиқ маҳсулот деганда жорий ишлаб чиқариш мақсадларида хўжалик юритувчи субъектлар томонидан материал ресурслари ва хизматлар сотиб олишга сарфланган харажатлар тушунилади.

Агар ялпи ички маҳсулотдан амортизация харажатлари чегириб, унга хориждан бирламчи даромадлар тушуми сальдосини қўшсак, миллий даромад ҳосил бўлади.

Тақсимлаш усулида ҳисоблашда ЯИМ таркибига ишлаб чиқариш бирликлари-резидентлар томонидан тақсимланган бирламчи даромадларнинг қуйидаги турлари киради: ёлланиб ишловчиларнинг иш ҳақлари, ишлаб чиқариш ва импортга соф солиқ (ишлаб чиқариш ва импортга солиқ минус ишлаб чиқариш ва импортга субсидиялар), ялпи фойда.

Ёлланиб ишловчиларнинг иш ҳақлари жорий даврда бажарилган иш учун ёлланиб ишлаётган ишловчига иш берувчи томонидан тўланадиган пул ва натура кўринишидаги мукофот. У иккита қисмдан иборат бўлади:

- иш ҳақи;
- иш берувчиларнинг ижтимоий суғуртага ўтказмалари.

Бу усулда миллий даромадни аниқлаш учун ЯИМдан бошқа мамлакатларга берилган бирламчи даромадлар айрилиши ва бошқа мамлакатлардан олинган даромадлар қўшилиши лозим.

Товар ва хизматларнинг пировард истеъмоли деганда улардан аҳолининг шахсий эҳтиёжлари ва жамиятнинг жамоа эҳтиёжларини бутунлигича қондириши тушунилади. Уларни қондириш учун қилинган харажатларни иқтисодиётнинг қуйидаги учта сектори институционал бирликлари

қоплайдилар: уй хўжаликлари, давлат муасасалари ва уй хўжалигига хизмат кўрсатувчи нотижорат ташкилотлари.

3.3. Макроиқтисодий пропорциялар

Миллий иқтисодиётнинг макротаркиби ўз ичига қуйи тизимлар, компонентлар мажмуасини олади. Бу қуйи тизимлар кўп йиллик хўжалик амалиёти давомида турли таснифий белгилар асосида таркибий тузилмаларга интеграциялашадилар. Бундай таснифий белгилар жумласига: секторли, такрор ишлаб чиқариш, турмоқ, институционал, ижтимоий ва бошқалар киради.

Миллий ҳисоблар тизими амалиётига кўра, иқтисодиёт тармоқларини учта сектор бўйича таҳлил қилиш лозим:

- бирламчи (бу секторда табиий ресурсларни ишлаб чиқариш, қазиб олиш ва истеъмол қилиш билан боғлиқ тармоқлар киради);
- иккиламчи (саноатнинг қайта ишловчи тармоқлари киради);
- учламчи (транспорт хизматлари, коммунал хўжалик, қурилиш, савдо, мадофаа, давлат бошқаруви ва бошқалар).

Илмий адабиётларда ва хорижий амалиётда иқтисодиётнинг реал сектори ва пул (молия) сектори тушунчаларидан фойдаланилади. Иқтисодиётнинг реал сектори ялпи ички маҳсулот ҳажми билан аниқланса, пул сектори ички товар алмашинуви учун зарур бўлган пул миқдори билан аниқланади. Бу секторлар субъектлар ва пул оқимлари ўртасидаги барқарор боғлиқликни ифодалаб, биргаликда даромадлар ва харажатларнинг доиравий айланишини ўзида акс эттиради.

Миллий иқтисодиёт таркибини ўрганишда унинг такрор ишлаб чиқариш, тармоқ, технологик, минтақавий, институционал, ижтимоий таркибини таҳлил қилиш муҳим аҳамиятга эга.

Иқтисодиётнинг такрор ишлаб чиқариш таркиби макродаражада ялпи ички маҳсулот такрор ишлаб чиқариш босқичлари ўртасидаги ўзаро нисбатларни таҳлил қилиш учун илмий муомалага киритилган бўлиб, унинг таркибий қисмлари ўзгаришларининг йўналишларини ўзида акс эттиради. Бу ўзгаришлар жамиятнинг ижтимоий йўналганлик даражаси тўғрисида, ишлаб чиқаришнинг ортиқча ресурс сиғимлигига барҳам бериш, истеъмол ва жамғариш динамикаси ва шунга мувофиқ равишда миллий иқтисодиётни янгилашнинг инвестиция имкониятлари ва экспортга йўналганлик даражаси ҳақида тасаввур беради.

Иқтисодиётнинг тармоқ таркиби тармоқлараро нисбатлар динамикаси, устувор тармоқларнинг самарадорлик нуктаи назаридан ўсиши, ижтимоий йўналганлиги, илмталаблиги, ресурсларни тежаш, аҳолининг экологик ҳимояланганлигини кузатиш имконини беради.

Иқтисодиётнинг технологик таркиби ушбу устувор йўналишларни анъанавий ва энг янги технологиялар ўртасидаги ўзаро нисбат динамикаси тўғрисидаги, илмталаб юқори технологияларнинг иқтисодиётга жорий этилиш ҳажми тўғрисидаги маълумотлар билан аниқлаштиради, тўлдиради.

Миллий иқтисодиётнинг минтақавий (худудий) таркиби ишлаб чиқаришни, айниқса, ижтимоий инфратузилмани жойлаштириш ва комплекс ривожлантиришда муҳим пропорцияларни ўзида акс эттиради.

Иституционал таркиб ишлаб чиқаришни ташкил этиш ва бошқариш шакллари, шунингдек, хўжалик юритувчи субъектлар ҳатти-ҳаракатининг маданий-кадриятлар меъёрлари ва стереотипларини тавсифлайди.

Иқтисодиётнинг ижтимоий таркиби муҳим иқтисодий белгилар (мулк, даромадлар, малака ва бошқалар) бўйича гуруҳлаштирилган ижтимоий гуруҳлар тўпламини, шунингдек, уларнинг нисбий динамикасини ўзида акс эттиради.

Асосий макроиқтисодий пропорциялар миллий даражада шаклланади. Улар ялпи ички маҳсулот ва унинг унсурлари: пировард истеъмолга сарфланган харажатлар, ялпи жамғариш ва ташқи савдо сальдоси ҳаракатини тавсифлайди. Агар такрор ишлаб чиқариш нисбатлари пировард истеъмол фойдасига ўзгарса, у ҳолда асосий капиталга, уни янгилашга киритиладиган инвестициялар ҳажми камаяди.

Макроиқтисодий даражада реал ва пул сектори ўртасидаги нисбатларни тартибга солиш алоҳида аҳамият касб этиб, улар бир-бирига нисбатан қарама-қарши бирликда жойлашган бўладилар. Ушбу секторларнинг бирига етарли даражада баҳо бермаслик ёки аҳамиятининг пасайтирилиши таркибий номутаносибликларга ва аҳоли турмуш даражасининг пасайишига олиб келади. Жами талаб ва жами таклиф ўртасида мувозанатли нисбатга эришиш зарурияти айнан шу ҳолат билан тушунтирилади.

3.4. Макроиқтисодий барқарорлик ва иқтисодий ўсиш

Макроиқтисодий барқарорликка эришиш иқтисодий ўсишнинг, иқтисодий инқирозни бартараф этишнинг муҳим шarti ҳисобланади. Одатда макроиқтисодий барқарорлик деганда иқтисодий инқирозга барҳам бериш, иқтисодий тараққиётни ифодаловчи кўрсаткичларни муайян даражада сақлаб туриш, умуман олганда иқтисодиётни соғломлаштириш тушунилади.

Макроиқтисодий барқарорлик келгусида иқтисодий ўсиш ва юксалиш учун муҳим босқич ҳисобланади. Бу мақсадга эришиш учун аввало, ЯИМ ишлаб чиқаришнинг пасайиши тўхтатилади. Кейинчалик ЯИМ ва ялпи саноат маҳсулоти ишлаб чиқариш ҳажми бўйича барқарор ўсиш таъминланади. Агар ЯИМ ишлаб чиқариш ҳажмининг ўсиш суръатлари аҳоли сони ўсиш суръатларидан устун бўлишига эришилса, янада яхши бўлади. Ижтимоий ишлаб чиқариш ҳажмининг ўсиши иқтисодиётда банд бўлганлар сонининг ошиши, инфляциянинг паст даражаси, ЯИМ ҳажмида жамғариш ва инвестиция улушининг ўсиши ва бошқа сифат кўрсаткичлар билан бирга кечиши лозим.

Макроиқтисодий барқарорликка эришиш келгусида иқтисодий ўсиш учун муҳим замин ҳозирлайди. Ҳар қандай миллий иқтисодиёт кенгайтирилган такрор ишлаб чиқариш, яъни ўтган йилга нисбатан кўпроқ маҳсулот ва хизматлар ишлаб чиқаришни ўз олдига мақсад қилиб қўяди. Йилдан йилга аҳоли сонининг кўпайиши, кишилар эҳтиёжларининг ортиб бориши кенгайтирилган ишлаб чиқаришни шарт қилиб қўювчи асосий сабаблардан ҳисобланади. Айнан кенгайтирилган такрор ишлаб чиқариш динамикаси иқтисодий ўсишнинг моҳиятини ташкил этади.

Иқтисодий ўсиш бевосита ялпи ички маҳсулот ҳажмининг мутлақ ва аҳоли жон бошига ҳамда иқтисодий ресурс харажатларининг ҳар бир бирлиги ҳисобига ўсиши, сифатининг яхшиланиши ва таркибининг такомиллашувида


ифодаланади. Иқтисодий ўсишни ЯИМ мутлақ ҳажмининг ортиши орқали ёки аҳоли жон бошига реал ЯИМ миқдорининг ортиши орқали ўлчаш унинг қандай мақсадда амалга оширилаётганига боғлиқ бўлади. Одатда бирор-бир мамлакат иқтисодий ўсишини ЯИМ мутлақ ҳажмининг ортиши орқали ўлчаш унинг иқтисодий салоҳиятини баҳолашда, аҳоли жон бошига реал ЯИМ миқдорининг ортиши орқали ўлчаш эса мамлакатдаги турмуш даражасини таққослашда қўлланилади.

Иқтисодий ўсишга доир муаммолардан бири узлуксиз ва барқарор иқтисодий ўсишга эришиш ҳисобланади. Барқарор иқтисодий ўсиш деганда, асосий кўрсаткичларнинг қатор йиллар давомида узлуксиз ўсиши тушунилади. Агар ЯИМнинг ўсиши уч йил давомида муттасил кузатилса, иқтисодий ўсиш барқарор ҳисобланади.

Иқтисодий ўсишнинг ташқи ва ички омиллари мавжуд. Ички омиллар ўзига моддий неъмат ва хизматлар ишлаб чиқариш ва истеъмолни қамраб олади. Улар жумласига аҳоли ва меҳнат ресурслари, табиий ресурслар, инновация ва ишлаб чиқариш имкониятлари, инвестициялар, институционал иқлим ва бошқалар киради.

Иқтисодий ўсишнинг ташқи омилларига халқаро меҳнат тақсимоти, глобаллашув жараёнлари киради. Кейинги омил айниқса, зиддиятли кечади. Глобаллашув миллий иқтисодиёт қиёфасига жиддий ўзгаришлар киритади. Бу жараёнда, бир томондан, ишчи кучининг халқаро миграцияси кучаяди, мамлакатга арзон товарларнинг кириб келиш ҳажми ортади, натижада миллий иқтисодиётнинг айрим тармоқларида иқтисодий ўсишга тўсиқ пайдо бўлади. Иккинчи томондан, хориждан замонавий технология, инвестиция ва кредитларни жалб қилиш имкониятининг ошиши иқтисодий ўсишни рағбатлантиради.

Мустақиллик йилларида дастлабки иқтисодий ўсиш Ўзбекистонда 1996 йилда қайд этилди. Шу йили мамлакатимизда МДХ мамлакатлари орасида биринчи бўлиб ЯИМ ҳажмининг ўтган йилга нисбатан кўп бўлишига эришилди.



Ўзбекистонда ялпи ички маҳсулотнинг ўсиш динамикаси, фойзда

Макроиқтисодий барқарорликни таъминлаш соҳасида эришилган ижобий ўзгаришларни мустаҳкамлашда 1997 йил алоҳида ўрин тутди. Айнан мазкур йилда ЯИМ ҳажмининг ўсиш суръатлари аҳоли сони ўсиш суръатларига нисбатан юқори бўлишига эришилди. Агар 1997 йилда ЯИМ ҳажми 1996 йилга

нисбатан 5,2 фоизга ўсган бўлса, аҳоли сонининг қўшимча ўсиш суръати 1,8 фоизни ташкил этди. Бу ижобий тенденциялар 1998-2000 йилларда янада мустаҳкамланди ва мазкур йилларда ЯИМнинг қўшимча ўсиш суръати 4-4,5 фоизни ташкил этди. Кейинги йилларда ЯИМнинг қўшимча ўсиш суръатлари қуйидагича бўлди: 2000-2003 йилларда – 3,8-4,2 фоиз, 2004-2006 йилларда – 7-7,7 фоиз, 2007-2008 йилларда – 9-9,5 фоиз, 2009-2014 йилларда – 8-8,5 фоиз.

Сўнгги йилларда Ўзбекистонда иқтисодий ўсиш суръатлари 8-8,5 фоиз атрофида барқарорлашди.

IV БОБ. ЎЗБЕКИСТОННИНГ ДЕМОГРАФИК САЛОҲИЯТИ

4.1. Мамлакатнинг иқтисодий салоҳияти тушунчаси

Иқтисодий салоҳият тушунчаси ижтимоий-иқтисодий ривожланишга эришиш мақсадида фойдаланиш мумкин бўлган барча манбалар, имкониятлар, воситалар ва захираларни англатади. Макродаражада ялпи иқтисодий салоҳият деганда ички ва ташқи бозорлар талабига мувофиқ миллий иқтисодиётнинг максимал мумкин даражадаги товар ва хизматлар ишлаб чиқариш қобилияти тушунилади.

Ижтимоий ишлаб чиқариш ва истеъмолнинг техник даражаси, ҳажми ва таркиби, миллий иқтисодиётнинг барча соҳа ва тармоқларида ишлаб чиқарилган товар ва хизматларнинг сифати, шунингдек, мамлакат ҳудуди ва чет элларда жамғарилган қийматлар, меҳнат ва табиат ресурслари мамлакат ялпи иқтисодий салоҳиятининг ривожланиш даражасини белгилайди.

Саноат, қишлоқ хўжалиги, қурилиш, транспорт ва алоқа соҳаларининг ишлаб чиқариш қувватлари, ишлаб чиқариш, ижтимоий ва экологик инфратузилма, меҳнат ресурслари, шу жумладан, малакали кадрлар иқтисодий салоҳиятни белгиловчи омиллар бўлиб ҳисобланади.

Шундай қилиб, Ўзбекистоннинг ялпи иқтисодий салоҳиятини ташкил этувчи муҳим омиллар қуйидагилардир:

- аҳоли ва меҳнат ресурслари;
- табиий ресурслар;
- илмий, илмий-техника ва инновацион ресурслар;
- ишлаб чиқариш ресурслари;
- инвестиция ресурслари;
- ташқи иқтисодий ресурслар;
- экологик ресурслар.

Мамлакатнинг ялпи иқтисодий салоҳиятини баҳолаш учун қуйидаги кўрсаткич – индикаторлардан фойдаланилади:

- аҳоли сони, унинг ёш таркиби, аҳолининг табиий ва механик ҳаракати;
- меҳнат ресурслари, уларнинг таркиби, бозор иқтисодиёти ва фан-техника тараққиёти талабаларига мувофиқ ишчи кучи ва малакали кадрлар билан таъминланганлик;
- инсон салоҳиятининг ривожланиш индекси;
- асосий ишлаб чиқариш фондларининг қиймати, таркиби, уларни такрор ишлаб чиқариш кўрсаткичлари;
- ялпи миллий маҳсулот, ялпи ички маҳсулот, уларни аҳоли жон бошига ишлаб чиқариш (ривожланган мамлакатлар билан таққослаш);

- саноат, қишлоқ хўжалиги, қурилиш маҳсулотлари ишлаб чиқариш, юк ва йўловчилар ташиш ҳажмларининг ўсиш имкониятлари;
- илмий асосланган меъёрлар ҳамда ривожланган мамлакатлар таққослаганда аҳоли жон бошига моддий неъматлар ва хизматларни истеъмол қилиш даражаси;
- минерал хом ашё, ёқилғи-энергетика, сув ва ер ресурсларининг захиралари ва улардан фойдаланиш даражаси;
- экотизимнинг экологик сиғими, атроф-муҳитнинг ифлосланиш даражаси.

4.2. Аҳолининг табиий ўсиши

Аҳоли ва меҳнат ресурсларини такрор ишлаб чиқариш бўйича Ўзбекистон ноёб минтақалар жумласига киради. Демографик, яъни аҳоли ўсишининг ўзига хослиги аҳоли ва меҳнат ресурсларининг тез суръатларда ўсаётганлиги билан тавсифланади.

2013 йилнинг бошида Ўзбекистон аҳолисининг умумий сони 29,9 млн. кишини ташкил этди. Шундан 15,4 млн. киши (51,2 фоизи) шаҳарда, 14,6 млн. киши (48,8 фоизи) қишлоқда яшайди.

Туғилишнинг ўсиши мамлакатнинг Қорақалпоғистон Республикаси, Қашқадарё ва Сурхондарёдан ташқари барча вилоятларида кузатилади. Нисбатан юқорироқ ўсиш Фарғона ва Тошкент вилоятларига мувофиқ келади. Туғилишнинг энг паст даражаси эса Тошкент шаҳрига тўғри келади (16,4 промилле).

Ўзбекистонда аҳоли табиий ўсишининг юқори суръатлари аҳоли зичлиги (1 кв.км.га тўғри келадиган аҳоли сони) кўрсаткичларида ҳам ўз ифодасини топади. Ўзбекистонда аҳоли зичлигининг ўсиши унинг барча маъмурий-ҳудудий бирликларида кузатилмоқда. Айниқса, бу кўрсаткич Фарғона водийси вилоятларида, Хоразм, Самарқанд ва Тошкент вилоятларида анча юқори. Республика бўйича кейинги 20 йилда аҳоли зичлиги 1,5 мартага ошди. Ҳозирги пайтда мамлакат бўйича 1 кв.км.га 67 киши тўғри келади.

Ўзбекистон аҳолисининг юқори суръатларда ўсиши қатор омиллар билан изоҳланади. Туғилишнинг юқорилиги, ўлимнинг нисбатан пасайгани, никоҳнинг юқори даражаси, ажралишнинг нисбатан камлиги ва бошқалар шу омиллар жумласига киради. Ўзбекистонда аҳолининг табиий ўсиши ижтимоий-иқтисодий ва демографик характердаги қатор тадбирлар билан рағбатлантириб келинди, албатта.

Аҳолининг табиий ўсишиасосан қишлоқ аҳолиси ҳиссасига тўғри келади. Қишлоқ жойларда яшовчилар мамлакат аҳолисининг 48,8 фоизини ташкил қилгани ҳолда аҳоли табиий ўсишининг 54 фоизини бермоқда.

Урбанизация жараёни илгари жуда суст кечган бўлиб, 1980 йилдан бошлаб шаҳар ва қишлоқ аҳолиси ўртасидаги нисбат деярли ўзгармасдан келди. Аммо ўтган ўн йилликнинг иккинчи ярмидан бу борадаги вазият жиддий ўзгарди. Ҳозирга келиб шаҳар аҳолиси қишлоқ аҳолисидан кўпроқни ташкил этади.

Демографик вазиятга таъсир кўрсатадиган омиллардан яна бири аҳоли орасидаги ўлим даражасидир. Ўзбекистонда ўлимнинг умумий коэффициенти ҳар 1000 аҳоли ҳисобига 4,9 киши. Бу МДХга қиравчи давлатлар орасида энг

паст кўрсаткичлардан бири. 1 ёшгача гўдаклар ўлимининг жиддий камайтирилиши, бу кўрсаткичга ижобий таъсир кўрсатмоқда. Ҳозирги пайтда 1 ёшгача гўдаклар ўлими ҳар 1000 кишига 16,1 га тенг бўлиб турибди. Туғилиш ва ўлим ўртасидаги тафовут аҳолининг табиий ўсиш даражасини кўрсатади. Бу кўрсаткич ҳозир 16,1 промиллега тенг.

Аҳоли сонининг ўсишига акс таъсир этувчи бошқа омиллар ҳам бор. Бу эмиграциядир. Ўзбекистондан чет элга доимий яшаш учун кетганлар сони катта эмас, шунинг учун ҳам бу омил аҳоли умумий ўсишига жиддий таъсир кўрсата олмайди. Маҳаллий аҳоли киндик қони тўкилган жойга меҳрли, ўзга юртларга бутунлай кўчиб кетишга мойил эмас. Бу ҳолат умуман Марказий Осиё халқларининг анъанавий хусусиятларига мос тушади.

4.3. Аҳоли таркиби

Аҳолининг таркибини турли томонидан: ёши, жинси, қайси ижтимоий қатламга мансублиги, миллати, маълумоти бўйича ўрганиш мумкин.

2013 йилда аҳоли таркибида эркаклар –50,1, аёллар 49,9 фоизни ташкил этди. Мамлакат аҳолиси таркибида 15 ёшгача бўлганлар (15 ёш ҳам шунга киради) 34,4 фоизни ташкил этмоқда. Аҳоли умумий сонидан болалар, ўсмирлар ва ёшларнинг умумий салмоғи 70 фоизга яқинни, яъни республика аҳолисининг 2/3 қисmini ташкил этади.

Мамлакатимиз аҳолисининг ўртача ёши 27,8, аёлларники 28,4, эркакларники 27,1 ёшдан иборат. Юқорида келтирилган рақамлар шундан далолат берадики, мамлакат аҳолисининг 62 фоизи меҳнатга қобилиятли ёшда, қолган 38 фоизи меҳнатга қобилиятли ёшдан ёки паст, ёки юқори ёшдагилар. Бу мамлакатнинг меҳнат ресурсларига бойлигини билдиради.

Аҳоли таркибини уларнинг турар жойларига қараб ўрганиш ҳам муҳим аҳамиятга эга. 2013 йилнинг бошида Ўзбекистонда 50 фоиздан юқори аҳоли шаҳарларда истиқомат қилди. Бу кўрсаткич, айниқса, Тошкент, Андижон, Наманган ва Фарғона вилоятларида юқори. Кейинги йилларда республикада бу кўрсаткич анча барқарорлашди. Бу шундан далолат берадики, маҳаллий аҳоли урбанизация (шаҳарлаштириш)га мойиллик кўрсатмоқда.

Аҳолининг асосий қисmini (80 фоиздан зиёд) ўзбеклар ташкил этади. Ундан кейинги ўринларда руслар, қozoқлар, тожиклар, қорақалпоқлар туради. Ҳаммаси бўлиб республикада 130 дан ортиқ миллат ва элатлар истиқомат қилади.

4.4. Меҳнат ресурслари ва улардан фойдаланиш

Меҳнат ресурсларининг манбаи мамлакат аҳолисидир. Аҳолининг фақат меҳнатга яроқли қисмигина меҳнат ресурслари ҳисобланади. Ўзбекистонда меҳнат ресурсларига 16 ёшдан 59 ёшгача бўлган эркаклар ва 16 ёшдан 54 ёшгача аёллар киритилади. Улар мамлакат аҳолисининг ярмидан кўпроғини ташкил этади.

Миллий иқтисодиётда банд бўлганларнинг 13,0 фоизи саноат, 27,8 фоизи қишлоқ ва ўрмон хўжалиги, 9,3 фоизи қурилиш, 5,2 фоизи транспорт ва алоқа, 10,9 фоизи савдо, умумий овқатланиш, сотиш ва тайёрлов тизими, 3,5 фоизи уй-жой ва коммунал хўжалиги, ноишлаб чиқариш турлари, 7,6 фоизи соғлиқни сақлаш, жисмоний маданият ва спорт, ижтимоий таъминот, 13,4 фоизи таълим,

маданият, санъат, фан ва илмий хизмат кўрсатиш, 0,5 фоизи молия, кредит, суғурта тармоқларида меҳнат қилмоқда.

Иқтисодий фаол аҳолининг миқдори ва сифати, унинг йиллар давомидаги ўзгариши мамлакатнинг иқтисодий қудратини ифодаловчи муҳим кўрсаткичлардандир.

Ўзбекистонда 2015 йил бошида иқтисодий фаол аҳоли сони 17 млн кишини ташкил этди. Иқтисодий фаол аҳоли даражасининг ошиб бориши ижобий ўзгариш бўлиб, бу жамиятдаги иқтисодий муҳитнинг соғломлашаётганини кўрсатади.

Ўзбекистонда жиддий муаммолардан бири ўсаётган меҳнат ресурсларини иш билан тўла таъминлашдир. Бу, бир томондан, аҳолининг иш жойига бўлган талабини, иккинчи томондан, миллий иқтисодиётнинг ишчи кучига бўлган эҳтиёжини қондиришни тақозо этади. Аҳолини меҳнат фаолиятига тортиш иқтисодиётнинг барча тармоқларида бир хил кечмайди. Бир тармоқда ишлаб чиқариш ходимлари сони ўсса, иккинчи бир соҳада ходимлар сони камайиши мумкин.

Меҳнат ресурсларининг иш қидириб мамлакат ичида ёки ташқарисида ҳаракатланишига ишчи кучи миграцияси дейилади. Бозор иқтисодиёти шароитида ишчи кучининг миграция ҳаракати жадал тус олади, чунки минтақалар ва иқтисодиёт тармоқларида ишчи кучига бўлган талаб доимо ўзгариб туради.

Ишчи кучининг бир мамлакат ҳудуди бўйлаб ҳаракатланиши ишчи кучининг ички миграцияси ҳисобланади. Бу жараёнга бир қатор омиллар таъсир кўрсатади. Мамлакат минтақаларининг иқтисодий ривожланишидаги тафовутлар, урбанизация жараёнлари, табиий-иқлим шароитларининг ўзгариши, табиий офатлар ва давлатнинг демографик сиёсати шулар жумласидандир.

Ишчи кучининг бир мамлакатдан бошқа мамлакатга ҳаракатланиши ишчи кучининг ташқи миграцияси дейилади. Ишчи кучи ташқи миграциясининг асосий сабаби меҳнат баҳосининг мамлакатлар бўйича фарқ қилишидир. Мамлакатлар ўртасидаги иқтисодий ва сиёсий муносабатларнинг ривожланиши ишчи кучи ташқи миграциясининг жадаллашувига олиб келади. Бу ўз навбатида халқаро меҳнат бозорининг ривожланишини таъминлайди.

4.5. Меҳнат бозори ва бандлик

Меҳнат ресурсларидан самарали фойдаланиш ва бандликни таъминлашда меҳнат бозори (биржаси) катта рол ўйнайди. Меҳнат бозори бозор иқтисодиётининг муҳим унсурларидан биридир. Унинг қўламини мамлакатдаги аҳоли ва меҳнат ресурсларининг миқдори белгилайди. Яшаб турган жойида ўзига мос иш ва маош топа олмаган киши бошқа жойларга иш қидириб боради. Натижада ишчи кучи миграцияси юзага келади. Меҳнат бозорига таклиф қилинган ва у ерда талаб қилинган ишчи кучи миқдор сифатдан одатда бир бирига тўла мос келмайди. Бу ишсизлик пайдо бўлишининг асосий сабабларидандир.

Иқтисодиётнинг у ёки бу соҳасида иш билан машғул бўлган аҳоли банд аҳоли ҳисобланади. Мамлакатдаги ишсизлар сонининг ўзгаришини ишсизлик даражаси ифодалайди. Ишсизлик даражасининг ортиб бориши жамиятда турли

салбий оқибатларни келтириб чиқариши мумкин. Уларнинг олдини олишда давлатнинг ижтимоий ҳимоя сиёсати, меҳнат бозори ва ижтимоий жамғармалар муҳим ўрин тутadi. Аммо бизга ҳар қандай бандлик эмас, балки самарали бандлик керак. Гап шундаки, малакали меҳнат билан банд бўлиб, етарли даражада маошга эга бўлишнинг ишчи кучини такрор ишлаб чиқариш ва оила фаровонлигини оширишда аҳамияти катта.

Умуман меҳнат бозори муайян меҳнат қобилиятига эга ишчи кучининг олди-сотдиси амалга ошадиган марказдир. Бу бозорнинг асосий иштирокчилари бир томондан ишчи кучини ёлловчилар – тадбиркор, корхона ва давлат, иккинчи томондан меҳнат лаёқатига эга аҳолидир. Ишчи кучини ёлловчилар ишчини ёллаш билан ундан фойдаланиш ҳуқуқини қўлга киритади, ишчи эса ўз меҳнат қобилияти эвазига ҳаётий зарур восита ва маҳсулотларни ҳарид қилиш имкониятига эга бўлади.

Меҳнат бозори иккита муҳим вазифани бажаради. Биринчидан, бозорда кишилар ўз меҳнати эвазига даромадга эга бўладилар. Бу даромад сарфланган куч ва энергияни қайта тиклашга кетади. Иккинчидан, меҳнат бозори мамлакат аҳолиси меҳнатидан самарали фойдаланиш, уни бошқариш ва иқтисодиёт тармоқлари ўртасида мақсадга мувофиқ тақсимлаш имконини беради. Меҳнат бозорида махсус товар – меҳнат қобилиятининг олди-сотдиси амалга оширилади. Меҳнат қобилияти инсоннинг ажралмас хусусияти бўлиб, у моддий ва маънавий неъматларни яратади.

айтда меҳнат ресурсларининг чорак қисми қишлоқ ва ўрмон хўжалигида банд бўлиб, улар асосан паст малакали иш билан банд. Қишлоқ аёллари ўртасида бандлик даражаси паст. Бу ўз навбатида оила даромадлари даражасига салбий таъсир кўрсатмоқда.

5. Бизга ҳар қандай бандлик керак эмас. Бандликни таъминлаш пировард мақсад ҳам бўлмаслиги керак. Бизга самарали бандлик, яъни яхши даромад келтирадиган, юқори билим талаб қиладиган, замонавий техника ва технология билан ишлайдиган бандлик керак.

V БОБ.МИНЕРАЛ-ХОМ АШЁ РЕСУРСЛАРИ

5.1. Минерал-хом ашё ресурсларининг табиати

Табиат ресурслари ранг-баранг бўлиб, уларни шартли равишда икки гуруҳга ажратиш мумкин. Биринчи гуруҳга ишлаб чиқарилмайдиган, яъни тикланмайдиган ресурслар – ер, нефть, газ, кўмир ва бошқа ер ости қазилма бойликлари киради. Иккинчи гуруҳга тикланадиган ресурслар, ер усти бойликлари – қишлоқ хўжалиги хом ашёлари киради. Биринчи гуруҳни, одатда, минерал-хом ашё ресурслари деб аташ қабул қилинган. Минерал-хом ашё ресурслари ёки ер ости қазилма бойликлари замонавий индустрия ва фан-техника тараққиётининг қатор йўналишларини ривожлантиришда катта аҳамиятга эга. Минерал-хом ашё ресурслари деганда келиб чиқиш минераллардан иборат энергия, хом ашё ва материаллар ажратиш олишда фойдаланиладиган табиий моддалар тушунилади.

Минерал ресурслардан товарлар ишлаб чиқаришда меҳнат предмети сифатида фойдаланилади. Улар ишлаб чиқаришни ривожлантиришнинг моддий асоси ва фаол унсури бўлиб хизмат қилади. Фаннинг ривожланиши, меҳнат ресурсларини такомиллаштириш билан минерал ресурсларнинг ишлаб чиқариш

кучларини ривожлантириш ва жойлаштириш, ишлаб чиқаришни ихтисослаштириш ва мужассамалаштиришнинг муҳим омили сифатида аҳамияти ошиб боради.

Минерал-хом ашё ресурслари иқтисодий тараққиётда муҳим ўрин тутди, у мамлакат иқтисодий қудратининг асосий ўлчовларидан бири бўлиб хизмат қилади.

Дунёда ҳаммаси бўлиб минерал хом ашёнинг 250 дан ортиқ туридан фойдаланилади. Минерал хом ашё ресурсларининг яна бир характерли томони унинг нотекис жойлашганлигидир. XX асрдан бошлаб уни қазиб олиш жуда тез суръатларда ўсмоқда. Ҳозирги шароитда ёқилғи-энергетика ва рангли металллар рудасини қазиб олиш биринчи даражали аҳамият касб этмоқда. Фан ва техниканинг ривожланиши билан фойдали элементи кам бўлган минералларнинг янги конлари фойдаланишга тортилмоқда. Кўпчилик фойдали қазилма бойликларни қазиб олишга экстермал табиат шароитига эга ҳудудларга кўчмоқда (Шимол, Саҳрои Кабир, Устюрт, Шельфлар). Қазилма бойликларни қазиб олиш ва улардан фойдаланишда атроф-муҳитни ҳимоя қилиш харажатлари ошиб бормоқда.

Кўпчилик минераллар алоҳида учрамайди. Масалан, алюминий 250 та минераллар таркибидан бор. Улар, айниқса, силикат бирикмаларида (40 фоизгача) мавжуд. Бокситлар ҳам алюминийга бой. Нефть ва газ нафақат ёқилғи (бензин, керосин, мазут) ва электр энергияси ҳосил қилиш учун зарур, балки кимё саноати учун ҳам хом ашё ҳисобланади. Нефть кимё саноати ўғит, каучук, пластмасса, синтетик товлар ажратиб олади.

Ёқилғининг муҳим турларидан бири кўмир. Унинг 70 фоизи тошкўмир. 30 фоизи қўнғир кўмир ҳисобланади. Ёқилғилар орасида тикланадиган ягона тур торф (Ўзбекистонда торф йўқ. Россияда жаҳон торфининг 50 фоиз захираси жойлашган). Ундан энергетикада фойдаланилади. Кейинги йилларда сланецларга катта аҳамият берилмоқда. Ундан нафақат ёқилғи, балки кимё саноатида ҳам фойдаланилмоқда.

Минерал хом ашё ресурслари иқтисодиётни ривожлантиришда муҳим ўрин тутди, у мамлакат иқтисодий қудратининг асосий ўлчовларидан бири. Кейинги йилларда бутун дунёда углеводород ва алюминий хом ашёси, олтин ва нодир металллар, марганецли ва хромли рудалар, платина гуруҳига кирувчи металллар қазиб олиш ва улардан фойдаланиш юқори суръатларда ривожланди. БМТ экспертлари ҳисоб-китобларига қараганда яқин йилларда бу тенденция сақланиб қолади.

Ўзбекистонда 2700 дан ортиқ конлар, 100 га яқин минерал хом ашё турлари очилган. Ўзбекистон олтин захиралари бўйича дунёда тўртинчи, қазиб олиш бўйича тўққизинчи, мис бўйича ўнинчи ўринда, уран бўйича 7-8-ўринда, МДХ мамлакатлари орасида эса олтин захиралари бўйича иккинчи, мис, қалай, қўрғошин, вольфрам бўйича учинчи ўринда туради.

5.2. Минерал-хом ашё ресурслари

Минерал-хом ашё турлари жуда кўп. Ўзбекистон шароитида уни қуйидагича гуруҳлаштириш мумкин: ёқилғи-энергетика, металллар ва нометалллар, техник хом ашё, ўтга чидамли хом ашё, қурилиш материаллари, сувлар. Кейинги йилларда қатор нефть-газ конлари топилди. Фарғона вилояти

ҳудудида йирик конлардан Шимолий Сўх, Чунғара, Чимён, Шўрсув, Андижон вилоятида Жанубий Оламушук, Полвонтошни кўрсатиш мумкин. Фарғона водийсидаги конларда асосан нефть учрайди. Улар бир неча ўн йиллардан бери миллий иқтисодиётга хизмат қилиб келмоқда. Мустақиллик йилларида Наманган вилоятида Мингбулоқ нефть кони очилди. Фарғона нефти асосан енгил, олтингугурти кам, парафини кўпроқ. Жанубий нефть конлари Сурхондарё вилоятида жойлашган.

Нефть конларининг катта захиралари Устюртда топилган. Булардан ташқари нефть-газ конденсат конлари Муборак, Шўртан, Ўртабулоқда жойлашган. Қашқадарёдаги Кўкдумалоқ кони айниқса истиқболлидир.

Ўзбекистонда газнинг аниқланган захиралари 2 триллион кубометрни, кўмирники 2 миллиард тоннадан зиёдрокни ташкил этади. Мамлакатда топилган конларнинг захиралари нафақат ички эҳтиёжларни қондиришга қодир, балки энергия манбаларини экспорт қилиш имконини ҳам беради.

Нефть ва газга бой бешта минтақа аниқланган: Устюрт, Бухоро-Хива, Жанубий-Ғарбий Ҳисор, Сурхондарё ва Фарғона. Газнинг ҳозирги аниқланган захиралари мамлакат эҳтиёжларини 35, нефтники 30 йил мобайнида қоплашга етади. Шу билан бирга Ўзбекистонда газ ва нефть захираларини излаб топиш даражаси 30-32 фоиздан ошмайди.

Мамлакатда табиий газ ва газ конденсатини қайта ишлаш истиқболлидир. Газнинг таркибида этан, пропан ва бутан бўлиб, улардан полимер материаллари олинади. Шўртан газ-кимё мажмуидан олинаётган пропандан нитрон толаси ишлаб чиқарилади.

Ўзбекистонда турли йилларда 3 та кўмир кони аниқланган. Улар Ангрен (Тошкент вилояти), Шарғун ва Бойсун (Сурхондарё вилояти) конларидир. Ангрен кони Оҳангарон дарёси водийсида жойлашган бўлиб, бу ерда кўнғир кўмир очиқ усулда казиб олинади. Унинг асосида Ангрен ГРЭСи ишлайди. Шарғун кони 600-800 метр баландликдаги тоғликда жойлашган. Кўмир казиб олиш жараёнида қимматли минерал-хом ашё ресурслари ҳам ажратиб олинади. Улар каолин, кварц қумлари ва бошқалар бўлиб, кўплаб янги замонавий маҳсулотлар ишлаб чиқаришни ривожлантиришда хом ашё базаси бўлиб хизмат қилади.

Металлларнинг ўзи ҳам асл металллар, рангли, нодир ёки кам учрайдиган ва қора металлларга бўлинади. Яна бир таснифлаштиришга мувофиқ металлларни оғир, енгил, нодир ва асил металллар сифатида гуруҳлаш мумкин.

5.3. Минерал-хом ашё ресурсларидан фойдаланиш

Топилган ва саноат ўзлаштиришига тайёрланган рангли, нодир ва асл металллар, ёқилғи-энергетика, тоғ-руда, тоғ-кимё, рангли тош хом ашёси, қурилиш материаллари ва ер ости сувлари захиралари асосида республикада юзлаб нефть-газ саноат корхоналари, конлар, шахта ва карьерлар, сув билан даволайдиган шифохоналар ишлаб турибди. Олмалиқ ва Навоий тоғ-металлургия, Шўртан газ-кимё, Оҳангарон, Навоий, Бекобод цемент, Ангрен кўмир кони ва бошқа қудратли саноат мажмуалари ишлаб турибди. Улар мамлакатимиз иқтисодий қудратини юксалтиришга муносиб ҳисса қўшмоқдалар.

Мамлакатимизда кейинги йилларда йирик завод ва фабрикалар ишга туширилди, фаолиятдагилари реконструкция ва модернизация қилинди, уларга малакали кадрлар тайёрланди. Бухоро нефтни қайта ишлаш заводи, Шўртан газ-кимё мажмуаси, Қўнғирот сода заводи, Деҳқонобод калий заводи, ўнлаб қурилиш материаллари саноати объектлари шулар жумласидандир.

Маълумки, минерал-хом ашё ресурслари фақат бир авлодга тегишли эмас. Уларда келгуси авлодларнинг ҳам ҳаққи бор. Шунинг учун ҳам улардан тежаб-тергаб, мақсадга мувофиқ фойдаланиш, қазиб олиш ва қайта ишлаш чоғидаги нобудгарчиликни камайтириш, уларни тайёр маҳсулотга айлантириш самарадорлигини ошириш катта аҳамиятга эга. Қолаверса, минерал хом ашё ресурсларини пала-партиш қазиб олиш келгусида катта экологик талафотларни ҳам келтириб чиқариши мумкин. Кон ва қудуқларнинг чиқиндилари ва улардан ҳосил бўлган уюмларни қайта ишлаб маҳсулот ҳосил қилишнинг ҳам экологик ва иқтисодий аҳамияти катта.

VI БОБ.ЕР ВА СУВ РЕСУРСЛАРИ

6.1. Ер ресурслари

Ер ҳар қандай жамият, ҳар қандай мамлакатнинг беқиёс бойлигидир. Ер – бу битмас-туганмас хазина, оталар юрти, келгуси авлодга қоладиган асосий мерос. Ер – бу қишлоқ хўжалигининг асосий ишлаб чиқариш воситаси. Ерга икки жиҳатдан, биринчидан, ҳудуд, иккинчидан, тирикчилик манбаи, ўсимлик ва ҳайвонот дунёси ҳаёти учун зарур бўлган тупроқ, инсон учун озиқ-овқат, саноат учун хом ашё етиштириб берадиган экин майдонлари сифатида қараш лозим.

2013 йилнинг бошида Ўзбекистоннинг умумий ер майдони 44410,3 минг гектарни ташкил этди. Ана шундан 20481,4 гектари (45,6 фоиз) қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришида банд. Қишлоқ хўжалиги тасарруфидаги ерларнинг 4043,4 минг гектари, яъни 26 фоизи ҳайдаб экин экиладиган ерлар, қолган ерлар пичанзор ва яйловлардан иборат.

Умумий ва қишлоқ хўжалигига яроқли ер майдони таркиби (минг га)

Йиллар	Умумий ер майдони	Қишлоқ хўжалигига яроқли ерлар	Шу жумладан			
			Ҳайдаладиған	Кўп йиллик дарахтзорлар	Пичанзор ва яйловлар	Бошқа майдонлар
2010	44410,3	21453,2	4054,6	334,4	11073,6	5090,6
2011	44410,3	20487,7	4052,0	337,2	11128,6	4969,9
2012	44410,3	20473,5	4045,6	343,0	11123,7	4961,2
2013	44410,3	20481,1	4043,4	344,6	11134,5	4958,6

Умумий ер майдони – Ўзбекистон Республикаси чегараси доирасидаги барча ер майдонлари. Бунга қишлоқ хўжалиги ерлари, аҳоли яшаш пунктлари ерлари, саноат, транспорт, алоқа, муҳофаа, табиатни муҳофаза қилиш, соғлиқни сақлаш, рекреация ва бошқа мақсадларга мўлжалланган, шунингдек, тарихий-маданий аҳамиятга эга, ўрмон ва сув фонди, захира ерлар киради.

Кейинги йилларда ерга эгалик шакллари кенгайди. Илгари қишлоқ хўжалиги корхоналари қишлоқ хўжалиги тасарруфидаги ерларнинг 90

фоизидан фойдаланар эди. Қолган ерлар кишлок хўжалик кооператив корхона ва ташкилотлари, хўжаликлараро корхоналар, деҳқон хўжаликлари ва фуқароларга тегишли эди. Деҳқон, фермер хўжаликларининг ер майдонларидаги улуши муттасил ўсиб бормокда. Аммо республикада ер хусусий ер бўла олмайди. Унинг ҳақиқий эгаси давлат бўлиб, у бу ерларни фермер ва деҳқон хўжаликларига, шахсларга фойдаланиш учун бериб қўйган. Ҳозирги вақтда шудгорлаб экин экиладиган майдонларнинг 77,8 минг гектари (2,1 фоиз) кишлок хўжалик корхоналарига, 467,7 минг гектари (13,0 фоиз) деҳқон ва 3082,6 минг гектари (84,9 фоиз) фермер хўжаликларига бириктирилган.

Умумий экин майдони таркиби, %

	2009	2010	2011	2012
Барча экин майдони	100,0	100,0	100,0	100,0
Дон экинлари	44,6	45,3	44,6	44,9
Техника экинлари	39,4	38,2	38,5	37,8
Шу жумладан:				
Пахта	37,2	36,3	36,9	36,1
Картошка	1,8	1,9	2,0	2,1
Сабзавот	4,6	4,7	4,9	5,0
Полиз	1,2	1,3	1,3	1,5
Озуқа экинлари	8,4	8,6	8,7	8,7

Кейинги йилларда кишлок хўжалиги экин майдони ўсмади, балки камайди. Фақатгина 2010-2013 йилларда кишлок хўжалиги ер мулки 8422 гектарга қисқарди. Экин майдонларининг қисқариши бундан кейин ҳам давом этиши мумкин, чунки саноат ва уй-жой, маиший, йўл қурилишлари ҳисобига бу тенденция ўз кучини сақлаб қолади. Экстенсив тараққиёт ўз имкониятларини тугаллаб бормокда. Кейинги йилларда дон экинлари ҳисобига пахта майдонлари анча қисқарди. Гарчи дон экин майдонлари ўсишига қарамасдан, барча кишлок хўжалиги экин майдонларининг ўсишида жиддий силжиш бўлмади, чунки барча экин майдонлари улуши қисқарди.

Ўзбекистоннинг ер ресурслари хилма-хил. Қизилқум ва бошқа чўлларда чўл-қум тупроқлари катта майдонни эгаллайди. Бундай тупроқлар асосан қумдан иборат бўлиб, зич қатлам ҳосил қилмайди, чиринди (гумус) қисми 1 фоизга ҳам етмайди. Ўзбекистоннинг текислик қисмидаги чўл зонасида сур-қўнғир, чзл-қум, тақир тупроқли ерлар учрайди.

Кишлоқ хўжалиги экин майдони (барча хўжалик турларида, минг га)

	1980	1990	2004	2009	2012
Барча экин майдони	3994,6	4194,2	3691,5	3608,6	3628,1
Шу жумладан:					
Дон экинлари	1173,8	1008,1	1666,5	1610,7	1628,1
Техника экинлари	1912,1	1876,3	1516,8	-	-
Шундан:					
Пахта	1877,7	1830,1	1455,7	1347,0	1308,3
Картошка ва сабзавот-полиз	186,3	270,1	225,0	272,2	313,6
Озуқа экинлари	722,4	1039,7	284,3	302,5	313,9

Ўзбекистоннинг чўл яйловлари катта майдонни эгаллайди. Бу чўл яйловлари сур-қўнғир, қум ва қумли тупроқлардан иборат. Бу ерларнинг тахминан ярми суғоришга яроқли ерлардир.

Суғориладиган маданий тупроқлар алоҳида типни ташкил этади. Республика умумий ер майдонининг 3713,8 минг гектарида суғориб деҳқончилик қилинади. Бу кишлок хўжалиги умумий ер майдонининг 23,8 фоизи демакдир. Қолган қисми лалми ерлар, яйлов ва озроқ қисми тоғ ўрмонзорларидан иборат.

Суғориладиган майдонлар дашт ва бўз ерларда жойлашган. Суғориладиган ерларнинг 60 фоизини автоморф тупроқлар ташкил этади. Улар йирик дарёларнинг дельталари ва ўзлаштирилган водийлар, шунингдек, тоғ олди текисликларидан иборат. Мирзачўл ва бошқа зоналарда суғориш натижасида ер ости сувлари кўтарилиб, ҳозир тупроқ гидроморф ҳолатидадир.

Суғориладиган ерларнинг катта қисми Фарғона водийсида, Зарафшон водийсида ва Амударё қуйи оқимини эгаллаган. Лалми ерларнинг катта майдонлари Қашқадарё, Самарқанд, Тошкент ва Жиззах вилоятларида жойлашган.

Шундай қилиб, Ўзбекистоннинг ер ресурсларини уч тоифага бўлиш мумкин: 1) текисликдаги тупроқлар - сур-қўнғир, чўл-қум тақирлар, тақир тупроқлар, ўтлоқи тупроқлар, ботқоқ ва ботқоқ-ўтлоқи тупроқлар, шўрхоқлар, ўтлоқи воҳа;

2) тоғ тупроқлари – кул ранг (бўз) ерлар, жигарранг тупроқлар, қора-қўнғир тоғ ўрмон тупроқлари, рангли-қўнғир баланд тоғ тупроқлари;

3) суғориладиган маданий тупроқлар.

Суғориладиган ерлар мамлакатнинг олтин фонди ҳисобланади.

Ер ресурсларидан фойдаланиш назорати Ўзбекистон Республикаси Қишлоқ ва сув хўжалиги вазирлиги ва “Ергеодезкадастр” Давлат Қўмитасига юклатилган.

5.2. Сув ресурслари

Ўзбекистоннинг сув ресурслари дарёлар, сел оқими, каналлар, қўл ва сув омборларидаги сувлардан таркиб топади. Унинг асосий сув манбаи – дарёлардир. Дарёлар тоғлардан бошланади. Тоғларда ёғингарчилик кўп, буғланишга кетадиган йўқотишлар эса кам.

Ўзбекистоннинг бош сув ўзанлари Амударё (1415 км) ва Сирдарё (2122 км) ҳисобланади. Ҳар иккаласининг суви ҳам республика ҳудудидан ташқарида ҳосил бўлади. Улардан ташқари Норин, Қорадарё, Сўх, Чирчиқ, Зарафшон, Сурхондарё, Қашқадарё, Шерободдарё йирик дарёлар жумласига киради. Бу дарёларнинг кўпчилиги ўзларининг ўрта ва қуйи оқимлари бўйича Ўзбекистон ҳудудидан оқиб ўтади. Ўзбекистонда ҳаммаси бўлиб, 50 га яқин дарё бўлиб, улардан 10 тасининг узунлиги 150 кмдан ошади. Ўзбекистоннинг тоғ ва тоғ олди минтақаларида сел оқими (тошқини) кўплаб содир бўлиб туради. Ўзбекистонда сел хавфи кучлироқ минтақа бу Фарғона водийси. Бу ерда ҳар йили, баъзан йилига бир неча марта сел бўлади. Кўпчилик сел тошқинлари апрель ва май ойларига тўғри келади, чунки бу ойларда тоғда жуда кўп ёғин-сочин бўлади. Сел оқими ҳар йили минглаб гектар экин майдонларини вайрон

этади. Шунинг учун ҳам тошқин хавфи кучли тоғ олди минтақаларида сел оқимини ушлаб қоладиган курилмалар (сув омборлари) курилган. Ҳосил бўлган сув захираларидан кейинчалик экинларни, айрим яйлов-майдонларини суғоришда фойдаланилади.

Сирдарё ва Амударё йўналишида 56 та турли хил кўллар бўлиб (Оролдан ташқари), уларнинг майдони 3705 кв.км. Энг йирик кўл Орол денгизидир. Орол ҳам ўз сувини Аму ва Сирдарёдан олади.

Кўлларнинг умумий сони 5 мингдан ошади. Дарё кўллари кўпинча Аму ва Сирдарё қайирларида учрайди. Ирригация тизимларидан чиқариб юбориладиган ташлама кўллар коллектор-дренаж ишларининг яхшиланиши билан барҳам топиб кетмоқда.

Ўзбекистонда қудратли замонавий сув хўжалиги вужудга келди. Унга йирик давлат суғориш тизими, сув омборлар, сел сувини тўплаш омборлари, сув кўтариб узатиш, бош сув тўплаш курилмалари, улкан электр насос станциялари ва 150 минг турли хил иншоотлар кирган.

Ўзбекистоннинг асосий сув омборлари

Номи	Қайси дарё суви куйилади	Майдони, кв.км	Ҳажми, млн.куб метр
Чордара	Сирдарё	900	5700
Қайроққум	Сирдарё	5,3	4200
Чорвоқ	Чирчиқ	40	2000
Каттакўрғон	Зарафшон	83,5	845
Жанубий Сурхон	Сурхондарё	65	800
Чимкўрғон	Қашқадарё	49,2	500
Куйимозор	Зарафшон	16,2	280
Пачкамар	Ғузордарё	13,8	280
Каркидон	Исфарасой	9,5	218
Андижон	Қорадарё	55,5	190,0
Косонсой	Косонсой	5,65	100
Жиззах	Сангзор	12,7	87,5
Туябўғиз	Оҳангарон	185,0	25,0

Мамлакатимизда сув ресурсларини бошқариш инсон ҳаёт фаолияти ва табиат тизими ҳаракатининг асоси сифатида улардан фойдаланиш ва муҳофаза қилиш мақсадида амалга оширилади. Сувни муҳофаза қилиш тадбирларини ишлаб чиқиш ва амалга оширишни мувофиқлаштиришни Табиатни муҳофаза қилиш Давлат қўмитаси томонидан амалга оширилади.

5.3. Ер ресурсларидан фойдаланиш

Ўзбекистон катта ер-сув ресурсларига эга. Улар қишлоқ хўжалигининг ривожланишига кенг имкониятлар яратиб беради. Ўлка ўзининг иссиқ ва қуруқ, кескин ўзгарувчан иқлими билан ажралиб туради. Унинг текислик қисмида ўртача йиллик ёғин миқдори 120-200 мм, тоғли ҳудудларда 1000 мм гача. Иссиқлик ва ёруғликнинг сероблиги пахта, каноп, узум, турли хил мевалар, полиз-сабзавот етказишга қулай. Қолаверса, бу ердаги тупроқ-иқлим шароити йил давомида бир неча марта ҳосил йиғиштириб олиш имкониятини беради.

Табиий ресурслардан фойдаланишнинг жадаллашувини ишланадиган ер майдонларининг тез кенгайиши ҳам кўрсатади. Республикада сув хўжалик

қурилиши кенг миқёсда амалга оширилди ва янги ерлар ўзлаштирилди. Ерларни ўзлаштириш ҳажмларини кўпайтиришда капитал маблағларнинг асосий қисми – 80-90 фоизи янги қурилишга, оз қисми эса эскидан суғорилиб келинаётган экинзорларнинг мелиоратив ҳолатини ушлаб туриш ва яхшилашга қаратилди.

VII БОБ.ЎЗБЕКИСТОННИНГ ИШЛАБ ЧИҚАРИШ, ИЛМий-ТЕХНИКА ВА ИННОВАЦИЯ САЛОҲИЯТИ

7.1. Ишлаб чиқариш салоҳияти тушунчаси

Ишлаб чиқариш салоҳияти миллий иқтисодиёт миқёсида барча ишлаб чиқариш шарт-шароитлари ва ресурсларининг йиғиндиси сифатида аниқланади, яъни ички маҳсулот ҳажми, саноат корхоналари ва қурилиш ташкилотлари ишлаб чиқариш қувватлари, қишлоқ хўжалик маҳсулотлари ишлаб чиқариш имкониятлари, ишлаб чиқариш инфратузилмасининг ривожланиш даражаси билан баҳоланади.

Ишлаб чиқариш салоҳиятини ифодалайдиган умумлаштирувчи кўрсаткичлардан бири асосий фондлар қиймати ҳисобланади. Асосий фондларга бинолар, иншоотлар, ўтказгич қурилмалар, ишчи ва кучли машина ва асбоб-ускуналар, ўлчагич ва бошқариш анжомлари, ҳисоблаш техникаси, транспорт воситалари, жиҳозлаб, ишлаб чиқариш ва хўжалик инвентарлари, ишчи ва маҳсулдор моллар, кўп йиллик дарахтлар, ички хўжалик йўллари ва бошқалар киритилади. Улар ҳақли равишда ишлаб чиқаришнинг “суяк ва мускул тизими” деб ҳам аталади.

Асосий фондларнинг қиймати жорий ва қиёсий нархларда баҳоланади, шунингдек, фондларнинг қайта баҳоланиши ҳисобга олинади.

Ўзбекистонда йирик ишлаб чиқариш салоҳияти яратилган. 2013 йилнинг бошидаги ҳисоб-китобларга кўра мамлакатдаги барча асосий фондларининг қиймати амалдаги баҳоларда 123,8 трлн сўмни ташкил этди.

Асосий фондларнинг фаол ва нофаол қисмини бир-биридан фарқлаш лозим. Бинолар, иншоотлар, ўтказгич қурилмалар товар ва хизматларни ишлаб чиқаришга бевосита қатнашмайди, шунинг учун ҳам улар асосий фондларнинг нофаол қисмига киритилади. Ҳозирги пайтда улар барча асосий воситалар қийматининг 60 фоизга яқинини ташкил этади. Унинг қолган қисми машиналар, асбоб-ускуна ва жиҳозлар, транспорт воситалари, хўжалик инвентарлари, ишчи ва маҳсулдор моллар, кўп йиллик дарахтлар, қазилма бойликларни қидириш, ҳисоблаш техникаси дастурларидан иборат фаол қисмдир.

Ўзбекистонда асосий фондларнинг таркиби

	2010		2012	
	Млрд.сўм	%	Млрд.сўм	%
Барча асосий фондлар	85912,0	100	12707,6	100
Шундан:				
Товарлар ишлаб чиқарадиган тармоқлар асосий фондлари	35932,9	41,8	52620,5	42,5
Хизмат кўрсатиш тармоқлари асосий фондлари	49979,1	58,2	71087,1	57,5

Ялпи асосий фондлар қийматида иқтисодиёт ишлаб чиқариш салоҳиятининг пойдевори саноат бўлиб, бу ерда миллий иқтисодиёт барча асосий фондларининг 31,3 фоизи тўпланган. Транспорт ва алоқанинг асосий фондлардаги салмоғи – 22,0, қишлоқ хўжалигининг салмоғи 10 фоизга яқинни ташкил этади.

Янги асосий фондларни ишга туширишнинг секинлашуви, уларнинг эскирган қисмини ишлаб чиқаришдан чиқариб юборишнинг паст суръатлари билан биргаликда нафақат асосий капитал жисмоний ҳажмининг қисқаришига, шу билан бирга фондлар сифат тавсифининг ёмонлашувига олиб келади. Натижада асосий фондларнинг маънавий ва жисмоний эскириш даражаси юқори даражада қолиб кетади. Ҳозирги пайтда мамлакат иқтисодиётида асосий фондларнинг эскириш даражаси 37,1 фоизни ташкил этади. Эскириш даражаси саноатда 39,4, қишлоқ хўжалигида 36,3, транспортда 31,7, қурилишда 40,6, савдо ва умумий овқатланиш, моддий-техника таъминоти ва тайёрлов соҳаларида 22,2 фоизни ташкил этади. Асосий фондларни янгилаш коэффиценти (асосий фондларни ишга тушириш) 13,1 фоиздан иборат. Агар уларни янгилашнинг шу суръати сақланадиган бўлса, асосий капиталга инвестиция киритишнинг ўртача йиллик ўсишини камида 8-10 фоиз даражасида ушлаб туриш керак бўлади.

7.2. Давлатнинг илмий, илмий-техника ва инновация сиёсати

Ўзбекистоннинг ижтимоий-иқтисодий ривожланишини таъминлашда давлатнинг илмий, илмий-техника ва инновация сиёсати муҳим роль ўйнайди. Фаннинг иқтисодий аҳамиятини ошириш, ишлаб чиқариш ва илмий-техника салоҳиятини сақлаш ва янгилаш долзарб муаммолардан ҳисобланади. Давлатнинг бу соҳадаги сиёсатининг бош мақсади фан-техника тараққиётини иқтисодий ўсишнинг муҳим омилига айлантиришдир.

Илмий салоҳият – фундаментал илмий-тадқиқот ишларини амалга оширишнинг ресурс ва шарт-шароитлари мажмуи сифатида тавсифланади.

Илмий-техника салоҳияти эса амалий илмий-тадқиқотлар ва ишланмалар ресурслари ва шарт-шароитлари, тажриба-конструкторлик ва тажриба-технологик ишлар мажмуини ўз ичига олади.

Инновацион салоҳият – барча турдаги илмий-тадқиқот ва ишланмалар натижаларини амалий ўзлаштиришни таъминловчи ресурслар ва шарт-шароитлар мажмуидир.

Шундай қилиб, илмий, илмий-техника ва инновацион салоҳиятлар ягона илмий-инновацион циклнинг ўзаро боғлиқ, бир-бирини тўлдирадиган бўғинларидир: ғоянинг пайдо бўлиши – фундаментал тадқиқот – амалий тадқиқот – конструкторлик ва тажриба-технологик ишланмалар – тажриба намуна (нусха) – саноат синови – ишлаб чиқаришга тадбиқ этиш – серияли ишлаб чиқариш – сотиш – маҳсулотдан амалда фойдаланиш (машина, асбоб, технология).

Бу салоҳиятларни бирлаштирувчи умумий бўғин (звено) – илмий-техника ишланмалари ва уларнинг натижаларидир.

7.3. Илмий, илмий-техника салоҳияти

Илмий салоҳиятнинг макропараметрлари бўлиб ЯИМнинг фан сиғими, илмий тармоқларда банд бўлганларнинг ўртача йиллик сони ва уларнинг

иқтисодиётда банд бўлганларга нисбати, илмий ташкилот ва муассасаларнинг сони ҳисобланади.

Анъанавий илмий ташкилотлар учта соҳага бўлинади: академик, олий ўқув юртлари ва тармоқ институтлари. Йирик корхоналар ҳузурида ҳам илмий-тадқиқот ишлари билан шуғулланадиган бўлимлар мавжуд. 2012 йилда мамлакатимизда 313 та илмий-тадқиқот ва тажриба-конструкторлик ишланмаларини бажарадиган ташкилотлар фаолият кўрсатди. Улардан 142 таси илмий-тадқиқот ташкилотлари, 78 – олий таълим муассасалари, 12 – лойиҳа ва лойиҳа-қидирув ташкилотлари, 8 – саноат корхоналари ва 2 таси конструкторлик ташкилотлари ҳисобланади. Уларда 35,0 мингдан зиёд ходим илмий-тадқиқот ва тажриба-конструкторлик ишлари билан шуғулланади. Улардан 29,4 минг нафари тадқиқотчилар, қолганлари техник ва ёрдамчи ходимлар эди.

Илмий ва илмий-техника салоҳиятининг сифат тавсифини унинг тармоқ таркиби беради. Анъанавий табиий, техник, тиббий, қишлоқ хўжалиги, ижтимоий ва гуманитар фанларга гуруҳлаш қабул қилинган. Кейинги йилларда техника фанларининг аҳамияти ортиб бормоқда. Харажатларнинг ҳам асосий қисми ана шу фан соҳаларини ривожлантиришга сарфланмоқда. Бу тенденция мамлакатимизда олиб борилаётган давлат иқтисодий сиёсати билан боғлиқ. Миллий иқтисодиётда янги индустрлаштириш, модернизациялаш ва улар пировардида эса юқори технологияли инновацион ишлаб чиқаришга ўтиш жараёнлари бормоқда.

Олиб борилаётган чуқур бозор ислохотлари мамлакат фанини ташкил этиш, илмий кадрларни тайёрлаш йўналишларини ҳам қамраб олган, чунки тадқиқотчилар илмий-техника салоҳиятининг муҳим қисми ҳисобланади. 2012 йилда 123 та илмий ташкилот катта илмий ходим-изланувчи институтига эга эдилар. Катта илмий ходим-изланувчилар сони 1249 нафарни ташкил қилди. Уларнинг энг кўпи техника, физика-математика, тиббиёт, иқтисодиёт ва педагогика фанлари йўналишларида тадқиқот олиб бормоқда.

Илмий тадқиқотлар асосан уч йўналишда олиб борилади: фундаментал тадқиқотлар янги билимлар (гипотеза, назария, услубият)га, амалий тадқиқотлар – техник ва технологик янгиликни ишлаб чиқишда янги билимлардан фойдаланиш усул ва йўллари, тадқиқот ва ишланмалар – янги материаллар, маҳсулотлар, қурилмалар, технологик жараёнларга қаратилади.

Инновация, қачонки товар ва хизматлар бозорида сотилсагина амалга ошган ҳисобланади. Кашфиёт, нау-хау, ихтиро, патент, лицензия, фойдали моделлар, саноат намуналари, ахборот технологиялари, концепциялар, бошқариш органларига ижтимоий-иқтисодий ривожланиш бўйича тавсиялар ва бошқа шакллардаги илмий натижалар фан учун мустақил қимматга эга бўла туриб, фақат инновация босқичини босиб ўтгандан кейингина бозор аҳамиятини касб этади.

7.4. Инновация салоҳияти

Инновацион салоҳиятнинг ҳолати ва ривожланиш даражаси қуйидаги кўрсаткичлар билан тавсифланади:

- илмий-техника ишланмалари даражаси;

- тармоқлар ва корхоналар тажриба-экспериментал базасининг ҳолати ва қувватлари;
- тажриба намуналарини ўзлаштириш учун захира ишлаб чиқариш майдонининг мавжудлиги;
- ишлаб чиқариш ва технологик жиҳозлар технологик базаси даражаси;
- янги маҳсулотни серияли ишлаб чиқариш учун ишлаб чиқариш ва ресурсларни тайёрлаш самарали тизимининг мавжудлиги;
- корхонанинг инновацион фаоллик даражаси;
- инноватор-кадрлар тайёрлаш тизими;
- инновацияни молиявий таъминлаш даражаси.

Жаҳон тажрибасида инновация салоҳиятидан фойдаланиш интенсивлиги ва самарадорлиги куйидаги параметрларда баҳоланади:

- саноат умумий маҳсулоти ҳажмида кейинги уч йил давомида ўзлаштирилган янги маҳсулотнинг ҳиссаси;
- технологиянинг янгиланиши ва ривожланиши (анъанавий ва илғор технологиялар нисбати);
- экспортда фан сифими юқори ва ўрта юқори маҳсулотлар ҳиссаси;
- корхонанинг технологик айирбошлашда қатнашиши ва унинг инновацион маҳсулотлар бозоридаги ҳиссаси;
- корхонанинг молия-саноат гуруҳларида қатнашиши.

Инновацион соҳанинг ядроси ишлаб чиқариш корхонасидир. Унинг технологик даражаси, маҳсулотларининг рақобатбардошлиги, ишлаб чиқариш самарадорлиги, бозордаги ўрни, барқарор молиявий аҳволи билимларга, янги технологияларга, янги маҳсулотларга, бошқариш усул ва тартибларига талабни белгилайди.

Ўзбекистонда “Ўзэлтехсаноат” тизимидаги қатор корхоналар – ОАО “Фотон”, “Сино”, “Ўзэлектротерм”, НПК “Кварк” ва бошқа корхоналарда инновацион турдаги маҳсулотлар ишлаб чиқариш йўлга қўйилган. Мамлакатимизда олий малакали инноватор кадрлар Тошкент Давлат техника университети, Тошкент Ахборот технологиялари Университети, Турин политехника институти (Италия), Инхо (Корея Республикаси) университетларида ва бошқа олий ўқув юртларида тайёрланмоқда.

7.5. Инновация фаолиятини бошқариш

Ўзбекистонда инновацион фаолиятни бошқаришнинг давлат механизми ва ҳуқуқий-меъёрий асослари яратилган. Чунончи, 2009 йил 12 мартда Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2009-2014 йилларда ишлаб чиқаришни модернизациялаш, техник ва технологик қуроллантиришнинг энг муҳим лойиҳаларини амалга ошириш чора-тадбирлари Дастури тўғрисида”ги қарори қабул қилинган эди. Бу ҳужжатга мувофиқ 852 та инвестицион лойиҳани амалга ошириш кўзда ттилган бўлиб, улардан 127 таси инновацион характердаги лойиҳалар эди. Бундан сал илгарироқ 2008 йил 15 июлда Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Инновацион лойиҳалар ва технологияларни ишлаб чиқаришга жорий қилишни рағбатлантириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори қабул қилиниб, унда 2013 йилнинг 1 январига қадар ўқув ва илмий тадқиқот муассаса ва ташкилотлари, лойиҳа-конструкторлик ташкилотларининг амалий илмий тадқиқот ва

конструкторлик ишларини хўжалик субъектлари билан тузилган шартномаларни бажаришда фойда солиғи, ягона солиқ тўлови, қўшимча қиймат солиғи ва давлат мақсадли жамғармаларига мажбурий тўловлардан озод қилиш кўзда тутилди. Бу қарорга мувофиқ уларга божхона имтиёзлари ҳам берилди.

2012 йил 21 февралда Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Инновацион лойиҳалар ва технологияларни ишлаб чиқаришга тадбиқ этишни рағбатлантириш борасидаги қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори бу борадаги яна бир муҳим қадам бўлди.

Шунингдек 2008 йилда Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Илмий, илмий-тадқиқот муассаса ва ташкилотлари моддий-техника базасини мустаҳкамлаш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида”, Технологиялар трансфери бўйича Агентлик Давлат унитар корхонаси фаолиятини такомиллаштириш тўғрисида”, “Инновацион лойиҳаларни ишлаб чиқаришга жорий қилишни рағбатлантириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” қарорлари қабул қилинди.

Инновацион фаолиятни кенгайтиришда Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2006 йил 11 майдаги бирламчи устав капитали 1 млрд АҚШ доллариидан иборат “Ўзбекистон Республикаси реконструкциялаш ва ривожланиш жамғармасини ташкил этиш, 2008 йил 2 декабрдаги “Навоий вилоятида эркин индустриал-иқтисодий зонани қуриш тўғрисида”ги фармонлари муҳим аҳамиятга эга бўлди. Кейинги фармонга мувофиқ замонавий чет эл юқори унумдорли жиҳозлар ва техника-технологик линия ва модуллар, инновацион технологияларни жорий этиш ҳисобига кенг миқёсда юқори технологияли, экспортга йўналтирилган, жаҳон бозорида рақобатбардош товарлар ишлаб чиқариш вазифалари белгилаб берилган эди. Ангренда ташкил этилган эркин иқтисодий зонанинг ҳам ана шу мақсадларга ҳизмат қилиши шубҳасиз.

VIII БОБ.ЎЗБЕКИСТОН ИҚТИСОДИЁТИНИНГ ҲУДУДИЙ ТАРКИБИ

8.1. Минтақа – миллий иқтисодиётнинг муҳим таркибий қисми

Миллий иқтисодиётда ишлаб чиқариш ва ижтимоий соҳа мажмуалари билан бирга минтақавий ижтимоий-иқтисодий мажмуалар ҳам фаолият кўрсатади. Бу мажмуаларнинг шаклланиши алоҳида ҳудудлар ишлаб чиқариш кучларининг ривожланиши учун табиий ва ижтимоий-иқтисодий шарт-шароитлар ва омилларнинг мавжудлиги билан изоҳланади.

Минтақавий ижтимоий-иқтисодий мажмуа республика ички минтақаларининг шаклланиши учун объектив асос яратувчи, барқарор иқтисодий муносабатлар ўрнатилган кўплаб объектлардан иборат мураккаб, динамик ривожланувчи тизимдир. Минтақа латинча “region” сўзидан олинган бўлиб, жой, ўлка, аниқ ҳудуд каби маъноларни англатади.

Ижтимоий-иқтисодий тизим сифатида минтақа ҳудудий меҳнат тақсимооти жараёнида ажралиб чиққан мамлакат ҳудудининг бир қисми бўлиб, у ёки бу товар ва хизматларни ишлаб чиқаришга ихтисослашуви, такрор ишлаб чиқариш жараёнининг умумийлиги ва бошқа ҳудудларга нисбатан ўзига хослиги, хўжалигининг мажмуавий ва яхлит характерга эга эканлиги, минтақа олдида турган вазифаларни ҳал этишни таъминловчи бошқарув органларининг

мавжудлиги билан тавсифланади. Бундай ҳудудий бирликларга иқтисодий районлар, республикалар, вилоятлар ва шаҳарларни киритиш мумкин. Улар мамлакатни ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий бошқариш занжирида бир-бири билан ўзаро боғлиқ халқалар тизимини ташкил этади.

8.2. Иқтисодий районларнинг Ўзбекистон иқтисодиётида тутган ўрни ва роли

Ўзбекистонда иқтисодий районлаштиришнинг қуйидаги таснифи кўпроқ қўлланилмоқда:

1. Тошкент иқтисодий райони;
2. Жиззах-Сирдарё иқтисодий райони;
3. Фарғона иқтисодий райони;
4. Самарқанд-Қашқадарё иқтисодий райони;
5. Бухоро-Навоий иқтисодий райони;
6. Қуйи Амударё иқтисодий райони;
7. Сурхондарё иқтисодий райони.

Ўзбекистон иқтисодиётида ички республика минтақаларининг тутган ўрни ва ролига баҳо бериш учун уларнинг жами аҳоли сони ва ижтимоий-иқтисодий ривожланишнинг асосий кўрсаткичларидаги салмоғини таҳлил қилиш лозим.

Ўзбекистон иқтисодий районлари ривожланиш даражасининг қиёсий тавсифи (2014 йил)

	Худуди	Аҳоли сони	Иқтисодиёт да банд бўлганлар	ЯИМ	Саноат маҳсулоти	Қишлоқ хўжалиги маҳсулоти	Асосий капиталга инвестициялар	Қурилиш ишлари
Ўзбекистон Республикаси	100	100	100	100	100	100	100	100
Иқтисодий районлар								
Тошкент	3,5	16,6	19,2	24,5	33,0	12,6	27,5	23,1
Фарғона	4,3	28,5	28,3	17,3	23,0	26,3	14,8	17,1
Жиззах-Сирдарё	5,7	6,5	6,0	4,1	4,0	9,7	5,7	5,2
Самарқанд-Қашқадарё	11,8	20,8	19,4	13,6	14,2	20,2	18,3	16,1
Бухоро-Навоий	31,8	8,7	9,9	10,8	14,5	13,8	14,4	12,6
Қуйи Амударё	38,3	11,2	10,1	5,8	4,0	9,0	12,5	9,8
Сурхондарё	4,6	7,6	7,0	4,2	1,9	9,0	4,1	5,5

8.3. Ўзбекистон минтақаларининг ривожланиш тенденциялари

Бугунги кунда Ўзбекистонда амалга оширилаётган минтақавий иқтисодий сиёсат ҳар бир минтақанинг иқтисодий салоҳиятидан оқилона фойдаланиш асосида барқарор иқтисодий ўсиш суръатларини таъминлаш, ижтимоий-иқтисодий тараққиётида юзага келган минтақавий тафовутларга барҳам бериш ва мамлакатимизнинг турли минтақаларида истиқомат қилувчи аҳоли фаровонлигини оширишга қаратилган.

Минтақалар иқтисодий тараққиётига баҳо беришда ялпи минтақавий маҳсулот кўрсаткичи муҳим ўрин эгаллайди. Ялпи минтақавий маҳсулот охиригистеъмол учун ишлаб чиқарилган товар ва хизматлар қийматини ўзида акс эттиради. У ишлаб чиқариш усулида, яъни ялпи ишлаб чиқариш ва ялпи оралик истеъмол ўртасидаги тафовут сифатида ҳисобланади. Шу жиҳатдан ялпи минтақавий маҳсулот ва ялпи ички маҳсулот бир-бирига яқин кўрсаткичлардир. Аммо ялпи минтақавий маҳсулотлар йиғиндиси ялпи ички маҳсулот ҳажмидан сезиларли даражада фарқ қилади. Бунинг сабаби шундан

иборатки, минтақа очик иқтисодий тизим. Шу сабабли минтақа доирасида ишлаб чиқариш чегараларини аниқ белгилаб олиш ва ушбу минтақа ҳудудида яратилган қўшилган қиймат ҳажмини аниқлаш анча мураккаб.

Сўнгги йилларда Ўзбекистоннинг барча минтақаларида барқарор ўсиш суръатлари кузатилади. Айтилишича минтақаларда ялпи минтақавий маҳсулот ўсиш суръатларининг турли суръатларда кечаётганлигини таъкидлаш лозим.

Агар 2005 йилда Ўзбекистонда ялпи ички маҳсулотнинг ўсиш суръати 107,0 фоизни ташкил этган бўлса, 5 та минтақа – Андижон (110,2 фоиз), Бухоро (109,9 фоиз), Жиззах (108,3 фоиз), Қашқадарё (108,0 фоиз), Сирдарё (111,1 фоиз)да ялпи минтақавий маҳсулотнинг ўсиш суръати республика кўрсаткичидан юқори бўлди. Айтилишича 2014 йилда эса республика ялпи ички маҳсулотининг ўсиш суръати (108,1 фоиз)дан ялпи минтақавий маҳсулотининг ўсиш суръати юқори бўлган минтақалар сони 7 тани ташкил этди: Қорақалпоғистон Республикаси (108,4 фоиз), Хоразм (11,7 фоиз), Самарқанд (110,5 фоиз), Наманган (110,3 фоиз), Сурхондарё (109,3), Жиззах (108,6), Фарғона (108,8) ва Бухоро вилоятлари (108,2).

Ўзбекистон ялпи ички маҳсулотининг катта қисми Тошкент шаҳри, Тошкент, Қашқадарё, Фарғона, Андижон ва Самарқанд вилоятлари томонидан яратилади. Агар 2005 йилда Ўзбекистон ялпи ички маҳсулотининг 54,8 фоизи ушбу минтақалар ҳиссасига тўғри келган бўлса, 2014 йилга келиб бу кўрсаткич 51,2 фоизни ташкил этган.

Минтақалар иқтисодиёти ривожланишига баҳо беришда минтақалар иқтисодиётининг тармоқ таркиби кўрсаткичи ҳам муҳим ўрин тутди. Таҳлиллар шуни кўрсатадики, сўнгги йилларда барча минтақалар иқтисодиёти таркибида ижобий ўзгаришлар юз бериб, у саноат ва хизмат кўрсатиш тармоқлари улушининг ўсиб бориши билан тавсифланади.

8.4. Ўзбекистон ижтимоий-иқтисодий ривожланишида минтақавий тафовутлар ва уларни юмшатиш омиллари

Мустақиллик йилларида иқтисодиётни ҳудудий жиҳатдан тартибга солиш вазифаларини такомиллаштириш, маҳаллий бошқарув органларининг ҳуқуқлари ва ваколатларини кенгайтириш, минтақаларда мавжуд минерал-хомашё, табиий-иқлим ресурслари ва иқтисодий салоҳиятдан самарали фойдаланиш мақсадида ишлаб чиқариш кучларини жойлаштириш ва иқтисодиётнинг ҳудудий таркибини такомиллаштириш, экспортга йўналтирилган ва импорт ўрнини босувчи ишлаб чиқаришни ривожлантириш соҳасида сезиларли ютуқларга эришилди.

Шунга қарамасдан, минтақалар ижтимоий-иқтисодий ривожланишида сезиларли тафовутлар сақланиб қолмоқда. Шунини алоҳида таъкидлаш лозимки, минтақавий тафовутларнинг мавжуд бўлиши табиий ҳол бўлиб, ҳар қандай мамлакатга хос.

Минтақавий тафовутларнинг мавжуд бўлиши қандайдир маънода зарур, чунки улар капитал, меҳнат ва моддий ресурслар миграциясига ёрдам беради, ижтимоий-иқтисодий ривожланишга муайян даражада динамизм бахш этади. Аммо бошқа томондан ҳудудий тафовутларнинг вужудга келишига табиий-иқлим ёки ижтимоий-тарихий омилларга бевосита боғлиқ бўлмаган, балки

бевосита иқтисодий омиллар билан боғлиқ бўлган сабаблар устувор ўринга эга бўлиши мумкин.

2014 йилда киши бошига ишлаб чиқарилган ялпи минтақавий маҳсулотнинг энг юқори (Тошкент шаҳри) ва энг паст (Қорақалпоғистон Республикаси) кўрсаткичлари ўртасидаги нисбат 4,3 мартани ташкил этган. Бу кўрсаткич 2005 йилда 3,8 мартага тенг эди.

Миллий иқтисодиётни модернизациялаш шароитида ҳудудий дастурлар минтақаларни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш сиёсатининг асосий дастакларидан бири вазифасини ўтамоқда. Фақат 2014 йилда ҳукумат ва маҳаллий бошқарув органлари томонидан Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар, Тошкент шаҳрини ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш, “Навоий”, “Ангрен” ва “Жиззах” каби махсус индустриал зоналар шаклида алоҳида ҳудудларни ривожлантириш, Хоразм ва Тошкент вилоятларида саноат ва туризмни барқарор ривожлантириш, минтақавий инвестиция дастурлари ва бошқа мақсадли дастурлар амалга оширилди.

IX БОБ. САНОАТ МАЖМУАСИ

9.1. Саноат мажмуасининг тавсифи ва тузилиши

Саноат мамлакатнинг жаҳон хўжалигидаги мавқеини белгилаб берадиган ва унинг рақобатбардошлигини оширишга ҳисса қўшадиган соҳа. Тармоқнинг иқтисодиёт таркибини такомиллаштириб боришга таъсири юқори. Жаҳоннинг ривожланган давлатлари кўпинча саноати тараққий этган давлатлардир. Чунки, ривожланган давлатлар иқтисодий ўсишнинг миқдор ва сифат кўрсаткичларига саноат ишлаб чиқаришини жадал ривожлантириш орқали эришган. Саноатнинг ресурсталаб, меҳнатталаб ва илм сифими юқори соҳаларини бир-бирига мутаносиб тараққий эттириш бўйича бу давлатлар бой тажрибага эга.

Саноат мажмуасининг таркиби жуда мураккаб бўлиб, Ўзбекистонда бу мажмуа саноат йириклаштирилган қуйидаги 18 та тармоққа бўлинади: электроэнергетика, ёқилғи саноати, қора металлургия, рангли металлургия, кимё ва нефть кимёси, машинасозлик ва металлга ишлов бериш, ўрмон, ёғочни қайта ишлаш ва целлюлоза-қоғоз саноати, қурилиш саноати, қурилиш-конструкциялари ва деталлари саноати, ойна ва чинни-фаянс саноати, енгил саноат, озиқ-овқат саноати, микробиология саноати, ун-ёрма ва аралаш ем саноати, тиббиёт ускуналари саноати, полиграфия саноати.

Саноат мажмуасининг ривожланишини ўрганишда тармоқ, ҳудудий ва технологик ёндошувдан фойдаланилади. Саноатнинг тармоқ ва ҳудудий таркибидаги ўзгаришлар бир-бирини тўлдиради.

Саноатлашган мамлакатларда тармоқ технологик жиҳатдан қуйидаги 4 та гуруҳга ажратиб кўрсатилади:

1. Юқори технологик;
2. Ўрта даражадаги юқори технологик;
3. Ўрта даражадан паст технологик;
4. Технологик даражаси паст саноат тармоқлари.

9.2. Миллий иқтисодиётда саноатнинг ўрни

Саноат миллий иқтисодиётда кенгайтирилган такрор ишлаб чиқариш ва иқтисодий ўсишнинг асосий омиллари мужассамлашган соҳа ҳисобланади. Бу тармоқда иқтисодиётнинг бошқа тармоқлари – қишлоқ хўжалиги, қурилиш,

транспорт, алоқа, савдо ва умумий овқатланиш кабилар учун ишлаб чиқариш воситалари яратилади, техника ва технологиялар такомиллаштирилади. Шунингдек, инновацион ресурслар шаклланади, илмий-тадқиқот ва тажриба конструкторлик ишланмалари амалга оширилади. Мамлакатнинг илмий-техника салоҳиятидан самарали фойдаланишда саноат моддий асос бўлиб хизмат қилади.

Бозор ислохотларини амалга ошириш босқичида мулкни давлат тасарруфидан чиқариш ва хусусийлаштириш, кўп укладли иқтисодиётни барпо этиш, кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни ривожлантириш бўйича амалга оширилаётган йирик лойиҳалар ва дастурлар ҳам саноат соҳасига тегишлидир. Масалан, 2014 йилда умумий қиймати 4 млрд. 200 млн. долларга тенг 154 та саноат объекти фойдаланишга топширилди. 2015 йилда капитал қўйилмалар ҳажми қарийб 15 млрд. долларни ташкил этса, шу маблағларнинг 74,5 фоизга яқини саноат ишлаб чиқариш объектларини қуришга, 43,1 фоизи эса асбоб-ускуналар сотиб олишга йўналтирилган.

Ўзбекистон иқтисодиётида саноатнинг ўрнини ифодаловчи кўрсаткичлар

Кўрсаткичлар	2000	2005	2010	2011	2012	2013
Ўтган йилга нисбатан, %						
ЯИМ ҳажмининг ўсиш суръати	103,8	107,0	108,5	108,3	108,2	108,0
Саноат ишлаб чиқариши ҳажмининг ўсиш суръати	105,9	107,2	108,5	106,4	107,7	108,3
1991 йилга нисбатан, %						
ЯИМ ҳажмининг ўсиш суръати	98,6	127,9	192,5	208,5	225,6	241,2
Саноат ишлаб чиқариши ҳажмининг ўсиш суръати	121,8	176,4	292,3	311,0	334,9	357,6
ЯИМда саноатнинг улуши, %	14,2	21,1	23,6	24	24	24,5
Жами фойдада саноатнинг улуши, %	29,8	67,9	53,7	47,0	59,9	66,1
Иқтисодиётда банд бўлганларда саноатнинг улуши, %	12,7	13,2	13,2	13,1	13,0	13,0
Асосий капиталга киритилган инвестицияларда саноатнинг улуши, %	29,8	32,6	30,4	33,8	34,5	31,7

Саноатнинг Ўзбекистон иқтисодиёти ривожланишидаги аҳамияти ортиб бормоқда. Саноат ишлаб чиқариши ҳажмининг ўсиш суръатлари кейинги йилларда 5,9-7,7 фоиз атрофида бўлди. 2000 йилга нисбатан ялпи ички маҳсулот қарийб 1,4 баробар ошган бўлса, бу даврда саноат ишлаб чиқариш ҳажми қарийб 2,0 мартага кўпайди. Саноатнинг ЯИМдаги ҳиссаси 2000-2013 йилларда 14,2 фоиздан 24,5 фоизга кўтарилди. 2013 йили иқтисодиётда банд бўлганларда саноатнинг улуши 13,2 фоизни, асосий капиталга киритилган инвестициялар ҳажмида эса саноатнинг улуши 31,2 фоизни ташкил этди.

Саноат тармоқларида 2000-2013 йилларда ишлаб чиқариш ҳажми юқори суръатларда ўсди. Масалан, озиқ-овқат саноати маҳсулотлари ишлаб чиқариш 4,7 марта, ёқилғи ишлаб чиқариш қарийб 2,0 марта, машинасозлик

маҳсулотлари ва металлни қайта ишлаш ҳажми 12,0 марта, енгил саноат маҳсулотлари ҳажми қарийб 3,0 марта, қора металлургия маҳсулотлари ҳажми 3 марта, кимё ва нефт кимёси маҳсулотлари ҳажми қарийб 4,0 мартага ошди. Саноат тараққиётидаги бундай ўзгаришлар саноат ишлаб чиқаришида техник ва технологик янгилаш, диверсификация ва модернизация чора-тадбирларининг самараси ҳисобланади. Бу саноат ишлаб чиқариши тармоқ тузилишининг такомиллашувига олиб келмоқда.

Саноат тармоғининг рентабеллиги 2000-2013 йилларда 33,3-36,5 фоиз атрофида ўзгарди. Умумий саноатдаги рентабеллик кўрсаткичидан юқори рентабеллик даражаси таъминланаётган тармоқлар юқори рентабелли саноат тармоқлари ҳисобланади. 2013 йилда ёқилғи саноати, қора металлургия, рангли металлургия, қурилиш материаллари саноати ва озиқ-овқат саноати юқори рентабелли тармоқлар бўлди.

Паст рентабеллиги саноат тармоқларига 2013 йилда машинасозик ва металлни қайта ишлаш, енгил саноат, электр энергияси, ёғоч, ёғочни қайта ишлаш ва целлюлоза-қоғоз саноатини киритиш мумкин. Айтиш ўринлики, рентабеллик кўрсаткичлари 2000-2013 йилларда турли саноат тармоқларида ўзгариб турган. Бу натижалар тармоқларда амалга оширилган инвестиция лойиҳалари, бозорларга кириш стратегияси, замонавий менежментни ташкил этиш даражаси, ички ва ташқи бозордаги конъюнктуравий ўзгаришларга боғлиқ бўлди.

9.3. Миллий саноатнинг ривожланиш босқичлари

Ўзбекистон иқтисодиётида табиий-хом ашё, меҳнат, моддий-техник, иқтисодий, молиявий ва инновацион имкониятлардан унумли фойдаланишга йўналтирилган туб ислохотлар амалга оширилмоқда. Бу бевосита саноат ишлаб чиқаришида ресурслар ва турли салоҳиятларнинг мужассамлаштирилишида ҳам намоён бўлмоқда. Соҳада хўжалик-иқтисодий, ташкилий, институционал, мулкӣ ва ҳуқуқӣ ислохотлар амалга оширилди.

Миллий саноат ривожланиши тадрижий мазмун касб этмоқда. Шу сабабли бу жараёни шартли равишда босқичларга ажратиб ўрганиш мақсадга мувофиқ.

Биринчи босқич - 1991-1995 йиллар – мавжуд ишлаб чиқариш салоҳиятини сақлаб қолиш, стратегик муҳим аҳамиятга эга хом ашёларни қазиб олиш ва бирламчи қайта ишлаш, импорт ўрнини босувчи ўзақ тармоқларни ривожлантириш, ҳамда ишлаб чиқариш ҳажми кескин пасайиб кетишининг олдини олиш чора-тадбирлари даври ҳисобланади. Бу даврда саноатнинг ўзақ тармоқларини жадал ривожлантириш, ички бозорни протекционизм воситалари билан ҳимоя қилиш, энергия манбалари нарҳини бошқариш орқали асосий саноат корхоналари рентабеллигини таъминлаш, кичик саноат корхоналарини хусусийлаштириш амалга оширилди.

Иккинчи босқич - 1995-2000 йиллар. Бу давр иқтисодий мустақиллик асосларини ташкил этувчи саноат тармоқларини устун ривожлантириш, импорт ўрнини босувчи саноатлаштириш стратегиясини кенг миқёсда амалга ошириш, қайта ишлаш тармоқларига инвестициялар оқимини кенгайтириш билан тавсифланади. Машинасозлик, енгил саноат, кимё ва озиқ-овқат саноати тармоқларига капитал кўйилмалар кўпайтирилди. Бу босқичда саноат

соҳаларига жалб этиладиган инвестицияларнинг қонунчилик баъзаси яратилди, конкурс асосида лойиҳаларни молиялаштиришга ўтилди. Шу билан бирга, хорижий инвестицияларни жалб этиш чора-тадбирлари кўрилиб, иқтисодиётнинг реал секторига инвестициялар киритилиши кучайтирилди. Саноатдаги инвестицион лойиҳаларни амалга оширишда турли молиялаштириш манбалари қўлланила бошланди. Бюджет маблағлари саноат ишлаб чиқаришини ривожлантиришда муҳим манба бўлиб хизмат қилди.

Учинчи босқич – 2000-2008 йиллар. Бу босқичда импорт ўрнини босувчи саноатлаштириш билан ёнма-ён экспортга йўналтирилган саноат тармоқларини барпо этишга эътибор қаратилди. Йирик саноат корхоналарини хусусийлаштириш, давлат корхоналарининг монопол мавқеини чеклашга эришилди. Хусусий секторнинг саноатдаги роли оширилиб, самарасиз фаолият кўрсатаётган саноат корхоналарини тугатиш ишлари амалга оширилди. Корхоналарни бошқаришнинг ташкилий тузилмаси ислоҳ қилиниб, маҳаллийлаштириш дастурлари рўёбга чиқарилди. Бундан ташқари давлат иқтисодий сиёсатида қуйидагиларга эътибор қаратилди:

- валюта муносабатлари ва операцияларини эркинлаштириш;
- хорижий инвесторларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш ва улар манфаатларини ҳимоялаш бўйича муҳим ҳужжатлар қабул қилиш;
- корхоналарнинг техник жиҳозланишини жадаллаштириш;
- экспортга мўлжалланган ва импорт ўрнини қопловчи маҳсулотлар ишлаб чиқаришга ихтисослашган лойиҳаларни молиялаштиришга устуворлик бериш ва бошқалар.

Тўртинчи босқич – 2008 йиллардан ҳозиргача бўлган давр. Бу босқич глобал молиявий-иқтисодий инқироз бошланиши оқибатида саноатдаги модернизация чора-тадбирларининг кучайиши билан тавсифланади. Бу даврда саноатни ривожлантириш йўналишларини белгилаб берувчи муҳим ҳужжатлар қабул қилинди. Мамлакатимизда жаҳон молиявий-иқтисодий инқирозининг салбий оқибатларини бартараф этиш бўйича 2009-2012 йилларга мўлжалланган Инқирозга қарши чоралар дастури ва 2011-2015 йилларда саноатни ривожлантириш дастури амалга оширилди. Шунингдек, саноат корхоналарининг технологик даражасини баҳолаш ишлари охирига етказилди, техник-технологик янгилаш, кенг қўламда модернизация чора-тадбирларини амалга оширишга эътибор қаратилмоқда.

9.4. Давлат саноат сиёсати ва тармоқдаги таркибий ўзгаришлар

Саноат сиёсати таркибий ўзгаришларни амалга оширишга, иқтисодиётнинг инновацион тараққиётини таъминлашга ва аҳоли турмуш даражасини оширишга ёрдам беради. Саноат сиёсатини саноатлаштириш сиёсати деб ҳам юритилади.

Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози оқибатларини бартараф этишда саноатлаштириш сиёсатини амалга оширишда анъанавий дастаклардан фойдаланилмоқда. Уларни қуйидаги гуруҳларга ажратиш мумкин:

Биринчи гуруҳ дастакларга солиқ-тариф институтлари киради. Солиқ солишнинг имтиёзли тизими, тариф, божхона, амортизация сиёсати ва бошқалар шулар жумласидан. Улар тўғридан-тўғри молиялаштиришни талаб

этмайди, лекин маълум муддатга давлатнинг вужудга келиши мумкин бўлган даромадларини қисқартириши ёки ортга суриши мумкин.

Иккинчи гуруҳ дастакларга давлатнинг тўғридан-тўғри молиялаштириш воситалари киради. Субсидиялар ажратиш, давлат томонидан тўғридан-тўғри инвестицияларни амалга ошириш шундай воситалардир.

Учинчи гуруҳ дастаклар устувор илмталаб тармоқлар - таълим, ИТТКИ, ишлаб чиқариш ва транспорт инфратузилмаси кабиларнинг фаолиятини қўллаб-қувватлашдан иборат.

Тўртинчи гуруҳга институционал характерга эга дастаклар киради. Бозорга кириш ва чиқишда тўсиқларни қўйиш ёки олиб ташлаш, антимонопол қонунчилик, интеграция жараёнларини дастаклаш, миллий бозорда маҳаллий ишлаб чиқарувчиларни қўллаб-қувватлаш мақсадида протекционизм сиёсатини қўллаш шулар жумласидандир.

Саноат тармоқ тузилишининг ўзгариш динамикаси, (фоизда)

	2000	2005	2011	2012	2013	2000-2013 йй.даги ўзгариш, -,+, %
Саноат	100	100	100	100	100	
Электр энергияси	11,9	11,3	7,9	7,7	7,5	-4,4
Ёқилғи	13,4	16,2	17,3	18,0	18,4	5,0
Қора металлургия	2,5	2,5	2,6	2,6	2,6	0,1
Рангли металлургия	15,4	16,9	10,4	10,0	9,8	-5,2
Кимё ва нефт кимёси	5,4	5,6	5,7	5,5	5,9	0,5
Машинасозлик ва металлни қайта ишлаш	12,0	13,0	16,2	17,5	17,8	5,8
Ёғоч, ёғочни қайта ишлаш ва целлюлоза-қоғоз саноати	0,9	1,0	1,2	1,3	1,3	0,4
Қурилиш материаллари	4,0	3,6	5,3	5,5	5,6	1,6
Енгил	19,2	16,6	13,4	12,9	12,3	-5,9
Озиқ-овқат	9,4	8,2	14,1	13,2	13,0	3,8
Бошқалар	5,9	5,9	5,9	5,8	5,8	-0,1

Кучли инвестиция сиёсати, ички бозорда талабнинг кучайтирилиши, саноатнинг ресурсталаб ва илм сиғими юқори соҳаларини устун даражада ривожлантириш юқоридаги ўзгаришларга олиб келди.

9.5. Асосий саноат тармоқларининг ривожланиши

Ёқилғи-энергетика саноати. Ёқилғи-энергетика саноати миллий иқтисодиётнинг муҳим тармоқларидан бири бўлиб, соҳанинг мамлакат иқтисодий юксалишидаги аҳамияти юқори ҳисобланади. Ёқилғи саноати ҳар хил ёқилғи турларини қазиб олиш, қайта ишлаш билан банд бўлган саноат тармоқлари мажмуасидир. Нефт қазиб олиш, нефтни қайта ишлаш, газ, кўмир саноатларини ўз ичига олади. Шу билан бирга ёқилғи саноати энергетиканинг етакчи тармоқларидан бири ҳамдир. Иқтисодиётдаги электрлаштириш, автоматлаштириш, механизациялаштириш, йирик миқёсли саноат корхоналарининг барпо этилиши, аҳоли сонининг ошиб бориши ёқилғи саноати мақсулотларига талабни ошириб юборди. Шу сабабли ёқилғи қазиб олиш ва уни қайта ишлашнинг аҳамияти ҳам ортиб бормоқда. Бугунги кунда Ўзбекистон бирламчи энергия манбалари билан ўзини ўзи таъминлай оладиган давлатлар қаторига киради. Нефт қазиб олиш, нефтни қайта ишлаш, газ, кўмир қазиб олиш ҳажми мустақиллик йилларида динамик ўзгариб борди. Шунга

кўра, мамлакатнинг ёқилғи балансида ёқилғи турларининг улуши ҳам ўзгариб бормоқда.

Машинасозлик ва металлга ишлов бериш саноати. Иқтисодиёт тармоқлари учун ишлаб чиқариш воситалари, асбоб-ускуналар, станоклар, истеъмол буюмлари ишлаб чиқарадиган тармоқлар мажмуидир. Бу мажмуага энергетика машинасозлиги, электротехника, станоксозлик, автомобилсозлик, тракторсозлик, қишлоқ хўжалиги машинасозлиги, тўқимачилик машинасозлиги каби тармоқлар киритилади. Бугунги кунда мамлакатимизда 15 тармоққа мансуб 100 дан ошиқ йирик корхоналар машинасозлик саноатини ташкил этади. Автомобилсозлик, радиоэлектроника каби тармоқлар соҳанинг илғор тармоқлари ҳисобланади.

Қора ва рангли металлургия. Қора ва рангли металлургия саноатининг иқтисодиётдаги ўрни катта бўлиб, бу тармоқ маҳсулотлари машинасозлик, дастгоҳсозлик, ускунасозлик, электроника ва электротехника, радиотехника, маиший техника корхоналари учун маҳсулот ишлаб чиқаради. Ҳозирда йилига 750 минг тонна пўлат, 710,5 минг тонна қора метал тайёр прокатлари, 1,2 минг тонна иккиламчи алюминий, 19,6 минг тонна рангли металллар прокати ҳамда 400 тонна атрофида рангли металл қотишма ишлаб чиқарилмоқда.

Кимё ва нефть кимёси. Кимё саноати Ўзбекистонда етакчи ва илғор саноат тармоқларидан бири ҳисобланади. Хилма-хил кимё маҳсулотлари турлари, жумладан, кон-кимё хом ашёси, асосий кимё маҳсулотлари - аммиак, ноорганик кислоталар, ишқорлар, минерал ўғитлар, сода, хлор ва хлорли маҳсулотлар, суюлтирилган газлар, пластмасса ва синтетик смолалар, капрролактама, целлюлоза ацетатлари, кимёвий тола ва иплар, пластмасса ва шиша-пластиклардан материаллар ва буюмлар, лок-буёқ материаллари, синтетик буёқлар, кимёвий реактивлар, фото кимё маҳсулотлари, маиший кимё товарлари ишлаб чиқаришни ўз ичига олади.

Бугунги кунда тузилма таркибида 34 дан ошиқ корхона фаолият юритмоқда. “Электрокимёсаноат” АЖ, Фарғона “Азот” ишлаб чиқариш бирлашмаси, Деҳқонобод калийли ўғитлар ишлаб чиқариш заводи, “Қўқон суперфосфат заводи”, Самарқанд кимё заводи, Олмалик “Аммофос” АЖ, Кўнғирот сода заводи, Навоий “Электрокимё” заводи, “Навоийазот” корхонаси, “Андижон биокимё заводи”, “Янгийўл биокимё заводи” АЖ, Ангрен “Резинатехника” заводи, Оҳангарон “Сантехлит”, “Жиззахпластмасса” заводи, “Тошкент лок-буёқ заводи” АЖ кабилар кимё саноатининг йирик корхоналари ҳисобланади.

Енгил саноат. Енгил саноат турли хом ашёлардан аҳоли ва қатор ишлаб чиқариш турлари учун истеъмол маҳсулотлари ишлаб чиқариш корхоналари мажмуи ҳисобланади. Енгил саноатда асосан қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари – пахта, ипак, зиғир, каноп, жут толалари, ҳайвонлар териси, жуни, сунъий толалар, сунъий чарм хом ашё сифатида фойдаланилади. Тўқимачилик, тикувчилик, трикотаж, кўнчилик, мўйнадўзлик, пойабзал саноати, шойичилик, гиламчилик, чинни-фаянс буюмлари ишлаб чиқариш, шунингдек, пахта тозалаш саноати енгил саноатнинг асосий тармоқларидир.

Енгил саноат тўқимачилик, тикувчилик, чарм, мўйна ва пойабзал тармоқларига бўлинади. Енгил саноатда асосий тармоқ тўқимачилик

ҳисобланади. Унинг жами енгил саноат маҳсулотидаги улуши қарийб 90 фоизни ташкил этади.

Ўзбекистон енгил саноатида ташкилий-иқтисодий тузилмалар “Ўзбекенгилсаноат” давлат уюшмаси, “Ўзбек ипаги” уюшмаси ҳамда “Ўзбекчармпойабзал” уюшмаси ҳисобланади. Бу тармоқда 150 дан ошиқ корхона фаолият олиб бормоқда.

Қурилиш материаллари саноати. Миллий иқтисодиётнинг барпо этилиши ва юқори суръатларда ривожланишида қурилиш материаллари саноатининг аҳамияти мустақиллик йилларида салмоқли бўлмоқда. Мазкур саноат ишлаб чиқариши икки йўналишда – капитал қурилиш, аҳоли эҳтиёжлари учун уй-жой ва бошқа объектлар қуришга хизмат кўрсатмоқда. Қурилиш материаллари саноатининг асосий товар маҳсулотлари цемент, қурилиш оҳаги, гипс, йиғма темир-бетон конструкция ва буюмлари, деворбоп материаллар, асбест-цементли шифер, асбест-цементли қувур ва муфталар, линолеум, безакли сопол плиткалар, керамзит, норуца қурилиш материалларидан иборатдир.

Озиқ-овқат саноати. Озиқ-овқат саноати, бир томондан, агросаноат мажмуаси таркибига кирса, бошқа томондан мамлакат озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлашда етакчи вазифани бажараётган ишлаб чиқариш соҳаси ҳисобланади. Тармоқ таркибига гўшт-сут, ёғ-мой, балиқ маҳсулотлари, ун-ёрма, макарон, мева-сабзавот консервалари, сут-ёғ, шакар, чой қадоқлаш, қандолатчилик, нон, узум, шампан винолари, спирт, чанқовбосди ичимликлар, совун саноати корхоналари киритилади.

Ўзбекистоннинг замонавий озиқ-овқат саноатида 3200 дан ошиқ корхоналарда жами 200 дан ошиқ маҳсулотлар ишлаб чиқарилмоқда.

Х БОБ. АГРОСАНОАТ МАЖМУАСИ

10.1.Агросаноат мажмуасининг таркибий тузилиши

Агросаноат мажмуаси миллий иқтисодиётда қишлоқ хўжалиги хом ашёсидан аҳолининг озиқ-овқат ва халқ истеъмоли товарларига бўлган эҳтиёжларини таъминлашда ўзаро ҳамкорликда фаолият кўрсатадиган тармоқлар, корхоналар, фаолият турлари мажмуаси ҳисобланади. Агросаноат мажмуасининг муҳим стратегик аҳамияти шундан иборатки, мажмуа мамлакат аҳолисини узлуксиз равишда, сифатли ва етарли миқдорда озиқ-овқат маҳсулотлари билан таъминлашга хизмат қилиши лозим.

Агросаноат мажмуаси мураккаб ва кўп тармоқлидир. Унинг ишлаб чиқариш тузилмасида қишлоқ, сув ва ўрмон хўжалиги муҳим аҳамиятга эга. Чунки, айнан мана шу тармоқда ишлаб чиқариладиган маҳсулотлар агросаноат мажмуаси корхоналарида қайта ишланади, ташилади, сақланади ва истеъмолга олиб чиқилади. Агросаноат мажмуаси йирик 3 соҳани ўз ичига олади:

1) Қишлоқ хўжалигига ишлаб чиқариш воситаларини етказиб берадиган саноат тармоқлари – трактор ва қишлоқ хўжалиги машинасозлиги, мелиоратив ва сув хўжалиги объектлари қурилиши тармоқлари, асосий фондлар таъмири бўйича корхоналар, минерал ўқиш ва ўсимликларни ҳимоя қилиш воситалари, биологик фаол препаратлар ишлаб чиқариш, озуқа ва микробиология саноати, турли қишлоқ хўжалиги учун идишлар (тара) тайёрлаш ва бошқалар.

2) Қишлоқ, сув ва ўрмон хўжалиги.

3) Қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини қайта ишлаш ва истеъмолчига етказиб бериш билан банд бўлган тармоқлар – тайёрлов, қайта ишлаш, сақлаш, ташиш, сотиш ва бошқалар.

Ўзбекистон иқтисодиётида агросаноат мажмуаси ҳиссасига ялпи ички маҳсулотнинг қарийб 30,0 фоизи, асосий ишлаб чиқариш фондларининг 30 фоизига яқини, иқтисодиётда банд бўлган аҳолининг деярли 35 фоизи тўғри келади.

10.2. Миллий иқтисодиётда қишлоқ хўжалигининг ўрни

Ўзбекистонда ҳам қишлоқ хўжалиги миллий иқтисодиётнинг таянч соҳаларидан бири ҳисобланади. Бу тармоқда амалга оширилаётган бозор ислохотлари, мулкчилик муносабатлари, хўжалик юритиш шакллариининг барқарорлиги, қишлоқ инфратузилмасининг кескин такомиллашуви жихатидан ўзининг қамрови, сифат кўрсаткичлари билан МДҲ давлатларида илғор ҳисобланади.

Қишлоқ хўжалигининг миллий иқтисодиётдаги ролига баҳо беришда кўплаб иқтисодий кўрсаткичлардан фойдаланилади. Қишлоқ хўжалиги иқтисодий ривожланишини тавсифловчи асосий кўрсаткичлар қуйидагилар:

- Қишлоқ хўжалигининг ЯИМдаги улуши ўзгариши;
- Қишлоқ хўжалигида банд бўлганлар сони;
- Жами бандликда қишлоқ хўжалигининг улуши ўзгариши;
- Ўтган йилга нисбатан қишлоқ хўжалиги маҳсулотининг ўсиш суръати;
- Базис йилга нисбатан қишлоқ хўжалиги маҳсулотининг ўсиш суръати;
- Қишлоқ хўжалигига яроқли ер майдони, йил охирига, минг га;
- Қишлоқ хўжалигининг асосий капиталга киритилган инвестициялардаги улуши ўзгариб бориши, %;
- Қишлоқ хўжалиги маҳсулотининг хўжалик юритиш субъектларига кўра тузилиши, %;
- Қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқариш кўрсаткичлари;
- Деҳқончилик маҳсулотлари ҳосилдорлиги ўзгариши;
- Экин майдонлари таркибининг ўзгариши ва бошқалар.

Қишлоқ хўжалигининг миллий иқтисодиётдаги ўрнини тавсифловчи кўрсаткичлар

Кўрсаткичлар	2000	2005	2010	2011	2012	2013
Қишлоқ хўжалигининг ЯИМдаги улуши, %	30,1	26,3	18,0	17,6	17,5	17,3
Қишлоқ хўжалигида банд бўлганлар сони, минг киши	3 093,0	2 967,0	3 127,5	3 239,4	3 324,9	3 388,3
Жами бандликда қишлоқ хўжалигининг улуши, %	34,4	30,1	29,0	27,8	27,2	27,0
Қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришининг ўсиш суръати, ўтган йилга нисбатан	103,1	105,4	106,9	106,6	107,0	107,1
Қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришининг ўсиш суръати, 2000 йилга нисбатан	100,0	136,0	181,2	193,1	206,6	217,5
Қишлоқ хўжалигининг асосий капиталга киритилган инвестициялардаги улуши, %	5,7	5,2	4,7	4,3	4,1	3,9

Ўзбекистонда ўтган йилларда соҳанинг иқтисодиётдаги ҳиссаси миқдорий камайган бўлсада, тармоқнинг ички сифат кўрсаткичлари яхшиланиб борди. Бу қишлоқ хўжалигида банд бўлганлар сонининг ортишида, айти пайтда жами бандликда қишлоқ хўжалигининг улуши камайганлигида, қишлоқ хўжалиги маҳсулоти ишлаб чиқариш ҳажмининг ўтган йилга ва базис йилга нисбатан ошиб боришида, шу билан бирга, қишлоқ хўжалиги ер майдонининг нисбатан қисқаришида ўз ифодасини топади. 2000-2013 йилларда соҳада банд аҳоли сони қарийб 235 минг кишига кўпайган. Шу билан бирга, жами бандликдаги ҳиссаси 34,4 фоиздан 27,0фоизга пасайган, яъни 7,4 фоизга камайган. 2013 йилда қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқариш ҳажми 2000 йилга нисбатан 2,3 баробар кўпайди. Шу йили қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқариш 6,8 фоизга, жумладан, деҳқончилик – 6,4 фоизга, чорвачилик – 7,4 фоизга ўсди. Бу тенденция 2014, 2015 йилларда давом этди.

10.3. Қишлоқ хўжалиги ривожланишининг тавсифи

Ўзбекистонда қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришида таркибий, тузилмавий, мулкӣй, ҳудудӣй ва ташкилий-ҳуқуқӣй ўзгаришларнинг миқёси катта бўлди. Ислохотлар стратегиясида аграр соҳа давлат ва ҳукуматнинг доимӣй эътибор марказида бўлди.

Ўзбекистонда аграр ислохотларнинг амалга оширилиши ва ерга мулкчилик муносабатларининг ўзгартирилиши натижасида қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқаришнинг мулкчилик шакллари бўйича таркибида ҳам сезиларли ўзгаришлар содир бўлди.

Аграр соҳада мулкчилик муносабатларининг ўзгартирилиш натижасида яратилаётган ялпи қишлоқ хўжалиги маҳсулотида хўжалик юритувчи субъектларнинг салмоғи ўзгармоқда. Хусусан, 2000-2013 йилларда қишлоқ хўжалиги маҳсулотининг хўжалик юритиш субъектларига кўра тузилишидаги ўзгаришлар юқоридаги жадвал маълумотларида ўз ифодасини топомқда. Жами қишлоқ хўжалиги маҳсулоти ишлаб чиқаришда қишлоқ хўжалиги корхоналарининг ҳиссаси 2000-2013 йилларда 27,8 фоиздан 2,0 фоизга камайган. Аксинча, фермер хўжаликларининг ҳиссаси 5,5 фоиздан 34,8 фоизга ошган. Деҳқон хўжаликларининг улуши эса қисман, яъни 66,7 фоиздан 63,2 фоизга қисқарган.

Бу тенденция деҳқончиликда янада яққолроқ намоён бўлмоқда. Масалан, 2000-2013 йилларда қишлоқ хўжалиги корхоналарининг деҳқончилик маҳсулотлари ишлаб чиқаришдаги ҳиссаси 46,4 фоиздан 1,0 фоизга камайган, фермер хўжаликларининг ҳиссаси эса 9,7 фоиздан 57,4 фоизга ошган. Деҳқон хўжаликларининг улуши эса, юқоридаги каби, қисман, яъни 43,9 фоиздан 41,6 фоизга қисқарган.

Қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқариш ҳажми асосий маҳсулот турлари бўйича кескин ошиб борди. 2000-2013 йилларда донли экинлар етиштириш ҳажми 1,8 баробар, жумладан, буғдой етиштириш ҳажми 1,8 баробар ошди. Пахта етиштириш ҳажми 1,15 марта, картошка етиштириш ҳажми 2,8 марта, сабзавотлар етиштириш ҳажми 3,0 марта, узум етиштириш ҳажми 1,9 марта кўпайтирилди. Бу йилларда чорвачилик маҳсулотлари ишлаб чиқариш ҳажми ҳам ортиб борди. Жумладан, гўшт(тирик вазнда) ишлаб чиқариш ҳажми 1,9 марта, сут ҳажми 2,0 марта, тухум ҳажми 3,6 марта кўпайтирилди.

Ғалла етиштириш 2013 йилда 2000 йилга нисбатан 2 баробар, картошка – 3,1 марта, сабзавот – 3,2 баробар, узум – 2 марта, гўшт ва сут – 2,1 карра, тухум – 3,4 баробар ошди. 2013 йилда 7 миллион 800 минг тонна ғалла, 8 миллион 400 минг тонна сабзавот етиштирилди, 3 миллион 360 минг тоннадан ортиқ пахта хомашёси етказиб берилди. Айтиш лозимки, 2014 йилда 3 млн. 400 минг тонна пахта, 8 млн. 50 минг тонна ғалла етиштирилди. 1 млн. 700 минг гектар суғориладиган ернинг мелиоратив ҳолати яхшиланди, кучли ва ўртача шўрланган ерлар 100 минг гектарга, ёки 12 фоизга қисқарди. 2012-2014 йилларда пахта етиштириш ҳажми сақланган ҳолда, сабзавот етиштириш 16,3 фоиз, полиз экинлари 16,6 фоиз ва мева етиштириш қарийб 21 фоизга ўсди.

Кейинги йилларда асосий турдаги деҳқончилик маҳсулотлари ҳосилдорлигини интенсив йўллар билан муттасил оширишга эришилмоқда. Хусусан, асосий турдаги деҳқончилик маҳсулотлари ҳосилдорлиги 2000-2013 йилларда 1,2-1,8 марта оширилди. Жумладан, бу кўрсаткич буғдойда – 1,9 марта, пахтада – 1,3 марта, картошкада – 1,8 марта, сабзавотларда – 2,0 марта, узумда эса 1,8 мартани ташкил этди. Бу тупроқ унумдорлигини яхшилаш, янги навларни жорий этиш, агромелиоратив чора-тадбирларни амалга ошириш ва хўжалик юритишнинг самарали усуллари ва шакллари қўллаш ҳисобига таъминланмоқда.

Чорвачилик соҳаси ривожланишининг айрим кўрсаткичлари қуйидагича ўзгармоқда. 2000-2013 йилларда йирик шохли моллар 2,1 марта кўпайди. Шундан, сигирлар 1,9 марта, қўй ва эчкилар 2,2 баробар, паррандалар 4,6 марта кўпайди. Ҳозирда қарийб 11,0 млн. бош йирик шохли моллар, 4,0 млн. бошдан ошиқ сигирлар, тахминан 17,5 млн. бош қўй ва эчкилар, шунингдек, 50,0 млн. бошга яқин паррандалар мавжуд.

10.4. Давлат аграр сиёсатининг асосий йўналишлари

Аграр сиёсатда қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини етиштириш, сақлаш, сотиш бўйича махсус қонунлар қабул қилиш, қишлоқ хўжалиги маҳсулотларига давлат буюртмалари жорий этиш, бу маҳсулотларнинг бозор нархларини тартибга солиш, нархнинг қуйи ёки юқори чегасини белгилаб қўйиш, ортиқча маҳсулотларни харид қилиб, уларнинг захираларини яратиш, мураккаб вазиятларга тушиб қолган фермерларга субсидиялар бериш усулларидан фойдаланилади.

“Ер тўғрисида” (1990 йил 20 июнь), “Ўзбекистонда тадбиркорлик тўғрисида”ги (1991 йил 15 февраль), “Давлат тасарруфидан чиқариш ва хусусийлаштириш тўғрисида”ги(1991 йил 19 ноябрь), “Ижара тўғрисида”ги(1991 йил 19 ноябрь), “Деҳқон хўжалиги тўғрисида”ги(1992 йил 3 июль), “Хўжалик жамиятлари ва ширкатлари тўғрисида”ги(1992 йил 9 декабрь), “Ер солиғи тўғрисида”ги (1993 йил 6 май) шулар жумласидан. Кейинчалик 1998 йил 28-30 апрелда “Қишлоқ хўжалиги кооперативи(ширкат хўжалиги) тўғрисида”, “Деҳқон хўжалиги тўғрисида”, “Фермер хўжалиги тўғрисида” қонунлар ҳамда Ўзбекистон Республикасининг Ер кодекси қабул қилинди.

Давлат аграр сиёсатини иқтисодий сиёсатнинг бошқа йўналишларига мувофиқлаштириб олиб бориш натижасида барқарор ўсиш суръатлари таъминланмоқда. Индикатив режалаштириш ва дастурий ёндошув қишлоқ хўжалигини тараққий эттиришда самарали бўлмоқда. Бунга мисол қилиб 2015-2019 йилларда қишлоқ хўжалигини ривожлантириш дастурини келтириш мумкин. Бу дастурда ҳосилдорлиги паст ғўза майдонларини қисқартириш, озиқ-овқат экинлари майдонларини, жумладан, полиз экинлари майдонини ҳамда интенсив боғларни кенгайтиришга алоҳида эътибор қаратилган.

XI БОБ. ТРАНСПОРТ МАЖМУАСИ

11.1. Транспорт мажмуасининг умумий тавсифи

Ўзбекистон иқтисодиётининг муҳим тармоқларидан бири транспорт соҳаси ҳисобланади. Транспорт иқтисодиётнинг ижтимоий ва моддий ишлаб чиқариш тармоғи бўлиб, иқтисодиёт реал секторида ишлаб чиқарилган

юкларни, шунингдек, йўловчиларни бир жойдан иккинчи жойга элтишни, мамлакат ҳудудлари ўртасида, корхоналар ва иқтисодиёт тармоқлари ўртасида айирбошлаш ва коммуникацияни таъминлайдиган соҳадир.

Мустақиллик йилларида мамлакат транспорт тизими ташкилий, иқтисодий-молиявий ҳамда институционал жиҳатдан такомиллашиб борди. Мухими унинг юк ва йўловчи ташиш салоҳияти йилдан йилга ортиб борди. Транспорт тизимини бошқаришнинг замонавий, турли мулкчиликка асосланган шакллари ривож топди. 1992 йилда “Ўзбекистон ҳаво йўллари” миллий авиакомпанияси, 1993 йилда “Ўзбекистон автомобиль транспорти” давлат акциядорлик компанияси, 1994 йилда “Ўзбекистон темир йўллари” давлат акциядорлик компанияси ва бошқа тармоқ идоралари ташкил топди. Мазкур тармоқ тузилмаларининг бозор иқтисодиёти шароитида фаолият юритиши учун барча ташкилий-ҳуқуқий, иқтисодий шарт-шароитлар яратиб берилган.

Автомобил транспорти. Ўзбекистон автомобил йўлларининг умумий узунлиги 185347 км дан ошади. Бу йўллар шаҳарлар ва ҳудудлар ўртасидаги транспорт алоқасининг узлуксиз бўлишини таъминламоқда. Мазкур йўллар қуйидагича таснифланади:

- 43467 км – умумий фойдаланишдаги магистрал йўллар;
- 3237 км – халқаро аҳамиятдаги йўллар;
- 18772 км – давлат аҳамиятидаги йўллар;
- 21458 км – маҳаллий, яъни вилоятлар даражасидаги йўллар;
- 102880 км – ички хўжалик ва хўжаликлар ўртасидаги алоқаларни боғлайдиган йўллар.

Темир йўл транспорти. Темир йўл транспорти кейинги йилларда катта масштабларда ривожланиб борди. Соҳанинг йирик бошқарув тузилмаси - “Ўзбекистон темир йўллари” давлат акциядорлик темир йўл компанияси ҳисобланади. Компанияда 54,7 мингдан зиёд киши фаолият кўрсатади.

“Ўзбекистон темир йўллари” давлат акциядорлик темир йўл компанияси мамлакатимизнинг халқаро транспорт коридорларига қўшилиши ва ундан самарали фойдаланишда салмоқли рол бажармоқда. Жумладан, МДХ ҳудудида тамир йўл транспорти фаолиятини мувофиқлаштирувчи Темир йўллар ҳамдўстлиги Ташкилоти (ТЙХТ), Халқаро темир йўллар уюшмаси (ХТЙУ)га аъзо. Шунингдек, Осиё-Тинч океани минтақаси учун БМТнинг Иқтисодий комиссияси (ЭСКАТО) билан яқиндан алоқа ўрнатган. Ўзбекистонда ТРАСЕКА (Европа-Кавказ-Осиё транспорт коридори) лойиҳаси бўйича ҳам ҳамкорлик алоқалари йўлга қўйилган.

Ўзбекистон темир йўлларининг умумий узунлиги 6600 км дан ошади. Шундан 1618 км масофа электрлаштирилган. Темир йўлларининг иқтисодиётдаги аҳамияти ортиб бормоқда. Темир йўллар орқали жўнатилган юк ҳажми 2013 йилда 64,0 млн. тоннадан ошди, 63,5 млн. тоннага яқин юк ташилди, юк айланмаси эса 28428,0 млн. тонна-километрдан ошиб кетди.

Темир йўл транспорти хизматидан 2013 йилда 18 млн. нафардан ошиқ йўловчи фойдаланди. Йўловчи айланмаси эса қарийб 2,2 млн. йўловчи-километрдан ошиқ бўлди.

Ҳаво транспорти. “Ўзбекистон ҳаво йўллари” миллий авиакомпанияси ҳаво транспорти соҳасини бошқурувчи асосий тузилма ҳисобланади. Ўзбекистон ҳаво йўллари миллий авиакомпанияси МДХ мамлакатлари ичида салоҳияти жиҳатидан 3 ўринда туради. Ўзбекистонда 5 та халқаро аэропорт мавжуд. Тошкент, Самарқанд, Урганч, Термез ва Бухоро аэропортлари жаҳон талабларида модернизация қилинган. Маҳаллий йўловчиларга хизмат кўрсатувчи Тошкент-3 аэропорти фаолият кўрсатмоқда. Бу аэропортларда жаҳон стандартларига жавоб берадиган аэронавигация қурилмалари келтириб ўрнатилди.

2013 йилда ҳаво йўллари орқали қарийб 1,5 миллион йўловчи, 50 минг тоннадан ошиқ юк ташилди. Миллий авиакомпания тасарруфида ҳозирда 200 га яқин замонавий авиалайнерлар мавжуд, Airbus, Boeing, RJ85 кабилар шулар жумласидандир.

Ҳозирги кунда “Ўзбекистон ҳаво йўллари” миллий авиакомпанияси 20 дан ортиқ мамлакатнинг 45 дан ортиқ аэропортига мунтазам парвозларни амалга ошириб келмоқда.

“Ўзбекистон ҳаво йўллари” миллий авиакомпанияси таркибида учувчилар, борт кузатувчилари ва авиация соҳасининг бошқа тармоқлари учун мутахассислар тайёрлаш ва малакасини ошириш Ўқув-машқ маркази фаолият кўрсатиб келмоқда. Навоий аэропорти ҳудудида эркин индустриал-иқтисодий ҳудуд ва халқаро интермодал логистика маркази барпо этилган.

11.2.Транспорт соҳаси ривожланишининг асосий кўрсаткичлари

Бугунги кунда республикамизнинг транспорт тизими темир йўл, автомобил йўллари, замонавий асбоб ва ускуналар билан жиҳозланган темир йўл вокзаллари, темир йўл кўприклари, тоннеллари, станциялари, бекатлари, юк омборлари, пристанлар, ҳаво флотининг йирик аэровокзаллари, аэропортлар, нефт ва газ қувурлари ҳамда уларга хизмат кўрсатувчи тузилмалар, турли инфратузилма объектларини ўз ичига олган хўжалик мажмуасидан ташкил топмоқда. Ўзбекистон иқтисодиётида транспорт соҳасининг аҳамияти йилдан йилга ортиб бормоқда. Бу иқтисодиётнинг реал секторида товар ва маҳсулотлар ишлаб чиқариш ҳажми ортиб бориши ва уни ташишга эҳтиёж ортаётганлиги, аҳолининг мамлакат ҳудуди ва ундан ташқаридаги мобиллиги – ҳаракатчанлиги тезлашаётганлиги, туристлар сонининг кўпайиб бораётганлиги, ташқи савдо-сотиқ ишлари жадаллашаётганлиги билан изоҳланади. Бир сўз билан айтганда, иқтисодиёт кўлами канчалик кенгайиб борса, транспорт хизмати ҳажми ҳам шу нисбатларда ортиб боради.

2000-2013 йилларда транспорт соҳасининг ялпи ички маҳсулотдаги улуши 7,7 фоиздан 12,1 фоизга кўпайган. Асосий капиталга киритилган инвестицияларда тармоқнинг улуши 2000 йилдан кейин 16,7 фоиздан камайгани йўқ. Бу давлат томонидан транспорт соҳасини ривожлантиришга устувор аҳамият берилаётганлигини билдиради. Бугунги кунда иқтисодиётда жами банд бўлганларнинг 5,2 фоизи ушбу соҳада фаолият кўрсатмоқда.

Бугунги кунда транспорт турлари орқали ташилаётган юклар ҳажми 1,4 млрд. тоннага яқинлашди. Мазкур юкларнинг асосий қисми, яъни 90 фоизидан

ошиғи автомобиль транспортида ташилмоқда. Темир йўллар орқали қарийб 64 млн. тонна, қувур йўллари орқали деярли 66 млн. тонна, ҳаво транспорти орқали эса 25 млн. тонна юк ташилмоқда. Темир йўл линияларини қуриш ва замонавийлаштириш соҳасида амалга оширилаётган йирик лойиҳалар келгусида шу транспорт турининг юк ташишдаги салмоғи ошишига олиб келади.

Барча транспорт турлари орқали ташилаётган йўловчилар сони 6,9 млрд. кишидан ошади. Мазкур йўловчиларнинг асосий қисми, яъни 85 фоизидан ошиғи автомобиль транспортида ташилди. Темир йўллар орқали 17 млн.дан ошиқ, шаҳар электр транспортида 76 млн. дан ошиқ, ҳаво транспортида эса 2,8 млн. атрофида йўловчи ташилди.

Транспорт турлари орқали ташилган юк ҳажми ва йўловчилар сонидан бошқа кўрсаткичлар ҳам мавжуд. Бу юк ва йўловчи айланмаси кўрсаткичдир. Бу кўрсаткичлар тонна-км ва йўловчи-км. бирликлари орқали ифодаланади. Бу кўрсаткичлар ташилган юк ёки йўловчининг қанча масофага ташилганлигини ҳам ўзида акс эттиради. Масалан, 25 тонна юкни 10 км. масофага ташилса, 250 тонна-км юк айланмаси ҳосил бўлади. 10 тонна юк 25 км. масофага ташилса ҳам шу кўрсаткич ҳосил бўлади.

Транспорт турлари орқали ташилаётган юклар айланмаси 93,0 млрд. тоннадан ошиб кетди. Юк айланмасининг 39 млрд. тонна-км. қувур транспортида, қарийб 30,0 млрд. тонна-км. автомобиль транспортида, 24 млрд. тонна-км. темир йўллар орқали ташилган. Жами юк айланмасининг 124 млн. тонна-км., ёки 1,4 фоизи ҳаво транспортга тўғри келади.

Барча транспорт турлари орқали ташилаётган йўловчилар айланмаси 95,2 млрд. йўловчи-км.дан ошади. Мазкур йўловчилар айланмасининг 87,5 фоизидан ошиғи автомобиль транспортга тўғри келади. Темир йўл транспорти орқали 3,8 млрд. йўловчи-км., ҳаво транспортида 7,5 млрд. йўловчи-км. ташув амалга оширилган.

Юқоридаги кўрсаткичлар мамлакатимизда автомобиль транспортининг аҳамияти бошқа транспорт турларига нисбатан юқори эканлигини кўрсатмоқда.

2015 йилнинг 1 январь ҳолатига кўра, мамлакатимизда 4344 та автомобиль транспортининг йўловчи йўналишлари фаолият кўрсатмоқда. Улардан 1013 таси шаҳар, 2691 таси шаҳар атрофи ва 640 таси шаҳарлараро йўналишлардир.

11.3.Транспорт йўналишлари ва йўл-транспорт инфратузилмасини тараққий эттириш

Мамлакатнинг транспорт салоҳияти ривожланишини белгилаб берадиган шарт-шароитлар ва омиллар мавжуд. Уларнинг асосийлари йўл-транспорт инфратузилмасини тараққий эттириш билан боғлиқ шарт-шароитлардир.

Йўл-транспорт инфратузилмасини тараққий эттириш саноатни жадал ривожлантириш, унинг салоҳиятини ошириш, йўловчи ва юк ташиш самарадорлигини ошириш, аҳолининг турмуш шароитини яхшилаш ва ишчи кучи мобиллигини таъминлашга хизмат қилади. Мустақиллик йилларида иқтисодиётнинг бошқа соҳаларидаги сингари, транспорт тизимининг моддий-техник базаси, унинг инфратузилмаси ривожлантириб келинди.

2014 йилда умумий фойдаланиш учун мўлжалланган 540 километр автомобиль йўлини қуриш ва реконструкция қилиш ишлари якунланди. 116

километрлик икки полосали йўл кенгайтирилиб, тўрт полосали қилиб қайта қурилди, бу йўлларда қатнов оқими 3 баробарга оширилди.

2014 йилда темир йўллар қуриш, реконструкция қилиш ва электрлаштириш, юк ва йўловчи ташийдиган темир йўл транспортини қайта тиклаш ва модернизация қилиш бўйича лойиҳаларни амалга ошириш мақсадида 630 млн. дан ошiq маблағ ўзлаштирилди. Бу маблағлар қуйидаги лойиҳаларга сафарбар этилди:

- Ангрен-Поп электрлаштирилган темир йўл линиясини барпо этиш;
- Узунлиги 240 км. темир йўлни қайта тиклаш;
- 650 та юк ва 20 та йўловчи ташиш вагонлари ишлаб чиқариш;
- Қарши темир йўл вокзалини реконструкция қилиш.

Авиация транспортида юк ташиш ҳажми 126 млн.300 минг тонна-км.ни ташкил этди.

2014 йилда “Ўзбекистон ҳаво йўллари” миллий авиакомпанияси дунёнинг 270 дан ошiq авиакомпанияларини ўзида бирлаштирган Халқаро ҳаво транспорти ассоциациясининг (IATA) тенг ҳуқуқли аъзоси бўлди.

2015 йилда йўл-транспорт инфратузилмасини тараққий эттириш, унинг саноатни жадал ривожлантиришдаги аҳамиятини янада, унинг моддий-техник базасини мустаҳкамлаш ва салоҳиятини ошириш, йўловчи ва юк ташиш самарадорлигини ошириш бўйича йирик лойиҳаларни амалга ошириш давом этади. Жумладан, қуйидаги йўналишларга устувор эътибор қаратилади:

- 260 км.лик темир йўларини қайта тиклаш;
- 124,1 км. узунликдаги Ангрен-Поп электрлаштирилган янги темир йўлининг қурилиши давом эттирилади;
- 140 км.лик Мароқанд-Қарши ва 325 км.лик Қарши-Термиз темир йўл участкаларини электрлаштириш;
- Икки томонлама қатновга эга бўлган Жиззах-Янгиер электрлаштирилган темир йўл тармоғи қурилишининг иккинчи босқичини амалга ошириш.

Транспорт тизимини ривожлантиришда давлат томонидан транспорт сиёсатининг асослари ишлаб чиқилган ва у босқичма-босқич амалга оширилмоқда. Давлат транспорт сиёсатининг асосий мақсадлари қуйидагилардан иборат:

- Транзит юк ва йўловчи ташиш самарадорлигини ошириш мақсадида транспорт мажмуини узлуксиз ривожлантириш.
- Транспорт қурилиш соҳасида янги технологиялар ва техникани жорий қилиш бўйича йирик лойиҳаларни ишлаб чиқиш ва амалга ошириш.
- Мамлакатнинг қулай географик жойлашув жиҳатларидан фойдаланган ҳолда ўз транспорт тизимини халқаро транспорт тизимларига интеграциялашувини таъминлаш.
- Мамлакат ҳудудида рақобатбардош ва қулай халқаро транспорт коридорларини барпо этиш.
- Давлат чегараларини кесиб ўтишнинг соддалаштирилган тартибини жорий этиш, тариф сиёсатини диверсификациялаш.
- Йўл-транспорт секторига хорижий капиталнинг кириб келишини янада рағбатлантириш учун қулай шарт-шароитлар яратиш.

- Халқаро норма ва стандартларга мос келадиган, атроф-муҳитга салбий таъсир кўрсатмайдиган экологик тоза транспорт технологияларидан фойдаланиш.

Ўзбекистон автомобилда ташиш соҳасида 9 та халқаро конвенцияга, 2 та халқаро битимга қўшилган, 26 та мамлакат билан икки томонлама ҳукуматлараро битимлар имзоланган. Ҳозирда 175 та автокорхона халқаро юк ташиш ҳуқуқини берадиган лицензияга эга.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2010 йил 21 декабрдаги қарорига мувофиқ тасдиқланган “2011-2015 йилларда инфратузилмани, транспорт ва коммуникация қурилишини ривожлантиришни жадаллаштириш тўғрисида”ги дастур мазкур йўналишда мамлакатимизда амалга оширилаётган муҳим чора-тадбирлардир. Темир йўл транспортини ривожлантиришда қандай йирик лойиҳалар амалга оширилмоқда? Бу лойиҳаларнинг аҳамиятини тушунтириб беринг.

XII БОБ. АЛОҚА ВА ТЕЛЕКОММУНИКАЦИЯ МАЖМУАСИ

12.1. Алоқа ва телекоммуникация мажмуасининг умумий тавсифи

Алоқа тармоғи иқтисодийнинг илғор технологиялар кўп қўлланиладиган, ишлаб чиқариш ва ижтимоий инфратузилма тармоғига чамбарчас боғланган соҳаларидан биридир. Алоқа ва телекоммуникация соҳасининг муҳим вазифаларидан бири - бу тармоқ корхоналари хўжалик юритувчи субъектлар ўртасидаги ахборот алмашинуви таъминлаб беришдир.

Ўзбекистон мустақиллик йилларида алоқа ва телекоммуникация соҳаси жадал тараққий топди. Соҳани ривожлантиришнинг ташкилий-иқтисодий, институционал, мулкӣ ва ҳуқуқӣ асослари яратилди. 1992 йил 13 январда Ўзбекистон Республикасининг “Алоқа тўғрисида”ги қонуни қабул қилинди. 1999 йил 20 августда “Телекоммуникациялар тўғрисида”ги қонун, 2000 йил 25 майда эса “Фаолиятнинг айрим турларини лицензиялаш тўғрисида”ги қонун қабул қилинди. Шунингдек, Ўзбекистон алоқа ва ахборотлаштириш агентлигининг 2009 йил 4 январда “Мобиль алоқа хизматларини кўрсатиш қоидалари” ва бошқа меъёрий ҳужжатлари қабул қилинди.

Почта алоқаси, ахборот тизимлари, телекоммуникация соҳасидаги бошқарувни янада такомиллаштириш мақсадида 1997 йилда Алоқа вазирлиги Почта ва телекоммуникациялар агентлигига айлантирилди. Бу агентлик таркибида “Маҳаллий телеком” АК, “Халқаро телеком” АК, “Ўзбекистон почтаси” давлат акциядорлик компанияси ташкил этилди. Бу агентлик, кейинчалик, Ўзбекистон республикаси алоқа, ахборотлаштириш ва телекоммуникация технологиялари давлат қўмитаси айлантирилди.

Ўзбекистон Республикаси Алоқа, ахборотлаштириш ва телекоммуникация технологиялари давлат қўмитаси, Матбуот ва ахборот агентлиги, Ўзбекистон миллий телерадиокомпанияси алоқа ва телекоммуникация соҳасининг йирик ташкилий тузилмалари ҳисобланади.

Алоқа ва телекоммуникация корхоналари учун юқори малакали мутахассислар тайёрлашда Тошкент ахборот технологиялари университети ва унинг вилоятлардаги филиаллари фаолият юритмоқда.

12.2. Алоқа ва телекоммуникация соҳаси ривожланишининг

асосий кўрсаткичлари

Алоқа ва телекоммуникация соҳаси жадал суръатларда ривожланаётган тармоқлардан бири ҳисобланади. Бу жараён мамлакатимизнинг жаҳон хўжалигига қўшилиб бориши, замонавий ахборот-коммуникация технологияларининг кириб келиши, саноатнинг электротехника ва ахборот технологиялари ишлаб чиқариш корхоналари барпо этилиши билан тезлашмоқда. Аҳолининг алоқа ва телекоммуникация воситаларидан фойдаланиш даражаси яхшиланмоқда, бу воситалардан фойдаланишнинг иқтисодий самарадорлиги йилдан йилга ошмоқда.

Алоқа ва телекоммуникация соҳаси ривожланишини акс эттирувчи қатор кўрсаткичлар мавжуд. Бу кўрсаткичларни шартли равишда икки гуруҳга ажратиш мумкин.

1. Соҳа ривожланиши ифодаловчи иқтисодий кўрсаткичлар.

2. Соҳа ривожланишини ифодаловчи техник кўрсаткичлар.

Соҳа ривожланиши ифодаловчи иқтисодий кўрсаткичлар иқтисодий динамикани, иқтисодий масштабни, иқтисодий ўсишни, иқтисодий самарадорликни (тушум, даромад, фойда, рентабеллик ва бошқалар) ифодалайди. Шунингдек, бу кўрсаткичлар соҳанинг миллий иқтисодиётдаги ўрни ва роли қайси йўналишларда ўзгараётганлигини кўрсатиб беради.

Соҳа ривожланишини ифодаловчи техник кўрсаткичлар алоқа, ахборотлаштириш ва телекоммуникация технологиялари ҳамда воситаларининг қамровини, фаолият тезлигини, сонини ва турларини, ахборот ресурсларининг фондини, янгиланиш, замонавийлашиш суръатларини акс эттиради. Бу соҳанинг модернизациялашиш кўламини, иқтисодиёт тармоқлари ва жамият аъзоларининг ушбу воситалар билан таъминланганлик даражасини ўзида акс эттиради.

Бугунги кунда Ўзбекистонда ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланиш соҳаси замонавий талаблар асосида ривож топмоқда. Юқори сифатли алоқа хизматлари кўрсатаётган операторлар ва провайдерлар сони 2005-2013 йилларда қарийб 2,3 барабар ошди ва 935 тага етди. Бу даврда Интернет тармоғидан фойдаланувчилар сони қарийб 15 марта ўсди ва 10,7 млн. кишидан ошиб кетди.

Давлат ахборот ресурслари ва давлат ахборот тизимлари сонини оширишга қаратилган чора-тадбирлар натижасида бугунги кунда давлат интерактив хизматлари турлари сони 230 га яқинлашди. Ҳозирда давлат ахборот ресурслари 203 тани ва давлат ахборот тизимлари сони эса 177 тани ташкил этмоқда. Бу ўзгаришлар “Электрон ҳукумат” фаолиятини ривожлантириш учун мустаҳкам моддий-техник асос яратилаётганлигини билдиради. Бу истикболда мамлакат миқёсида ижтимоий-иқтисодий жараёнларни бошқариш, тартибга солиш ва рағбатлантиришда ахборот-коммуникация тизимининг ҳал қилувчи рол бажаришини таъминлайди. Ахборот ва билимлар жамиятининг асосий белгиларидан бири ҳам шу ҳисобланади.

Ахборот маконини яратиш ва уни мазмунан тўлдириб бориш мақсадида www.uz да рўйхатдан ўтган сайтлар сони йилдан йилга ошиб бормоқда.

Масалан, уларнинг сони 2010 йилда 7996 бирликни ташкил этган бўлса, 2013 йилга келиб 12 минг тадан ошиб кетди.

Ахборот-коммуникация соҳасининг тараққий топиши, аввало, таълим ва маориф соҳаси ривожланишига кучли туртки бермоқда. Натижада олий, ўрта махсус ва касб-хунар таълими ҳамда мактаб таълимининг ахборот-кутубхона базаси бир неча ўн марта кенгайиб кетди. Жумладан, бугунги кунда ахборот-кутубхона марказлари китоб фонди қарийб 5,0 млн.ни ташкил этмоқда. Ziyonet портали кутубхонасидаги таълим ахборот ресурслари сони эса 40 мингдан ошиб кетди.

Мамлакатимизда алоқа телефон станцияларини рақамли тизимга ўтказиш даражаси 2000 йилларда 32-35 фоизни ташкил этган бўлса, ҳозирда бу кўрсаткич қарийб 100 фоизни ташкил этмоқда. Кейинги йилларда уяли алоқа, рақамли телевидения ва Интернет тармоғини ривожлантиришга қаратилган давлат дастурларининг амалга оширилиши мазкур тармоқларнинг алоқа ва коммуникация соҳасидаги ўрнини мустаҳкамлайди, жамиятдаги ижтимоий-иқтисодий аҳамиятини янада оширади.

12.3.Алоқа ва телекоммуникация соҳасини ривожлантириш йўналишлари

Ўзбекистонда алоқа ва телекоммуникация соҳасини ривожлантиришга давлат сиёсатида устувор аҳамият бериб келинмоқда. Мустақиллик даврида бу борада давлат томонидан тизимли чора-тадбирлар амалга оширилди. Соҳанинг моддий-техник базаси бутланди, замонавий тузилмалар шакллантирилди, кадрлар салоҳияти кенгайтирилиб, бозор муносабатларига мос инфратузилмалар тараққий этмоқда.

Бугунги кунда Ўзбекистонда бешта мобиль алоқа оператори фаолият кўрсатмоқда. Улар – “Билайн”, “Ўзмобиайл”, “Юселл”, “Перфектум мобайл” ва “УМС”лардир.

2000 йиллардан кейин Ўзбекистонда ахборотлашган жамиятларга хос бўлган замонавий тармоқ тизимлари фаолиятини қўллаб-қувватлашга қаратилган сиёсат кўлами кенгайиб борди. Мамлакатимизнинг саноат ишлаб чиқаришини янада жадал ривожлантириш, жамиятнинг замонавий ахборот ресурсларига бўлган талаб-эҳтиёжини тўлароқ қондириш учун миллий ахборот-коммуникация тизимини янада ривожлантириш мақсадида 2013-2020 йилларда миллий ахборот-коммуникация тизимини ривожлантиришнинг комплекс дастури қабул қилинган. Ҳозирда мазкур дастур ижросининг ҳал қилувчи босқичи кетмоқда. Дастурда мамлакат ҳудудида рақамли телевидениени тўла жорий этиш, мобиль алоқа билан қамраб олиш, “Электрон ҳукумат” тизими фаолиятини йўлга қўйиш, Интернет тармоғи фаолиятдан самарали фойдаланишга эришиш бўйича лойиҳалар амалга оширилмоқда.

XIII БОБ.ҚУРИЛИШ МАЖМУАСИ

13.1.Қурилиш мажмуасининг умумий тавсифи

Қурилиш – моддий ишлаб чиқаришнинг йирик соҳаларидан бири ҳисобланади. Қурилиш турли мақсадлардаги бино ва иншоотларни қуриш ва реконструкция қилиш, ишни юритиш учун фойдаланадиган ҳудуд билан бирга, бино ёки иншоотни барпо этиш жараёнини билдиради. Тугалланган ва фойдаланишга топшириш учун тайёрланган ишлаб чиқариш корхоналари, турар жойлар, жамоат бинолари, иншоотлари ва бошқа объектлар қурилиш маҳсулотлари ҳисобланади.

Қурилиш мажмуаси таркибига барпо этилаётган объект хусусиятларига ва турларига кўра саноат, транспорт, қишлоқ, сув хўжалиги, уй-жой, коммунал, ижтимоий-маданий ва бошқа қурилишлар киритилади.

Саноат қурилиши. Саноат қурилиши саноат ишлаб чиқариши объектлари – завод ва фабрикалар, ишлаб чиқаришга хизмат қилувчи инфратузилма объектлари ва бошқа ички хўжалик объектлари қурилишидан иборат.

Транспорт қурилиши. Транспорт қурилиши транспорт инфратузилмаси ва йўл коммуникациялари қурилишини ташкил этади. Автомобиль йўллари, темир йўллар, қувурлар ётқизиш, вокзаллар, аэропортлар қуриш, бу йўлларнинг атрофида зарур инфразуилмаларни барпо этиш транспорт қурилишига киради.

Қишлоқ қурилиши. Қишлоқ қурилиши қишлоқ аҳолиси турмушининг умумий шарт-шароитларини яхшилашга хизмат қилувчи объектлар қуриш, янги қишлоқ массивлари қуриш, қишлоқ ички йўллари қуриш, ободонлаштириш кабиларни ўз ичига олади. Бу йўналишдаги қурилиш ишлари қишлоқ хўжалиги мақсадларидаги қурилиш ишларидан фарқ қилади.

Шаҳар қурилиши, ёки шаҳарсозлик. Йирик, ўрта ва кичик шаҳарларни замон талабларига мослаб замонавийлаштириш, янги бино ва иншоотлар қуриш, шаҳар йўл қурилиши, аҳоли пунктларини шаҳарларга айлантириш, шаҳар инфратузилмасини такомиллаштириш кабиларни ўз ичига олади.

Сув хўжалиги қурилиши. Сув иншоотлари – каналлар, сув омборлари, тўғонлар, дренаж тармоқлари қурилишини ўз ичига олади. Бу жараён мелиорация ва сув хўжалиги соҳасидаги фаолиятларни ҳам қамраб олади.

Уй-жой қурилиши. Уй-жой қурилиши аҳолини зарур турар жой объектлари билан таъминлаш, мавжудларини таъмирлаш ва замонавийлаштиришга қаратилган фаолият ҳисобланади.

Коммунал қурилиши. Коммунал қурилиши аҳоли турар жойларини сув, газ, электр тармоқлари билан таъминлаш, иситиш тармоқлари, бошқа коммунал хизмат объектларини қуришни назарда тутди.

Ижтимоий-маданий объектлар қурилиши. Ижтимоий-маданий объектлар қурилишига барча босқичдаги таълим муассасалари қуриш ва реконструкция қилиш, спорт иншоотлари, кутубхоналар, музейлар, парк ва истироҳат боғлари, соғлиқни сақлаш объектлари, меҳмонхоналар барпо этиш киради.

13.2.Қурилиш мажмуасининг ривожланиш кўрсаткичлари

Қурилиш мажмуаси Ўзбекистон Республикасида иқтисодиётнинг жадал ривожланаётган муҳим тармоқларини ўз ичига олади. Республика иқтисодиётида ялпи ички маҳсулот таркибидаги салмоғига кўра қурилиш мажмуаси саноат ва қишлоқ хўжалигидан кейинги ўринда туради.

2013 йилда ялпи ички маҳсулотнинг 14,0 фоизи (2000 й.да 6,1 фоиз), иқтисодиётда фаолият кўрсатаётган корхоналар ва ташкилотларнинг 6,2 фоизи (18 минг та) қурилиш ҳиссасига тўғри келди. Бугунги кунда жами рўйхатга олинган корхоналар ва ташкилотлар қарийб 300 мингтани ташкил этса, шундан қурилиш корхоналари ва ташкилотлари сони 22 мингтадан ошади.

Қурилиш тармоғи жами яратилган қўшилган қийматда 6,4 фоиз, асосий капиталга киритилаётган инвестицияларда 2,0-2,3 фоиз, жами банлар сонида 9,3 фоиз ҳиссага эга. Йилига қурилиш ишлари ҳажми 11,5-16,2 фоизга қўшимча ўсиб бормоқда.

Қурилиш ишлари кўламини ва сифатини яхшилаш бўйича тизимли чоратadbирлар амалга оширилмоқда. Хусусан, “Ўзқурилишмате-риаллари” акциядорлик компанияси сўнгги йиллар давомида ўттиздан ортиқ турдаги замонавий қурилиш материалларини ишлаб чиқаришни ўзлаштирди. Булар алебастр ва қурилиш бўри, куруқ безакловчи қоришмалар, гипскартон, девор ва шифтлар учун пластик панеллар, “алюкобонд” алюминий-пластикли композитли панеллар, алюминийли радиаторлар, ламинатланган паркет, сопол черепица, вермикулит, ойна ва эшиклар учун блоklar ҳамда шиша пакетлар, гидроизоляция томёпқич материалларидир.

Қурилиш ишлари тиббиёт, таълим, уй-жой ва коммунал хўжаликларида жадал суръатларда ва тизимли амалга оширилди. Бу соҳалардаги қурилиш ишларининг асосий хусусиятлари тармоқларга хорижий инвестицияларнинг нисбатан кам жалб этилганлиги ва асосий лойиҳаларнинг маҳаллий ишлаб чиқарувчилар томонидан амалга оширилганлиги ҳисобланади. Қурилиш

ишларининг 93-94 фоизи нодавлат сектори, яъни деярли фуқароларнинг хусусий мулки ва хўжалик бирлашмалари томонидан бажарилмоқда. Жумладан, 52-54 фоиз қурилиш ишлари фуқароларнинг ўзлари томонидан амалга оширилаяпти.

Ҳар йили 73-82 минг атрофида квартиралар барпо этилмоқда. Янги қурилатган квартиралар деярли нодавлат сектори корхона ва ташкилотлари, фуқароларнинг ўз ташаббуслари ҳисобига қурилмоқда.

Уй-жой қурилишида бозор муносабатларининг ривожланиши натижасида соҳада кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг ташаббуслари тўла қарор топди.

Коммунал қурилиши узлуксиз ривожланмоқда. Аҳоли турар жойларини сув ва газ тармоқлари билан таъминлаш, коммунал хизмат объектларини қуриш ишлари ҳажми барқарор ўсиб бормоқда. 2010-2013 йилларда янги қурилган, реконструкция қилинган сув қувурлари 11 минг км дан ошқни, газ тармоқлари эса қарийб 2880 км ни ташкил этди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2015 йил 4 мартдаги “2015-2019 йилларда ишлаб чиқаришни модернизациялаш ва диверсификациялаш, таркибий ўзгаришларни таъминлаш бўйича чора-тадбирлар Дастури тўғрисидаги” Фармони асосан, мазкур Дастур доирасида коммунал соҳа, транспорт, капитал қурилиш ва қурилиш саноати мажмуасига йирик капитал маблағлар ажратилиши режалаштирилди.

13.3. Қишлоқда уй-жой қуриш ва ижтимоий инфратузилмани ривожлантириш

Қишлоқда уй-жой қуриш ва ижтимоий инфратузилмани ривожлантириш мамлакатимизни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг муҳим устувор йўналишларидан бирига айланди. Қишлоқларда замонавий уй-жойлар қурилишига алоҳида эътибор қаратилмоқда. Шу мақсадда Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2009 йил январда «Қишлоқ тараққиёти ва фаровонлиги йили Давлат Дастури тўғрисида»ги Қарори ҳамда “МЧЖ Қишлоққурилишлойиҳа” лойиҳа-қидирув институтини ташкил қилиш тўғрисида” Қарорлари қабул қилинган.

Қишлоқ жойларда қурилиш олиб бориш учун узоқ истиқболга мўлжалланган, лойиҳалаштириш, саноат-қурилиш, муҳандислик-техник жиҳатдан кучли замонавий салоҳиятга эга бўлган база яратилди.

Давлат архитектура ва қурилиш қўмитаси қурилиш режаларига, санитария талаблари ва қурилиш нормаларига риоя қилиниши устидан қатъий тизимли назорат ўрнатган. Худудларда аҳолини жойлаштириш, худудларни режалаштириш ва бош режалари билан боғлиқ ҳужжатларни ишлаб чиқиш тизимини тезлаштирилган. Инвестиция дастури доирасида “Қишлоқ қурилиш банк” молиялаш манбалари ва маблағ ажратиш механизминини белгиламоқда.

Янги қурилишларда йиғма, композицион ва кичик блокли конструкцияларни қўллаган ҳолда, индустриал ва йиғма технологиялар кенг жорий этилди. Бу борада Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2009 йил 19 июнда «Деворбоп материаллар ишлаб чиқаришни кўпайтиришни рағбатлантириш ва сифатини яхшилаш борасидаги қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги Қарори қабул қилинди.

XIV БОБ. ИСТЕЪМОЛ БОЗОРИ

14.1. Истеъмол бозорининг тавсифи

Миллий иқтисодиётнинг тараққиётини тавсифловчи соҳалардан бири - бу истеъмол бозоридир. Истеъмол бозоридаги вазият ишлаб чиқаришнинг пировард натижаларини, якунини ўзида акс эттиради. Истеъмол бозори тўйинган бўлса, унда сотилаётган товар ва хизматларнинг баҳоси нисбатан барқарор бўлса, истеъмол бозоридаги талаб ва таклиф ўртасида мувозанат таъминланса, бу мамлакат иқтисодиётининг барқарорлигини билдирувчи муҳим ҳолат ҳисобланади.

Истеъмол бозори миқёсига кўра халқаро, ҳудудий, миллий ва маҳаллий бозорларга бўлиниб, бу бозор бошқа бозорлардан кўп сегментлилиги билан ажралиб туради. Бу сегментлардан энг йириклари озиқ-овқат, кийим-кечак, уй хўжалик товарлари, маиший-ижтимоий хизматлар бозори ҳисобланади. Бу сегментлар харидорнинг мавқеига қараб ёшлар, болалар, қариялар, эркаклар ва аёллар товар бозорларига ҳам ажралади. Харидорнинг қурбига қараб нуфузли товарлар бозори, ҳаммабоп товарлар бозори ва арзон товарлар бозорига ҳам бўлинади.

Ўзбекистондаги истеъмол бозори супермаркетлар, магазинлар, салонлар, дўконлар, деҳқон бозорлари ва саноат моллари бозорлари, пуллик маиший хизмат корхоналари, пуллик ижтимоий хизмат ташкилотлари ва муассасалари фаолиятида намоён бўлади.

14.2. Истеъмол бозори ривожланишининг умумий кўрсаткичлари

Истеъмол бозори ривожланиши ижтимоий-иқтисодий жараён ҳисобланади. Мамлакат иқтисодиётининг юксалиши ва ишлаб чиқариш салоҳиятининг ортиши ҳамда аҳоли даромадларининг кўпайиши пировард натижада истеъмол бозори кўлоамининг кенгайишида намоён бўлади.

Истеъмол бозори ривожланишига баҳо беришда бир қатор кўрсаткичлардан фойдаланилади. Истеъмол бозори ривожланишини ифодаловчи кўрсаткичларга истеъмол бюджети, истеъмол кредити ҳажми ортиши, истеъмол бозоридаги иштирокчилар сонининг кўпайиши, истеъмол меъёрлари ўзгариши, истеъмол савати ҳажми, истеъмол фонди ҳажми кабилар киради.

Истеъмол бозори ривожланиши ва аҳоли турмуш даражасини ўзаро боғлайдиган тушунчалардан бири - бу истеъмол бюджетидир. Истеъмол бюджети жорий истеъмолни қондириш учун хонадон ёки айрим шахс томонидан сарфланадиган пул маблағларидан иборат. Истеъмол бюджетини тўлдиришда истеъмол бозорининг барқарор ривожланиши ҳал қилувчи аҳамият касб этади. Истеъмол бозорида қўшимча товар захиралари пайдо бўлса, ёки аҳолининг у ёки бу истеъмол маҳсулотига эҳтиёжини тўлароқ қондириш зарур бўлса, истеъмол кредити қўлланилади.

Истеъмол савати муайян вақтда истеъмол этиладиган маҳсулотлар тури ва тўпламининг оила ёки жон бошига ҳисобланган миқдоридир. Бу тушунча киши ёки оила ойлик ёки йиллик ҳисобий товарлар ва хизматлар истеъмолининг типик даражаси ёки тузилмасини тавсифлайди. Бу моддий ўлчам ва пул шаклида ҳисобланади. Бундай тўплам истеъмол бозоридаги

амалдаги нархларга кўра, истеъмол саватидан келиб чиқиб, минимал истеъмол бюджети, яъни тирикчилик минимумини ҳисоблаб чиқишга хизмат қилади. Истеъмол саватида фойдаланиш мақсадига кўра қуйидаги уч гуруҳ товарлар мавжуд:

- озиқ-овқат маҳсулотлари - гўшт, гўшт маҳсулотлари, тухум, сут, сут маҳсулотлари, ун, гуруч, нон ва ёрма, шакар, ўсимлик мойи, мева-сабзавотлар.
- ноозиқ-овқат товарлари – кийим-кечак, газлама, пойабзал, мебель, уй жиҳозлари, хўжалик буюмлари, маданий товарлар.
- маданий-маиший хизматлар – пулли ижтимоий хизматлар, яъни маиший техникалар тизими, кир ювдириш, кимёвий тозалаш, томошалар кўриш, пулли даволаниш, пулли ўқиш ва бошқалар.

14.3. Ўзбекистонда истеъмол бозори ривожланиш кўрсаткичлари

Истеъмол бозори ривожланишини ифодаловчи кўрсаткичлар мамлакат истеъмол бозори кенгаяётганлигини, ундаги сифат ва миқдорий ўзгаришларни ифодалайди. Истеъмол бозори ривожланишига ташқи омиллар ҳам таъсир кўрсатади. Истеъмол товарларининг экспорти ички бозорда баъзан тақчилликуни юзага келтирса, истеъмол товарлари импорти тақчиллик муаммоларини бартараф этиши ҳам мумкин. Бу миллий ишлаб чиқарувчиларнинг импорт ўрнини босувчи ёки экспортга йўналган стратегияларига боғлиқ равишда ҳам ўзгариб боради. Истеъмол бозорида нархларнинг барқарорлигини таъминлаб туришда ташқи савдо сиёсати восита ва дастаклари таъсирчан рол ўйнайди.

Ўзбекистонда 2014 йилда ўтган йилга нисбатан ялпи ички маҳсулот 8,1 фоиз, саноат ишлаб чиқариши 8,3 фоиз, қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқариш ҳажми 6,9 фоизга ўсган бўлса, чакана савдо айланмаси 14,3 фоиз ва истеъмол товарлари ишлаб чиқариш ҳажми 9,4 фоизга ошди. Бу кўрсаткичлар истеъмол бозори иқтисодиёт масштаблари билан ёнма-ён кенгаяётганлигини билдиради.

Истеъмол бозори ривожланиши товарларнинг улгуржи ва чакана савдо айланмаси ҳажмининг ошиши, истеъмол бозорида хизматлар ва товарлар улуши ўзгариши, савдо шохобчалари, бозорлар сони кўпайиши, замонавий хизматлар турларининг кўпайиши каби кўрсаткичларда ҳам ўз аксини топади.

2000-2012 йилларда чакана савдо айланмаси ҳажми жадал суръатларда ошиб борди. Хусусан, 2012 йилга келиб 1995 йилга нисбатан чакана савдо ҳажми қарийб 6,8 баробар ошди, озиқ-овқат товарлари савдо айланмаси деярли 4,0 марта, овқат маҳсулотлари ҳажми 3,8 марта, ноозиқ-овқат маҳсулотлари савдоси ҳажми эса деярли 2,8 марта кўпайди.

2000 йилда бу кўрсаткичлар 1995 йилга нисбатан чакана савдода 185,1 фоизни, озиқ-овқат товарларида 160,6 фоизни, овқат маҳсулотларида 144,9 фоизни ҳамда ноозиқ-овқат маҳсулотларида 299,0 фоизни ташкил этган эди.

14.4. Истеъмол бозорини тартибга солиш ва ривожлантириш

Ўзбекистонда бозор иқтисодиётини барпо этиш даврида истеъмол бозорини тартибга солиш ва ривожлантиришнинг ташкилий-ҳуқуқий асослари такомиллашиб борди. Давлат истеъмол бозорида тартибга солишнинг солиқ ва бож воситаларидан самарали фойдаланмоқда, монополистик фаолиятларни

чекламоқда, рақобат муносабатларининг кучайишига йўл очиб берапти. Шунингдек, истеъмолчиларнинг ҳақ-ҳуқуқларини ҳимоя қилишга қаратилган қатор қонун ва бошқа меъёрий ҳужжатлар қабул қилинган бўлиб, уларнинг ижроси устидан назорат амалга оширилмоқда.

Ички истеъмол бозорини тўлдириш ва аҳолини, биринчи навбатда қиш-баҳор даврида мева-сабзавот маҳсулотлари билан барқарор таъминлаш ҳамда уни экспортга етказиб беришни кенгайтириш бўйича «Ўзлугуржисавдоинвест» улгуржи савдо корхоналари Уюшмаси фаолият олиб бормоқда.

Халқ истеъмоли товарларининг кўرғазма-ярмарка савдоси республика маркази томонидан ҳар йили минтақавий саноат ярмаркалари ўтказиб турилибди ва Кооперацион биржа фаолият олиб бормоқда.

XV БОБ. ХИЗМАТЛАР СОҲАСИ

15.1.Хизматлар тушунчаси ва хизматлар соҳасининг тавсифи

Замонавий жамиятнинг хизмат турлари ва миқёсига бўлган эҳтиёжини бундан 30-40 йил аввалги жамият эҳтиёжлари билан қиёслаб бўлмайди. Хизматлар турларининг кўплиги илмий-техника тараққиёти, меҳнат унумдорлигининг ошиши, бўш вақтнинг кўпайиши натижасидир.

Ривожланган давлатларда иқтисодиётнинг 70-75 фоизини хизматлар сектори ташкил этади. Индустриал иқтисодиётга нисбатан хизматлар иқтисодиёти доимо гармоник ривожланади. Чунки, хизматлар иқтисодиётида моддий ишлаб чиқариш, муомала-айирбошлаш жараёни ва хизматлар оқими бир бутунликка айланади.

Хизматлар - бу номоддий кўринишга эга бўлган, таъминотчи томонидан истеъмолчига кўрсатиладиган муайян фаолият натижасидир. Хизматларни жамғариб қўйиб бўлмайди, уларнинг доимий ўзгармайдиган сифатини таъминлаш қийин, шунингдек, хизмат кўрсатувчидан ажралган ҳолда у юзага чиқмайди.

Хизматлар соҳасини шартли равишда икки гуруҳга ажратиш мумкин:

1.Моддий хизматлар ишлаб чиқариш - транспорт, савдо ва умумий овқатланиш, уй-жой-коммунал, маиший хизматлар ва бошқалар.

2.Номоддий хизматлар ишлаб чиқариш - бошқарув, таълим, соғлиқни сақлаш, фан, санъат, ижтимоий хизмат кўрсатиш, аудит, суғурталаш, молиявий хизматлар ва бошқалар.

Аҳолига кўрсатиладиган хизматлар эса ўз вазифасига кўра қуйидаги турларга бўлинади:

1.Моддий хизматлар

2.Ижтимоий-маданий хизматлар.

Бошқа бир таснифга кўра, хизматлар секторига қуйидагилар киритилади:

1. Савдо (улгуржи ва чакана);

2. Овқатланиш ва истиқомат қилишни таъминлаш хизматлари (меҳмонхона, ресторан, ошхона ва бошқалар);

3. Транспорт хизматлари;

4. Алоқа ва ахборот соҳасида хизмат кўрсатиш;

5. Моддий-техника ресурслари таъминоти, уларни тайёрлаш ва сақлаш хизматлари;

6. Бозорнинг амал қилишини таъминлайдиган кредит, молия ва суғурта, кўчмас мулк операциялари ва бошқа хизматлар;
7. Таълим, маданият ва санъат;
8. Фан ва илмий хизматлар;
9. Соғлиқни сақлаш, жисмоний тарбия ва спорт;
10. Уй хўжалигига кўрсатиладиган хизматлар (уй хўжалигини сақлаш ва таъмирлаш, маиший ва коммунал хизматлар);
11. Кишиларнинг ўзига кўрсатиладиган шахсий характердаги хизматлар (номоддий маиший хизматлар, сартарошхона, ателье, фотоателье, пойафзал тозалаш ва бошқалар);
12. Давлат бошқаруви хизматлари.

Аҳолига пуллик хизмат кўрсатиш статистикасида хизматларнинг қуйидаги асосий турлари ажратиб кўрсатилган:

1. Маиший хизмат
2. Транспорт хизмати
3. Алоқа хизмати
4. Уй-жой коммунал хизматлари
5. Халқ таълими соҳаси хизматлари
6. Маданият хизматлари
7. Экскурсия ва саёҳатлар
8. Жисмоний тарбия ва спорт
9. Соғлиқни сақлаш хизматлари
10. Санатория-курорт ва соғломлаштириш
11. Ҳуқуқий характердаги ва банк муассасалари хизмати
12. Бошқа хизматлар

15.2. Ўзбекистонда хизматлар соҳасининг ривожланиш кўрсаткичлари

Ўзбекистонда хизмат кўрсатиш соҳаси иқтисодиётни барқарор ривожлантиришнинг муҳим манбаи ва омилларидан бири ҳисобланади. Ушбу соҳа ялпи ички маҳсулотни шакллантириш ва ўстириш, аҳоли бандлигини таъминлаш, одамларнинг фаровонлигини оширишда етакчи ўрин эгалламоқда.

2010-2014 йилларда анъанавий маиший ва коммунал хизматлар улуши 16 фоиздан 9,5 фоизга камайиб, юқори технологиялар асосидаги хизматлар улуши 21,2 фоизга қадар кўтарилди.

Кейинги ўн йилликда ялпи ички маҳсулотда хизматларнинг улуши 12-13 фоизга ошиб, 53-54 фоиздан иборат бўлмоқда. Хизматлар ҳажмининг йиллик қўшимча ўсиш суръати 12,4-16,3 фоизни ташкил этаяпти. Иқтисодиётда бандларнинг қарийб ½ қисми ушбу соҳада фаолият кўрсатмоқда.

Аҳолига пуллик хизматлар ҳажми ҳам йилига қўшимча 12,5-16,3 фоиздан кўпаймоқда. Хизматлар секторига киритилаётган инвестицияларнинг умумий ҳажми жами инвестицияларнинг 53,5 фоизини, чет эл инвестицияларининг 50,8 фоизини ташкил этмоқда. Кўриниб турибдики, хизматлар сектори мамлакат иқтисодий фаолиятининг қарийб ярмини қамраб олмоқда.

2014 йилда бозор хизматлари кўрсатиш ҳажми 15,7 фоизга ўсди. Ҳар йили яратилаётган янги иш ўринларининг, авваламбор, касб-хунар коллежлари

битирувчилари учун ташкил этилаётган иш ўринларининг учдан бир қисмидан кўпроғи айнан мазкур соҳа ҳиссасига тўғри келмоқда.

Ўзбекистонда интернет хизматидан фойдаланувчилар сони бугунги кунда 10 миллион 200 минг кишидан ошди. Республикамизда интернетнинг ўтказувчанлик даражаси 4 баробар оширилди, интернетга уланиш тезлиги эса 1,5 марта ортди.

2014 йилда 500 дан ортиқ янги базавий мобиль алоқа станциялари ўрнатилди, мобиль алоқа хизматидан фойдаланувчилар сони қарийб 20 миллион кишини ташкил этмоқда. 2014 йилнинг ўзида абонентларга кўрсатилаётган хизматлар ҳажми қарийб 26 фоизга кўпайди.

15.3. Хизмат кўрсатиш соҳасини ривожлантириш сиёсати

Мустақиллик йилларида хизматлар соҳасининг ривожланишига давлат томонидан устувор аҳамият бериб келинди. Соҳа корхона ва муассасалари кенг миқёсда хусусийлаштирилди, бозор ислохотлари амалга оширилди, бу соҳада рақобат муносабатларининг ривожланиши рағбатлантирилди. Натижада илғор ва замонавий хизмат турлари кўпайди.

Хизматлар соҳасининг ташкилий-институционал, ташкилий-ҳуқуқий асослари такомиллаштирилмоқда. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2006 йил 17 апрель ва 2007 йил 21 майдаги қарори билан “2006-2010 йилларда хизматлар соҳаси ва сервисни ривожлантириш дастури” қабул қилинди. Дастурни бажариш жараёнида хизматларнинг сифати ошди ва таркибий тузилиши ўзгарди. Интернет, видеотелефония, рақамли телевидение, замонавий банк хизматлари, лизинг, суғурта, аудит, инжиниринг каби хизмат турлари оммалашди.

2013-2016 йилларда Ўзбекистон Республикасининг қишлоқ жойларида хизмат кўрсатиш ва сервис соҳасини янада жадал ривожлантириш Дастури, шунингдек, шу йилларда қишлоқ жойларда хизмат кўрсатиш ва сервис соҳасини жадал ривожлантиришнинг асосий хизмат турлари ва ҳудудлар бўйича мақсадли параметрлари тасдиқланган. 2013-2016 йилларда қишлоқ жойларда хизмат кўрсатиш ва сервис соҳасини янада ривожлантириш ва ўсиш кўламини кенгайтириш бўйича чора-тадбирлар комплекси амалга оширилмоқда.

XVI БОБ. ИНВЕСТИЦИЯЛАР

16.1. Инвестицияларнинг моҳияти ва таснифланиши

Инвестициялар – фойда (даромад) олиш ва ижобий ижтимоий самарага эришиш мақсадида тадбиркорлик объектлари ва бошқа фаолият турларига киритиладиган пул маблағлари, мақсадли банк қўйилмалари, пайлар, акциялар ва бошқа қимматли қоғозлар, технологиялар, машиналар, ускуналар, лицензиялар, шу жумладан, товар белгиси, кредитлар, бошқа ҳар қандай мулк ёки мулк ҳуқуқ, интеллектуал бойликлардир.

Иқтисодий категория сифатида инвестициялар, биринчидан, дастлаб аванс сифатида киритилган қийматнинг қўшимча ўсишини таъминлаш мақсадида тадбиркорлик фаолиятига капитал киритишни, иккинчидан, турли лойиҳаларни амалга ошириш жараёнида инвестиция фаолияти қатнашчилари ўртасида юзага келадиган пул муносабатларини ифодалайди.

Молиявий инвестициялар – маблағларни молиявий активларга

киритишдир. Улар акциялар, облигациялар ва бошқа қимматли қоғозларга маблағ киритишни ўзида мужассам этади. Молиявий инвестицияларнинг шаклланиши алоҳида секторлар ва институционал бирликлар ўртасида моливий маблағларнинг қайта тақсимланиши ва шундан келиб чиққан ҳолда улар ўртасида ўзаро талаблар ва мажбуриятларнинг вужудга келиши билан боғлиқ. Молиявий инвестицияларнинг мақсадли ишлатилиши аниқ бир йўналишга эга эмас. Улар капитал қўйилмаларнинг қўшимча манбаси ҳам, қимматли қоғозлар бозорида биржа ўйинларининг предмети ҳам бўлиши мумкин.

16.2. Ўзбекистонда инвестиция фаолиятининг меъёрий-ҳуқуқий асослари

Ислоҳотлар йилларида инвестиция фаолиятини тартибга солувчи 50 дан ортиқ меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар қабул қилинди. “Концессиялар тўғрисида”ги, “Эркин иқтисодий зоналар тўғрисида”ги, “Чет эл инвестициялари тўғрисида”ги, “Чет эллик инвесторлар ҳуқуқларининг кафолатлари ва уларни ҳимоя қилиш чоралари тўғрисида”ги, “Инвестиция фаолияти тўғрисида”ги, “Ташқи иқтисодий фаолият тўғрисида”ги Қонунлар ана шулар жумласидандир.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2005 йил 11 апрелдаги “Тўғридан-тўғри хусусий хорижий инвестицияларни жалб этишни рағбатлантириш борасидаги қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Фармонида кўра хорижий инвестициялар ҳажми 300 минг АҚШ долларидан 3 миллион АҚШ долларигача бўлган ҳолатда 3 йил муддатга, 3 миллион доллардан 10 миллион АҚШ долларигача – 5 йил муддатга, 10 миллион АҚШ долларидан ортиқ бўлганда - 7 йил муддатга тўғридан-тўғри хусусий хорижий инвестицияларни жалб этадиган иқтисодиёт тармоқлари корхоналари асосий фаолияти бўйича даромад солиғи, мулк солиғи, ижтимоий инфратузилмани ривожлантириш ва ҳудудларни ободонлаштириш солиғи, микрофирма ва кичик корхоналар учун белгиланган ягона солиқ тўлашдан, шунингдек Республика йўл жамғармасига мажбурий ажратмалар тўлашдан хорижий озод қилинади.

2013 йил 15 март куни Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Тўғридан-тўғри хорижий инвестициялар жалб этилишини рағбатлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” 2012 йил 10 апрелдаги Фармонида ўзгартириш киритиш тўғрисидаги Фармони қабул қилиниб, унга асосан, 2013 йилнинг 1 январидан бошлаб хорижий инвестициялар иштирокида янги ташкил этилаётган корхоналар давлат рўйхатидан ўтган вақтдан бошлаб икки йил мобайнида шахсий ишлаб чиқариш эҳтиёжлари учун мол-мулк олиб киришда импорт божхона тўловларини тўлашдан озод қилинишлари кўзда тутилган.

16.3. Ўзбекистон иқтисодиётига жалб этилган инвестициялар динамикаси ва таркиби

Фаол инвестиция сиёсатини юритиш барқарор иқтисодий ўсиш суръатларини таъминлаш, иқтисодиётда чуқур таркибий ўзгаришларни амалга ошириш ва уни диверсификациялашнинг муҳим омилларидан ҳисобланади. Ўзбекистонда амалга оширилаётган инвестиция сиёсати барқарор иқтисодий ўсиш суръатларини таъминлаш, иқтисодиёт таркибида чуқур таркибий ўзгаришларни амалга ошириш, мавжуд табиий-иқтисодий ресурслардан самарали фойдаланишга ижобий таъсир кўрсатмоқда.

Таъкидлаш лозимки, Ўзбекистон иқтисодиётига жалб этилган инвестициялар ҳажми 1996 йилдан бошлаб ўсиш тенденциясига эга бўлиб келмоқда. Иқтисодиётга киритилаётган инвестицияларнинг йилдан-йилга ўсиб боришида мавжуд инвестицион шароит ва қулай инвестиция муҳити алоҳида аҳамият касб этади.

2014 йилда Ўзбекистон иқтисодиётига жалб қилинган инвестициялар ҳажми 33715,3 млрд. сўм ёки АҚШ доллари ҳисобида 14 миллиард 600 миллион долларни ташкил этди.

Ўзбекистонда инвестиция ҳажми ўсиш тенденциясига эга бўлса-да, унинг ўсиш суръатлари турли йилларда турлича бўлган. Хусусан, 2000-2008 йилларда инвестициялар ўсиш суръатларининг ошиб бориши кузатилади: агар 2000 йилда 1999 йилга нисбатан асосий капиталга киритилган инвестициялар ҳажми 1 фоизга ўсган бўлса, 2008 йилда ўзининг энг юқори чўққисига чиққан. Мазкур йилда инвестицияларнинг қўшимча ўсиш суръати 34,1 фоизга етган. Бироқ 2007 йилда АҚШ ипотекали кредитлаш тизимидан бошланган ва кейинчалик глобал тус олган жаҳон молиявий-иқтисодий инқирозининг салбий таъсири натижасида инвестициялар ўсиш суръатларининг пасайиши кузатилади. Бу пасайиш 2011 йилгача давом этиб, мазкур йилда инвестицияларнинг қўшимча ўсиш суръати 3,8 фоизга тенг бўлди.

2012-2014 йилларда инвестиция фаолиятининг жонланиши кузатилади. Бу йилларда асосий капиталга киритилган инвестицияларнинг ўртача қўшимча ўсиш суръати 11,9 фоизга тенг бўлди.

2014 йилда жами инвестицияларнинг 20,1 фоизи марказлашган инвестициялар ҳиссасига тўғри келган бўлса, марказлашмаган инвестицияларнинг улуши 79,9 фоизни ташкил этди. Ваҳоланки, 2005 йилда марказлашган инвестицияларнинг жами инвестициялардаги салмоғи 23,9 фоизни ташкил этар эди.

Ишлаб чиқарувчиларга солиқ юкини пасайтириш йўналишидаги солиқ-бюджет сиёсатини такомиллаштириш бўйича амалга оширилаётган чора-тадбирлар, тўлов интизомининг мустаҳкамланиши, хусусийлаштириш жараёнларининг кучайиши корхоналар ва аҳолининг инвестиция фаоллигини ошишига олиб келди. Бунинг натижаси ўлароқ 2000 йилда жами инвестицияларнинг 12 фоизи аҳоли маблағлари, 27,1 фоизи корхона маблағлари ҳисобига шаклланган бўлса, 2014 йилда бу кўрсаткичлар мувофиқ равишда 21,8 ва 30,8 фоизни ташкил этди.

2014 йилда корхоналар маблағлари ҳисобига амалга оширилган инвестициялар ҳажми 2013 йилга нисбатан 10,3 фоизга ўсиб, 4 миллиард 300 миллион долларни ташкил этди.

2014 йилда тижорат банклари кредитлари ва бошқа кредит маблағларининг жами инвестициялардаги улуши 11,4 фоизни ташкил этди. Ваҳоланки, бу кўрсаткич 2000 йилда 7,2 фоизга тенг бўлган. 2014 йилда улар томонидан 1 миллиард 700 миллион доллар ёки 2013 йилга нисбатан 20 фоиз кўп инвестициялар йўналтирилди.

Мамлакатимизда хорижий инвестицияларни жалб этиш борасида амалга оширилаётган чора-тадбирлар натижасида гарчи хорижий инвестицияларнинг жами инвестициялардаги улуши 2000 йилда 23,2 фоиздан 2014 йилда 20,2 фоизгача пасайган бўлса-да, бевосита хорижий инвестицияларнинг жами инвестициялардаги улуши 3,4 фоиздан 15,8 фоизгача ўсди, ҳукумат кафолати остидаги хорижий инвестициялар ва кредитларнинг улуши 19,8 фоиздан 4,4 фоизгача пасайди. Бу ҳам Ўзбекистонда амалга оширилаётган маъмурий ислохотларнинг юқори самара бераётганлигидан, айтиш мумкин вақтда хорижий инвесторларда Ўзбекистонда олиб борилаётган иқтисодий сиёсатга бўлган ишонч ортиб бораётганлигидан далолат беради.

Ишлаб чиқариш соҳасига йўналтирилган инвестицияларнинг катта қисми

саноат тармоқлари ҳиссасига тўғри келмоқда. Агар 2000 йилда жами инвестицияларнинг 29,7 фоизи саноат тармоқлари ҳиссасига тўғри келган бўлса, 2014 йилга келиб бу кўрсаткич 32,7 фоизни ташкил этди. Саноат тармоқлари орасида ёқилғи-энергетика саноати етакчи ўринни эгаллайди. Хусусан, 2014 йилда жами инвестицияларнинг 21,6 фоизи, саноат ишлаб чиқаришига сарфланган инвестицияларнинг 66,0 фоизи ёқилғи-энергетика ҳиссасига тўғри келди.

Ўзбекистон иқтисодиётига жалб қилинаётган инвестицияларнинг такрор ишлаб чиқариш таркибида юз бераётган ўзгаришлар жами инвестициялар ҳажмида янги қурилишга сарфланаётган инвестициялар улушининг ўсиб бориши билан тавсифланади. Агар 2000 йилда жами инвестицияларнинг 42 фоизини янги қурилишга сарфланган инвестициялар ташкил этган бўлса, 2014 йилда бу кўрсаткич 59,8 фоизга етди. Айтилиши мумкин, фаолият кўрсатаётган корхоналарни техник жиҳатдан қайта жиҳозлаш ва реконструкция қилиш ва кенгайтиришга сарфланаётган инвестициялар улуши бу даврда 57,5 фоиздан 23,5 фоизгача пасайди.

16.4. Ўзбекистон иқтисодиётига хорижий инвестициялар жалб этиш

Мамлакат иқтисодиётига хорижий инвестицияларни кенг миқёсда жалб этиш Ўзбекистон ҳукумати иқтисодий сиёсатининг устувор йўналишларидан ҳисобланади. Иқтисодиётни таркибий жиҳатдан қайта қуриш шароитида хорижий инвестициялар миллий жамғармалар имкониятларидан кўпроқ инвестицияларни амалга оширишда ва ишлаб чиқариш базасини янгилашда муҳим ўрин тутади.

Бизнес юритиш учун қулай муҳит, хорижий инвесторлар учун ҳуқуқий кафолатлар ва имтиёзлар ҳамда хорижий инвестициялар иштирокидаги корхоналар фаолиятини рағбатлантиришнинг яхлит тизими Ўзбекистон иқтисодиётига хорижий инвестициялар оқимини оширишга ёрдам бериши.

Мамлакатимиз иқтисодиётига жалб этилаётган хорижий инвестициялар таркибида жиддий ўзгаришлар содир бўлди. Жумладан, 2000-2014 йилларда хорижий инвестицияларнинг жами инвестициялардаги улуши 23,2 фоиздан 20,2 фоизга пасайган бўлса-да, тўғридан-тўғри хорижий инвестицияларнинг жами инвестициялардаги улуши 3,4 фоиздан 15,8 фоизгача, жами хорижий инвестициялардаги улуши 14,6 фоиздан 78,3 фоизгача ўсган.

Ўзбекистон иқтисодиётига жалб қилинган хорижий инвестицияларнинг тармоқлар бўйича тақсимланиши, %

	2000	2005	2010	2012	2013	2014
Жами	100	100	100	100	100	100
Саноат	62,4	46,4	23,6	44,5	47,4	67,6
Қишлоқ хўжалиги	4,6	3,0	0,9	2,8	3,0	2,3
Транспорт ва алоқа	24,7	38,7	68,3	37,9	40,3	22,1
Бошқа тармоқлар	8,3	11,9	7,3	14,8	9,3	8,0

Жами хорижий инвестициялар таркибида саноат ишлаб чиқаришига сарфланган инвестицияларнинг улуши 2000 йилда 62,4 фоиздан 2014 йилда 67,6 фоизгача ўсган бўлса, транспорт ва алоқа тармоқларига сарфланган инвестициялар улуши 24,7 фоиздан 22,1 фоизга пасайди. Хорижий инвестициялар таркибида саноат, транспорт ва алоқанинг юқори салмоққа эга бўлиши мамлакатимизда амалга оширилаётган модернизация жараёнлари билан изоҳланади.

Саноат тармоқлари бўйича хорижий инвестицияларнинг тақсимланиши, %

	2000	2005	2010	2012	2013	2014
Жами	100	100	100	100	100	100
Ёқилғи-энергетика	25,5	37,1	39,3	66,6	72,8	88,1
Металлургия	9,0	21,1	17,8	1,2	1,7	0,2
Кимё ва нефть кимёси	26,7	6,6	4,5	10,0	7,8	1,1
Машинасозлик	13,8	3,1	10,8	5,7	2,8	1,4
Енгил саноат	7,9	15,4	9,7	8,5	7,5	2,0
Озиқ-овқат саноати	8,4	4,4	6,0	2,9	4,0	5,2
Қурилиш материаллари саноати	0,9	3,3	7,6	3,2	2,2	1,5
Бошқалар	7,8	9,0	4,3	1,9	1,3	0,5

Бу ҳолат хорижий инвестициялар жалб этишда тайёр маҳсулотлар ишлаб чиқаришга асосланган саноатнинг қайта ишлаш тармоқларига алоҳида устуворликлар беришни тақозо этади.

Миллий, иқтисодий, экологик ва озиқ-овқат мустақиллигини таъминловчи, кенгайтирилган ишлаб чиқариш ва мамлакат аҳолисининг ҳаёт шароитлари учун қулай шарт-шароитлар яратиб берувчи (энергетика, инфратузилма объектлари, транспорт, сув билан таъминлаш, коммуникациялар ва бошқалар), тадбиркорлик, айниқса, хусусий бизнес учун ташкилий-иқтисодий ва техник шароитлар барпо этувчи соҳалар республикамиз инвестиция сиёсатининг яқин келажакдаги устувор йўналишлари бўлиши лозим.

XVII БОБ. ЎЗБЕКИСТОН ИҚТИСОДИЁТИДА МУЛК МУНОСАБАТЛАРИ

17.1. Мулк муносабатларининг моҳияти ва иқтисодий мазмуни

Мулкчилик муносабатлари – бу мулкка эғалик қилиш, ундан фойдаланиш ва уни тасарруф қилиш жараёнида вужудга келадиган иқтисодий муносабатлар тизимидир.

Мулкка эғалик қилиш мулкдорлик ҳуқуқининг унинг эғаси қўлида сақланиб туришини билдирса, мулкдан фойдаланиш – бу мол-мулкнинг иқтисодий фаолиятда ишлатилиши ёки ижтимоий ҳаётда қўлланилишидир. Мол-мулкдан фойдаланиш юз берганда у даромад олиш ёки шахсий эҳтиёжни қондириш учун ишлатилади. Мулкни тасарруф этиш – мол-мулкни сотиш, мерос қолдириш, ҳадя қилиш, ижарага беришни мулк эғаси томондан мустақил ҳал этилишидир. Шундай қилиб, мулкчилик муносабатларининг иқтисодий мазмунини унинг ажралмас уч жиҳати – эғалик қилиш, фойдаланиш ва тасарруф этиш белгилаб берди.

Мулкчилик хўжалик ва тадбиркорлик фаолиятининг турли шакллари орқали иқтисодий жиҳатдан рўёбга чиқарилади.

Бошқа томондан, мулкчиликнинг ҳуқуқий жиҳати унинг иқтисодий томонига нисбатан фақат бўйсинувчи рол ўйнамайди. Бу шунда кўринадик, ишлаб чиқариш воситаларига маълум ҳуқуқий эғалик қилмасдан, ҳеч ким ишлаб чиқариш жараёнини амалга ошира олмайди, ишлаб чиқариш воситалари ва ишлаб чиқарилган маҳсулотдан фойдалана олмайди. Шу сабабли мулкчиликнинг ҳуқуқий нормалари эғалик қилиш, тасарруф қилиш, фойдаланиш ҳуқуқи иқтисодий муносабатларнинг аниқлаштирилган кўриниши ҳисобланади.

Ҳуқуқий нормалар, бир томондан, айнан мулкчилик муносабатларини муҳофаза қилиш зарурати билан боғлиқ ҳолда вужудга келса, бошқа томондан у товар ишлаб чиқариш шароитида мулкчилик муносабатларини ривожлантиришда ғоят муҳим рол ўйнайди. Бу роль шунда кўринадик, товар хўжалиги шароитида айрим ижтимоий қатламлар ишлаб чиқариш жараёнида қатнашмасдан, айирбошлаш муносабатларида иштирок этиб (масалан, савдо воситачилари) мулкдорга айланиш имконияти пайдо бўлади.

Мулкчилик муносабатлари, унинг объектлари ва субъектлари бўлишини шарт қилиб қўяди. Мулкка айланган барча бойлик турлари мулкчилик объектларидир. Мулк объекти бўлиб, инсон яратган моддий ва маънавий бойликлар, табиий бойликлар, ақлий меҳнат маҳсули, инсоннинг меҳнат қилиши қобиляти - ишчи кучи ва бошқалар ҳисобланади. Мулк объектида асосий бўғин - бу ишлаб чиқариш воситаларига эғалик қилиш ҳисобланади. Ишлаб чиқариш воситалари кимники бўлса, ишлаб чиқарилган маҳсулот ҳам унга тегишли бўлади.

Мулк субъекти жамиятда маълум ижтимоий-иқтисодий мавқега эга бўлган, мулк объектини ўзлаштиришда қатнашувчилар, мулккий муносабатлар иштирокчилари бўлиб, улар жамоа, синф, табақа ёки бошқа ижтимоий гуруҳларга бирлашган бўлади. Айрим кишилар, оилалар ва давлат ҳам мулкчилик субъекти бўлиб чиқади.

17.2. Мулк шакллари

Бозор иқтисодиёти мулкчилик шакллариининг хилма-хил бўлишини талаб қилади, чунки товар муайян мулк объекти бўлгандагина олди-сотди қилинади. Ўзбекистон Республикаси Конституциясида ҳам: “Бозор муносабатларини ривожлантиришга қаратилган Ўзбекистон иқтисодиётининг негизини хилма-хил шакллардаги мулк ташкил этади” - деб таъкидланади.

“Ўзбекистон Республикасининг мулкчилик тўғрисидаги” қонунига мувофиқ Ўзбекистонда қуйидаги мулк шакллари амал қилади:

- хусусий мулк;
- ширкат (жамоа) мулки;
- маъмурий-худудий тузилмаларнинг мулкидан (коммунал мулкдан) иборат давлат мулки;
- аралаш мулк;
- бошқа давлатлар ҳамда халқаро ташкилотлар юридик ва жисмоний шахсларининг мулки.

Давлат мулки – мулк давлатга тегишли бўлганда мулкка эгалик қилиш, фойдаланиш ва уни тасарруф қилиш давлат ихтиёрида бўлади. Давлат мулки асосан икки йўл билан ҳосил бўлади:

- хусусий мол-мулкни миллийлаштириб, давлат қўлига олиш;
- давлат маблағлари ҳисобидан корхоналар қуриш, давлатга қарашли корхона ва ташкилотларда инвестицияларни амалга ошириш.

Ўзбекистонда Фуқаролик Кодексига мувофиқ давлат мулки Республика мулкидан ва маъмурий-худудий (муниципал) тузилмалар мулкидан иборат бўлади. Ер, ер ости бойликлари, сув, ҳаво бўшлиғи, ўсимлик ва ҳайвонот дунёси ҳамда бошқа табиий ресурслар, республика ҳокимияти ва бошқаруви тузилмалари мол-мулки, давлатга қарашли маданий ва тарихий бойликлар, бюджет маблағлари, олтин захираси, валюта фонди ва бошқа давлат фондлари республика мулки ҳисобланади.

Хусусий мулк ўз мол-мулкига хусусий тарзда эгалик қилиш, ундан фойдаланиш ва уни тасарруф этиш ҳуқуқидан иборатдир. Хусусий мулк мулкдорнинг ишлаб чиқариш жараёнида ва (ёки) ёлланма меҳнатни қўллашда шахсан бевосита иштирок этишига асосланиши мумкин.

Мулкнинг аралаш шакллари мулкдорларнинг моддий ва пул маблағларини бирлаштириш йўли билан ҳосил қилинади. Аралаш мол-мулкка эгалик қилиш ҳиссавий иштирок этиш принципи асосида ҳам, шунингдек ўз маблағларини бирлаштирган мулкдорлар ўртасида даромадларни қўшган улушига қараб тақсимлаш асосида ва томонларнинг келишуви билан ҳам амалга оширилиши мумкин.

Аралаш мулкнинг ўз маблағларини бирлаштираётган мулкдорларнинг мақоми билан белгиланадиган ҳар хил турлари бўлади. Ўзбекистон Республикаси ва бошқа давлатларнинг, турли юридик ва жисмоний шахсларнинг мол-мулкни бирлаштиришга йўл қўйилади.

17.3. Ўзбекистонда мулкни давлат тасарруфидан чиқариш ва хусусийлаштириш

Ҳозирги кунда миллий қонунчилигимизда хусусий мулк ва мулкдорлар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш кафолатлари бир қатор меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар билан тартибга солинган. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси,

Фуқаролик кодекси, Солиқ кодекси, Ўзбекистон Республикасининг “Мулкчилик тўғрисида”ги, “Давлат тасарруфидан чиқариш ва хусусийлаштириш тўғрисида”ги, “Чет эллик инвесторлар ҳуқуқларининг кафолатлари ва уларни ҳимоя қилиш чоралари тўғрисида”ги, “Чет эллик инвесторлар ҳуқуқларининг кафолатлари ва уларни ҳимоя қилиш чоралари тўғрисида”ги, “Тадбиркорлик фаоляти эркинлигининг кафолатлари тўғрисида”ги, “Хўжалик юритувчи субъектлар фаолятини давлат томонидан назорат қилиш тўғрисида”ги, “Хусусий мулкни ҳимоя қилиш ва мулкдорлар ҳуқуқларининг кафолатлари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикасининг қонунлари, шунингдек Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Бозор ислохотларини чуқурлаштириш ва иқтисодиётни янада эркинлаштириш соҳасидаги устувор йўналишлар амалга оширилишини жадаллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ҳамда “Тадбиркорлик субъектларини ҳуқуқий ҳимоя қилиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармонлари ва бошқалар ана шулар жумласидандир.

Ўзбекистонда мулкни ислоҳ қилиш ва кўп укладли иқтисодиётни барпо этишда энг аввало, бозор муносабатларга ўтишнинг ўзбек модели хусусиятларига ва мамлакат аҳолисининг менталитети, ижтимоий психологияси ва маданий анъаналарига таянган ҳолда чора-тадбирлар ишлаб чиқилди ва амалга оширилди.

Мамлакатда мулкни давлат тасарруфидан чиқариш ва хусусийлаштиришни амалга оширишнинг бош ташкилотчиси бўлган давлат жараёнга дастурли ёндашишни таъминлаб берди. Унга кўра 1994 йилнинг бошланишида Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси “Ўзбекистон Республикасида мулкни давлат тасарруфидан чиқариш ва хусусийлаштириш жараёнларини чуқурлаштириш Давлат дастури”ни ишлаб чиқди ва қабул қилди.

Корхоналарни давлат тасарруфидан чиқариш ва хусусийлаштириш Давлат дастурига кўра яқин истиқболда Ўзбекистонда хусусийлаштириш жараёнларини янада чуқурлаштириш қуйидаги хусусиятларни ҳисобга олган ҳолда ташкил этилиши белгилаб берилган:

- хусусийлаштиришда асосий эътиборни миқдор кўрсаткичларидан унинг сифат кўрсаткичларига қаратиш. Бунда тармоқларни чуқур реструктуризациялаш ва корхоналарни хусусийлаштиришдан кейинги даврда қўллаб-қувватлаш механизмини такомиллаштириш;

- мулки ислоҳ қилиниши кўзда тутилган корхоналарни хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда хусусийлаштиришнинг турли восита ва усуллари кенгайтириш. Бунда биринчи навбатда, корхоналарнинг тармоқ ва минтақавий хусусиятлари, хусусийлаштирилаётган корхоналарнинг мулкни баҳолаш тизимини такомиллаштириш, уларни тендер асосида сотиш кўзда тутилган;

- тадбиркорликни изчил қўллаб-қувватлаш орқали иқтисодиётнинг самарадорлигини ошириш. Бунинг учун корхоналарни санациялаш ва реструктуризациялашни амалга ошириш, шунингдек, зарар билан ишловчи корхоналарни тугатиш чора-тадбирларини олиб бориш кўзда тутилади;

- аҳолининг кенг қатламларини ҳиссадорлик жамиятларини яратиш жараёнига жалб қилиш ва мамлакат фонд бозорини янада ривожлантириш.

XVIII БОБ. ЎЗБЕКИСТОН ИҚТИСОДИЁТИДА РАҚОБАТ ВА

МОНОПОЛИЯ

18.1. Рақобатнинг моҳияти ва турлари

Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримов таъкидлаганидек, “Рақобат бўлмаса, бозор иқтисодиётини барпо этиб бўлмайди. Рақобат бозорнинг асосий шarti, айтиш мумкинки, унинг қонунидир”³.

Рақобат ва монополия тушунчалари ўзаро чамбарчас боғлиқ бўлиб, бозор муносабатларининг туб белгилари ҳисобланади. Улар ягона бир жараённинг қарама-қарши томонларидир.

Рақобат деганда бозор иқтисодиёти субъектларининг юқори фойда олиш мақсадида бир-бири билан кураши, ўзаро беллашуви тушунилади. У ишлаб чиқарувчилар ва истеъмолчиларнинг иқтисодий эркинлик даражасини кенгайтиради, жами тўловга қобил талабни оширади, капиталнинг ўз-ўзидан ўсиш тенденциясини кучайтиради. Таниқли иқтисодчи Ф.Хайек таъкидлаганидек, “Рақобат – бу, энг аввало, изланишдир. Уни янгилик олиб кирувчилар амалга оширадилар”⁴.

Олигополия шароитидаги рақобатда озчилик, лекин йирик фирмалар иштирок этадилар. Жами маҳсулот сотишнинг 50 ва ундан кўп фоизини чекланган сонли (кўпинча 3 тадан 9 тагача) йирик фирмалар томонидан қамраб олиниши олигополистик бозорни вужудга келтиради. Олигополиялар томонидан ишлаб чиқарилаётган товарлар стандартлашган (соф рақобат шароитидаги каби) ва турланган (монополистик рақобат шароитидаги каби) бўлиши мумкин. Олигополистик бозорга жаҳон автомобиль бозорини мисол қилиб келтириш мумкин. Бу ерда “Форд” (АҚШ) ва “Даймлер-Крайслер” (АҚШ-Германия), “Тойота”, “Хонда” ва “Ниссан”(Япония), “Фольксваген” ва “Опел” (Германия) каби фирмаларга бозордаги жами ишлаб чиқаришнинг 70-80 фоизга яқини тўғри келади.

Олигополистик рақобат ҳукмрон бўлган бозорга кириш ниҳоятда қийин ва у йирик капитал маблағларни талаб этади. Олигополиянинг содда кўриниши дуополия ҳисобланади ва бундай бозорда иккита фирма ҳукмрон бўлади.

Соф монополия эркин рақобатнинг аксидир. Бу ҳолатда бозорда ягона сотувчи фаолият кўрсатади ва у томонидан ишлаб чиқарилаётган товарнинг ўрнини босувчилар бўлмайди. Натижада, ишлаб чиқарувчи товар нархига таъсир кўрсатишнинг мутлақ имкониятига эга бўлади. Бу ерда ишлаб чиқариш тармоғи битта компаниядан иборат бўлади. Соф монополия ҳукмрон бозорга бошқа фирмаларнинг кириши ниҳоятда қийин.

Иқтисодиётда шунингдек, “табiiй монополиялар” тушунчаси қўлланилади. Табiiй монополиялар иқтисодиётнинг ёқилғи-энергетика, транспорт, алоқа, коммунал хўжалиги соҳаларида кенг тарқалган бўлиб, одатда, бундай корхоналар давлат мулки шаклида ёки давлат назорати остида фаолият олиб боради. Ҳозирги даврда иқтисодиётда табiiй монополиялар фаолият кўрсатишининг асосий сабабларидан бири соҳада рақобат муҳити яратишнинг иложи йўқлиги ёки иқтисодий жиҳатдан мақсадга мувофиқ эмаслигидир. Табiiй монополиялар фаолиятларини тартибга солиш, энг аввало, тегишли

³ И.А. Каримов Ўзбекистон XXI асрга интилмоқда. Т.: Ўзбекистон. - 1999. – Б.34.

⁴ Бункина М.К. и др. Макроэкономика. – М.: Изд-во “Дело и Сервис”, 2000, - стр. 29

товарлар ишлаб чиқарувчилари ва истеъмолчилари манфаатларини мутаносиблигига эришиш, корхонанинг иқтисодий асосланган харажатларини тўлиқ қопланишини таъминлаш ва ишлаб чиқаришни ривожлантиришга мос равишда инвестициялаш шарт-шароитларини яратишдан иборатдир.

Рақобат бозорларда турли шаклларда намоён бўлади ва турли услубларда олиб борилади. Одатда рақобат тармоқ ичидаги рақобат (ўхшаш бўлган товарлар ўртасида) ва тармоқлараро рақобат (турли тармоқлар товарлари ўртасида)га ажратилади.

Шунингдек, рақобат нархлар воситасида ва сифат асосида юз бериши мумкин. Нархлар воситасида рақобат нархни ўзгартириш йўли билан харидорларни ўзига жалб қилиш ва рақобатчисини шу йўл билан бозордан сиқиб чиқаришга қаратилади. Сифат асосида рақобатлашувда рақобатлашувчилар бозорга сифатли, чидамли, ишлатиш муддати узоқ, унумдорлиги юқори товарлар билан қатнашиш орқали харидорларни жалб этишга ҳаракат қиладилар. Одатда ҳам ашё бозорларида нархлар воситасида рақобатлашув устувор ўринга эга бўлса, тайёр маҳсулотлар бозорида сифат асосида рақобат асосий ўринни эгаллайди.

18.2. Рақобат муҳити ва унга таъсир этувчи омиллар

Иқтисодий фаолиятнинг рақобат асосида ташкил этилиши бозор иқтисодиётининг энг муҳим хусусиятларидан биридир. Бозор муносабатларига асосланган иқтисодиёт тўртта муҳим устунга таянади: бозор таклифи, бозор талаби, нарх ва рақобат. Булар орасида иқтисодиётни рақобат асосида ташкил этиш алоҳида ўринга эга.

Умуман олганда, бозор иқтисодиётининг юзага келиши ва унинг бошқа иқтисодий тизим турларидан афзаллиги ҳам рақобат курашининг натижасидир.

Рақобат муҳитини шакллантиришнинг муҳим омилларидан бири хусусий мулкнинг иқтисодиётда етакчи ўринга эга бўлишидир. Хусусий мулк инвестициялар кириб келишини, янгиликларни ишлаб чиқаришга жорий этишни ва иқтисодий ўсишни рағбатлантиради. Хусусий мулк ва рақобат муҳити ўртасида бевосита боғлиқлик мавжуд бўлиб, хусусий мулк етакчи ўринга эга бўлмаган жамиятда рақобат муҳити шаклланиши мумкин эмас.

Бозор ҳўжалигининг асосини бир-бири билан ўзаро рақобатлашувчи йирик, ўрта ва кичик корхоналар мажмуи ташкил этади. Улар жамиятнинг товар ва хизматлар таклиф этиш, ижодий натижалар, ташаббускорлик, иқтисодиётнинг янги шароитларига мослашиш даражасини белгилаб беради. Бозордаги рақобат интенсивлиги ва кўлами ушбу корхоналар сони ва улар фаолиятининг самарадорлигига боғлиқ. Шу нуқтаи назардан айтиш мумкинки, турли мулк шаклларига асосланган кўп сонли ҳўжалик юритувчи корхоналарнинг вужудга келиши рақобат муҳити шаклланишининг энг муҳим омилларидан бири саналади.

Рақобат муҳитини шакллантиришнинг яна бир муҳим омили танлаш эркинлиги билан боғлиқ. Бу шуни англатадики, моддий ресурслар ва пул капитали эгалари ўз ресурсларидан ўз ихтиёрларига кўра фойдаланишлари ёки уларни ўз ихтиёрларига кўра сотишлари мумкин. Шунингдек, танлаш эркинлиги ҳар бир ишчини ўз қобилияти ва лаёқатига кўра ўзи учун маъқул бўлган ҳар қандай фаолият тури билан шуғулланишга имкон беради. Ва ниҳоят,

танлаш эркинлиги истеъмолчиларга ўз эҳтиёжларини қондириш учун истаган нисбатда товар ва хизматлар сотиб олиш имкониятини беради.

Рақобат муҳитини шакллантиришнинг энг муҳим шартларидан бири истеъмол танлови эркинлигидир. Бозор муносабатлари шароитида истеъмолчи алоҳида мавқега эга бўлиб, айнан у ўз танловини амалга оширар экан, иқтисодиётда қандай товарлар ишлаб чиқариш лозимлигини ҳал қилади. Ишлаб чиқарувчилар, мол етказиб берувчилар фақат истеъмолчи танлови доирасида ўз қарорларини қабул қиладилар. Демак, ишлаб чиқарувчилар ишлаб чиқариладиган товарларни танлашда эркин эмаслар.

18.3. Ўзбекистонда рақобат муҳитини шакллантириш ва монополияга қарши фаолият юритишнинг меъёрий-ҳуқуқий асослари

Ўзбекистонда рақобат муҳитини ривожлантириш, бозорларда монополистик ҳолатларни олдини олишнинг ҳуқуқий асослари бўлиб Ўзбекистон Республикаси Конституцияси, “Рақобат тўғрисида”ги, “Истеъмолчилар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш тўғрисида”ги, “Табиий монополиялар тўғрисида”ги ва “Реклама тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонунлари ва бошқа меъёрий ҳужжатлар хизмат қилади.

Ўзбекистонда рақобат муҳитини ривожлантириш ва монополиядан чиқариш ишларини мувофиқлаштириш мақсадида 1992 йилда Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги таркибида Монополияга қарши ва нарх сиёсати Бош бошқармаси биринчи марта ташкил килинди. 1996 йилга келиб ушбу Бошқарма Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги ҳузуридаги Монополиядан чиқариш ва рақобатни ривожлантириш Қўмитасига айлантирилди ва унга юридик шахс мақоми берилди. 2000 йилнинг 2 августида Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикаси Монополиядан чиқариш ва рақобатни ривожлантириш давлат қўмитасини ташкил этиш тўғрисида”ги Фармони ва Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ўзбекистон Республикаси Монополиядан чиқариш ва рақобатни ривожлантириш давлат қўмитаси фаолиятини ташкил этиш тўғрисида”ги қарорларига мувофиқ ташкилот Молия вазирлиги таркибидан чиқарилди ва мустақил Давлат Қўмитаси мақомини олди.

Кейинчалик Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2012 йил 13 ноябрдаги “Ўзбекистон Республикасининг Хусусийлаштириш, монополиядан чиқариш ва рақобатни ривожлантириш давлат қўмитасини ташкил этиш тўғрисида”ги ПФ-4483-сонли Фармонига мувофиқ Ўзбекистон Республикаси Давлат мулкни бошқариш давлат қўмитаси ҳамда Ўзбекистон Республикаси Монополиядан чиқариш ва рақобатни ривожлантириш давлат қўмитаси негизида Ўзбекистон Республикасининг Хусусийлаштириш, монополиядан чиқариш ва рақобатни ривожлантириш давлат қўмитаси ташкил этилди.

18.4. Ўзбекистонда рақобат муҳитининг шаклланиш хусусиятлари

Бугунги кунда республикада нодавлат мулкнинг ҳар хил шакллари ривожлантириш учун барча зарурий шарт-шароитлар яратилган. Бу соҳада амалга оширилган чора-тадбирлар натижаси ўлароқ Ўзбекистонда турли мулкчилик шакллари асосланган кўп укладли иқтисодиёт асослари барпо этилди.

2000 йилда мамлакатимизда ишлаб чиқарилган ялпи ички маҳсулотнинг 72,6 фоизи нодавлат сектори ҳиссасига тўғри келган бўлса, 2014 йилда бу кўрсаткич 82,9 фоизни ташкил этди. Саноат маҳсулоти ишлаб чиқаришда бу кўрсаткич таҳлил қилинаётган давр мобайнида 65,4 фоиздан 93,2 фоизгача, иқтисодиётда банд бўлганлар сонида 76 фоиздан 81,9 фоизгача ўсган бўлса, айтиш вақтида қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқариш ва чакана савдо айланмасида хусусий секторнинг улуши қарийб 100 фоизни ташкил этади. Бу шундан далолат берадики, Ўзбекистонда ҳалол рақобат асосида фаолият олиб бориш учун корхона ва ташкилотларга қулай шарт-шароитлар юзага келмоқда.

Ўзбекистон Республикасида рақобат муҳитини янада ривожлантириш, хусусийлаштириш, монополиядан чиқариш ва рақобатни чеклашга бўлган фаолиятларнинг босқичма-босқич амалга оширилиши, шунингдек, хусусийлаштириш жараёнидан кейинги даврда янги ташкил этилган корхоналар фаолиятини давлат томонидан ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш дастурларининг изчил бажарилиб бориши натижасида бозор муносабатлари субъектлари ҳисобланган корхона ва ташкилотларнинг мамлакатдаги сони муттасил ошиб бориш тенденциясига эга бўлмоқда.

Ислохотлар йилларида Ўзбекистон Республикаси ҳукумати асосий эътиборни иқтисодиётнинг турли тамоқ корхоналари ва уларнинг тегишли бозорлардаги мавқеларига, товар ва молия бозорларида рақобат муҳитининг мустаҳкамланишига, қонун бузилиши ҳолатларини изчил бартарф этишга қаратди.

Амалга оширилган чора-тадбирлар натижасида Ўзбекистон Республикасининг Хусусийлаштириш, монополиядан чиқариш ва рақобатни ривожлантириш давлат қўмитаси томонидан давлат реестрида рўйхатга олинган монопол корхоналар ва маҳсулот турларининг сони сезиларли даражада пасайиши кузатилди. Хусусан, 2001 йилнинг бошида монопол мавқега эга корхоналар сони 350 та ва монопол маҳсулотлар сони 230 тага тенг бўлган бўлса, 2014 йилга келиб ушбу кўрсаткичлар мос равишда 128 ва 126 тани ташкил этди. Монопол корхоналарнинг жами корхоналардаги улуши ҳам сезиларли даражада пасайди: агар 2001 йилда жами корхона ва ташкилотларнинг 0,2 фоизини монопол корхоналар ташкил этган бўлса, 2014 йилга келиб бу кўрсаткич 0,04 фоизга тушиб қолди.

ХІХ БОБ. ДАВЛАТ ВА ХУСУСИЙ СЕКТОР ҲАМКОРЛИГИ

19.1. Давлат ва хусусий сектор ҳамкорлигининг моҳияти ва объектив зарурлиги

Давлатнинг иқтисодиётни тартибга солишдаги етакчи роли доим юқори бўлган. Фақат иқтисодий тараққиётнинг барқарор суръатлари юз берган даврларда давлат тадбиркорлик фаолиятига кенгроқ эркинликлар ва имтиёзлар берган ва уни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаган. Иқтисодий ислохотлар ёки чуқур иқтисодий инқирозлар даврида эса давлат жамиятнинг барча имкониятларини бир мақсад – инқироздан чиқиб кетиш йўлида бирлаштирган.

Ривожланган мамлакатларда хусусий секторнинг иқтисодий, молиявий, ташкилий, илмий-техник ва инновацион салоҳияти юқори бўлганлиги туфайли давлат аксарият иқтисодий соҳаларда хўжалик фаолиятини эркин тадбиркорликнинг амалга оширилиши мақсадга мувофиқ, деб ҳисоблайди. Шу

билан бирга, миллий иқтисодиётнинг жаҳон хўжалигидаги рақобатбардошлигини таъминлаш мақсадида, давлат хусусий сектор билан ўзаро манфаатли ҳамкорлик қилади.

Давлат иқтисодий ўсишнинг барча омилларидан ўзи самарали фойдалана олмайди, хусусий сектор эса халқаро бозорда рақобатбардошлигини кучайтиришда давлатнинг институционал жихатдан қўллаб-қувватлашига эҳтиёж сезади. Бу ҳолат объектив равишда уларни ўзаро шерикчилик қилишга, жамиятдаги ижтимоий-иқтисодий муаммоларни биргаликда ҳал қилишда ҳамкорликка ундайди.

Иқтисодиёт мавжуд иқтисодий бирликлар – давлат, ташкилот, фирма, корхоналар ҳамда уй хўжаликлари фаолияти самарали бўлмаса, етарли суръатларда ривожлана олмайди. Ижтимоий, жамоавий ва хусусий манфаатдорликнинг келишув асосида таъминланиши шароитидагина иқтисодий бирликлар ижтимоий ва иқтисодий фойдали ҳаракат қила бошлайдилар.

Институтлар – бу жамиятдаги иқтисодий бирликларнинг ўзаро келишуви асосида юзага келган тартиб-қоидалар бўлиб, давлат ва хусусий сектор бири билан ҳамкорликда бу қоидаларни доимий шаклда такомиллаштириб, тузатиб боради. Меъёрлар, имтиёзлар, чекловлар, таъқиқловчи қоидалар, рағбатлантириш воситалари – буларнинг барчаси бозор субъектлари ҳисобланган давлат, корхоналар ҳамда уй хўжаликларининг ҳатти-ҳаракатларини ўзаро мослаштиришга ва уйғунлаштиришга, манфаатларни рўёбга чиқаришга хизмат қилади.

Жаҳон бозорида давлат ўз ҳолича, ёки миллий ишлаб чиқарувчи ўз-ўзича самарали ҳаракат қила олмайди. Давлатнинг жаҳон хўжалигидаги иқтисодий куч-қудрати миллий ишлаб чиқарувчилар фаолиятида намоён бўлади, ўз навбатида, кучли давлатгина халқаро ва минтақавий бозорларда ўз тадбиркорлари манфаатларини ҳар жихатдан ҳимоя қилишга қурби етади.

Ислохотларнинг бугунги босқичида давлат ва хусусий сектор ҳамкорлигини кучайтириш долзарб аҳамият касб этмоқда. Чунки, сўнгги йилларда юз берган ва ҳали ҳамон давом этаётган глобал молиявий-иқтисодий инқироз давлат ва хусусий тадбиркорлик кучларини бирлаштиришни, рақобатбардош товар ва хизматлар ишлаб чиқаришда ўзаро кўмаклашиш тизимини йўлга қўйишни тақозо этмоқда.

19.2. Давлат ва хусусий сектор ҳамкорлигининг асосий йўналишлари

Давлатнинг ижтимоий-иқтисодий вазифаларни бажаришига умумжамят манфаатлари асосий мезон бўлиб хизмат қилади. Давлатнинг иқтисодиётга аралашуви ижтимоий неъматларни етарли даражада ишлаб чиқаришга эришиш, иқтисодиётдаги таркибий номутаносибликларга йўл қўймаслик ва ижтимоий барқарорликни кафолатлашга қаратилади.

Давлат ва хусусий сектор ҳамкорлиги ривожланишининг асосий мақсадлари қуйидагилардан иборат:

- ижтимоий секторда хизмат кўрсатиш сифати ва самарадорлигини ошириш ҳамда йирик инфратузилма лойиҳаларини амалга оширишни жадаллаштириш;
- иқтисодиётнинг давлат сектори ва ижтимоий хизматлар соҳасига

инновацион технологиялар ва инновацион бошқарув механизмини жорий этиш;
- анъанавий тарзда давлат масъул бўлган тармоқлар ривожланишига бюджетдан ташқари молиялаштириш манбаларини жалб этиш;
- йирик ва узоқ муддатли лойиҳаларга хусусий секторни жалб этиш эвазига умуман иқтисодиёт ривожланишини рағбатлантириш ва бошқалар.

Давлат ва хусусий сектор ҳамкорлигининг асосий белгилари қуйидагилардир:

- бу ҳамкорликнинг асосий қатнашчилари давлат ва хусусий бизнес субъектлари ҳисобланади;
- томонларнинг ўзаро ҳаракати юридик асосда мустаҳкамланади ва давлат ва хусусий сектор ҳамкорлиги турли шаклларда амалга оширилади;
- давлат ва хусусий сектор ҳамкорлигида томонлар тенг ҳуқуққа эга бўладилар;
- давлат ва хусусий сектор ҳамкорлиги муносабатлари узоқ муддатли характерга эга бўлади;
- давлат ва хусусий сектор ҳамкорлиги кўпинча ижтимоий масалаларни ечишга қаратилади (мақсад давлат вазифаларини ҳал этиш), бундай ҳамкорлик турида ҳукумат органларига тегишли функцияларнинг бир қисми хусусий секторга берилади;
- давлат ва хусусий сектор ҳамкорлигига асосланган лойиҳаларда томонларнинг молиявий ва бошқа ресурслари бирлаштирилади, хусусий инвестицияларнинг жалб этилиши кузатилади;
- давлат ва хусусий сектор ҳамкорлиги лойиҳаларини амалга оширишда таваккалчилик ва масъулият тақсимланади;
- лойиҳаларни амалга ошириш ва давлат хизматларини кўрсатишда бошқаришнинг инновацион усуллари қўлланилади.

Давлат ва хусусий сектор ҳамкорлигида давлат қуйидагилардан манфаатдор ҳисобланади:

- давлат ва хусусий сектор ҳамкорлигида хусусий секторда мавжуд тажриба, технология ва ваколатларни жалб этиш асосида харажатларни камайтириш ва юқори сифатли хизматлар кўрсатишга эришилади. Бунинг натижасида жамият миқёсида иқтисодий самарадорлик даражаси юқори бўлиши таъминланади;
- йирик лойиҳаларни амалга оширишда хусусий сектор инвестор сифатида қатнашади ва жорий вазифаларни ҳал этиш учун давлат бюджетида бўш ресурслар пайдо бўлади;
- хусусий ташкилотларнинг харажатларни минималлаштириш, самарали қарорларни жорий этиш ва лойиҳаларни амалга ошириш муддатларини қисқартиришга бўлган қизиқишлари ижтимоий неъматларни ишлаб чиқаришда давлат мулки ва бюджет маблағларидан самарасиз фойдаланиш хавфини камайтиради.

19.3. Ўзбекистонда давлат ва хусусий сектор ҳамкорлигининг меъёрий-ҳуқуқий асослари

Мамлакатимизда давлат ва хусусий сектор ҳамкорлигининг айрим жиҳатларини тартибга солувчи меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар қабул қилинган. Ўзбекистон Республикасида давлат ва хусусий сектор ҳамкорлигининг ҳуқуқий

асосини концессиялар, хусусийлаштириш, табиий монополиялар, хорижий инвестицияларни жалб этиш тўғрисидаги қонунчилик ҳужжатлари ташкил этади. Давлат ва хусусий сектор ҳамкорлигининг лойиҳалари концессион асосга эга бўлганлиги учун унда миллий концессия қонунчилиги катта аҳамиятга эга.

Ўзбекистон Республикасида 1995 йилда “Концессиялар тўғрисида”ги Қонун қабул қилинган. Ушбу қонун Ўзбекистон Республикаси ҳудудида объектларни хорижий инвесторларга тақдим этишнинг ташкилий, иқтисодий ва ҳуқуқий шарт-шароитларини тартибга солади.

Концессия чет эллик инвесторга хўжалик фаолиятининг муайян тури билан шуғулланиш учун давлат номидан бериладиган рухсатнома бўлиб, бу фаолиятни амалга ошириш учун давлат чет эллик инвесторга концессия шартномаси тузиш асосида мол-мулк, ер ва ер ости участкаларини топширади.

Концессиячи ажратилган ер участкасидан, сув ресурсларидан, энергия манбаларидан, муҳандислик коммуникацияларидан Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатларига мувофиқ фойдаланиш, фойдаланилаётган ҳудудда бинолар, иншоотлар, шохобча йўллар, шосселар, телеграф ва телефон алоқа линиялари қуриш, мол-мулк таркибига унинг қийматини оширадиган ўзгартишларни мустақил киритиш, уни қайта қуриш, кенгайтириш, техника билан қайта жиҳозлаш, ўз ишлаб чиқариш эҳтиёжлари ва ходимларнинг шахсий эҳтиёжлари учун мол-мулк ва зарур материаллар олиб кириш, ўз мол-мулкни ва ўзи ишлаб чиқарган маҳсулотни олиб чиқиб кетиш ва бошқа ҳуқуқларга эга. Концессиячининг концессиячилик фаолияти натижасида олган маҳсулоти ва даромадлари унинг мулки ҳисобланади.

Давлат ва хусусий сектор ҳамкорлигини тартибга солишда Ўзбекистон Республикасининг “Табиий монополиялар тўғрисида”ги ва “Давлат тасарруфидан чиқариш ва хусусийлаштириш тўғрисида”ги Қонунлари ҳам муҳим аҳамиятга эга.

19.4. Давлат ва хусусий сектор ҳамкорлиги – фан, таълим, ишлаб чиқариш ва молия соҳалари интеграциясининг муҳим омили

Жаҳон тажрибаси шундан далолат берадики, бугунги кунда туғма қобилият, умумий ва махсус таълим, орттирилган касбий тажриба, ижодий салоҳият, жисмоний ва маънавий соғломлик симбиози сифатида инсон капитали иқтисодий ривожланишнинг энг муҳим омилларидан бири ҳисобланади. Ижтимоий йўналтирилган ва инновацион иқтисодиётни шакллантириш илмий-тадқиқот ходимлари томонидан эгалланган янги билимлар ва уларнинг ишлаб чиқариш жараёнига кенг тадбиқ этилишига боғлиқ. Шу муносабат билан таълим соҳасида давлат ва хусусий сектор ҳамкорлигини ривожлантириш бугунги кундаги долзарб масалалардан ҳисобланади. Таълим соҳасида бундай ҳамкорликни йўлга қўйиш ва ривожлантириш фан, таълим, ишлаб чиқариш ва молия соҳалари интеграциясининг чуқурлашувига олиб келади.

Меҳнат бозори эҳтиёжларига мувофиқ келувчи юқори малакали кадрлар тайёрлаш эса, айнан фан, таълим, ишлаб чиқариш ва молиясоҳалари интеграциясига яқиндан боғлиқ. Айни вақтда таълим муассасаларининг алоҳида иш берувчилар ва меҳнат бозори билан ўзаро алоқалари томонларнинг

комплекс стратегик ҳамкорлигини тақозо этади. Бундай ҳамкорликдан кўзда тутилган асосий мақсад ўзаро манфаатли ҳамкорлик учун молиявий, кадрлар, моддий-техника ва бошқа ресурсларни бирлаштиришдан иборат.

Сўнгги йилларда бу йўналишда республикада қатор чора-тадбирлар амалга оширилмоқда. Таълим тизимида давлат ва хусусий сектор ҳамкорлигини йўлга қўйиш қуйидагиларни ўз ичига олади:

- корхоналарни ўқув дастурларини шакллантириш, меҳнат бозорида юқори талабга эга талабаларни ўқитиш ва амалиётларини ташкил этиш, уларнинг касбий компетенцияларини ривожлантириш жараёнларига жалб этиш;

- турли инновация йўналишлари бўйича қўшма илмий тадқиқотлар ва ишланмаларни амалга ошириш;

- талабаларни мақсадли тайёрлаш, талабалар ва профессор-ўқитувчилар учун қўшимча стипендия ва грантларни молиялаштириш;

- ёш мутахассисларни корхонада ўрнашиб олиши ва мослашиши учун ижтимоий ва моддий шароитлар яратиш;

- таълим муассасалари моддий-техника базасини мустаҳкамлаш, ижтимоий ва маиший инфратузилмани яхшилаш, қурилиш-таъмирлаш ва ободонлаштириш;

- таълим хизматлари кўрсатиш, талабаларнинг ўқув ва ишлаб чиқариш амалиётларини ташкил этиш ва таълимдан кейинги иш билан бандлигини таъминлаш;

- таълим муассасалари фаолиятига оид ёки қўшимча хизматлар кўрсатиш (хусусан, савдо, овқатланиш, ноширлик, техник ва компьютер хизматлар шулар жумласидандир);

- таълим муассасалари фаолиятининг турли соҳаларига ҳомийлик ва бюджетдан ташқари маблағларни жалб этиш, техник кўмакни амалга ошириш;

- алоҳида муҳофазага муҳтож талабаларни ижтимоий ҳимоя қилиш, иқтидорли талабаларни маънавий ва моддий рағбатлантириш ва бошқалар.

Таълим муассасаларининг корхоналар билан ҳамкорлиги, бир томондан, ривожланишнинг истиқболли йўналишларини ҳисобга олган ҳолда корхоналар фаолиятини кадрлар билан таъминлашни ўзида акс эттирса, иккинчи томондан, бизнеснинг ўзига хос шакли сифатида намоён бўлади. Унда илмий-тадқиқот лойиҳаси доирасида бир нечта субъектлар ресурслари бирлаштирилади.

XX БОБ. ЎЗБЕКИСТОН ИҚТИСОДИЁТИДА КОРПОРАЦИЯЛАР

20.1. Корпорацияларнинг моҳияти ва миллий иқтисодиёт ривожланишида тутган ўрни

Корпорация латинчадан *corporatio* - «бирлашма», «уюшма», «ҳамжамият» деган маъноларни англатади. Корпорация ривожланган йирик акциядорлик жамияти, бирор бир фаолият учун уюшган ҳуқуқий ва жисмоний шахслар мажмуи ҳисобланади. Корпорация давлатга тегишли ёки хусусий бўлиши ҳам мумкин. Корпорацияларнинг устун томонларидан бири бошқарувнинг содда ва қайишқоқлиги, харажатларни камайтириш имкониятларини қидиришнинг қулайлигидир.

Корпорацияларнинг компаниялар гуруҳидан фарқи шуки, компаниялар гуруҳи *бир тармоқда* умумий муаммоларни, яъни ўз ресурсларини мураккаб

техникани, юқори технологик асбоб-ускуналарни яратиш ва ишлаб чиқаришда қўллаш мақсадларида бирлаштиради, умумий манфаатларни хорижий рақобатчилар олдида ҳимоя қилишда кучларни бирлаштиради, ўзларига қулай қонунлар ишлаб чиқишда биргаликда ҳаракат қилади. Корпорациялар эса турли тармоқларда фаолият кўрсатади.

Корпорациялар корпоратив ҳуқуқда турлича талқин қилинсада, унинг умумий тўртта белгисини ажратиб кўрсатиш мумкин.

- [юримдик шахс](#)лиги;
- чекланган масъулиятнинг мавжудлиги;
- акцияларнинг бозорда эркин сотилиши;
- директорлар кенгаши томонидан марказлашган бошқарувнинг жорий этилганлиги.

Корпоратив бошқарув тизими компаниялар эгаларининг бошқарув менежерлари билан ўзаро муносабатларини тартибга солишни, манфаатли томонлар ҳисобланган компания акционерлари мақсадларини мувофиқлаштиришни, компаниянинг самарали фаолият кўрсатишини таъминлайди.

20.2. Бозор иқтисодиётининг корпоратив модели, корпоратив бошқарув ва корпорацияларнинг кўринишлари

Бозор иқтисодиётининг корпоратив модели корпоративизм тушунчасини юзага келтирди. Корпоративизм кенг маънода турли қатламлар ёки замонавий жамиятдаги турли ижтимоий гуруҳлар манфаатларининг ташкилий жиҳатдан қайд этилиши, уларни расман эътироф этиш тизими ҳисобланади. Ихтисослашган институтлар, процедуралар ва механизмлар бу манфаатларни рўёбга чиқариш воситалари ва дастаклари бўлиб, шу орқали иқтисодий ва ижтимоий манфаатларни тўлароқ рўёбга чиқариш учун рақобат кураши олиб борилади. Бунда ҳал қилувчи ўринни институтлар ва ижтимоий шериклик механизмлари эгаллайди.

Бозор иқтисодиётининг корпоратив модели кўпроқ Австрия, Швеция, Япония, Германия, Швейцария ва Нидерландияда ривожланган.

Корпоративизмнинг классик мамлакати ҳисобланган Австрияда келишув ва манфаатларни мувофиқлаштириш учун маслаҳат кенгашлари ва қўмиталари, ҳамда шунга тенглаштирилган ташкилотлар мос равишда умумжамят ва иқтисодиёт тармоқлари даражасида фаолият кўрсатади.

Улар иқтисодий стратегияни белгилаб олишда ва ижтимоий-иқтисодий соҳаларда ечилиши зарур бўлган жорий масалаларни ҳал этишда муҳим рол ўйнайди.

Бозор иқтисодиёти тадрижий ривожланиш жараёнида корпорацияларни “ўз бағрида тарбиялаб, ўстирди”. Бошқача айтганда, корпорациялар бозор иқтисодиётининг натижаси, маҳсули ҳисобланади. Савдо капиталининг ўсиб, ривожланиб саноат капиталига айлангани қонуният бўлганидек, ишлаб чиқаришнинг майда ва кичик бирликлари йириклашиб, ташкилий, ҳуқуқий, молиявий, техник ва технологик жиҳатдан, шунингдек, институционал томондан қудратли корпорацияларга айланиши ҳам бир қонуниятдир.

Корпорацияларнинг шаклланиши саноатлашган давлатларда қарийб 150-160 йиллик тарихга эга бўлиб, бу давлатларнинг ўз корпоратив бошқарув моделлари мавжуд.

Англо-америка корпоратив бошқарув моделида акционерлар кўплаб майда инвесторлар ҳисобланади ва корпорацияни менежмент бошқаради.

Корпоратив бошқарувнинг немис моделида корпорация фаолиятдан манфаатдор барча – акционерлар, менежерлар, ходимлар, банклар ва жамоатчилик ташкилотлари қарорлар қабул қилишда қатнашиш ҳуқуқига эга. Бу икки модел бир-биридан кескин фарқ қиладиган моделлардир. Уларнинг бошқарув усулларида турли даражада фойдаланадиган оралиқ моделлар ҳам мавжуд.

Япон корпоратив бошқарув модели ёпиқ бошқарув модели ҳисобланади ва банклар томонидан назорат қилинади. Бу менежерларнинг назорат қилиш муаммоларини камайтиради.

Корпоратив бошқарувнинг оила модели кўп давлатларда учрайди. Бу бошқарув бир оила аъзоларининг ёки оила яқинларининг бошқарувда иштирокини таъминлайди.

Иқтисодий жиҳатдан самарали бўлган корпорациялар Япон корпорациялари ҳисобланади. Бу мамлакатда ходимларнинг корпоратив ҳуқ-атвори юқори даражада бўлиб, япон корпорациялари ходимларига иш ҳақининг миқдори учун эмас, балки фирманинг, компаниянинг мақеини сақлаб туриш учун ҳаракат қилиш муҳимроқ. Фирма эса, ўз навбатида, унинг тақдири учун қайғуради. Япон корпорацияларида жамоавийлик руҳи устун. Японияда корпорация ходими иш жойининг ўзида ривожланишга ҳаракат қилади, бошқа корпорацияга ўтиб каръера қилишга уринмайди.

20.3. Ўзбекистонда корпорациялар ривожланишининг ўзига хос хусусиятлари

Ўзбекистонда давлат миқёсидаги корпоратив тузилмалар асосан саноат тармоқларида, ижтимоий-иқтисодий ислохотларнинг дастлабки йилларидан шакллана бошлади. Чунки, ишлаб чиқариш ресурсларини йирик миқдорларда жамлаш, инвестицияларни бир мақсад йўлида мужассамлаштириш (концентрациялаш), молиявий таваккалчиликларни чамалаш ва стратегик қарорлар қабул қилиш имкониятлари саноатнинг йирик корхоналарида мавжуд эди. Мулкни давлат тасарруфидан чиқариш ва хусусийлаштиришдан асосий мақсад ҳам самарасиз фаолият кўрсатаётган саноат корхоналарини бозор иқтисодиёти шароитида, эркин тадбиркорлик ва рақобат шартларига кўра унумли фаолият юритишга ўтказиш эди. Бу ислохотлар корпорацияларни шакллантиришнинг ташкилий-ҳуқуқий чора-тадбирларини ўз ичига олган дастлабки босқичи ҳисобланади.

Кичик хусусийлаштиришдан кейин, 1995-йиллардан кейин саноат корхоналарини акционер жамиятларига айлантириш бошланди. Бу давр корпорацияларнинг асосий ташкилий-ҳуқуқий кўринишлари – акционерлик капитали асосида фаолият кўрсатувчи корхоналарнинг жадал ривожланиш даври бўлди.

Саноат мажмуасининг электроэнергетика, ёқилғи саноати, қора металлургия, рангли металлургия, кимё ва нефт кимёси, машинасозлик ва

металга ишлов бериш, қурилиш саноати, енгил саноат, озиқ-овқат саноати, ун-ёрма ва аралаш ем саноати ва полиграфия саноатида дастлабки корпоратив бирликлар давлат ва хусусий секторнинг қўшма мулки кўринишида ташкил этилди.

Бугунги кунда мамлакатимизда саноатнинг 18 тармоғига мансуб 150 дан ошиқ йирик корхоналар корпоратив тузилма сифатида фаолият кўрсатмоқда.

XXI БОБ. ЎЗБЕКИСТОНДА КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИК

21.1. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг моҳияти

Иқтисодиётнинг энг муҳим қисми ишлаб чиқариш жараёни бўлиб, бозор иқтисодиёти шароитида товар ва хизматларни яратиш билан аввало тадбиркорлар шуғулланади. Анъанавий иқтисодиётда ҳам, режали иқтисодиётда ҳам тадбиркорлик фаолиятининг муайян белгиларини кўриш мумкин. Аммо, бозор иқтисодиёти хусусий тадбиркорликка мисли кўрилмаган имкониятлар яратиб беради, кишиларнинг ўз жисмоний ва ақлий салоҳиятларини намоён қилишлари учун объектив шарт-шароит юзага келади. Бу хусусий мулкка эгалик қилиш, уни тасарруф этиш ва ундан фойдаланиш эркинлиги, рақобат муҳити ва давлатнинг иқтисодий фаолиятга мақсадга мувофиқ аралашishi билан боғлиқ.

Илгари, 1990 йиллар бошида, уддабурон киши, ишнинг кўзини биладиган одам, ҳисоб-китобини пухта қиладиган инсон каби тавсифлар ўрнини кейинчалик “бизнесмен”, “тадбиркор”, “соҳибкор”, “фермер”, тушунчалар эгаллади. Чунки, бозор ислохотлари ва мулкни давлат тасарруфидан чиқариш натижасида аҳолининг янги қатлами – тадбиркорлар шаклланди. Тадбиркорларнинг иш юритиш, маҳсулот ишлаб чиқариш ва уни айирбошлаш малакаси юксалди, қонун доирасида фаолиятни ташкил этиш, ижтимоий масъулиятни ҳис этиш ва давлат билан ўзаро манфаатли ҳамкорлик қилиш кўникмалари ривожланди.

Илгари тадбиркорларнинг нуфузи айланма маблағларни тез бошқариш, савдо, умумий овқатланиш, маиший хизматлар соҳаларидаги фаолиятини кенгайтириш билан белгиланса, бугунги кунга келиб бизнес ва тадбиркорликнинг жамиятдаги мавқеи ва нуфузи ишлаб чиқариш соҳалари – озиқ-овқат, тўқимачилик, қурилиш материаллари саноати, қурилиш, хусусан, уй-жой қурилиши, юқори технологияли ахборот хизматлари кўрсатиш кабилардаги фаолияти билан ўлчанмоқда. Қолаверса, тадбиркорнинг нуфузи уларнинг қанча иш ўринлари яратаётганликлари, экспортга маҳсулот чиқариш салоҳияти, маҳсулот таннархини пасайтириш имкониятлари билан ҳам баҳоланмоқда. Кўриниб турибдики, тадбиркорликка ва тадбиркорнинг шахсий фазилатларига бўлган талаб йилдан йилга ўз-ўзидан, объектив тарзда ошмоқда.

Хўш тадбиркор ким? Уни юқорида айтганимиз - уддабурон киши, ишнинг кўзини биладиган одам, ҳисоб-китобини пухта қиладиган инсондан ажратиб турадиган муҳим белгилари нималардан иборат?

Тадбиркорлик фаолияти кишиларнинг таваккал қилиб, мулкий жавобгарлик асосида қонунчилик доирасида ташаббус билан фаолият кўрсатишидир. Бу фаолият капитал ва ресурслардан оқилона фойдаланиш орқали кўзда тутилган мақсад – фойда ёки тадбиркорлик даромадини олишга

қаратилади. Аммо тадбиркорлик ҳар қандай йўллар билан эмас, балки яратувчанлик, ташаббускорлик фаолияти орқали даромад олишни билдиради. Шу сабабли ёлланиб ишлаш, пулни банкка қўйиб фоиз олиш, ерни ижарага бериб рента олиш тадбиркорлик эмас.

21.2. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг иқтисодийётдаги ўрни ва роли

Кичик тадбиркорлик фаолияти бозор сектори ҳисобланиб, бозор рақобати шароитида иқтисодий ўсиш суръатлари, ялпи ички маҳсулотнинг таркиби ва сифати ўзгаришини белгилаб берувчи муҳим йўналиш ҳисобланади. Дунёнинг аксарият мамлакатларида кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик иқтисодийётнинг самарали фаолият олиб бораётган органик тузилмалари ҳисобланади. Чунки, кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик иқтисодийётнинг барча “каппелляр томирлари”да ҳаракатланади, уни кичик миқёсларда “озиклантиради”.

Кичик бизнес иқтисодийётда муҳим ижтимоий-иқтисодий вазифаларни бажаради. Бу вазифаларнинг энг асосийларидан бири шундан иборатки, кичик бизнес жамиятда сиёсий ва иқтисодий барқарорликни таъминловчи ўрта синфнинг шаклланишига олиб келади. Ҳар қандай жамиятда ўрта мулкдорлар синфи иқтисодийёт ривожланишида ўзига хос ўрин тутади.

Кичик бизнес корхоналарининг иқтисодийётда тутган ўрни ва роли унинг қўйидаги афзалликларида янада яққолроқ намоён бўлади:

- кичик тадбиркорлик бозор талаби ўзгаришига сезувчан бўлади. У янги технология ёки янги маҳсулот ишлаб чиқаришга осонлик билан ўтиши мумкин. Йирик корхоналарда эса бу жараён катта харажатлар ва кўп вақт талаб қилади;
- кичик корхоналарни ривожлантириш маҳаллий ресурслардан кенг фойдаланиш имкониятини беради. Йирик корхоналарнинг бундай майда ишлар билан шуғулланишга рағбати йўқ. Бу фаолият йирик корхоналарга сезиларли даромад келтирмайди;
- кичик корхоналарда йирик корхоналарга нисбатан бошқариш харажатларининг улуши анча паст бўлади;
- кичик бизнес корхоналари йирик сармояни талаб қилмайди ва сарф қилинган капиталнинг қопланиш муддати қисқа бўлади;
- кичик бизнес янги-янги ишчи ўринларини барпо этиб, ишсизлик муаммосини ҳал қилишда муҳим роль ўйнайди;
- кичик корхоналар жамиятда ўрта мулкдорлар қатламининг шаклланишига олиб келади;
- тадбиркорликнинг мазкур шакли ички бозорни истеъмол моллари билан тўлдиришнинг асосий омили ҳисобланади.

21.3. Ўзбекистонда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг меъёрий-ҳуқуқий асослари

Тадбиркорлик фаолиятининг ривожланишида ҳуқуқий муҳитни вужудга келтириш муҳим шартлардан ҳисобланади. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг муваффақиятли фаолият кўрсатиши, энг аввало, ушбу секторга нисбатан давлат томонидан олиб борилаётган сиёсатнинг самарадорлик даражасига боғлиқ. Давлат кичик бизнес ва хусусий

тадбиркорликнинг шаклланиши ва фаолият кўрсатиши учун зарурий шарт-шароитларни яратиш, яъни қонуний асосларни барпо этиш, умуман тадбиркорлик ва уни алоҳида турларини рағбатлантириш бўйича тегишли ташкилий-иқтисодий чора-тадбирларни амалга ошириш, кичик ва хусусий тадбиркорликка хизмат кўрсатувчи бозор инфратузилмасини тартибга солиш, тадбиркорлик ҳуқуқлари ва манфаатларини ҳимоя қилиш ва кафолатлаш орқали ушбу соҳанинг ривожланишига ёрдам кўрсатади.

Бугунги кунда Ўзбекистонда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни ривожлантиришнинг меъёрий-ҳуқуқий асослари яратилган. Кичик бизнес ва хусусийтадбиркорликни тартибга солувчи муҳим меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар жумласига Ўзбекистон Республикаси Конституцияси, Солиқ ва Хўжалик процессуал кодекслари, “Тадбиркорлик фаолияти эркинлигининг кафолатлари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш ҳақида”ги Ўзбекистон Республикаси қонуни ҳамда шу соҳага оид Ўзбекистон Республикаси Президенти фармонлари ва Вазирлар Маҳкамасининг қарорлари киради.

21.4. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик ривожланишининг тенденциялари

Ўзбекистон Республикасида иқтисодий ислохотларнинг муҳим йўналишларидан бири иқтисодиётда хусусий секторни шакллантириш, мулкдорлар синфини яратиш, кичик бизнес субъектлари ривожланишини ҳар томонлама қўллаб-қувватлашдир. Бу соҳада мамлакатимизда қатор ижобий натижаларга эришилди. Мамлакатимизда бизнесни юритиш билан боғлиқ барча жараёнларни янада эркинлаштириш, соддалаштириш ва арзонлаштириш, кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектларини молиявий қўллаб-қувватлаш борасида амалга оширилаётган чора-тадбирлар натижасида кичик бизнеснинг республикамиз иқтисодиётидаги тутган ўрни тобора мустаҳкамланиб бормоқда.

Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик соҳасига давлат томонидан катта эътибор берилиши ҳамда қўллаб-қувватланиши натижасида кичик бизнес корхоналари сони 2000 йилда 149,3 мингтадан 2014 йилда 221,1 мингтага етди. Кичик корхоналар сонининг ўсиши ва уларда сифат ўзгаришларининг юз бериши мамлакат ялпи ички маҳсулотида кичик бизнес улушининг ошишига олиб келмоқда. Хусусан, 2000 йилда ялпи ички маҳсулотнинг қарийб 31 фоизи иқтисодиётнинг фаол ривожланиб бораётган ушбу сектори улушига тўғри келган бўлса, 2014 йилда бу кўрсаткич 56,1 фоизни ташкил этди ёки 2000 йилга нисбатан 25,1 фоизга ўсди.

Ўзбекистонда кичик бизнес корхоналари ривожланишининг асосий кўрсаткичлари

Йиллар	Кичик бизнеснинг ЯИМдаги улуши, %	Шу жумладан, кичик корхона ва микрофирмалар, %	Фаолият кўрсатаётган хўжалик юритувчи субъектлар сони, 1000 б.
2000	31,0	13,1	149,3
2002	34,6	15,7	215,4
2004	35,6	18,6	237,5
2006	42,1	23,5	346,1
2008	48,2	29,5	398,6
2010	52,5	32,7	201,78*

2012	54,6	33,9	219,7*
2013	55,8	34,6	213,7*
2014	56,1	34,8	221,1*

*Фермер ва деҳқон хўжаликлари сони ҳисобга олинмаган

Кичик тадбиркорлик аҳолини иш билан таъминлашда муҳим аҳамиятга эга. Таҳлиллар шуни кўрсатадики, 2000 йилда Ўзбекистонда кичик тадбиркорлик секторида 745,3 минг киши банд бўлган бўлса, 2014 йилга келиб бу кўрсаткич 2317,2 минг кишига етди, яъни таҳлил қилинаётган давр мобайнида ушбу секторда банд бўлганлар сони 3,1 мартага кўпайди. Бунинг натижасида иш билан банд аҳолининг 2014 йилда 77,2 фоизи айнан кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик соҳасига тўғри келди.

XXII БОБ. ЎЗБЕКИСТОН ИҚТИСОДИЁТИНИ БЮДЖЕТ-СОЛИҚ ДАСТАКЛАРИ ОРҚАЛИ БОШҚАРИШ

22.1. Миллий иқтисодиётни бошқариш ва тартибга солишнинг зарурати

Ҳар қандай мамлакат иқтисодиётининг самарали фаолият кўрсатишида давлат, унинг институтлари ва таркибий тузилмалари муҳим роль ўйнайди. Бунда, бир томондан, бозор, иккинчи томондан, давлатнинг тартибга солиш механизмлари ўртасидаги нисбат ҳал қилувчи аҳамиятга эгадир. Давлатнинг иқтисодий соҳани бошқаришдаги асосий вазифаси – бу аҳолининг муттасил ошиб боровчи эҳтиёжларини қондиришга қаратилган моддий ишлаб чиқаришнинг ўсишини таъминлашдир.

Давлатнинг иқтисодиётни тартибга солишдаги роли нафақат бозорларнинг фаолият кўрсатиш шарт-шароитларини яратиш билан чекланиб қолмай шунингдек, ижтимоий манфаатлар мутаносиблигини ва ижтимоий барқарорликни таъминлаш, ҳамда ички ва ташқи сиёсатда миллий манфаатларни ҳимоя қилишни ҳам ўз ичига олади.

Самарали фаолият кўрсатаётган бозор механизми кўплаб ижтимоий-иқтисодий муаммоларни катта қийинчиликларсиз ечиш имкониятини беради. Яъни, ишлаб чиқарувчилар ва истеъмолчилар манфаатларини бирлаштиради, илмий-техника тараққиёти ютуқларини жорий этишни рағбатлантиради, маҳсулот сифатини оширади, харажатларнинг пасайишига, товар ассортиментларининг мунтазам янгиланиб боришига, аҳолига кўрсатилаётган хизматлар номенклатурасининг кенгайишига олиб келади. Афсуски, энг мукамал фаолият кўрсатаётган бозор механизми ҳам жамият ҳаётида пайдо бўлаётган барча ижтимоий-иқтисодий муаммоларни бартараф этишга ожиздир. Шунинг учун ҳам, бозор механизмига бўйсунмайдиган, унинг таъсир доирасидан ташқарида бўлган бир қанча муаммолар ечимини давлат ўз бўйнига олади.

Бозор иқтисодиётига ўтишда давлат иқтисодий туб ўзгаришларнинг локомотиви ролини бажарар экан, янги технологияларни жорий этиш асосида мақсадга йўналтирилган ҳатти-ҳаракатларни тармоқларни техник жиҳатдан қайта қуроллантиришга, илмий-техникавий дастурларни ишлаб чиқиш ва қўллашга, инвестициялар ҳажмини оширишга, иқтисодиётни таркибий қайта қуришга хизмат қилади. Глобаллашув шароитида ҳалқаро меҳнат тақсимида мамлакатнинг юқори ўринларни эгаллаши мақсадида давлат миллий

иқтисодиётнинг рақобат афзалликларини оширишга қаратилган чора-тадбирлар олиб боради.

Тартибга солишнинг яхлит иқтисодий усуллар тизимини яратиш давлатнинг ўтиш давридаги энг муҳим вазифаларидан бири ҳисобланади. Шу мақсадда қуйидагилардан фойдаланилади:

- бюджет-солиқ сиёсати;
- пул-кредит сиёсати;
- нархлар орқали тартибга солиш;
- амортизация сиёсати;
- бевосита тартибга солиш усуллари – давлат буюртмаси, квоталар, лицензиялар, бевосита бюджетдан молиялаштириш.

22.2.Молия тизими ва молия сиёсати

Иқтисодиётни бошқариш, тартибга солиш ва ҳамда иқтисодий фаолиятни йўналтиришда молия тизими ва молия сиёсатининг ўрни ва аҳамияти алоҳида. Макроиқтисодий нуқтаи назардан иқтисодиёт реал ва молия секторларига бўлинади ва уларнинг яхлитлигини тақозо этади.

Агар товар ва хизматлар иқтисодиётнинг реал секторида яратилса, уларнинг айирбошланиши ва тақсимланишига, яъни реал айланишига пул хизмат қилади. Пул сектори эса молия ва кредит муносабатларини ўз ичига олади. Бошқача айтганда, молия секторида пулнинг айланма ҳаракати рўй беради.

Молия иқтисодиёт субъектларининг даромад ва харажатлари шаклланиши борасидаги иқтисодий муносабатлар бўлиб, жамиятнинг даромади қиймат кўринишидаги ЯИМ ҳисобланади. Давлат, корхона ва фирмалар, уй хўжалигининг ўз молияси мавжуд бўлиб, бу уч субъект ўртасида ҳам молиявий муносабатлар амалга ошади. Иқтисодиётни тартибга солишда давлат асосан молиявий дастак ва воситалардан самарали фойдаланади.

Молия тизими молия объекти ва субъекти, молия муносабатлари, молия механизми, молия сиёсати ҳамда молия институтларидан иборат мураккаб тизим ҳисобланади.

Молия тизимининг иқтисодиётдаги вазифалари (функциялари) мазкур тизимнинг иқтисодиётни тартибга солиш ва бошқаришдаги аҳамиятини белгилаб беради.

Молия тизимининг тақсимлаш, рағбатлантириш, иқтисодий ахборотларни бериш, ижтимоий ва назорат функциялари борки, уларнинг самарали бажарилиши молиявий ресурсларнинг оқилона ишлатилишига имконият яратади.

Молия тизимида микромолия ва макромолия ажратиб кўрсатилади. Микромолия корхоналар, фирмалар, уй хўжаликлари, нодавлат ва жамоат ташкилотлари молиясидан иборат бўлади. Макромолия эса умумжамият молияси ҳисобланиб, давлат молияси кўринишида бўлади. Давлат молиясини давлат бюджети ҳамда бюджетдан ташқари пул фондлари ташкил этади.

Давлат бюджет ва бюджетдан ташқари пул фондларини бошқариш учун, шунингдек, молия тизими фаолияти самарадорлигини таъминлаш мақсадида молия сиёсатини амалга оширади.

Давлатнинг молия бозорини тартибга солиш борасида амалга оширадиган ҳатти-ҳаракатлари ҳам молия сиёсатининг муҳим йўналишларидан бири ҳисобланади.

Молия бозори молиявий ресурслар, яъни молиявий активлар олди-сотди қилинадиган бозор бўлиб, давлат бу бозорни тартибга солади, ўзи ҳам ўз ресурслари билан мазкур бозорда иштирок этади.

Молия бозорининг объекти олди-сотди қилинадиган акциялар, облигациялар, турли сертификатлар ҳамда пулнинг ўзи ҳисобланади. Давлат бу бозорда ўз корхоналарининг акциялари, давлат қиска, ўрта ва узоқ муддатли облигациялари билан қатнашади. Молия бозоридаги олди-сотди тартиб-қоидаларини, регламентни ҳам давлат белгилаб беради.

Давлат таъсирчан молия сиёсатини юритишда бюджет ва солиқ воситаларидан фойдаланади.

22.3. Давлат бюджети молия тизимининг асосий бўғини сифатида

Молия тизими ўзида турли бўғин бюджетларини, ижтимоий, мулкӣ ва шахсий суғуртани, давлат валюта захиралари, корхона, ташкилот ва фирмаларнинг пул маблағларини ва бошқа махсус жамғармаларни жамлайди. Ташкилий жиҳатдан у мамлакатдаги барча молия муассасаларини қамраб олади. Молия тизими ўз ичига тўртта бўғинни олади: давлат бюджети; маҳаллий молия; махсус нобюджет жамғармалари; давлат коорпорациялари молияси.

Давлат бюджети – бу давлат вазифаларини, мамлакат ёки тегишли маъмурий – ҳудудий бирлик иқтисодий ва ижтимоий ривожланишини таъминлаш мақсадида пул маблағларини шакллантириш ва улардан фойдаланишнинг асосий молиявий режасидир. Содда қилиб айтганда у давлатнинг бир молия (бюджет) йилига мўлжалланган харажатлари ва уларни қоплаш манбалари кўрсатилган даромадлар сметасидир. Давлат бюджети асосини давлат бошқарув аппарати, қуроли кучлар, соғлиқни сақлаш, таълим, ижтимоий соҳалар харажатларини молиялаштиришга мўлжалланган ҳукуматнинг марказлашган пул маблағлари жамғармаси ташкил қилади. Мамлакат ҳудудида амалда бўлган ва ижтимоий муносабатлар ва ҳуқуқий меъёрларга асосланган барча турдаги бюджетлар тўпламига **бюджет тизими** дейилади. Бюджет тизимининг ташкил этилиши ва тузилиши тамойилларига (яхлитлиги, тўлалилиги, ҳаққонийлиги, ошқоралиги, мустақиллиги)га бюджет тузилмаси деб айтилади.

Давлат маҳаллий бюджетларни тузиш, кўриб чиқиш, тасдиқлаш ва ижро этиш бўйича давлат, маҳаллий ҳокимият органларининг қонунчилик томонидан белгилаб қўйилган фаолиятига **бюджет жараёни** деб айтилади.

Ўзбекистон Республикаси бюджети бажарилишининг асосий кўрсаткичлари, млрд. сўмда

Йиллар	Даромад		Харажатлар		Сальдо	
	Млрд. с.	ЯИМ %	Млрд. с.	ЯИМ%	Млрд. с.	ЯИМ%
2007	6145,0	21.8	5823,8	20.6	321,2	1,1
2008	8760,8	22.5	8197,1	21.0	563,7	1,4

2009	10840,2	21.9	10763,9	21.8	76,3	0,2
2010	13596,7	21.8	13386,9	21.4	209,8	0,3
2011	17061,3	21.6	16726,0	21.2	335,3	0,4
2012	21295,7	21.7	20882,0	21.3	413,7	0,4
2013	26223,2	22.0	25833,7	21.7	389,5	0,3

Давлат бюджети даромадлари ва ҳаражатларининг таркиби ва динамикасининг 2007-2013 йиллардаги таҳлили шуни кўрсатадики, мамлакат молия-бюджет тизимида етарли барқарорлик даражаси сақланиб келинмоқда. Мазкур даврда Ўзбекистон Республикаси давлат бюджетининг асосий йўналишлари мамлакатда иқтисодий ўсишни рағбатлантириш мақсадида иқтисодиётдаги солиқ юкини изчил камайтиришга йўналтирилди. Хусусан, иқтисодиётдаги солиқ юки даражасини билвосита кўрсаткичи ҳисобланган давлат бюджетининг ЯИМга нисбатини сезиларли пасайтиришга эришилди. Давлат бюджетининг ЯИМга нисбати 1996 йили 34,5 фоиз, 2000 йилда 29.6 фоиз, 2005 йилда бў кўрсаткич 22,5 фоизни ташкил қилди. Жадвалда келтирилган 2007-2013 йиллар давомида давлат бюджетининг ЯИМга нисбати даражаси ўртача 22 фоиз миқдори сақлаб келинмоқда. Мос равишда давлат ҳаражатлари миқдори ҳам камайиб 2007-2013 йилар давомида ЯИМга нисбатан 22 фоиздан ошмади ва мамлакат бюджетининг мувозанатлашиш даражаси мустаҳкамланди.

22.4. Солиқларнинг иқтисодиётни тартибга солишда тутган ўрни

Солиқлар ҳар қандай давлатнинг иқтисодий пойдевори ва молиявий сиёсатининг таъминловчи воситадир.

Солиқ бу давлат ёки маҳаллий ҳокимият томонидан жисмоний ва юридик шахслардан мажбурий равишда ундириладиган ва давлатнинг иқтисодий вазифаларини бажарилишига йўналтирилган маблағлардир. Солиқларни жорий қилиш ва ундириш давлат қонунчилигига асосан ташкил этилади. Бугунги кунда солиқлар фискал ва иқтисодий (тартибга солиш ва тақсимлаш) функцияларини бажаради. Солиқларнинг фискал функцияси давлат пул жамғармаларини шакллантиришнинг асосини ташкил этади. Иқтисодий функцияси эса солиқлар ёрдамида миллий даромадни қайта тақсимлаш, реал ишлаб чиқариш ва инвестициялар жараёнларига, иқтисодиётнинг ўсиш кўлами ва суръатларига таъсир кўрсатишни кўзда тутди.

Солиқларни ундириш белгиланган ставкалар миқдорида амалга оширилади. Солиқ ставкаси – юридик, жисмоний шахслардан олинадиган турли солиқларга ўрнатилган солиқ миқдоридир. Солиқларнинг пропорционал, прогрессив ва регрессив турдаги ставкалари қўлланилади.

Даромадлар ҳажмининг ўзгаришидан қатъий назар қатъий белгиланган фоизда солиққа тортишда пропорционал солиқ ставкаси қўлланилади. Одатда, қўшилган қиймат солиғи, мулк солиқлари пропорционал ставкаларда ундирилади.

Даромад ўсиб бориши билан бирга юқори солиқ ставкаларини қўлланишига прогрессив солиқ ставкалари дейилади. Прогрессив солиқ ставкалари асосан аҳоли томонидан тўланадиган даромад солиғига нисбатан кенг қўлланилади.

Барча акциз солиқлари уларни пировард тўловчиси ҳисобланган истёмолчи учун унинг эгаллаган даромадларига нисбатан регрессив характерда бўлади.

Ундириш усулига кўра солиқлар бевосита ва билвосита турларига бўлинади. Тўловчи томонидан тўғридан-тўғри амалга ошириладиган мажбурий тўловлар бевосита солиқлар дейилади. Уларга даромад, фойда, мулк солиқлари мисол бўлади. Товарлар нархида қўшилган ва уни сотиш жараёнида тўланадиган мажбурий тўловларга билвосита солиқлар дейилади. Акцизлар бундай солиқларнинг асосий турини ташкил этади.

Ўзбекистон Республикасининг Солиқ кодекси мамлакат солиқ тизимининг жаҳон талабларига мос равишда фаолият олиб боришига ҳуқуқий асос яратди. Унга кўра Ўзбекистон Республикасида ҳудудида амалда бўлган барча солиқлар умумдават ва маҳаллий солиқлар ва йиғимларга ажратилган.

Умумдават солиқларига қуйидагилар киради:

- Юридик шахслардан олинадиган даромад (фойда) солиғи;
- Жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи;
- Қўшилган қиймат солиғи;
- Акциз солиқлари;
- Ер ости бойликларидан фойдаланганлик учун солиқ;
- Экология солиғи;
- Сув ресурсларидан фойдаланганлик учун солиқ.

Умумдават солиқларининг асосий хусусияти шундаки мазкур солиқлардан тўланадиган маблағлар тўғридан-тўғри Ўзбекистон Республикасининг Марказий бюджетига жамланади.

Маҳаллий солиқлар ва йиғимлар мамлакат ҳудудларининг маҳаллий бюджетларида жамланади ва уларнинг қуйидаги турлари амалда қўлланилади:

- Мол-мулк солиғи;
- Ер солиғи;
- Реклама солиғи;
- Автотранспорт воситаларини олиб-сотганлик учун солиқ;
- Савдо-сотиқ қилиш ҳуқуқи учун йиғим, шу жумладан, айрим турлардаги товарларни сотиш ҳуқуқини берувчи лицензия йиғимлари;
- Юридик шахсларни, шунингдек, тадбиркорлик фаолияти билан шуғулланувчи жисмоний шахсларни рўйхатга олганлик учун йиғим;
- Автотранспорт тўхташ жойидан фойдаланганлик учун йиғим;
- Ободончилик ишлари учун йиғим.

“Давлат солиқ хизмати тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикасининг қонунига мувофиқ қуйидаги ташкилотлар давлат солиқ органлари деб белгиланган: Ўзбекистон Республикасининг Давлат солиқ қумитаси, Қорақалпоғистон Республикаси ва Тошкент шаҳрининг давлат солиқ бошқармалари, вилоятларнинг давлат солиқ бошқармалари, шунингдек, туманлар, шаҳарлар давлат солиқ инспекциялари.

XXIII БОБ. ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИНING БАНК-КРЕДИТ ТИЗИМИ

23.1. Миллий банк-кредит тизимининг ташкилий жиҳатлари

Замонавий банк-кредит тизими ссуда капиталлари бозорида фаолият юритувчи ва пул капиталини жалб қилиш ва йўналтириш билан шуғулланувчи турли кредит - молия институтлари тўпламидир.

Банк-кредит тизими одатда уч бўғиндан иборат бўлиб Марказий банк, тижорат банклари ва ихтисослашган кредит-молия ташкилотларини ўз ичига олади. Уч бўғинли тизим асосан аксарият саноати ривожланган мамлакатларга хосдир. Банк тизимининг ўзи икки бўғиндан иборат бўлиб Марказий банк ва тижорат банкларидан ташкил топган.

Марказий банк кредит тизимининг ўзагини ташкил этади. Марказий эмиссион банк давлат ихтиёрида бўлиб, ундан макроиқтисодий жараёнлар ва нисбатларни тартибга солишда фойдаланилади. Марказий банкнинг функцияларига қуйидагилар киради:

- банкноталарнинг эмиссиясини амалга ошириш;
- давлат олтин-валюта захираларини сақлаш; бошқа кредит ташкилотларининг резерв фондларини сақлаш, иқтисодиётни пул-кредит дастаги ёрдамида тартибга солиш;
- тижорат банкларини кредитлаш; давлат муассасаларига касса хизматини кўрсатиш;
- ҳисоб-китоб ва пул кўчириш амалиётларини юргизиш;
- кредит ташкилотлари фаолиятини назорат қилиш.

Тижорат банклари – универсал характерга эга бўлган кредит институтларидир. Улар томонидан таклиф этилаётган хизматлар бугунги кунда банк маҳсулоти номини олган ва уларнинг кўплаб турлари мавжуд. Замонавий тижорат банклари ўз миқдорларига 300 дан 600 тагача хизмат турларини таклиф этишади. Уларнинг асосийларига:

- жисмоний ва юридик шахсларга ҳисоб варақаларини очиш ва юргизиш;
- ҳисоб-касса хизмати, пулларни ва пул ҳужжатларни инкассациялаш;
- жамғармаларни фоиз тўлаш билан сақлашга қабул қилиш;
- турли мақсадларга кредитлар ажратиш;
- маблағ эгасининг топшириғига биноан пул маблағларини ишончли бошқариш;
- хориж валюталарининг олди-сотдиси;
- қимматли тошлар билан амалиётлар олиб бориш;
- ҳужжатлар ёки қимматбаҳо буюмларни сақлаш учун махсус хона ёки сейфларни ижарага бериш ва бошқалар.

Банкнинг барча хизматлари пассив (банкка маблағларни жалб этиш), актив (банк капиталини жойлаштириш) ва турли ташкилотларни топшириғини бажаришга мўлжалланган комиссион хизматларга бўлинади.

Банк пассив операцияларни амалга ошириш орқали вақтинча бўш маблағларни жалб этади ва шу йўл билан ўз ресурсларини шакллантиради. Жамланган маблағлар актив операцияларни амалга ошириш орқали уларга эҳтиёж сезувчи фирма ва жисмоний шахслар ўртасида жойлаштирилади.

Ихтисослашган кредит–молия муассасалари банк-кредит институтларининг учинчи гуруҳини ташкил этади ва ўз фаолиятларида хўжалик ҳаётининг алоҳида соҳа ва тармоқларини кредитлаш билан шуғулланишади. Уларга инвестиция, пенсия фондлари, суғурта компаниялари,

ипотека банклари ва ссуда жамғармалари киради. Ихтисослашган кредит ташкилотлари биргаликда депозит–чек эмиссияси, тижорат кредити, қисқа муддатли молиялаштириш ва бошқа амалиётларни олиб борадилар.

Ўзбекистон Республикаси банк тизими бугунги кунда 26 та тижорат банкларини ўзида бирлаштирган. Шундан энг йирик ва миллий банк тизимининг асосини ташкил этувчи банклар давлат мулки асосида ёки давлат мулки иштирокидаги банклар ҳисобланади. Тўлиқ давлат мулки асосида ҳозирда 3 та банк фаолият кўрсатиб келмоқда: Ўзбекистон Республикаси Ташқи иқтисодий фаолият Миллий банки, Ўзбекистон Республикаси давлат-тижорат Халқ банки ва “Асака” давлат-акциядорлик тижорат банки. Шунингдек, давлат мулки иштирокида 10 та акциядорлик тижорат банклари мавжуд: “Ипотека-банк” акциядорлик тижорат ипотека банки, “Ўзбекистон саноат-қурилиш банки” акциядорлик тижорат банки, “Агробанк” акциядорлик тижорат банки, “Қишлоқ қурилиш банк” акциядорлик тижорат банки, “Туронбанк” акциядорлик тижорат банки, “Микрокредитбанк” акциядорлик-тижорат банки, “Алоқабанк” акциядорлик тижорат банки, “Ипак Йўли” акциядорлик инновация тижорат банки, “Капиталбанк” акциядорлик тижорат банки ва “Asia Alliance Bank” акциядорлик тижорат банклари.

Ўзбекистон банк тизимида шунингдек, бугунги кунда ўз имкониятларини ошириб борётган 8 та хусусий ва 5 та чет эл капитали иштирокидаги тижорат банклари фаолият олиб боради.

Тўлиқ ҳажмда банк хизматлари таклиф этаётган тижорат банклари билан бир қаторда, мамлакатимизда хорижий банкларнинг 6 та ваколатхонаси ўз фаолиятини юритмоқда. Мамлакат банк тизимидаги банкларнинг филиаллари республикаимизнинг барча ҳудудларида янада кенгайиб, 2015 йилнинг 1 январь ҳолатига уларнинг сони 846 тага етди. Банк муассасаларини аҳоли ва ишлаб чиқариш корхоналари ҳудудларига янада яқинлаштириш, банк хизматларидан фойдаланиш шароитларини янада қулайлаштириш, шу жумладан, мижозларга коммунал ва бошқа тўловларни тўлашлари учун янада қулайликлар яратиш мақсадида ташкил этилган мини-банк ва махсус кассалар сони 2014 йил якуни бўйича 4 244 тага етди, шундан 2 198 таси қишлоқ жойларда жойлашган.

Ўзбекистон Республикаси тижорат банкларининг умумий капитали ҳажми 2015 йилнинг 1 январь ҳолатига кўра, 6,9 трлн. сўмни, шунингдек, тижорат банкларидаги аҳоли ва хўжалик юритувчи субъектлари депозитларининг умумий ҳажми 28,5 трлн. сўмни ташкил этмоқда.

Банкларнинг ресурс базасини мустаҳкамлаш, аҳоли ва хўжалик юритувчи субъектларнинг бўш пул маблағларини жалб қилиш мақсадида тижорат банклари томонидан узоқ муддатли облигациялар ва депозит сертификатларининг чиқарилишига алоҳида эътибор қаратиб келинмоқда. Хусусан, тижорат банкларининг муомалага чиқарилган қарз қимматли қоғозлари ҳажми 2015 йилнинг 1 январь ҳолатига 1,0 трлн. сўмни, жумладан, муомаладаги узоқ муддатли облигациялар 310,2 млрд. сўмни ва депозит сертификатлари миқдори 689,7 млрд. сўмни ташкил этмоқда.

Банкларнинг умумий капитали ва депозитлар базасининг янада мустаҳкамланиши банкларнинг ички манбалар ҳисобига кредитлаш ва инвестициялаш имкониятларини кенгайтириш орқали мамлакат

иқтисодиётининг юқори суръатларда ўсишини молиявий қўллаб-қувватлашга хизмат қилмоқда. Хусусан, тижорат банкларининг жами активлари ҳажми 2015 йилнинг 1 январь ҳолатига кўра, 56,2 трлн. сўм, тижорат банкларининг кредит қўйилмалари умумий ҳажми 34,8 трлн. сўмни ташкил этди.

23.2. Марказий банкнинг пул-кредит сиёсати

Пул-кредит сиёсати деб пул-кредит тизими фаолияти, пул муомаласи ва ссуда капиталлари бозори кўрсаткичларини тартибга солиб туришдаги давлат чора-тадбирлари тўпламига айтилади.

Пул-кредит сиёсати давлатнинг умумиқтисодий сиёсатининг бўлаги бўлиб (саноат, таркибий, ташқи савдо, инвестиция, солиқ ва бошқа сиёсатлар билан бирга) ҳукумат олдидаги устувор вазифа ва мақсадлар билан белгилаб берилади.

Пул-кредит сиёсатининг пировард мақсадлари иқтисодий ўсишнинг барқарорлиги, ишсизликнинг паст даражаси, паст инфляция, нархлар бақарорлиги ва барқарор тўлови балансини таъминлашдан иборат. Пул-кредит сиёсати мақсадлари орасида узоқ муддатли (ишсизлик йўқ шароитларида инфляциясиз иқтисодиёт) ва қисқа муддатли (муомалада маълум бир даражадаги пул массаси, банк захиралари ва фоизнинг ҳисоб ставкаларини таъминлаш) мақсадларни ажратиш мумкин.

Пул-кредит сиёсатини амалга оширишда бевосита (маъмурий) ва билвосита (иқтисодий) усуллардан фойдаланиш мумкин.


23.3. Ўзбекистон Республикаси Марказий банкнинг пул-кредит сиёсати

Ўзбекистонда пул-кредит сиёсати макроиқтисодий ва молиявий барқарорликни таъминлаш, иқтисодий ўсишга эришиш, инфляция даражасини янада пасайтириш ва тўлов интизомини кучайтиришга қаратилган. Марказий банк ўзининг пул-кредит соҳасидаги фаолиятини “Ўзбекистон Республикаси Марказий банки тўғрисида”ги Қонунга мувофиқ амалга оширади. Мазкур қонуннинг 23-моддасида республикада пул-кредит сиёсатининг асосий йўналишлари сифатида қуйидагилар ажратилиб кўрсатилган:


- иқтисодий конъюнктурани таҳлил қилиш ва башоратлаш;
- муомаладаги пул массасининг иқтисодий жиҳатдан асосланган чегараларини белгилаш;
- пул массаси, шу жумладан, Марказий банкнинг активлари ўзгариши йиллик қўшимча ўсиш суръатларининг мақсадли кўрсаткичларини аниқлаш;
- валюта ва фоиз сиёсатининг асосий йўналишларини белгилаш;
- пул-кредит сиёсати бўйича асосий мақсадли кўрсаткичларни белгилаш.

Ўзбекистон Республикасида 1992-2014 йилларда инфляция даражасининг йиллик ўзгариши, %⁵

⁵ Макроиқтисодиёт ва статистика вазирлиги маълумотлари асосида тузилган



Ўзбекистон Республикаси Марказий банки қайта молиялаштириштириш ставкасининг 1994-2014 йиллардаги ўзгариши, йиллик %⁶



Ўзбекистон Республикаси пул-кредит сиёсатининг асосий хусусиятлари банк фаолиятини янада эркинлаштириш асосида аҳолининг банк тизимига бўлган ишончини оширишда, ҳар қандай ривожланган иқтисодиётнинг таркибий қисми ҳисобланган кичик ва ўрта бизнеснинг эркин ривожланишини таъминлаш учун уларни молиявий ресурслар билан таъминлаш тизимини максимал даражада соддалаштиришда ва валюта муносабатларини янада эркинлаштириш бўйича мувофиқлаштирилган ишларни амалга оширишда ўз аксини топади.

XIV БОБ. ИЖТИМОЙ СОҲА ВА АҲОЛИ ТУРМУШ СИФАТИ

24.1. Ижтимоий соҳанинг тузилиши

Аҳолининг турмуш шароити, ҳаёт кечириши ва турмуш даражасини яхшилаш билан бевосита боғлиқ бўлган соҳалар ижтимоий соҳалар ҳисобланади. Таълим, соғлиқни сақлаш соҳалари, уй-жой коммунал хўжалиги, маданият ва санъат, спорт ва бошқа ижтимоий инфратузилма соҳалари ижтимоий соҳалар ҳисобланади. Ахборот ва телекоммуникация, йўловчи транспорти, аҳолига пулли хизмат кўрсатувчи бошқа тармоқлар ҳам ижтимоий аҳамиятга эга хизматлар кўрсатувчи тармоқларга киради.

Аҳоли сонининг ўзгариши, унинг ҳаракатланиши, никоҳ қуриш, ажралиш, умр кўриш давомийлигининг узайиши, шаҳар ва қишлоқ аҳолиси сони нисбатларининг ўзгариши, аҳолининг шаҳарлашув жараёни, аҳоли

⁶ Ўзбекистон Республикаси Марказий банки маълумотлари асосида тузилган

даромадлари ва унинг таркиби ўзгариши, турмуш шарт-шароитларининг ўзгариши ижтимоий ҳодиса ва жараёнлар ҳисобланади.

Ижтимоий йўналтирилган бозор иқтисодиётини барпо этиш даврида ижтимоий соҳани давлат қўллаб-қувватлайди. Шу билан аҳоли турмуш даражаси кескин пасайиб кетишининг олди олинади, турмуш сифатининг муттасил яхшиланиб бориши таъминланади.

Ўзбекистонда ҳар йили Давлат бюджетининг қарийб 60 фоизи соғлиқни сақлаш, таълим, коммунал хўжалик ва аҳолини ижтимоий муҳофаза қилиш билан боғлиқ бошқа соҳаларни ривожлантириш учун йўналтирилмоқда.

Ижтимоий соҳа ва хизмат кўрсатиш тармоғининг ривожланиши, инфратузилма, транспорт-коммуникация соҳасининг такомиллашуви, янги уй-жой объектлари барпо этилиши, иш ҳақи ва аҳоли даромадларининг изчил ошиб бориши ижтимоий тараққиётнинг асосий йўналишларидир.

24.2. Турмуш даражаси ва сифати тушунчаси. Турмуш даражаси кўрсаткичлари

Аҳоли турмуш даражаси давлат ижтимоий-иқтисодий сиёсати самарадорлигини баҳолашнинг энг муҳим мезонидир. Уни ошириб бориш ижтимоий ривожланишнинг асосий мақсадидир. Турмуш даражаси деганда аҳолининг зарурий моддий-номоддий неъматлар ва хизматлар билан таъминланганлик ҳамда уларни истеъмол қилиш даражаси тушунилади.

Аҳолининг фаровонлик даражасини ифодалаш учун "турмуш даражаси", "халқ фаровонлиги", "турмуш тарзи", "меҳнат фаолияти сифати", "турмуш сифати" каби тушунчалар қўлланилади. Мазкур тушунчалар ўзаро боғлиқ бўлиб, мамлакат аҳолисининг ҳаёт кечириш ҳолатини ифодалашга хизмат қилади.

Ўзбекистонда янги ижтимоий-иқтисодий шароитларга жавоб берадиган турмуш даражаси концепциясини яратишда жаҳон амалиётида кенг қўлланилаётган "турмуш сифати" концепциясининг айрим қоидаларидан фойдаланилмоқда.

"Турмуш сифати" концепцияси инсон ҳаёти фаолиятининг иқтисодий параметрларини акс эттирувчи "глобал иш билан бандлик", "турмуш даражаси", "меҳнат фаолияти сифати" каби концепцияларнинг ривожланиши асосида юзага келган. Бу концепция инсон жамоаларининг жисмоний, ақлий ва ижтимоий баркамоллигини белгиловчи шартларни шакллантиради.

Турмуш сифати нафақат овқатланиш, уй-жой, иш билан бандлик, таълим даражасини баҳоловчи объектив омилларни эътиборга олади, балки инсон томонидан ўзининг фаровонлиги, бахти, қониқиши, роҳати каби тушунчаларни субъектив ҳис этишини ҳам акс эттиради. Масалан, соғлиқ даражаси, оилавий муносабатлари, иши, моддий аҳволи, яратувчанлик қобиляти ва ҳоказолардан қониқиш ҳаётдан қониқиш ҳосил қилишнинг муҳим компоненти бўлиб, инсоннинг атроф-муҳит билан ўзаро муносабатларини ҳам ўз ичига олади.

Аҳоли турмуш даражаси ўзгаришини бевосита ифодаладиган кўрсаткичлар қуйидагилар:

- оила истеъмол бюджетининг ҳажми ва таркиби;
- ялпи даромадлар ҳажми ва таркиби;
- ялпи истеъмол харажатлари ҳажми ва таркиби;
- озиқ-овқат маҳсулотларини истеъмол қилиш ҳажми;

- ноозик-овқат маҳсулотлари истеъмоли ҳажми;
- жамғарма маблағлар ҳажми;
- ижтимоий инфратузилманинг барқарор фаолият кўрсатиши ва ривожланиши ва бошқалар.

Аҳоли турмуш даражасини ифодаловчи муҳим иқтисодий кўрсаткич - аҳоли ялпи даромадлари ва харажатлари аҳоли турмуш сифатининг таркиби ўзгаришини акс эттиради.

Аҳоли даромадлари аҳолининг номинал пул даромадлари ва реал кўринишда даромадлардан ташкил топади. Аҳоли реал даромадларининг ошишида асосий омиллар макроиқтисодий барқарорлик, иқтисодий ўсишнинг тез суръатларда ошиши, инфляциянинг сезиларли даражада пасайганлиги, иқтисодиётдаги таркибий ўзгаришлар ва аҳолини аниқ ижтимоий ҳимоя қилишнинг кучайганлиги ҳисобланади.

Аҳолининг ялпи даромадлари пул даромадлари (иш хақи, пенсия, нафақа, стипендия), кишлоқ хўжалиги маҳсулотларини сотишдан тушган даромад, мулкдан тушган даромад, тадбиркорлик фаолиятидан тушган даромад, бошқа пул даромадлари ҳамда натурал кўринишдаги даромадлардан ташкил топади.

24.3. Аҳолининг истеъмол даражаси кўрсаткичлари

Истеъмол харажатларининг ҳажми ва таркиби кўп жиҳатдан аҳолининг асосий озиқ-овқат маҳсулотларини харид қилиш имкониятлари ва мазкур маҳсулотларнинг нархи билан чамбарчас боғлиқ. Аҳолининг озиқ-овқат маҳсулотлари истеъмоли ва узоқ муддатли фойдаланиладиган маҳсулотлар билан таъминланиши турмуш сифатини ўзгаришини акс эттиради.

Ўзбекистонда 2000-2013 йиллар мобайнида жон бошига гўшт ва гўшт маҳсулотлари истеъмол қилиш 22,7 фоизга ортди, жумладан, сут ва сут маҳсулотлари 32,3 фоиз, тухум 3 баробар, сабзавот 2 баробар, картошка 1,4 баробар, мева 2 баробар ўсди. Айни вақтда истеъмол таркиби анча сифатли озиқ-овқат маҳсулотларини кўпроқ истеъмол қилиш ҳисобидан ўзгармоқда. Бунда углеводларга бой озиқ-овқатларни (биринчи навбатда, нон ва нон маҳсулотларини) истеъмол қилишнинг барқарорлашгани муҳим аҳамият касб этмоқда.

Ўзбекистон саноати аҳолининг сифатли мебель, гилам маҳсулотлари, енгил автомобилларга бўлган эҳтиёжини тўлиқ таъминлаяпти. Мамлакатимизда телевизорлар, кондиционерлар ва экологик хавфсиз музлатгичлар ишлаб чиқариш ҳажми сезиларли даражада ўсиб, трикотаж маҳсулотлари, оёқ кийимлар тайёрлаш ва енгил саноатнинг бошқа тармоқларида ишлаб чиқариш юқори суръатлар билан ривожланиб бормоқда.

Уй хўжаликлари сифат жиҳатдан эски буюмлардан кескин фарқ қиладиган янги, замонавий маҳсулотларни тез сотиб олмақда. Рақамли телевизор ва фотоаппаратлар, сунъий йўлдош антенналари ва мобиль телефонлар, DVD плеерлар, компьютер ва унга қўшимча қурилмалар, ноутбуклар ва бошқа электрон техникалар, қурилиш материалларининг янги турлари ва бошқа рўзгор ашёлари шулар жумласидандир.

Узоқ муддат фойдаланишга мўлжалланган буюмлар таъминоти бўйича ҳар 100 хонадонга 133 та телевизор, 101 та совутгич, 66 та DVD плеер, 149 та

мобиль телефон тўғри келади. Шунингдек, ҳар 100 хонадонга тўғри келадиган енгил автомобиллар сони ортиб, 27,2 тага етди.

Аҳолининг харид қобилияти, яъни ўртача ойлик маош харид қобилиятининг ўсиш динамикаси, минимал истеъмол савати билан қиёсланганда, 2000-2013 йилларда 4,2 баробар ошди.

Аҳолининг жамғарма маблағлари истеъмол бюджетининг муҳим таркибий қисми ҳисобланади. Аҳоли омонатлари ҳажми барқарор ошиб борди. Юқори ўсиш суръатлари 2000 – 2010 йилларга тўғри келди, бу даврда мазкур кўрсаткич 28,6 баробар ошди.

Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг ривожланиб бориши аҳолининг ялпи харажатлари таркибида янги йўналиш – тадбиркорлик фаолияти учун харажатлар йўналиши пайдо бўлишига олиб келди. Уларнинг улуши ҳозирги пайтда 8,5 фоизни ташкил этмоқда. Бу усул оила хўжалигининг асосий капитал учун маблағ жамғаришнинг самарали шакли бўлиб, хусусий мулк асосида ўз даромадларини шакллантириш ва кўпайтиришни билдиради.

Аҳоли турмуш даражаси ижтимоий инфратузилма объектларининг ишга туширилиши, мавжудларининг капитал таъмирланиши ҳисобига ўзгармоқда. Мустақиллик йилларида ижтимоий соҳа объектларининг қуриб фойдаланишга топширилиши республиканинг ҳар бир фуқаросини қарийб 15 кв.м уй-жой билан таъминлашга, марказлашган сув таъминотининг 84 фоиздан ошишига, табиий газ билан таъминотнинг 82 фоиз бўлишига имкониятини берди.

24.4.Ижтимоий сиёсатнинг асосий йўналишлари

Ўзбекистонда бозор муносабатларини қарор топтириш ва барқарор иқтисодий ривожланишни таъминлашда кучли ижтимоий сиёсат юритиш, ижтимоий йўналтирилган бозор иқтисодиётини барпо этиш устувор йўналишлардан бири ҳисобланади. Шу сабабли давлат ижтимоий сиёсатнинг таъсирчан ва самарали воситаларини қўллаб келмоқда.

Ижтимоий сиёсат - бу давлатнинг аҳоли турмуш даражасини ошириш учун меҳнат бозорини шакллантириш ва ривожлантириш, аҳолининг самарали бандлигини таъминлаш, нарх ва даромадлар сиёсати, ижтимоий ёрдам, ижтимоий суғурта, ижтимоий хизматлар кўрсатиш соҳаларида амалга оширадиган чора-тадбирлар тизимидир.

Ўзбекистонда ижтимоий сиёсатнинг ҳуқуқий асослари ривожлантирилган. 1993 йил 3 сентябрда “Фуқароларнинг давлат пенсия таъминоти тўғрисида”ги, Кадрлар тайёрлаш миллий дастури, “Таълим тўғрисида”ги қонун, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 1994 йил 23 августда “Кам таъминланган оилаларни ижтимоий ҳимоя қилишни кучайтиришга оид чора-тадбирлар тўғрисида”ги фармони, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1994 йил 24 августдаги “Кам таъминланган оилаларни ижтимоий ҳимоя қилишни ташкил этиш масалалари тўғрисида”ги 434-сонли қарори, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1996 йил 10 декабрдаги “Болали оилаларни ижтимоий қўллаб-қувватлашни кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 437-сонли қарори, ҳар йили даромадларни индексация қилишга қаратилган Ўзбекистон Республикаси Президентининг иш ҳақи, пенсия, стипендия ва ижтимоий нафақалар миқдорини ошириш тўғрисидаги Фармонлари, “Ўзбекистон Республикаси аҳолисини 2010 йилгача бўлган даврга мўлжалланган ижтимоий ҳимоя тизимининг ягона концепцияси” ва бошқа ҳужжатлар шулар жумласидан.

Ижтимоий сиёсатнинг муҳим йўналишлари ижтимоий ҳимоя ва ижтимоий таъминот ҳисобланади.

Ижтимоий ҳимоя мамлакат аҳолисини ижтимоий ва моддий ҳимоя муҳофаза қилинишини таъминлайдиган ва жамиятда қарор топган ҳуқуқий, иқтисодий, ижтимоий чора-тадбирлар мажмуаси бўлиб, тор маънода давлат ва жамиятнинг ёши, саломатлиги ҳолати, ижтимоий аҳволи, тирикчилик воситалари билан етарли таъминланмагани туфайли ёрдамга ва қўмакка муҳтож фуқаролари тўғрисидаги ғамхўрлигини билдиради.

Ижтимоий ҳимоянинг асосий мақсади аҳоли фаровонлигининг узлуксиз яхшиланишини таъминлаш, аҳоли қатламларининг таълим, маданият, касб малакаси, даромадлари жиҳатидан кескин тафовутларига барҳам бериш, жамият томонидан инсонга муносиб ҳаёт даражасини ва инсон тараққиётини таъминлашга ёрдам беришдан иборат.

Ижтимоий таъминот кексайган, меҳнатга лаёқатсиз бўлган ва боқувчисини йўқотган фуқароларга моддий, тиббий ва ижтимоий ёрдам кўрсатиш бўйича давлат томонидан белгиланган ижтимоий-иқтисодий тадбирлар тизимидир. У ижтимоий ҳимоянинг муҳим таркибий қисми ҳисобланади.

Ижтимоий таъминот тўғридан-тўғри давлат бюджетидан ажратиладиган маблағлар, ҳомийлар маблағлари ҳисобидан амалга оширилади. Пенсиялар ва ижтимоий нафақалар тўловлари ижтимоий таъминотнинг муҳим турларидир. Қариялар ва ногиронларга ижтимоий хизмат кўрсатиш муҳтожларни протез-ортопедия ва ҳаракатланиш воситалари билан таъминлаш, ногирон болаларни касбга ўқитиш ва ишга жойлаштиришда ёрдам бериш, пенсионерларни санаторий ва дам олиш уйларида соғломлаштириш, уларга шаҳар жамоат транспортида фойдаланишда, турар жой, маиший хизмат ва солиқларга алоқадор имтиёзлар бериш ижтимоий таъминотда катта рол ўйнайди.

Бугунги кунда қарийб 1,4 млн. пенсионер ва ногиронлар 18 турдаги имтиёзлардан фойдаланмоқда. Ижтимоий таъминот тизими Ўзбекистон Республикаси Меҳнат ва аҳолини ижтимоий муҳофаза қилиш вазирлиги томонидан бошқарилади. Бугунги кунда вазирликнинг маҳаллий ҳокимиятлардаги бошқармалари, туман бўлимлари, 40 дан ошiq мурувват ва қариялар уйлари, пансионат ва санаторийлари, 10 дан ошiq соғломлаштириш марказлари фаолият юритмоқда.

Ўзбекистон шароитида кам таъминланган аҳолига кўрсатилаётган ижтимоий ёрдам дастурларининг самарадорлиги давлат ижтимоий ёрдамининг аниқ йўналтирилганлигини кучайтириш ва аҳолининг меҳнатга лаёқатли қисмининг боқимандалигига йўл қўймаслик орқали таъминланмоқда. Шунингдек, маҳалла қўмиталари жавобгарлиги оширилиши ва ҳуқуқларини кенгайтириш асосида ижтимоий ёрдам кўрсатилишининг аниқ манзиллилигини таъминлашга, давлатнинг ижтимоий функциясини кучайтиришга, кўп болали оилаларга ижтимоий ёрдамни оила нафақаси сифатида тўланишини таъминлашга ҳам эришилмоқда.

Республикаимизда оила, оналик ва болаларни муҳофаза қилиш, фуқароларнинг ҳуқуқий манфаатини ошириш, оиланинг ижтимоий-иқтисодий манфаатларини таъминлаш, уй меҳнати ва маданий-маиший турмуш шароитини яхшилаш, оиланинг маънавий ахлоқий асосларини такомиллаштириш, кўп болали, кам таъминланган, ночор оилаларни, ногиронларни, қаровчисиз кексалар, ёлғизларни ижтимоий қўллаб-қувватлаш, оилада маънавий ва жисмоний баркамол шахсни шакллантириш борасида кенг қамровли ишлар амалга оширилди.

Мамлакатимизда аҳолини ижтимоий ҳимоялашда аёллар, болалар, кексалар ва оилага алоҳида эътибор кўрсатилмоқда. Бу 1998 йил “Оила йили”, 1999 йил “Аёллар йили”, 2000 йил “Соғлом авлод йили”, 2001 йил «Оналар ва болалар йили», 2002 йил “Қарияларни қадрлаш йили”, 2004 йил «Меҳр ва мурувват йили», 2005 йил «Сиҳат ва саломатлик йили», 2010 йил «Баркамол авлод йили», 2012 йил “Мустаҳкам оила йили”, 2013 йил “Обод турмуш йили”, 2015 йил “Кексаларни эъзозлаш йили” деб эълон қилинганлигида ўз аксини топади.

XXV БОБ. ЎЗБЕКИСТОН ЖАҲОН ИҚТИСОДИЁТИ ТИЗИМИДА

25.1. Ўзбекистоннинг очик иқтисодиётга ўтиши

Иқтисодиётнинг очиклиги, одатда, ташқи савдонинг ЯИМга нисбати, яъни ЯИМнинг ташқи савдога боғлиқлик коэффициенти деб аталадиган кўрсаткич билан белгиланади. Бу ҳақида Нобель мукофоти лауреати Ж.Стиглиц шундай ёзади: “Аҳоли жон бошига тўғри келадиган даромадларнинг ўсиши иқтисодиётнинг бир қатор очиклик кўрсаткичлари –ташқи савдонинг ЯИМга нисбати, импорт тарифларининг ўртача даражасига боғлиқ”.

Осиёдаги йирик ва янги индустриал мамлакатлар ўз миллий хўжаликларининг очиклик даражасини оширгандан кейингина жиддий иқтисодий ўсишга эриша бошладилар. Ислохотдан олдин, мисол учун, Хитойнинг ташқи савдо ҳажми мамлакат ЯИМнинг 9,5 фоизини ташкил этар эди. Мамлакатнинг кейинги 30 йиллик ривожланиши давомида ЯИМнинг ўртача йиллик ўсиш суръатлари 9,9 фоиз бўлса, халқаро савдоси йилига 16,3 фоизга ўсди. Шундай қилиб, Хитойнинг ташқи савдога боғлиқлик

коэффициенти 1978 йилдаги 9,5 фоиздан 2010 йилга келиб 60 фоиздан ошиб кетди. Ўзбекистонда ЯИМ (харид қобилияти паритети бўйича) 1990-2010 йиллар мобайнида 3,4 маротабага ўсган бўлса, ташқи савдо айланмаси бу йиллар ичида 27,1 мартага ўсди. Шундан экспортнинг ўсиши 29,5, импортники 24,2 мартани ташкил этди. Ташқи савдо ижобий сальдосининг ўсиши 53 мартага ошиб, мамлакат олтин-валюта захираларининг ишончли ўсишини, миллий валютанинг барқарорлигини таъминлади.

Аслида соф импорт ўрнини босиш сиёсати бўлмаганидек, соф экспортга йўналтирилганлик сиёсати, ҳам учрамайди. Улар ҳамиша бир-бирини тўлдиради, чунки экспортга йўналтирилган ташқи савдо сиёсатининг ҳам мақсади мамлакат иқтисодиётини индустрлаштириш, модернизациялашдан иборат. Бироқ бунга ташқи савдо чекловлари ва импортни дискриминациялаш ёрдамида импортни миллий ишлаб чиқариш билан алмаштириш воситасида эмас, балки иқтисодиётнинг очиқлик даражасини ошириш, ташқи савдони эркинлаштириш ва мамлакат экспорт салоҳиятини ошириш йўли билан эришилади. Ўзбекистон ҳудди ана шу йўлдан бораётганлиги характерлидир. Экспортга йўналтирилган савдо стратегиясининг импорт ўрнини босувчи савдо стратегиясидан принципаал фарқли жиҳати унинг очиқ иқтисодиёт тамойилларига амал қилишидир.

Экспортни рағбатлантириш сиёсати ишлаб чиқариши ва экспорт таркибини диверсификациялаш ва шундан келиб чиққан ҳолда аҳоли турмуш фаровонлигини оширишнинг муҳим омили бўлиб хизмат қилади. Экспортни рағбатлантириш сиёсати орқали хомашёни экспорт қилувчилардан тайёр маҳсулотларни экспорт қилувчига айланиш ва жаҳон хўжалик тизимида ўзининг муносиб ўрнини эгаллаши мумкин. Бугинги кунда Ўзбекистон экспортида тайёр маҳсулотларнинг ҳиссаси тобора ортиб бормоқда.

Агар импорт ўрнини босувчи савдо сиёсатини танлаган мамлакатларда узоқ истикболда 1,6 фоиз иқтисодий ўсишга эришилган бўлса, экспортга йўналтирилган савдо сиёсатини қўллаган давлатларда бу кўрсаткич 6-7 фоизни ташкил этди. Инвестициялардан олинган самара импорт ўрнини босувчи сиёсатни танланган мамлакатларга нисбатан 2 баравар паст бўлди.

Шу боис ҳам бугунги кунда экспортга йўналтирилган ташқи иқтисодий сиёсатнинг афзаллиги кўпчилик томонидан тан олинган. Бу сиёсат миллий иқтисодиётининг очиқлигини таъминлашда, глобал иқтисодиётга интеграциялашувда муҳима ҳамиятга эга. 2008-2009 йилларда бошланган глобал молиявий-иқтисодий инқироздан чиқиш йўлларида бири сифатида протекционизм сиёсатига барҳам бериш кўрсатилаётгани ҳам тасодиф эмас.

25.2. Ўзбекистоннинг ташқи иқтисодий фаолияти

Ўзбекистон Республикаси жаҳон хўжалик тизимида интеграциялашиш билан боғлиқ масалаларни ҳал этишга катта эътибор қаратмоқда. Мамлакатимиз бугун деярли барча халқаро иқтисодий ташкилотлар фаолиятида кенг иштирок этмоқда. Ўзбекистон БМТнинг иқтисодий муассасалари, Жаҳон банки, Халқаро валюта фонди, Халқаро молия Корпорацияси, Халқаро меҳнат ташкилоти каби халқаро молиявий-иқтисодий ташкилотларнинг фаол аъзоси. Мустақиллик йилларида ташқи иқтисодий фаолиятнинг барча унсурлари

янгидан ташкил этилди. Ташки иқтисодий алоқалар, инвестициялар ва савдо вазирлиги, Ташки иқтисодий алоқалар Миллий банки ана шулар жумласидан.

Ташки иқтисодий фаолиятнинг ҳуқуқий асосларини яратиш бўйича қатор тадбирлар амалга оширилди. Хусусан, “Ташки иқтисодий фаолият тўғрисида”, “Хорижий инвестициялар тўғрисида”, “Хорижий инвесторларнинг ҳуқуқларини кафолатлаш ва ҳимоя қилиш чора-тадбирлари тўғрисида” Ўзбекистон Республикаси қонунлари ва бошқа меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар қабул қилинди.

Ўтган давр мобайнида мамлакатимиз ташки савдо айланмаси тўрт баробардан зиёдроқ ўсди. Экспорт ва импортнинг ўсиш суръатлари ҳам шунга мувофиқ келади. Аммо қатор йиллардан буён Ўзбекистонда фаол савдо баланси шаклланиб келади: экспорт ҳажми импорт ҳажмидан анча баланд. 2011 йилда, масалан, ташки савдо баланси ижобий савдоси 3,7 млрд долларни ташкил этган эди.

Кейинги йиллардан экспорт ва импорт операциялари таркиби ҳам такоммилашиб бормокда.

Ўзбекистон Республикаси экспорти таркиби (фоизда)

	2000	2010	2012
Пахта толаси	27,5	11,3	9,3
Озиқ-овқат маҳсулотлари	5,4	9,7	9,3
Кимё маҳсулотлари ва улардан буюмлар	2,9	5,1	6,4
Энергия ташувчилар ва нефть маҳсулотлари	10,3	24,8	34,6
Қора ва рангли металллар	6,6	6,8	7,8
Машина ва асбоб-ускуналар	3,4	5,5	6,5
Хизматлар	13,7	9,1	17,3
Бошқалар	30,2	27,7	12,5

Ўзбекистон Республикаси импорти таркиби (фоизда)

	2000	2010	2012
Машина ва асбоб-ускуналар	35,4	44,1	45,9
Кимё маҳсулотлари ва улардан буюмлар	13,6	14,3	13,7
Энергия ташувчилар ва нефть маҳсулотлари	3,8	6,0	6,6
Қора ва рангли металллар	8,6	8,4	7,2
Озиқ-овқат маҳсулотлари	12,3	10,9	10,9
Хизматлар	8,5	4,7	5,8
Бошқалар	17,8	11,6	9,9

Экспорт таркибини диверсификациялаш, экспорт таркибида қўшилган қиймат даражаси юқори бўлган товарлар улушини ошириш мамлакат олдида турган асосий вазифалардан биридир.

Ташки савдо географияси ҳам диверсификациялашиб бормокда. 2012 йилда мамлакатимиз ташки савдо айланмасида узоқ хориж мамлакатларининг улуши 60,8 фоизни, МДХ мамлакатларининг улуши эса 39,2 фоизни ташкил этди. МДХ доирасида асосий савдо ҳамкорларимиз бўлиб Россия, Қозоғистон

ва Украина ҳисобланади. Узоқ хорижий савдо ҳамкорларимиз жумласига Хитой, Германия, Корея Республикаси, АҚШ, Япония киради.

2012 йилда Ўзбекистонда чет эл капитали иштирокидаги корхоналарнинг сони 4283 тага етди. Уларда 162 мингдан зиёд киши банд бўлиб 18,7 трлн. сўмлик маҳсулот ишлаб чиқарилди. Бу турдаги корхоналарнинг 47,6 фоизи саноат соҳасида фаолият кўрсатмоқда.

25.3. Ўзбекистоннинг халқаро интеграцион жараёнларда иштироки

Жаҳон хўжалиги ривожланишининг ҳозирги даврдаги асосий тенденцияларидан бири глобаллашувдир. Илгари миллий хўжаликлар ўртасидаги муносабатлар кўпроқ минтақавий ташкилотлар ва давлатлараро икки томонлама шартномалар асосида ривожланган бўлса, иқтисодиётнинг умумбашарий тус олиши натижасида бу жараён янада чуқурлашиб, мамлакатлар иқтисодиётининг ўзаро боғлиқлиги ортиб бормоқда. Глобаллашув жараёнини кучайтирадиган муҳим механизмлардан бири ҳудудий (минтақавий) интеграциядир.

Мамлакатларнинг географик жойлашуви, ижтимоий-иқтисодий ривожланиш даражаси, менталитет, дин, тарих ва тил яқинлиги ва шу каби бошқа омиллар интеграцион жараёнлар самарадорлигига таъсир кўрсатади. Шу жиҳатдан халқаро даражада интеграциялашаётган мамлакатлар, аввало, минтақавий интеграциялашувни устун ривожлантиб борадилар. Бунга ЕИ, НАФТА, АСЕАН, МДХ ва бошқаларни мисол қилиб кўрсатиш мумкин.

Ўзбекистон Республикаси турли халқаро ва ҳудудий интеграцион ташкилотлар фаолиятида иштирок этиши орқали мавжуд табиий-иқтисодий, меҳнат ва молиявий ресурслардан, халқаро меҳнат тақсимооти имкониятларидан самарали фойдаланишга, жаҳон хўжалик тизимида ўзига хос ўрин эгаллашга ҳаракат қилмоқда. Ўзбекистон МДХ, МОҲТ, ШҲТ, ИҲТ каби халқаро ва ҳудудий интеграция ташкилотларининг фаол аъзосидир. Бу ўз навбатида долзарб ҳисобланган ижтимоий-иқтисодий муаммоларни ҳал этишга ижобий таъсир кўрсатмоқда.

25.4. Ўзбекистон ва Марказий Осиё

Ўзбекистон учун Марказий Осиё мамлакатлари билан ўзаро ҳамкорлик муносабатларини ривожлантириш алоҳида аҳамиятга эга, чунки кўп йиллик тарихий ривожланиш давомида Марказий Осиё давлатлари ўртасида мустақкам ҳамкорлик муносабатлари шакллланган. Мамлакатлар иқтисодиёти асосий тармоқларининг ўхшашлиги, уларнинг яхлит ҳудудий бирликка эга эканлиги, сув ва энергетика манбаларининг ягоналиги ва улардан биргаликда фойдаланиш зарурати, ягона транспорт ва коммуникация тизимининг мавжудлиги, экологик муаммоларнинг ўхшашлиги минтақа республикалари ўртасидаги иқтисодий алоқаларнинг доимий бўлишини таъминлайди. Минтақа халқларининг диний, маданий, тил, урф-одат, анъана ва маънавий- психологик бирлиги эса ҳамкорлик алоқаларининг янада чуқурроқ ва ҳар томонлама бўлишига ижобий таъсир кўрсатади. Бугунги кунга келиб иқтисодиётда бозор муносабатларини янада чуқурлаштириш ва жаҳон хўжалик тизимида муносиб ўринни эгаллаш масаласи Марказий Осиё мамлакатларининг иқтисодий, маънавий ва интеллектуал салоҳиятларини бирлаштиришни тақозо қилмоқда.

2002 йил 28 февралда “Марказий Осиё иқтисодий ҳамдўстлиги” ташкилотини “Марказий Осиё ҳамкорлиги ташкилоти (МОХТ)”га айлантириш тўғрисидаги шартнома имзоланди. МОХТ кенг кўламдаги масалаларни кўриб чиқиш ваколатига эга бўлган минтақавий форумга айланди.

Ўзбекистоннинг Марказий Осиё мамлакатларига боғлиқлик даражаси унчалик зич эмаслиги аён бўлмоқда. Масалан, Ўзбекистоннинг МДХ мамлакатлари билан ташқи савдо айланмасида Тожикистоннинг улуши 0,1, Қирғизистонники 1,4 фоиз, холос. Бу эса минтақа бозоридан фойдаланиш етарли даражада эмаслигини кўрсатади. Амалда Марказий Осиё мамлакатлари билан савдо-иқтисодий алоқаларни ривожлантириш Ўзбекистонга қатор афзалликлар бериши мумкин эди.

25.5. Ўзбекистон ва МДХ

1991 йилнинг декабрь ойида Белорус, Украина ва Россия давлат раҳбарлари Мустақил Давлатлар Ҳамдўстлигини барпо этиш тўғрисидаги битимни имзоладилар. Битим собиқ иттифокнинг халқаро ҳуқуқ ва геосиёсий тизим сифатида барҳам топганлигини эълон қилди. Белорус, Қозоғистон, Россия, Тожикистон, Туркменистон ва Украина МДХга аъзо бўлиб кирдилар. 1992 йилда Арманистон, Молдова, Қирғизистон ва Ўзбекистон, 1993 йилда Озарбайжон ва Грузия МДХга аъзо бўлиб кирди. МДХ минтақавий халқаро ташкилот. У илгари СССР таркибига кирган давлатлар ўртасида ҳамкорлик алоқаларини тартибга солиш мақсадида тузилган. МДХ давлатларусти ташкилоти эмас, у ихтиёрийлик асосида фаолият кўрсатади. МДХ доирасида Иқтисодий иттифок, эркин савдо зонаси, тўлов иттифоқи, давлатлараро иқтисодий қўмита ташкил этиш тўғрисида шартнома ва битимлар имзоланган.

МДХ улкан табиий, меҳнат ва иқтисодий салоҳиятга эга бўлиб, улар аъзо мамлакатларга йирик рақобат афзалликларини беради ва жаҳон иқтисодиётида муносиб ўрин эгаллашга имконият яратади. Ер шари худудининг 16,3 фоизи, жаҳон аҳолисининг 5 фоизи, жаҳон саноат ишлаб чиқаришнинг 10 фоизи Ҳамдўстлик мамлакатларига тўғри келади. МДХ худудида халқаро бозорда талаб юқори ҳисобланган табиий ресурсларнинг йирик захиралари жойлашган. Россия, Қозоғистон, Озарбайжон, Ўзбекистон ва Туркменистонда йирик нефть ва табиий газ захиралари бор. Минтақа мамлакатларида кўмир, олмос, олтин, боксит, мис, никел, кобальт, темир, қўрғошин рудаларининг улкан захиралари, энг йирик ўрмон майдонлари мавжуд.

МДХ доирасида халқаро меҳнат тақсимоти имкониятларидан тўла фойдаланиш, ишлаб чиқариш ихтисослашуви ва кооперациясини ривожлантириш аъзо мамлакатлар аҳолиси турмуш фаровонлигини оширишда муҳим омил бўлиб хизмат қилиши мумкин.

Ўзбекистон ташқи савдо айланмасининг географик таркиби (фоизда)

	1990	2010	2012
Ташқи савдо айланмаси	100	100	100
Узоқ хориж мамлакатлари	39,9	56,9	51,8
МДХ мамлакатлари	60,1	43,1	48,2
Экспорт	100	100	100
Узоқ хориж мамлакатлари	37,7	54,8	43,4
МДХ мамлакатлари	62,3	45,2	56,6

Импорт	100	100	100
Узоқ хориж мамлакатлари	42,6	59,9	60,8
МДХ мамлакатлари	57,4	40,1	39,2

Ўзбекистоннинг МДХ доирасидаги ташқи савдо алоқаларида асосий ўринларни Россия Федерацияси (экспортда 66,8 фоиз, импортда 53,6 фоиз) Қозоғистон (экспортда 21,8 фоиз, импортда 23,3 фоиз), Украина (экспортда 5,3 фоиз, импортда 13,3 фоиз) эгаллайди.

Тўғри, Ҳамдўстликка аъзо мамлакатларнинг салоҳиятлари ҳам ҳар хил. Иқтисодий кўрсаткичлар бўйича Россия алоҳида юқори ўринга эга. МДХ аҳолисининг ярмидан кўпроғи ЯИМнинг 70 фоизи ва ялпи саноат маҳсулотининг ярмидан кўпроғи Россиянинг ҳиссасига тўғри келади. МДХ аҳолисининг 9 фоизи, ЯИМ ва ялпи саноат маҳсулотининг 2 фоиздан зиёдроғи Ўзбекистоннинг ҳиссасига тўғри келади.

МДХ доирасида иқтисодий интеграцияга акс таъсир қилаётган асосий муаммолардан бири ташкилий-ҳуқуқий асос ва ҳамдўстликка аъзо мамлакатлар ўзаро ҳаракат механизмининг такомиллашмаганлигидир. Институционал механизмлар ҳам заиф. Шунингдек, аъзо мамлакатлар иқтисодий салоҳиятининг турли даражада эканлиги, алоҳида мамлакатлар ижтимоий-иқтисодий ривожланиш даражаси ўртасидаги тафовут, миллий қонунчилик ҳужжатларининг мувофиқлаштирилмаганлиги кабилар ҳам интеграцион имкониятларни чекламоқда.

SEMINAR MASHG'ULOTLARI UCHUN TOPSHIRIQLAR TO'PLAMI

OFZAKI SAVOLLARI

1. “Ўзбекистон иқтисодиёти” қандай фан ва у нимани ўрганади?
2. Ўзбекистон иқтисодиётида иқтисодий категориялар ва қонунларнинг намоён бўлиши.
3. Ўзбекистон иқтисодиётини ўрганишда қўлланиладиган таҳлил усуллари.
4. Миллий иқтисодиётда эҳтиёжлар таркиби ва унинг янгилашиб бориши.
5. Ўзбекистон жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози шароитида.
6. Ижтимоий-иқтисодий тараққиёт мезонлари, уларнинг тавсифи ва таснифи.
7. Ўзбекистонда ижтимоий-иқтисодий сиёсат йўналишлари.
8. Мустақиллик даврида ижтимоий-иқтисодий тараққиётнинг тавсифи.
9. Ўзбекистонда мулк муносабатлари.
10. Ислохотлар даврида мулкчилик муносабатларининг иқтисодий моҳияти.
11. Ўзбекистонда пул ислохотлари.
12. Ўзбекистонда ривожланаётган товар-пул муносабатларини ривожланган давлатларда намоён бўлаётган товар-пул муносабатларига қиёсланг.
13. Ўзбекистоннинг бозор иқтисодиётига ўтиш йўлини таърифлаб беринг.
14. «Ўзбек модели»ни тавсифланг.
15. Ўзбекистоннинг бозор муносабатларига ўтиш йўли қандай хусусиятларга эга? Республика иқтисодиётини ислоҳ қилишга қандай тамойиллар асос қилиб олинади?
16. Бозор муносабатларини босқичма-босқич қарор топтириш принципининг мазмунини батафсил тушунтиринг. Ҳар бир босқичнинг мақсад ва вазифаларини тўлароқ баён қилинг.
17. Республикада иқтисодиётни ислоҳ қилиш қандай йўналишлар бўйича амалга оширилади. Ҳар бир йўналиш бўйича ўзингизнинг фикр-мулоҳазаларингизни билдириг.
18. Ўзбекистонда рақобатчилик муносабатлари.
19. Нархнинг иқтисодий мазмунини унинг вазифалари орқали тушунтириб беринг. Нарх асосий турларининг қисқача тавсифини беринг.
20. Ўзбекистонда рақобатчилик муҳитини шакллантириш ва тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш йўллари.
21. Ўзбекистонда аграр муносабатларнинг мазмунини, иқтисодий муносабатларда тутган ўрнини ва хусусиятларини кўрсатиб беринг.
22. «Ерга эгалик» ва «Ердан фойдаланиш» тушунчаларини изоҳланг.
23. Миллий иқтисодиётнинг макротаркибига нималар киради?
24. Асосий макроиқтисодий пропорциялар қандай шаклланади?
25. Иқтисодий ўсиш ва унинг омиллари нималардан иборат?
26. Макроиқтисодий ва молиявий барқарорликка эришиш йўллари қандай?
27. Макроиқтисодий кўрсаткичлар нималар ва улар миллий иқтисодиётда қандай рол ўйнайди?
28. ЯИМ ва СИМ бир-биридан нима билан фарқланади? СИМ ва миллий даромад-чи?
29. Макроиқтисодий кўрсаткичларнинг миллий иқтисодиётдаги роли

30. Истеъмол, жамғарма ва инвестицияларнинг иқтисодий мазмунини қисқача таърифланг.
31. Ўзбекистонда инвестициялар даражасини белгилайдиган асосий омиллар
32. Иқтисодий тараққиёт, иқтисодий ривожланиш ва иқтисодий ўсиш тушунчаларининг таърифини беринг. Ўзбекистон иқтисодиётидан мисоллар келтиринг.
33. Мамлакатнинг иқтисодий салоҳиятига, аҳолисининг турмуш даражасига ва ишлаб чиқаришининг самарадорлигига баҳо беришда иқтисодий ўсишнинг қандай кўрсаткичларидан фойдаланилади?
34. Макроиқтисодий барқарорлик нима (Унга эришиш йўллари қандай)?
35. Пул муомаласининг мазмунини тушунтиринг.
36. Инфляциянинг мазмунини ва турларини тушунтиринг.
37. Молия сиёсатининг мазмуни.
38. Давлат даромадларининг асосий манбалари.
39. Ўзбекистон Республикаси Молия Вазирлиги ва унинг жойлардаги органлари фаолиятини тавсифланг.
40. Марказий ва тижорат банкларининг вазифаларини кўрсатинг.
41. Давлатнинг иқтисодиётдаги ролига турлича қарашларини баҳоланг. Ўзбекистон воқелигидан мисоллар келтиринг.
42. Бозор иқтисодиёти шароитида иқтисодиётни давлат томонидан тартибга солишнинг зарурлигини нима тақозо қилади? Тартибга солиш ўз олдига қандай мақсад ва вазифаларни кўяди?
43. Ўзбекистонда ташқи иқтисодий алоқаларнинг устувор йўналишларини кўрсатинг.
44. Халқаро савдода иқтисодий интеграциянинг аҳамияти қандайлиги ва унда Ўзбекистоннинг иштирок этиши имкониятларини аниқланг.

ЎЗМА САВОЛЛАРИ

1. Ўзбекистон иқтисодиётининг фан сифатида ривожланиши.
2. Фаннинг предмети, метод ва вазифалари.
3. Бозор иқтисодиётига ўтиш шароитида рақобатчиликнинг хусусиятлари.
4. Мулк муносабатлар, мулк турлари. Мулк субъектлари ва объектлари.
5. Тадбиркорлик тушунчаси. Бизнес ва тадбиркорлик.
6. Тадбиркорликнинг ташкилий-ҳуқуқий асослари.
7. Ўзбекистонда мулкни давлат тасарруфидан чиқариш ва хусусийлаштиришнинг мақсади, шакллари, усуллари ва уларнинг асосий босқичлари.
8. Бозор иқтисодиёти тушунчаси, унинг асосий белгилари.
9. Бозор иқтисодиёти умуминсоний қадриятдир.
10. Иқтисодиётда монополиялар ва антимонопол сиёсат.
11. Бозор инфратузилмаси, унинг таркиби ва шаклланиши.
12. Режали иқтисодиётдан бозор иқтисодиётига ўтишнинг хусусиятлари.
13. Бозор ислохотлари. Ўтиш даври иқтисодиётининг туб белгилари.
14. Кўп укладли иқтисодиётнинг пайдо бўлиши, иқтисодиётни эркинлаштириш.

15. Ислохотларнинг кўп босқичли бўлиши.
16. Ижтимоий йўналтирилган бозор иқтисодиёти: мақсад ва вазифалар.
17. Пул-кредит (монетар) сиёсати.
18. Бозор иқтисодиёти шаклланиш жараёнида аҳолининг табақаланиши.
19. Ижтимоий сиёсатнинг асосий йўналишлари.
20. Иқтисодий салоҳият ва ундан самарали фойдаланиш йўллари.
21. Меҳнат бозоридаги рақобат ва иш хақи.
22. Рақобат - иқтисодиётни ҳаракатлантирувчи кучи эканлиги.
23. Иқтисодий инқирозлар.
24. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, унинг сабаблари ва оқибатлари.
25. Ишчи кучи, меҳнат ресурслари.
26. Эркин иқтисодиёт тамойилларининг жорий этилиш йўллари.
27. Ўзбекистонда бозор иқтисодиётига ўтиш ва ислохотлар стратегияси.
28. Макроиқтисодий кўрсаткичлар, шарт-шароитлар.
29. Ўзбекистонда ишсизлик муаммоси, бандлик сиёсатининг ўзига хос хусусиятлари.
30. Ўзбекистонда молия бозорини шакллантириш жараёни.
31. Ўзбекистонда бюджетдан ташқари молия жамғармалари.
32. Ўзбекистонда бюджет тизимини такомиллаштиришнинг ўзига хослиги.
33. Ўзбекистонда бюджет ва солиқ тизимининг такомиллашиши.
34. Иш хақи даражаси ва унинг миқдorigа таъсир этувчи омиллар.
35. Меҳнат бозоридаги рақобат ва иш хақи.
36. Жаҳон хўжагининг тараққиёт босқичлари.
37. Ўзбекистоннинг жаҳон ҳамжамиятига кириб бориши ва ташқи иқтисодий фаолиятининг асосий йўналишлари.
38. Ўзбекистоннинг халқаро ва минтақавий интеграцион ташкилотлардаги иштироки.

МИСОЛ ВА МАСАЛАЛАР

1-билет

1. Асосий фондларнинг ҳаракати тўғрисида қуйидаги маълумотлар берилган:

Асосий фондлар ҳаракати	Бошланғич қиймат, млн. сўм
Асосий фондларнинг йил бошидаги қиймати	2400
1 апрелда келиб тушган	200
1 майда чиқиб кетган	100
1 июнда келиб тушган	400
1 сентябрда чиқиб кетган	200
1 декабрда келиб тушган	620

Ушбу маълумотларга асосланиб қуйидагиларни аниқланг:

- а) Асосий фондларнинг йиллик ўртача қиймати.
- б) Асосий фондларнинг ишга туширилиши ва ишлаб чиқаришдан чиқиб кетиш коэффицентлари.

2. Агар 2015 йилда Ўзбекистон ялпи ички маҳсулоти 36839,4 млрд. сўмни, ўсиш суръати 109,0 фоизни ташкил этган бўлса, 2014 йилда ялпи ички маҳсулот ҳажми (2015 йил баҳоларида) қанчани ташкил этган? Жавобингизни изоҳлаб беринг.

2-билет

1. Ўзбекистонда 2008 йилда жами асосий капиталга киритилган инвестициялар ҳажми 8483,7 млрд. сўмни ташкил этган. Шунинг 2154,9 млрд сўми давлат мулки, 6328,8 млрд сўми нодавлат мулки ҳисобидан молиялаштирилган. Агар 2009 йилда нодавлат мулки ҳисобидан молиялаштириладиган инвестициялар ҳажми 11 фоизга, давлат мулки ҳисобидан молиялаштириладиган инвестициялар ҳажми 5 фоизга ўсиши режалаштирилган бўлса, 2009 йилда асосий капиталга киритилган инвестицияларнинг молиялаштириш манбалари бўйича таркиби қандай бўлади?

2. Қуйидаги маълумотлар берилган:

Маҳсулотлар	2012		2013	
	Экспорт ҳажми	Экспорт нархи	Экспорт ҳажми	Экспорт нархи
Пахта толаси	890 минг тонна	1200 долл/тонна	930 минг тонна	1300 долл/тонна

Ушбу маълумотлар асосида қуйидагиларни аниқланг:

1. 2008 йилда 2007 йилга нисбатан пахта толаси экспортидан олинган валюта тушуми неча фоизга ўсган?

2. Валюта тушуми ўсишининг қанчаси пахта толаси ишлаб чиқариш ҳажмининг ошиши ва қанчаси нарх ўзгариши ҳисобига юз берган?

2. Ўзбекистонда пахта ва буғдой етиштириш тўғрисида қуйидаги маълумотлар берилган:

	2012		2013	
	Экин майдони, минг гектар	Ҳосилдорлик, ц/гектар	Экин майдони, минг гектар	Ҳосилдорлик, ц/гектар
Буғдой	1447,9	42,1	1382,8	44,8
Пахта	1448,7	24,8	1451,6	25,8

Ушбу маълумотларга асосланиб қуйидагиларни аниқланг:

а) 2007 йилда 2006 йилга нисбатан пахта ва буғдой ялпи ҳосили қанчага ўсган (камайган)?

б) Ялпи ҳосил ҳажми ҳосилдорлик ва экин майдони ҳисобидан қанчага ўсган ?

6-билет

1. Қуйидаги маълумотлар берилган:

ЯИМ, млрд сўм	10000
Истеъмол харажатлари, млрд сўм	6400
Инвестициялар, млрд сўм	1640

Экспорт, млрд сўм	700
Амортизация, млрд сўм	300
Соф экспорт, млрд сўм	160

Ушбу маълумотларга асосланиб, давлат харажатлари миқдорини аниқланг.

2. Қуйидаги маълумотлар берилган:

Маҳсулотлар	2012		2013	
	Экспорт ҳажми	Экспорт нархи	Экспорт ҳажми	Экспорт нархи
Пахта	900 минг тонна	1400 долл/тонна	910 минг тонна	1500 долл/тонна
Нефть	2 млн. тонна	72 долл/баррель	2,5 млн тонна	92 долл/баррель
Олтин	50 тонна	600 долл/унция	60 тонна	750 долл/унция

Ушбу маълумотлар асосида экспорт нархлари ўртача неча фоизга ўсганлигини ҳисобланг.

O'QUV MATERIALLARI

(diskda ilova qilinadi)

1. To'xliiev N., Xaqberdiev Q., Ermamatov Sh., Xolmatov N. O'zbekiston iqtisodiyoti asoslari. O'quv qo'llanma. T. O'zME. 2006, 280 b.
2. To'xliiev N., Xaqberdiev Q., Ermamatov Sh., Xolmatov N. Iqtisodiy bilim asoslari. Qo'llanma. T. O'zME. 2004, 96 b.
3. Ўзбекистон иқтисодиёти. 2013. Статистик тўплам. Т. ЎзР ДСҚ., 2014.
4. Йиллик статистик тўплам. 2012. Т. ЎзР ДСҚ., 2013. 392 б.
5. Ўзбекистон иқтисодиёти. 2014. Статистик тўплам. Т. ЎзР ДСҚ., 2015.

“O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” FANIDAN TA‘LIM TEXNOLOGIYASI

KIRISH

Uslubiy qo‘llanmani tayyorlashda ma‘ruza va seminar mashg‘ulotlari texnologiyalarini ishlab chiqish usul va vositalari, ularning muhim belgilaridan iborat ta‘limni texnologiyalash qoidalarini hisobga olgan holda, fanning predmeti va asosiy vazifalari, fanni ToshDShIda o‘qitish xususiyatlari e‘tiborga olingan, hamda mualliflarning o‘quv-pedagogik va ilmiy-uslubiy tajribalaridan foydalanilgan.

“O‘zbekiston iqtisodiyoti” fanini o‘qitish ta‘lim texnologiyasi, o‘qituvchidan talab qilinadigan puxta ilmiy-nazariy bilimga ega bo‘lish va pedagogik-tarbiyaviy malakani kuchaytirib borish mas‘uliyatini pasaytirmaydi, balki, talabalarga mavzularning asosiy materiallarini qisqa va tushunarli tilda etkazib berishga, bilim, ma‘lumot va axborotlarni qiyoslash, guruhlash, ta‘riflash orqali talabalarning iqtisodiy idrok va tafakkur jarayonini jadallashtirishga xizmat qiladi. Albatta, “O‘zbekiston iqtisodiyoti” fanini chuqur o‘zlashtirish, fanning asosiy masalalarini talabalarga tushuntirish uchun 28 ta ma‘ruza mashg‘uloti rejalashtirilgan. 28 ta seminar mashg‘ulotlarida mavzularning ko‘p qirralarini qamrab olinadi. Shu munosabat bilan mazkur ta‘lim texnologiyalari fan predmetining muhim jihatlarini sodda shaklda muammoli tarzda etkazishga yo‘nalgan bo‘lib, talabalarni iqtisodiy bilimlarni puxta egallashga rag‘batlantiradi.

“O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” FANIDAN TA‘LIM TEXNOLOGIYASINING KONSEPTUAL ASOSLARI

Fanning dolzarbligi va ahamiyati

Iqtisodiyotni erkinlashtirish, modernizatsiya qilish va milliy iqtisodiyotning jahon xo‘jaligiga oqilona integratsiyalashuvi bosqichida bozor qonuniyatlariga asoslangan milliy xo‘jalik bosqichma-bosqich shakllanib bormoqda, uning tarkibi, xususan, tarmoq va hududiy tuzilishi takomillashtirilmoqda. Bozor transformatsiyasi jarayonlarida milliy iqtisodiyot amal qilishi va rivojlanishida o‘ziga xos tendensiyalar va qonuniyatlar yuzaga chiqmoqda.

Mamlakatimizda mavjud moddiy, iqtisodiy, intellektual resurslardan oqilona foydalanish, cheklangan zahiralardan yuqori samara olish, aholi turmush darajasining pasayib ketishining oldini olish va muttasil oshirib borish, inqirozning salbiy oqibatlarini yumshatish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rilmoqda, tegishli islohotlar olib borilmoqda. Bunday sharoitda bozor mexanizmi amal qilishi, tadbirkorlik sub‘ektlarining hatti-harakatlari, uy, korxona va davlat xo‘jaligining faoliyati xususiyatlari, davlat iqtisodiy siyosatining asosiy yo‘nalishlari, makroiqtisodiy vaziyat va uning barqarorligini ta‘minlash muammolarini ilmiy-nazariy o‘rganish, bu borada iqtisodiy tafakkurni kengaytirish hamda mukammallashtirish, talabalarda tegishli darajada amaliy ko‘nikmalarni ham shakllantirish dolzarb ahamiyatga ega.

“O‘zbekiston iqtisodiyoti” fani bo‘yicha ma‘ruza va seminar mashg‘ulotlarida ta‘lim texnologiyalarini ishlab chiqishning konseptual asoslari

“O‘zbekiston iqtisodiyoti” fani bo‘yicha ta‘lim texnologiyasi inson resurslari imkoniyatlarini to‘laroq ro‘yobga chiqarish, individuallik va jamoaviy psixologiyaning umumiy jihatlarini rivojlanishi, shaxsning abstrakt va ijodiy tafakkur doiralarini kengaytirish maqsadlariga yo‘naltirilgan bo‘lib, talabalarni faol iqtisodiy fikrlash va yangi fikrlar shakllantirishga rag‘batlantirishga qaratiladi. Shu munosabat bilan umumetirof etilgan quyidagi yondashuvlardan ta‘lim texnologiyasini ishlab chiqishda unumli foydalanishga harakat qilingan.

Ta'limning shaxsga yo'naltirilganligi. Bunda ta'lim jarayonini tashkil etishda barcha talabalarning aqliy va ijodiy imkoniyatlari hisobga olinadi. Bu o'z navbatida ta'lim faqatgina talabaning intellektual rivojlanishi darajasiga yo'naltirilib qolmay, uning ruhiy-kasbiy va shaxsiy xususiyatlarini va qiziqishlari o'zgarishini hisobga olishni taqozo etadi.

Tizimli yondashuvga ko'ra ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam qilishi zarur: jarayonning mantiqiyliigi, undagi qismlarning o'zaro aloqadorligi, yaxlitligi kabilar.

Amaliy yondashuvda ta'lim jarayonini talabaning ish yuritish xususiyatlarini shakllantirishga yo'naltirish, o'quv faoliyatini uzluksiz faollashtirish va jadallashtirish, o'quv jarayonida barcha qobiliyatini, ya'ni, layoqati va imkoniyatlari, sinchkovligi, kuzatuvchanligi va tashabbuskorligi kabilarni ishga solishiga qaratish lozim bo'ladi.

Dialogik yondashuv ta'lim jarayonidagi ishtirokchilarning psixologik uyg'unligi va o'zaro yaqindan hamkorligi uchun zarur shart-sharoitni yaratishni ko'zda tutadi. Faol muloqot vaziyatida talabaning ijodiy faolligi kuchayadi va o'zlashtirilgan materiallar namoyishi mukammallashadi.

Muammoli yondashuvda ta'lim jarayonini muammoli holatlarni yuzaga keltirish orqali tashkil etish asosida talaba bilan o'qituvchining hamkorligini faollashtirishga erishiladi. Bu jarayonda ilmiy-nazariy bilimlar muammolarning turli yechimlarini topish va umumiy jihatlarni belgilash, dialektik tafakkurni rivojlantirish hamda optimal yechimlarni belgilash orqali mustahkamlanadi.

Axborot berishning zamonaviy vosita va usullaridan foydalanish orqali ta'lim olish miqyoslarini kengaytirish hamda uzluksiz mukammallashtirib borishga erishiladi.

“Moliya va kredit” fanining tarkibi, mazmuni, o'quv axborot hajmidan kelib chiqqan holda o'qitishning quyidagi usul va vositalaridan foydalanish maqsadga muvofiq deb topildi:

- **O'qitish usullari va texnikasi:** muloqot, keys stadi, muammoli usul, o'rgatuvchi o'yinlar, “aqliy hujum”, insert, “Birgalikda o'rganamiz”, pinbord, ma'ruza (kirish ma'ruzasi, vizual ma'ruza, tematik, ma'ruza-konferensiya, aniq holatlarni yechish, avvaldan rejalashtirilgan xatoli, sharhlovchi, yakuniy).
- **O'qitishni tashkil qilish shakllari:** frontal, kollektiv, guruhiiy, dialog, polilog va o'zaro hamkorlikka asoslangan.
- **O'qitish vositalari:** odatdagi o'qitish vositalari (darslik, ma'ruza matni, tayanch konspekti) dan tashqari grafik organayzerlar, kompyuter va axborot texnologiyalari.
- **O'zaro aloqa vositalari:** nazorat natijalarining tahlili asosida o'qitishning diagnostikasi (tashhisi).
- **Boshqarishning usuli va vositalari.** O'quv mashg'ulotini texnologik karta ko'rinishida rejalashtirish o'quv mashg'ulotining bosqichlarini belgilab, qo'yilgan maqsadga erishishda o'quvchi va o'qituvchining hamkorlikdagi faoliyatini talabalarning auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarini aniqlab beradi.
- **Monitoring va baholash.** O'quv mashg'uloti va butun kurs davomida o'qitish natijalarini kuzatib borish, o'quvchi faoliyatini har bir mashg'ulot va yil davomida reyting asosida baholash.

Ma'ruza mashg'ulotini tashkil etishning shakl va xususiyatlari

№	Ma'ruza shakllari	O'ziga xos tavsiflovchi xususiyatlari
1.	Kirish ma'ruzasi	Fan to'g'risida yaxlit tasavvur hamda ma'lum yo'nalishlar beradi. <i>Pedagogik vazifasi:</i> o'quvchini ushbu fanning vazifalari va maqsadi bilan tanishtirish, kasbiy tayyorgarlik tizimida uning o'rni va rolini

		belgilash, kursning qisqacha sharhini berish, fanning yutuqlari va taniqli olimlar nomlari bilan tanishtirib, kelajakdagi izlanishlarning yo‘nalishini belgilash, tavsiya qilingan o‘quv-uslubiy adabiyotlar tahlilini berish, hisobot va baholashning muddatlari va shakllarini belgilash.
2.	Ma’ruza axborot	Ma’ruzaning odatdagi an’anaviy turi. <i>Pedagogik vazifasi:</i> o‘quv ma’lumotlarini bayon qilish va tushuntirish.
3.	Sharhlovchi ma’ruza	Bayon qilinayotgan nazariy fikrlarning o‘zagini, ilmiy tushunchalar va butun kurs yoki bo‘limlarining konseptual asosini tashkil etadi. <i>Pedagogik vazifasi:</i> ilmiy bilimlarni tizimlashtirishni amalga oshirish, fanlarning o‘zaro aloqadorligini ochish.
4.	Muammoli ma’ruza	Yangi bilimlar qo‘yilgan savol, masala, holatning muammoliligi orqali beriladi. Bunda o‘quvchining o‘qituvchi bilan birgalikdagi bilish jarayoni ilmiy izlanishga yaqinlashadi. <i>Pedagogik vazifasi:</i> yangi o‘quv axborotining mazmunini ochish, muammoni qo‘yish va uni yechimini topishni tashkil qilish, hozirgi zamon nuqtai nazarlarini tahlil qilish.
5.	Vizual ma’ruza	Ma’ruzaning mazkur shakli vizual materiallarni namoyish etish hamda ularga aniq va qisqa sharhlar berishga qaratilgan. <i>Pedagogik vazifasi:</i> yangi o‘quv ma’lumotlarini o‘qitishning texnik vositalari va audio, videotexnika yordamida berish.
6.	Avvaldan rejalashtirilgan xatoli ma’ruza	Xatolarni izlashga mo‘ljallangan mazmuni va uslubiyatida, ma’ruza oxirida tinglovchilar tashxisi o‘tkaziladi va qilingan xatolar tekshiriladi. <i>Pedagogik vazifasi:</i> yangi materiallar mazmunini yoritish, berilgan ma’lumotni doimiy nazorat qilishga talabalarni rag‘batlantirish.
7.	Ma’ruza konferensiya	Avvaldan qo‘yilgan muammo va dokladlar tizimi (5-10 minut)dan iborat ilmiy-amaliy dars sifatida o‘quv dasturi chegarasida o‘tiladi. Dokladlar birgalikda muammoni har tomonlama yoritishga qaratilishi kerak. Mashg‘ulot oxirida o‘qituvchi mustaqil ishlar va talabalarning ma’ruzalarga yakun yasab, to‘ldirib, aniqlashtirib xulosa qiladi. <i>Pedagogik vazifasi:</i> yangi o‘quv ma’lumotning mazmunini yoritish.
8.	Maslahat ma’ruza	Turli ssenariylar yordamida o‘tishi mumkin. Masalan, 1) «Savol-javob» - ma’ruzachi tomonidan butun kurs bo‘yicha yoki alohida bo‘lim bo‘yicha savollarga javob beriladi. 2) «Savol-javob-diskussiya» - izlanishga imkon beradi. <i>Pedagogik vazifasi:</i> yangi o‘quv ma’lumotni o‘zlashtirishga qaratilgan.

**“O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” FANIDAN
MA’RUZA VA SEMINAR MASHG‘ULOTLARIDA
O‘QITISH TEXNOLOGIYASI**

1-MAVZU: “O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” FANIGA KIRISH	
Ma’ruza mashg‘ulotining o‘qitish texnologiyasi	
Vaqt: 2 soat	Talabalar soni: 50-55 nafar
O‘quv mashg‘ulotining shakli	Kirish, vizual ma’ruza
Ma’ruza mashg‘ulotining rejasi	1. “O‘zbekiston iqtisodiyoti” fanining maqsadi va vazifalari. 2. “O‘zbekiston iqtisodiyoti” fanining predmeti. 3. Fanni o‘rganish usullari va boshqa iqtisodiy fanlar bilan aloqalari.
<i>O‘quv mashg‘ulotining asosiy maqsadi:</i> Talabalarda milliy iqtisodiyot tushunchasi, milliy iqtisodiyotning shakllanish shart-sharoitlari, bozorga o‘tishning o‘zbek modeli, milliy iqtisodiyotning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari haqida bilimlarni shakllantirishdan iborat	
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O‘quv faoliyatining natijalari:</i>
- Milliy iqtisodiyot tushunchasi va fanning predmetini tushuntirish; - Milliy iqtisodiyotning shakllanish shart-sharoitlarini tushuntirish; - Bozorga o‘tishning o‘zbek modeli mohiyatini ochib berish;	Talaba: - Milliy iqtisodiyot tushunchasi va fanning predmeti to‘g‘risida tushunchaga ega bo‘ladi; - Milliy iqtisodiyotning shakllanish shart-sharoitlari to‘g‘risida bilimga ega bo‘ladi; - Bozorga o‘tishning o‘zbek modeli mohiyatiga baho bera oladi;
<i>O‘qitish uslubi va texnikasi</i>	Vizual ma’ruza, blis-sorov, bayon qilish, klaster.
<i>O‘qitish vositalari</i>	Ma’ruzalar matni, tarqatma materiallar.
<i>O‘qitish shakli</i>	Jamoa, guruh va juftlikda ishlash.
<i>O‘qitish shart-sharoiti</i>	Proektor, kompyuter bilan jihozlangan auditoriya

Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	talaba
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1. Mavzu, uning maqsadi, O'quv mashg'ulotidan kutilayotgan natijalar ma'lum qilinadi.	1.1. Eshitadi, yozib oladi.
2-bosqich. Asosiy (55 min.)	2.1. Talabalarining 1-kursda olgan iqtisodiy bilimlarini sinash bo'yicha savol-javob o'tkazadi (1-ilova). Ulardan iqtisodiyotga oid qanday muammolar va masalalar qiziqtirishini so'raydi. 2.2. Vizual materiallardan foydalangan holda ma'ruzaning asosiy qismini bayon etishda davom etadi; E'tibor bering: Mulohaza uchun matn: asosiy iqtisodiy jarayonlar e'tibor berishini talab etadi. (2-4-ilovalar). 2.3. Fanning boshqa iqtisodiy fanlar bilan bog'liqligini batafsil tushuntiradi.	2.1. Eshitadi. Navbat bilan bir-birini takrorlamay atamalarni aytadi. O'ylaydi, savollarga javob beradi. 2.2. O'zbekiston iqtisodiyotining shakllanishi va zamonaviy tendensiyalar mazmuni muhokamasida qatnashadi. Ilmiy ta'riflarni yozib oladi, misollar keltiradi. 2.3. Eslab qoladi va yozib oladi.
3-bosqich. Yakuniy (15 min.)	3.1. Mavzuga yakun yasaydi va talabalar e'tiborini asosiy xulosalarga qaratadi. Faol ishtirok etgan talabalarni alohida ta'kidlaydi. 3.2. Mustaqil ishlash uchun bir nechta iqtisodiy atama va tushunchalarga klaster tuzishni vazifa qilib beradi, baholaydi.	3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi. 3.2. Topshiriqni yozib oladi.

1-MAVZU: “O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” FANIGA KIRISH	
Seminar mashg‘ulotining o‘qitish texnologiyasi	
Vaqt: 2 soat	Talabalar soni: 50-55 nafar
O‘quv mashg‘ulotining shakli	Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish bo‘yicha seminar mashg‘uloti
Seminar mashg‘ulotining rejasi	1. “O‘zbekiston iqtisodiyoti” fanining maqsadi va vazifalari. 2. “O‘zbekiston iqtisodiyoti” fanining predmeti. 3. Fanni o‘rganish usullari va boshqa iqtisodiy fanlar bilan aloqalari.
Seminar mashg‘ulotining asosiy maqsadi: Talabalarda milliy iqtisodiyot tushunchasi, milliy iqtisodiyotning shakllanish shart-sharoitlari, bozorga o‘tishning o‘zbek modeli, milliy iqtisodiyotning asosiy makroiqtisodiy o‘lchamlari haqida bilimlarni shakllantirishdan iborat.	
Pedagogik vazifalar: - Milliy iqtisodiyot tushunchasi va fanning predmetini tushuntirish; - Milliy iqtisodiyotning shakllanish shart-sharoitlari tushuntirish; - Bozorga o‘tishning o‘zbek modeli mohiyatini ochib berish	Pedagogik vazifalar: Talaba: - Milliy iqtisodiyot tushunchasi va fanning predmeti to‘g‘risida tushunchaga ega bo‘ladi; - Milliy iqtisodiyotning shakllanish shart-sharoitlari to‘g‘risida bilimga ega bo‘ladi; - Bozorga o‘tishning o‘zbek modeli mohiyatiga baho bera oladi
O‘qitish uslubi va texnikasi	Blis-sorov, birgalikda oqiymiz, iqtisodiy esse, “O‘zbekiston iqtisodiyoti”ga klaster, Venna diagrammasi, munozara.
O‘qitish vositalari	Ma’ruzalar matni, o‘quv qo‘llanmasi, marker, doska
O‘qitish shakli	individual va guruh bo‘yicha o‘qitish.
O‘qitish shart-sharoiti	Kompyuter texnologiyalari, proektor bilan ta’minlangan auditoriya.

Seminar mashg'ulotining texnologik kartasi

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	talaba
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1. Ma'ruza mashg'ulotidagi asosiy jihatlarga qisqa sharh beradi, mustaqil ish topshiriqlarini eslatadi, seminar mashg'uloti otkazish tartibini tushuntiradi. 1.2. Aqliy hujum usulidan foydalangan holda, masalan, O'zbekiston iqtisodiyoti fani predmeti, vazifalari va metodi nimalardan iborat, tanlash muammosi deganda nimani tushunasiz, bozor iqtisodiyoti nima va u qanday tasniflanadi, iqtisodiy tahlil metodologiyasi haqida tushuncha bering kabi savollar orqali auditoriyaning mashg'ulotga tayyorgarlik darajasini aniqlaydi. 1.3. Baholash mezonlarini tushuntiradi. 1.4. Mashgulot davomida O'quv materiallari (ma'ruza matni, O'quv qo'llanmalari)dan foydalanish mumkinligini eslatadi.	1.1. Mavzuni yozadi va savollarga tayyorgarlik ko'radi.
2-bosqich. Asosiy (55 min.)	2.1. Talabalarning tayyorlaridan seminar mashg'uloti savollari ketma-ketligida javoblarini eshitadi. Jamiyatdagi iqtisodiy muammolarni mazmunini yoritish so'raydi, klaster tuzish taklif etadi (1-2-ilova bo'yicha). Javoblarni toldiruvchilar bolsa, ularga navbat beradi. Faol talabalarning qo'shimcha ravishda ragbatlantirilishini ma'lum qiladi. Jurnalga tegishli qaydlarni yozadi. 2.2. Har bir akademik guruhga Venna diagrammasini o'rgatadi, javoblarini eshitadi, ularning javoblarini baholaydi(2-3 ilova). Olingan bilimlarni sinash uchun testlar va "B.B.V" usuli asosida bilimlarni aniqlash bo'yicha tushuncha va atamalarni tarqatadi (4-5-ilova). 2.3. Vaqti-vaqti bilan talabalar javobini sharhlaydi, umumlashtiradi, oz munosabatini bildiradi, aniqlik kiritadi.	2.1. O'quv natijalarini taqdim qiladilar. 2.2. Savollar beradi. 2.3. Javoblarni to'ldiradi. Muhokamada ishtirok etadi.
3-bosqich. Yakuniy (15 min.)	3.1. Mashg'ulotni yakunlaydi, talabalarni baholaydi va faol ishtirokchilarni rag'batlantiradi. 3.2. Mustaqil ish sifatida "Jamiyatdagi iqtisodiy muammolar va ularni hal etishda "O'zbekiston iqtisodiyoti" fanining roli" mavzusida "esse" yozishni topshiradi.	3.1. Eshitadilar. 3.2 Topshiriqni oladilar.

2-MAVZU. IQTISODIY TARAQQIYOTNING “O‘ZBEK MODEL”	
Ma’ruza mashg’ulotining o’qitish texnologiyasi	
Vaqt: 2 soat	Talabalar soni: 50-55 nafar
O’quv mashg’ulotining shakli	Axborot ma’ruza, “B.B.B” jadvali grafik organayzeridan foydalangan holda birgalikda o’qish usuli
Ma’ruza mashg’ulotining rejasi	1. Model shakllanishining omillari va shart-sharoitlari. 2. “O‘zbek modeli”ning mazmuni. 3. O‘zbekistonda bozorga o‘tishning asosiy tamoyillari va bosqichlari. 4. “O‘zbek modeli” va iqtisodiy o‘sh. 5. “O‘zbek modeli” va jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi. 6. Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash “o‘zbek modeli”ning mantiqiy davomi.
O’quv mashg’ulotining asosiy maqsadi: Talabalarda bozorga o‘tishning zarurligi. “O‘zbek modeli”ning mazmuni. O‘zbekistonda bozorga o‘tishning asosiy tamoyillari. Bozorga o‘tish bosqichlari. Islohotlarning strategik yo‘nalishlari. “O‘zbek modeli” va iqtisodiy o‘sh. haqida bilimlarni shakllantirishdan iborat.	
Pedagogik vazifalar: - Model shakllanishining omillari va shart-sharoitlari tushunchasi ochib berish; - O‘zbekistonda bozorga o‘tishning asosiy tamoyillari va bosqichlari tahlil qilish; - “o‘zbek modeli”ning mantiqiy davomi izohlash.	O’quv faoliyatining natijalari: Talaba: - Model shakllanishining omillari va shart-sharoitlari mohiyatini bilib oladi; - O‘zbekistonda bozorga o‘tishning asosiy tamoyillari va bosqichlari sabablarini tushunib oladi; - “o‘zbek modeli”ning mantiqiy davomini izohlab beradi.
O’qitish uslubi va texnikasi	Axborot ma’ruzasi, Insert, blis-sorov, prezentasiya, grafik organayzer texnikalari, “B.B.B.” jadvali
O’qitish vositalari	ma’ruza, individual, guruh bilan ishlash
O’qitish shakli	Ma’ruza matni, proektor, qog‘oz, marker, KT/OTV, doska, bor
O’qitish shart-sharoiti	Proektor, kompyuter bilan jihozlangan auditoriya

Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	talaba
1-bosqich. Kirish (15 min.)	1.1. Dastlab dolzarb iqtisodiy voqealar, o'zgarishlar, xabarlar to'g'risida ma'lumot beradi. 1.2. O'quv mashg'ulotining mavzu va rejasini ma'lum qiladi. 1.3. Mazkur Mashg'ulotning ayrim savollari muammoli tarzda muhokama qilinishini e'lon qiladi. Talabalarni faol bo'lishga chaqiradi.	1.1. Eshitadi, asosiy joylarini yozib oladi. 1.2. Rejani yozib oladi. 1.3. O'qituvchiga savollar beradi.
2-bosqich. Asosiy (50 min.)	2.1. Talabalar e'tiborini rejadagi savollar va asosiy kategoriyalar va tushunchalarga qaratadi. Asosiy tushunchalar bo'yicha blis-sorov o'tkazadi. (1-ilova). 2.2. Asosiy tushunchalardan kamida 12-15 tasi bo'yicha auditoriyadagi talabalar bilimlari darajasini aniqlash maqsadida "B.B.B." ("bilaman", "bilishni xohlayman", "bildim") jadvalini daftarga chizishni taklif etadi(2-ilova). Dorskaga faol talabalardan birini chiqaradi. 2.3. Mavzuga talabalar e'tiborini jalb qilish maqsadida muammoli savollarni ortaga tashlaydi va ularni birgalikda o'qishga chorlaydi(3-ilova). Yuqoridagi savollarga javoblar mavzuning asosiy tushuncha va kategoriyalari mazmunini ochib berish jarayonida berib boriladi.	2.1. Talabalar javob beradilar, daftarlarga jadval chizadilar, jadvalning 1 va 2 ustunlarini to'ldiradilar. 2.2. Mavzu savollari bo'yicha optimal javoblar yuzasidan takliflar beradi. Shuningdek, "B.B.B." jadvalining 5-ustunini to'ldiradilar. 2.3. Muammoli savollar yuzasidan oz javoblarini taklif qiladilar. Munozara qiladilar.
3-bosqich. Yakuniy (15 min.)	3.1. Mavzu savollari bo'yicha umumiy xulosa qiladi. 3.2. Mashgulotda faol ishtirok etganlarni rag'batlantiradi. 3.3. Mustaqil ish uchun vazifa beradi: "Mehnat resurslari va ulardan foydalanish" savoliga kengroq, sharhlari bilan javob yozib kelishni topshiradi. Seminar mashg'ulotlari savollarini yozdiradi.	3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi. 3.2. Topshiriqni yozib oladi.

2-MAVZU. IQTISODIY TARAQQIYOTNING “O‘ZBEK MODEL”	
Seminar mashg‘ulotining o‘qitish texnologiyasi	
Vaqt: 2 soat	Talabalar soni: 50-55 nafar
O‘quv mashg‘ulotining shakli	Ma’ruzada olingan bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish, hamda mustaqil topshiriq natijalari bo‘yicha muammoli seminar
Seminar mashg‘ulotining rejasi	1. Model shakllanishining omillari va shart-sharoitlari. 2. “O‘zbek modeli”ning mazmuni. 3. O‘zbekistonda bozorga o‘tishning asosiy tamoyillari va bosqichlari. 4. “O‘zbek modeli” va iqtisodiy o‘tish. 5. “O‘zbek modeli” va jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi. 6. Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash “o‘zbek modeli”ning mantiqiy davomi.
O‘quv mashg‘ulotining asosiy maqsadi: Talabalarda bozorga o‘tishning zarurligi. “O‘zbek modeli”ning mazmuni. O‘zbekistonda bozorga o‘tishning asosiy tamoyillari. Bozorga o‘tish bosqichlari. Islohotlarning strategik yo‘nalishlari. “O‘zbek modeli” va iqtisodiy o‘tish. haqida bilimlarni shakllantirishdan iborat.	
Pedagogik vazifalar: - Model shakllanishining omillari va shart-sharoitlari tushunchasi ochib berish; - O‘zbekistonda bozorga o‘tishning asosiy tamoyillari va bosqichlari tahlil qilish; - “o‘zbek modeli”ning mantiqiy davomi izohlash.	O‘quv faoliyatining natijalari: Talaba: - Model shakllanishining omillari va shart-sharoitlari mohiyatini bilib oladi; - O‘zbekistonda bozorga o‘tishning asosiy tamoyillari va bosqichlari sabablarini tushunib oladi; - “o‘zbek modeli”ning mantiqiy davomini izohlab beradi.
O‘qitish uslubi va texnikasi	Muammoli usul, aqliy hujum, blis-sorov, prezentasiya, “B.B.B.” jadvali, “Mehnat resurslari”ga klaster.
O‘qitish vositalari	Ma’ruza matni, proektor, qog‘oz, marker, KT/OTV, doska, bor.
O‘qitish shakli	Frontal, kollektiv, guruhlarda
O‘qitish shart-sharoiti	Proektor, kompyuter bilan jihozlangan auditoriya

Seminar mashg'ulotining texnologik kartasi

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	talaba
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1. Ma'ruza mashg'ulotidagi kabi, dastlab dolzarb voqealar, yangiliklar, xabarlarga qisqacha, ya'ni 2-3 daqiqa to'xtaladi, ularning iqtisodiy taraqqiyot nuqtai nazaridan ahamiyati yoritiladi. 1.2. Seminar mashg'ulotining mavzusi, reja va maqsadi yana bir marta eslatiladi.	1.1. Eshitadi va yozadilar.
2-bosqich. Bilimlarni faollashtirish (10 min.)	2.1. Asosiy tushunchalar bo'yicha blis-sorov o'tkazadi, klaster tuzish taklif etadi. O'zbekistonda aholining yosh tarkibi dinamikasini tushuntirishni so'raydi(1-2-ilova). Bir necha javoblarni eshitadi va faoliyat kichik guruhlarda davom etishini aytadi. 2.2. Asosiy tushunchalar va kategoriyalarni qaytaradi, tasnifini tayyorlashni aytadi.	2.1. Eshitadilar, topshiriqlarni bajaradilar, savollar beradilar. 2.2. Javob beradilar.
3-bosqich. Asosiy (45 min.)	3.1. O'zbekistonda mehnat resurslari va aholi bandligi dinamikasi va mehnatga layoqatli aholining bandligini ta'minlash chora-tadbirlari bo'yicha savollar tarqatadi (3-4-ilova). 3.2. Vaqti-vaqti bilan talabalar javobini sharhlaydi, umumlashtiradi, oz munosabatini bildiradi, aniqlik kiritadi.	3.1. Javoblarni tayyorlaydi, tala-balar javoblarini to'ldiradi. 3.2. Muhokamada ishtirok etadi.
4-bosqich. Yakuniy (15 min.)	4.1. Mavzuni yakunlaydi, ishtirokchilarni baholaydi va rag'batlantiradi. 4.2. Keyingi ma'ruza mashg'uloti savollarini eslatadi, ahamiyat berish kerak jihatlarni aytadi.	Eshitadilar va topshiriq-ni yozib oladilar.

3-MAVZU: MILLIY IQTISODIYOT RIVOJLANISHINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI	
Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi	
Vaqt: 2 soat	Talabalar soni: 50-55 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Vizual ma'ruza, savol-javob
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi	1. Milliy hisoblar tizimi. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar. 2. Yalpi ichki mahsulotni hisoblash usullari 3. Sof milliy mahsulot (SMM), Milliy daromad (MD), tasarrufdagi daromad (TD). 4. Makroiqtisodiy proporsiyalar. 5. Makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o'sish.
O'quv mashg'ulotining asosiy maqsadi: Talabalarda Milliy hisoblar tizimi. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar. Yalpi ichki mahsulot (YaIM) va Yalpi milliy mahsulot (YaMM), ularning farqli jihatlari. Sof milliy mahsulot (SMM), Milliy daromad (MD), tasarrufdagi daromad (TD). Makroiqtisodiy proporsiyalar. Makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o'sish. Iqtisodiy o'sishni hisoblash. haqida bilimlarni shakllantirishdan iborat.	
Pedagogik vazifalar: - Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar holatini izohlash; 6. - Yalpi ichki mahsulotni hisoblash usullari to'g'risida ma'lumotlar berish; - Makroiqtisodiy proporsiyalar xususiyatlarini tushuntirish; - Makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o'sish tavsiflash.	O'quv faoliyatining natijalari: Talaba: - Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar holatini izohlay oladi; - Yalpi ichki mahsulotni hisoblash usullari to'g'risida bilimlarga ega bo'ladi; - Makroiqtisodiy proporsiyalar xususiyatlarini tushunib oladi; - O'zbekistonning makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o'sishini tavsiflay oladi.
O'qitish uslubi va texnikasi	Ma'ruza, axborot, jadvallar
O'qitish vositalari	Ma'ruza matni, proektor, OTV/KT grafik organayzer
O'qitish shakli	Guruh, kollektiv
O'qitish shart-sharoiti	Jihozlangan auditoriya

Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	talaba
1-bosqich. Kirish (15 min.)	1.1. Dastlab O'zbekistondagi bozor va iqtisodiy islohotlar, hamda dolzarb iqtisodiy yangiliklari, xabarlar bo'yicha qisqa ma'lumot beriladi. Fan predmetidan kelib chiqib bu jarayonlarning ahamiyati tushuntiriladi. 1.2. Ma'ruza mavzusi va rejasi e'lon qilinadi. Avvalgi mavzuga bog'liq jihatlari ko'rsatiladi.	1.1. Eshitadilar, yozadilar va fikr bildiradilar.
2-bosqich. Asosiy (50 min.)	2.1. Mavzu savollarining ozaro mantiqiy bog'liqligi tushuntiriladi. Qishloq xo'jaligi ekin maydoni tarkibi o'zgarishi hamda yer resurslari va ulardan foydalanish bo'yicha ma'lumotlar beriladi. Talabalar munozaraga jalb qilinadi.(1-2 ilovalar) 2.2. Yer resurslari va ulardan samarali foydalanish yo'llari, Qishloq xo'jaligi ekinlari maydonining kengaytirilishining oqibatlari, Suv resurslaridan samarali foydalanish yo'llari, Orol dengizi muammosi va uni bartaraf etish yo'llari bo'yicha talabalarga dolzarb tahliliy xulosalar beriladi, ularning fikri o'rganiladi. (3-5 ilovalar).	2.1. Muammoli savol-larga e'tibor beradilar: jadval ma'lumotlarini yozib oladilar va tendensiyalarni aniqlashga harakat qiladilar. 2.2. Eshitadilar, yozadilar.
3-bosqich. Yakuniy (15 min.)	3.1. Mavzu bo'yicha 2-3 ta xulosa chiqaradi. Faol talabalar nomlarini aytadi va baholaydi. 3.2. Mustaqil ish uchun topshiriqlar beradi: Suv resurslari va ulardan foydalanish bo'yicha savollar mustaqil ishlash uchun beriladi.	3.1. Eshitadilar, savollarini beradi va yozib oladilar. 3.2. Topshiriqlarni yozib oladilar.

3-Mavzu: MILLIY IQTISODIYOT RIVOJLANISHINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI	
Seminar mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi	
Vaqt: 2 soat	Talabalar soni: 50-55 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha muammoli seminar.
Seminar mashg'ulotining rejas	1. Milliy hisoblar tizimi. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar. 2. Yalpi ichki mahsulotni hisoblash usullari 3. Sof milliy mahsulot (SMM), Milliy daromad (MD), tasarrufdagi daromad (TD). 4. Makroiqtisodiy proporsiyalar. 5. Makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o'sish.
O'quv mashg'ulotining asosiy maqsadi: Talabalarda Milliy hisoblar tizimi. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar. Yalpi ichki mahsulot (YaIM) va Yalpi milliy mahsulot (YaMM), ularning farqli jihatlari. Sof milliy mahsulot (SMM), Milliy daromad (MD), tasarrufdagi daromad (TD). Makroiqtisodiy proporsiyalar. Makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o'sish. Iqtisodiy o'sishni hisoblash. Real va nominal YaIM, YaIM deflyatori haqida bilimlarni shakllantirishdan iborat.	
Pedagogik vazifalar:	O'quv faoliyatining natijalari:
- Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar holatini izohlash; - Yalpi ichki mahsulotni hisoblash usullari to'g'risida ma'lumotlar berish; - Makroiqtisodiy proporsiyalar xususiyatlarini tushuntirish; - Makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o'sish tavsiflash.	Talaba: - Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar holatini izohlay oladi; - Yalpi ichki mahsulotni hisoblash usullari to'g'risida bilimlarga ega bo'ladi; - Makroiqtisodiy proporsiyalar xususiyatlarini tushunib oladi; - O'zbekistonning makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o'sishini tavsiflay oladi.
O'qitish uslubi va texnikasi	Muammoli usul, blis-so'rov, Venna diagrammasi
O'qitish vositalari	Ma'ruza matni, proektor, marker, konspektlar
O'qitish shakli	Frontal, jamoa va guruhlarda ishlash.
O'qitish shart-sharoiti	Guruhlarda ishlash uchun mo'ljallangan auditoriya

Seminar mashg'ulotining texnologik kartasi

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	talaba
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1. Mavzu, reja va maqsad, seminar mashg'ulotining rejasi ma'lum qilinadi.	Eshitadilar va mavzuni yozadilar
2-bosqich. Asosiy (45 min.)	2.1. Munozara uchun matnlarni tarqatadi, venna diagrammasi vositasida munozarani shakllantiradi va muammoli dars qoidasini eslatib o'tadi (1-ilova). 2.2. Bilimlarni faollashtirish maqsadida asosiy tushunchalar borasida blis so'rov o'tkazadi (2-3 ilova). 2.3. Talabalarni guruhlariga bo'ladi va guruhlar e'tiboriga vazifani havola qiladi. Vazifa sifatida O'zbekiston hududlarida suv va yer resurslari joylashishi va ularning holati bo'yicha esse topshirig'i beradi.	2.1. Eshitadilar, eslaydilar. Savollarga javob beradilar. 2.2. Guruhlarda ishlaydilar Savollarga javob beradilar 2.3. Esse ustida ishlaydilar.
3-bosqich. Yakuniy (15 min.)	3.1. Mavzuni yakunlaydi, umumiy xulosa chiqaradi, ishtirokchilarni baholaydi, rag'batlantiradi.	3.1.Eshitadi, aniqlashtiradi va topshiriqni yozib oladilar.

4-MAVZU: O‘ZBEKISTONNING DEMOGRAFIK SALOHİYATI	
Ma’ruza mashg’ulotining o’qitish texnologiyasi	
Vaqt: 2 soat	Talabalar soni: 50-55 nafar
O’quv mashg’ulotining shakli	Vizual ma’ruza, savol-javob
Ma’ruza mashg’ulotining rejasi	1. Aholining tarkibi, geografik joylashuvi xususiyatlari. 2. O‘zbekiston aholisining tabiiy o‘shishi. 3. Migratsiya jarayonlari. Immigratsiya. 4. Mehnat resurslari dinamikasi. Iqtisodiy faol aholi. Iqtisodiyotda band bo‘lganlar. 5. Mehnat bozorining amal qilishi. Mehnat resurslaridan samarali foydalanish yo‘nalishlari.
Ma’ruza mashg’ulotining asosiy maqsadi: Talabalarda Aholining tarkibi. Aholining geografik joylashuvi xususiyatlari. Migratsiya jarayonlari. Immigratsiya. Mehnat resurlari va ulardan foydalanish. Mehnat resurslari dinamikasi. Mehnat bozorining amal qilishi. Mehnat resurslaridan samarali foydalanish yo‘nalishlari haqida bilimlarni shakllantirishdan iborat.	
Pedagogik vazifalar: - Aholining tarkibi, geografik joylashuvi xususiyatlari bo‘yicha umumiy ma’lumot berish; - O‘zbekiston aholisining tabiiy o‘shishi sanab o‘tish; - Mehnat resurslari dinamikasi ko‘rsatish; - Mehnat resurslaridan samarali foydalanish yo‘nalishlari aniqlash.	O’quv faoliyatining natijalari: Talaba: - Aholining tarkibi, geografik joylashuvi xususiyatlari bo‘yicha umumiy tushunchaga ega bo‘ladi; - O‘zbekiston aholisining tabiiy o‘shishini bilib oladi; - Mehnat resurslari dinamikasini bilib oladi; - Mehnat resurslaridan samarali foydalanish holatini bilib oladi.
O’qitish uslubi va texnikasi	Blis-sorov, birgalikda oqiymiz, iqtisodiy esse, “Mineral xom ashyo resurslari”, “Rangli va nodir metallar” so‘zlariga klaster, munozara.
O’qitish vositalari	Ma’ruzalar matni, o’quv qo‘llanmasi, marker, doska
O’qitish shakli	individual va guruh bo‘yicha o’qitish.
O’qitish shart-sharoiti	Kompyuter texnologiyalari, proektor bilan ta’minlangan auditoriya.

Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	talaba
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1. Darsning avvalida talabalarga ma'ruzalar matni va o'quv topshiriqlarni tarqatadi (1-3 ilova). 1.1. Mashg'ulot mavzusini eslatadi va kutilayotgan natijani va darsni olib borish tartibini ma'lum qiladi. 2.1. Blis-so'rov o'tkazadi. (4-ilova).	1.1. Eshitadilar, va ma'ruza matnini oladilar. 2.1. Topshiriqlarni bajaradi, muammolarni juftlikda muhokama qiladi, savollarga javob beradi.
2-bosqich. Asosiy (55 min.)	2.1. Ma'ruza matnidan kelib chiqqan holda quyidagi savolni o'ylab ko'rishni tavsiya etadi: Mineral xom ashyo resurslarining iqtisodiyot raqobatbardoshligiga qanday aloqasi bor? 2.2. Metall va nometall mineral xom ashyo resurslarining tavsiflanishi qanday? 2.3. Metal va nometal mineral resurslarning sanoat ishlab chiqarishidagi ahamiyati to'g'risida munozaraga jalb qiladi. Bunda hududlarning salohiyatini qiyoslashga e'tibor qaratadi.	2.1. Ma'ruza matnidagi belgilarga e'tibor beradilar. 2.2. Savolga javob beradilar. "Insert" jadvalini to'ldiradilar.
3-bosqich. Yakuniy (15 min.)	3.1. Keyingi mavzuga doir ayrim ma'lumotlarni aytadi. 3.2. Mavzuga xulosa qiladi va faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi. 3.3. Uyga topshiriq beradi.	Eshitadilar. Yozib oladilar.

4-MAVZU: O‘ZBEKISTONNING DEMOGRAFIK SALOHİYATI	
Seminar mashg‘ulotining o‘qitish texnologiyasi	
Vaqt: 2 soat	Talabalar soni: 50-55 nafar
O‘quv mashg‘ulotining shakli	Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish bo‘yicha seminar mashg‘uloti
Seminar mashg‘ulotining rejasi	1. Aholining tarkibi, geografik joylashuvi xususiyatlari. 2. O‘zbekiston aholisining tabiiy o‘shishi. 3. Migratsiya jarayonlari. Immigratsiya. 4. Mehnat resurslari dinamikasi. Iqtisodiy faol aholi. Iqtisodiyotda band bo‘lganlar. 5. Mehnat bozorining amal qilishi. Mehnat resurslaridan samarali foydalanish yo‘nalishlari.
Seminar mashg‘ulotining asosiy maqsadi: Talabalarda Aholining tarkibi. Aholining geografik joylashuvi xususiyatlari. Migratsiya jarayonlari. Immigratsiya. Mehnat resurslari va ulardan foydalanish. Mehnat resurslari dinamikasi. Mehnat bozorining amal qilishi. Mehnat resurslaridan samarali foydalanish yo‘nalishlari.haqida bilimlarni shakllantirishdan iborat.	
Pedagogik vazifalar: - Aholining tarkibi, geografik joylashuvi xususiyatlari bo‘yicha umumiy ma’lumot berish; - O‘zbekiston aholisining tabiiy o‘shishi sanab o‘tish; - Mehnat resurslari dinamikasi ko‘rsatish; - Mehnat resurslaridan samarali foydalanish yo‘nalishlari aniqlash.	O‘quv faoliyatining natijalari: Talaba: - Aholining tarkibi, geografik joylashuvi xususiyatlari bo‘yicha umumiy tushunchaga ega bo‘ladi; - O‘zbekiston aholisining tabiiy o‘shishini bilib oladi; - Mehnat resurslari dinamikasini bilib oladi; - Mehnat resurslaridan samarali foydalanish holatini bilib oladi.
O‘qitish uslubi va texnikasi	Blis-sorov, birgalikda oqiymiz, iqtisodiy esse, “Mineral xom ashyo resurslari”, “Yer osti suvlari” so‘zlariga klaster, munozara.
O‘qitish vositalari	Ma’ruzalar matni, O‘quv qollanmasi, marker, doska
O‘qitish shakli	individual va guruh bo‘yicha o‘qitish.
O‘qitish shart-sharoiti	Kompyuter texnologiyalari, proektor bilan ta’minlangan auditoriya.

Seminar mashg'ulotining texnologik kartasi

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	talaba
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1. Ma'ruza mashg'ulotidagi asosiy jihatlariga qisqa sharh beradi, mustaqil ish topshiriqlarini eslatadi, seminar mashg'uloti otkazish tartibini tushuntiradi 1.2. Aqliy hujum usulidan foydalangan holda, talabalarning fikrini jalb qiladi va javoblarni talab qiladi. Yoki savollar orqali auditoriyaning mashg'ulotga tayyorgarlik darajasini aniqlaydi. 1.3. Baholash mezonlarini tushuntiradi. 1.4. Mashg'ulot davomida O'quv materiallari (ma'ruza matni, o'quv qo'llanma)laridan foydalanish mumkinligini eslatadi.	1.1. Mavzuni yozadi va savollarga tayyorgarlik ko'radi.
O‘qitish shakli	Ma’ruza matni, proektor, qog‘oz, marker, KT/OTV, doska, bor
O‘qitish shart-sharoiti	Proektor, kompyuter bilan jihozlangan auditoriya

Seminar mashg'ulotining texnologik kartasi

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	talaba
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1. Ma'ruza mashg'ulotidagi kabi, dastlab dolzarb voqealar, yangiliklar, xabarlarga qisqacha, ya'ni 2-3 daqiqa to'xtaladi, ularning iqtisodiy taraqqiyot nuqtai nazaridan ahamiyati yoritiladi. 1.2. Seminar mashg'ulotining mavzusi, reja va maqsadi yana bir marta eslatiladi.	1.1. Eshitadi va Yo'zadilar.
2-bosqich. Bilimlarni faollashtirish (10 min.)	2.1. Asosiy tushunchalar bo'yicha blis-sorov o'tkazadi(1-ilova). Bir necha javoblarni eshitadi va faoliyat kichik guruhlarda davom etishini aytadi. 2.2. Asosiy tushunchalar va kategoriyalarni qaytaradi, tasnifini tayyorlashni aytadi.	2.1. Eshitadilar, savollar beradilar. 2.2. Javob beradilar.
3-bosqich. Asosiy (45 min.)	3.1. Bilimlarni sinash uchun Globallashuvning ob'ektiv zaruriyatini izohlashdan foydalanadi (2-ilova). 3.2. Muhokama uchun jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining sabab hamda oqibatlarini savolini taklif etadi. (3- lova).	3.1. Javoblarni to'ldiradi. 3.2. Muhokamada ishtirok etadi.
4-bosqich. Yakuniy (15 min.)	4.1. Mavzuni yakunlaydi, ishtirokchilarni baholaydi va rag'batlantiradi. 4.2. Keyingi ma'ruza mashg'uloti savollarini eslatadi, ahamiyat berish kerak jihatlarni aytadi.	Eshitadilar va topshiriqni yozib oladilar.

28-MAVZU: O‘ZBEKISTON JAHON IQTISODIYOTI TIZIMIDA	
Ma’ruza mashg’ulotining o’qitish texnologiyasi	
Vaqt: 2 soat	Talabalar soni: 50-55 nafar
O’quv mashg’ulotining shakli	Axborot ma’ruza, “B.B.B” jadvali grafik organayzeridan foydalangan holda birgalikda o’qish usuli
Ma’ruza mashg’ulotining rejasi	1. O‘zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyati. 2. Tashqi iqtisodiy faoliyatning tashkiliy-huquqiy asoslari. 3. Tashqi savdo, uning tarkibi va dinamikasi. 4. O‘zbekistonning xalqaro tashkilotlar va integrasion jarayonlarida ishtiroki. 5. O‘zbekiston va MDH. 6. O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlari bilan tashqi-iqtisodiy va integratsiya aloqalari.
<i>O’quv mashg’ulotining asosiy maqsadi:</i> Talabalarda O‘zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyati. Tashqi iqtisodiy faoliyatning tashkiliy-huquqiy asoslari. Tashqi savdo, uning tarkibi va dinamikasi. O‘zbekistonning xalqaro tashkilotlar va integrasion jarayonlarida ishtiroki. O‘zbekiston va MDH, O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlari bilan tashqi-iqtisodiy va integratsiya aloqalari. haqida bilimlarni shakllantirishdan iborat.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O’quv faoliyatining natijalari:</i>
- Xalqaro savdoning mohiyati va zaruriyatini izohlash; - O‘zbekistonning tashqi savdo aylanmasi tarkibi tushuntirish; - Import tarkibini takomillashtirish yo`llari haqida tushuncha beradi.	Talaba: - Xalqaro savdoning mohiyati va zaruriyatini izohlaydi; - O‘zbekistonning tashqi savdo aylanmasi tarkibi tushunib oladi; - Import tarkibini takomillashtirish yo`llari haqida tushunchaga ega bo`ladi.
<i>O’qitish uslubi va texnikasi</i>	Axborot ma’ruzasi, blis-sorov, grafik organayzer texnikalari, “B.B.B.” jadvali
<i>O’qitish vositalari</i>	ma’ruza, individual, guruh bilan ishlash
<i>O’qitish shakli</i>	Ma’ruza matni, proektor, qog’oz, marker, KT/OTV, doska, bor
<i>O’qitish shart-sharoiti</i>	Proektor, kompyuter bilan jihozlangan auditoriya

Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	talaba
1-bosqich. Kirish (15 min.)	1.1. Dastlab dolzarb iqtisodiy voqealar, o'zgarishlar, xabarlar to'g'risida ma'lumot beradi. 1.2. O'quv mashg'ulotining mavzu va rejasini ma'lum qiladi. 1.3. Mazkur mashg'ulotning ayrim savollari muammoli tarzda muhokama qilinishini e'lon qiladi. Talabalarni faol bo'lishga chaqiradi.	1.1. Eshitadi, asosiy joylarini yozib oladi. 1.2. Rejani yozib oladi. 1.3. O'qituvchiga savollar beradi.
2-bosqich. Asosiy (50 min.)	2.1. Talabalar e'tiborini rejadagi savollar va asosiy tushunchalarga qaratadi. (1-ilova). 2.2. Vizual materiallardan foydalangan holda ma'ruzaning asosiy qismini bayon etadi; asosiy iqtisodiy tushunchalar to'grisida ilmiy-nazariy ma'lumot beradi (2-3-ilova). 2.3. Mustaqil ish mavzulari va topshiriqlarini muhokama qiladi. (4-ilova).	2.1. Talabalar javob beradilar, daftarlariga jadval chizadilar, jadvalning 1 va 2 ustunlarini to'ldiradilar. 2.2. Asosiy iqtisodiy tushunchalar va tendensiyalar mazmuni muhokamasida qatnashadi. 2.3. Munozara qiladilar.
3-bosqich. Yakuniy (15 min.)	3.1. Mavzu savollari bo'yicha umumiy xulosa qiladi. 3.2. Mustaqil ish uchun vazifa beradi: Globallashuvning ob'ektiv zaruriyati mavzuida esse yozib kelishni topshiradi. Seminar mashg'ulotlari savollarini yozdiradi.	3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi. 3.2. Topshiriqni yozib oladi.

28-MAVZU: O‘ZBEKISTON JAHON IQTISODIYOTI TIZIMIDA	
Seminar mashg‘ulotining o‘qitish texnologiyasi	
Vaqt: 2 soat	Talabalar soni: 50-55 nafar
O‘quv mashg‘ulotining shakli	Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish bo‘yicha seminar mashg‘uloti
Seminar mashg‘ulotining rejasi	1. O‘zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyati. 2. Tashqi iqtisodiy faoliyatning tashkiliy-huquqiy asoslari. 3. Tashqi savdo, uning tarkibi va dinamikasi. 4. O‘zbekistonning xalqaro tashkilotlar va integrasion jarayonlarida ishtiroki. 5. O‘zbekiston va MDH. 6. O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlari bilan tashqi-iqtisodiy va integratsiya aloqalari.
Seminar mashg‘ulotining asosiy maqsadi: <i>O‘zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyati. Tashqi iqtisodiy faoliyatning tashkiliy-huquqiy asoslari. Tashqi savdo, uning tarkibi va dinamikasi. O‘zbekistonning xalqaro tashkilotlar va integrasion jarayonlarida ishtiroki. O‘zbekiston va MDH, O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlari bilan tashqi-iqtisodiy va integratsiya aloqalari. haqida bilimlarni shakllantirishdan iborat.</i>	
Pedagogik vazifalar: - Xalqaro savdoning mohiyati va zaruriyatini izohlash; - O‘zbekistonning tashqi savdo aylanmasi tarkibi tushuntirish; - Import tarkibini takomillashtirish yo‘llari haqida tushuncha beradi.	O‘quv faoliyatining natijalari: Talaba: - Xalqaro savdoning mohiyati va zaruriyatini izohlaydi; - O‘zbekistonning tashqi savdo aylanmasi tarkibi tushunib oladi; - Import tarkibini takomillashtirish yo‘llari haqida tushunchaga ega bo‘ladi.
O‘qitish uslubi va texnikasi	Blis-sorov, grafik organayzer texnikalari, jadvallar bilan ishlash
O‘qitish vositalari	ma’ruza, individual, guruh bilan ishlash
O‘qitish shakli	Ma’ruza matni, proektor, qog‘oz, marker, KT/OTV, doska, bor
O‘qitish shart-sharoiti	Proektor, kompyuter bilan jihozlangan auditoriya

Seminar mashg'ulotining texnologik kartasi

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	talaba
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1. Ma'ruza mashg'ulotidagi kabi, dastlab dolzarb voqealar, yangiliklar, xabarlarga qisqacha, ya'ni 2-3 daqiqa to'xtaladi, ularning iqtisodiy taraqqiyot nuqtai nazaridan ahamiyati yoritiladi. 1.2. Seminar mashg'ulotining mavzusi, reja va maqsadi yana bir marta eslatiladi.	1.1. Eshitadi va Yo'zadilar.
2-bosqich. Bilimlarni faollashtirish (10 min.)	2.1. Asosiy tushunchalar bo'yicha blis-sorov o'tkazadi(1-ilova). Bir necha javoblarni eshitadi va faoliyat kichik guruhlarda davom etishini aytadi. 2.2. Asosiy tushunchalar va kategoriyalarni qaytaradi, tasnifini tayyorlashni aytadi.	2.1. Eshitadilar, savollar beradilar. 2.2. Javob beradilar.
3-bosqich. Asosiy (45 min.)	3.1.Bilimlarni sinash uchun Globallashuvning ob'ektiv zaruriyatini izohlashdan foydalanadi (2-ilova). 3.2. Muhokama uchun jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining sabab hamda oqibatlari savolini taklif etadi. (3- lova).	3.1. Javoblarni to'ldiradi. 3.2. Muhokamada ishtirok etadi.
4-bosqich. Yakuniy (15 min.)	4.1. Mavzuni yakunlaydi, ishtirokchilarni baholaydi va rag'batlantiradi. 4.2. Keyingi ma'ruza mashg'uloti savollarini eslatadi, ahamiyat berish kerak jihatlarni aytadi.	Eshitadilar va topshiriqni yozib oladilar.

«O'ZBEKISTON IQTISODIYOTI» FANIDAN TALABALAR BILIMINI BAHOLASH MEZONI

I. Umumiy qoidalar

1. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturini amalga oshirishning yangi sifat bosqichida oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini baholash va nazorat qilishning reyting tizimini joriy etishdan maqsad mamlakatimizda ta'lim sifatini boshqarish orqali raqobatbardosh yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashga erishish, talabalarning fanlarni o'zlashtirishida bo'shliqlar hosil bo'lishini oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etishdan iboratdir. Oliy o'quv yurtlarida talabalarning bilim darajasi asosan reyting tizimi bo'yicha baholanadi. Talabalar bilimini reyting tizimi asosida baholash – talabaning butun o'qish jarayoni davomida o'z bilimini oshirishi uchun muntazam ishlashi hamda o'z ijodiy faoliyatini takomillashtirishini rag'batlantirishga qaratilgan. Reyting tizimi mamlakatimizda yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashning sifat ko'rsatkichlarining jahon andozalari hamda xalqaro mezonlarga muvofiqligini ta'minlashga qaratilgan.

Kafedrada o'qitiladigan fanlar bo'yicha tayyorlangan mazkur uslubiy ko'rsatma O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi qonunlari va O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2009 yil 11 iyundagi 204-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risida"gi Nizom (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligining 2010 yil 25 avgustdagi 333-sonli buyrug'i bilan o'zgartirish kiritilgan), fanning Namunaviy o'quv dasturi hamda Ishchi o'quv dasturi asosida ishlab chiqilgan. Ushbu uslubiy ko'rsatma fanlardan talabalar bilimini baholashda, shuningdek talabalar uchun ham mazkur fanni o'zlashtirish jarayonida qanday ballar to'plash mumkinligi haqida tasavvurga ega bo'lishda muhim o'rin tutadi.

2. Fanlar bo'yicha talabalar bilimini baholashning reyting tizimi quyidagi vazifalarning bajarilishini ko'zda tutadi:

a) talabalarda Davlat ta'lim standartlariga muvofiq tegishli bilim, ko'nikma va malakalar shakllanganligi darajasini nazorat qilish va tahlil qilib borish;

b) talabalar bilimi, ko'nikma va malakalarini baholashning asosiy tamoyillari: Davlat ta'lim standartlariga asoslanganlik, aniqlik, haqqoniylik, ishonchlilik va qulay shaklda baholashni ta'minlash;

v) fanlarning talabalar tomonidan tizimli tarzda va belgilangan muddatlarda o'zlashtirilishini tashkil etish va tahlil qilish;

g) talabalarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish, axborot resurslari manbalaridan samarali foydalanishni tashkil etish;

d) talabalar bilimini xolis va adolatli baholash hamda uning natijalarini vaqtida ma'lum qilish;

e) talabalarning fanlar bo'yicha kompleks hamda uzluksiz tayyorgarligini ta'minlash;

f) o'quv jarayonining tashkiliy ishlarini kompyuterlashtirishga sharoit yaratish.

3. Fanlar bo'yicha talabalar bilimini semestrda baholab borish reyting nazorati jadvallari va baholash mezonlari asosida amalga oshiriladi.

II. Nazorat turlari va uni amalga oshirish tartibi

4. Nazorat turlari, uni o'tkazish tartibi va mezonlari kafedra mudiri tavsiyasi bilan oliy ta'lim muassasasining (fakultet) o'quv-uslubiy kengashida muhokama qilinadi va tasdiqlanadi hamda har bir fanning ishchi o'quv dasturida mashg'ulot turlari bilan birgalikda ko'rsatiladi.

5. Reyting nazorati jadvallari, nazorat turi, shakli, soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, shuningdek joriy va oraliq nazoratlarning saralash ballari haqidagi ma'lumotlar fan bo'yicha birinchi mashg'ulotda talabalarga e'lon qilinadi.

6. Talabalarining bilim saviyasi va o'zlashtirish darajasining Davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlarini o'tkazish nazarda tutiladi:

- 1) joriy nazorat – (JN);
- 2) oraliq nazorat – (ON);
- 3) yakuniy nazorat – (YaN);

Joriy nazorat – talabaning fan mavzulari bo'yicha bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Joriy nazorat fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda, seminar, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarida og'zaki so'rov, test o'tkazish, suhbat, nazorat ishi, kollokvium, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkazilishi mumkin. Talabaning bilim darajasi, eng avvalo, uning auditoriyada dars o'tish jarayonidagi faolligi, o'tilgan mavzularni o'zlashtirish darajasi orqali quyidagicha aniqlanadi:

1) ma'ruzani sifatli konspektlashtirish darajasi, tinglash, o'qituvchi tomonidan tashkil etilgan mavzuga oid bahs va munozaralarda faol ishtirok etish;

2) amaliy (seminar) mashg'ulotlarni konspektlashtirish darajasi, unga tayyorgarlik ko'rish, misol, masala, test, keys-stadi va boshqalarni ishlab chiqishda faol qatnashish va h.k.

Barcha fanlardan talabaning semestr davomida o'zlashtirish ko'rsatkichi 100 ballik tizimda baholanadi. Shundan JNga jami ballning 40%, ya'ni 40 ball ajratilgan. JN tarkibiga talabalarining ma'ruza, amaliy va seminar darslariga faol qatnashishlari, uy vazifalarini bajarishlari, misollar, masalalar, yozma ish, nazorat ishlari, test va keys-stadilarni yechishlari hamda mustaqil ishlar (referat, Prezident I.A.Karimov asarlari, shuningdek iqtisodiyotga oid O'zbekiston Respublikasi qonunlari va boshqa me'yoriy hujjatlarni konspekt qilish hamda fanning ayrim mavzularini mustaqil o'rganish) bo'yicha topshiriqlarni bajarishlari natijasida to'plagan ballari kiradi. Talabalarining fanni o'zlashtirishlari bo'yicha nazorat turlari ichida "oraliq nazorat" (ON) muhim ahamiyat kasb etadi. *Oraliq nazorat (ON)* semestr davomida o'quv dasturining tegishli (fanning bir necha mavzularini o'z ichiga olgan) bo'limi tugallangandan keyin talabaning bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Oraliq nazoratining soni (bir semestrda ikki martadan ko'p o'tkazilmasligi lozim) va shakli (yozma, og'zaki, test va hokazo) o'quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda kafedra tomonidan belgilanadi. ONda talabaning muayyan savolga javob berish yoki muammoni yechish mahorati va qobiliyati aniqlanadi. ONGa jami ballning 30%, ya'ni 30 ball ajratish tavsiya etiladi. ON yozma ish, nazorat ishi, test, og'zaki savol-javob va boshqa ko'rinishlarda o'tkazilishi mumkin.

Har bir professor-o'qituvchi o'zining ixtiyoridan kelib chiqqan holda ONni yuqorida keltirilgan ko'rinishlaridan birini tanlab oladi. Oraliq nazoratni yozma ish shaklida o'tkazilganda 3 ta savoldan iborat bo'lgan variantlar tuzib olinadi. Oraliq nazorat test shaklida o'tkazilsa, u holda 10 ta test savolidan kam bo'lmagan variantlar tuziladi. Agar oraliq nazorat og'zaki savol-javob tarzida o'tkazilsa, u holda 3 ta savoldan iborat bo'lgan variantlar tuzilib, ular asosida talabaning bilimi baholanadi. Fan bo'yicha bir semestr davomida ikki marta ON o'tkazish rejalashtirilgan. Har bir oraliq nazorat bo'yicha talabaning bilimini 15 balldan, jami 30 ballga qadar baholash mumkin. ONlar TDSHda ishlab chiqilgan kalendar tematik reja muvofiq dekanat tomonidan tuzilgan reyting nazorati jadvallari asosida o'tkaziladi.

Har bir professor-o'qituvchi belgilangan kunlarda oraliq nazoratni o'tkazib, talabalarning olgan ballarini tegishli guruh jurnaliga, kafedra va dekanatdagi oraliq nazoratlarni qayd qilish jurnallariga yozib qo'yishlari shart.

Yakuniy nazorat (YaN) odatda semestr yakunida muayyan fan bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini baholash usuli. Yakuniy nazorat asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan "Yozma ish" shaklida o'tkaziladi. Yakuniy baholashga jami ballning 30%, ya'ni 30 ball ajratilgan.

7. Oraliq nazoratni o'tkazish jarayoni kafedra mudiri tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida davriy ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, oraliq nazorat natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda oraliq nazorat qayta o'tkaziladi.

8. Oliy ta'lim muassasasi rahbarining buyrug'i bilan ichki nazorat va monitoring bo'limi rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida yakuniy nazoratni o'tkazish jarayoni davriy ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, yakuniy nazorat natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda yakuniy nazorat qayta o'tkaziladi.

9. O'quv yili tugaganidan keyin reyting nazorati natijalariga ko'ra talabalarni keyingi kursga o'tkazish to'g'risida belgilangan tartibda qaror qabul qilinadi. Fan bo'yicha talabani JN, ON va YaNdagi o'zlashtirish ko'rsatkichi har bir semestr yakunida dekanatlar tomonidan beriladigan maxsus qaydnomalarga kiritilishi va ularning natijalari kafedra majlisida tahlil qilib borilishi lozim.

III. Baholash tartibi va mezonlari

10. Talabalarning bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi asosida talabani har bir fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi ballar orqali ifodalanadi.

11. Har bir fan bo'yicha talabani semestr davomidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi 100 ballik tizimda baholanadi. Ushbu 100 ball nazorat turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi:

yakuniy nazoratga – 30 ball;

joriy va oraliq nazoratlarga – 70 ball (fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda 70 ball kafedra tomonidan joriy va oraliq nazoratlarga taqsimlanadi).

12. Talabani reyting daftarchasiga alohida qayd qilinadigan kurs ishi (loyihasi, hisob-grafik ishlari), malakaviy amaliyot, fan (fanlararo) bo'yicha yakuniy davlat attestatsiyasi, bitiruv malakaviy ishi va magistratura talabalarining ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik ishlari, magistrlik dissertatsiyasi bo'yicha o'zlashtirish darajasi – 100 ballik tizimda baholanadi.

13. Talabani fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichini nazorat qilishda quyidagi namunaviy mezonlar (keyingi o'rinlarda namunaviy mezonlar deb yuritiladi) tavsiya etiladi:

Ball	Baho	Talabani bilim darajasini ifodalovchi holatlar
86 - 100	A'lo	O'zbekiston iqtisodiyotining konseptual jihatlarini to'g'risida ijodiy fikrlay olishi, Iqtisodiy taraqqiyotning "O'zbek modeli" bo'yicha mustaqil mushohada yurita olishi, Bozorga o'tishning zarurligi, Milliy sanoat rivojlanishining bosqichlari bo'yicha olgan bilimlarini amalda qo'llay olishi, Milliy iqtisodiyot rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari mohiyatini tushuntirishi. Mehnat resurlarining holati va dinamikasini bilish, O'zbekistonga xorijiy investisiyalarni jalb qilishning zamonaviy tendensiyalari aytib berishi, O'zbekiston xo'jaligining jahon xo'jaligidagi o'rni va roli bo'yicha to'liq tasavvurga ega bo'lishi.

71 -85	Yaxshi	O'zbekiston iqtisodiyotining konseptual jihatlari to'grisida mushohada qilishi. Iqtisodiy taraqqiyotning "O'zbek modeli" boyicha olgan bilimlarini amalda qo'llay olishi, Milliy iqtisodiyot rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari mohiyatini tushuntirishi. O'zbekistonga xorijiy investisiyalarni jalb qilishning zamonaviy tendensiyalari aytib berishi, O'zbekiston xo'jaligining jahon xo'jaligidagi o'rni va roli boyicha tasavvurga ega bo'lishi.
55 – 70	Qoniqarli	O'zbekiston iqtisodiyotining konseptual jihatlari mohiyatini tushuntirishi, Iqtisodiy rivojlanishning "O'zbek modeli"ni bilishi, aytib berishi. O'zbekiston xo'jaligining jahon xo'jaligidagi o'rni va roli boyicha qisman tasavvurga ega bo'lishi.
0 - 54	Qoniqarsiz	O'zbekiston iqtisodiyotining konseptual jihatlari to'grisida aniq tasavvurga ega bo'lmaslik. Iqtisodiy rivojlanishning "o'zbek modeli" mohiyatini bilmaslik.

14. Namunaviy mezonlar asosida muayyan fanlardan joriy va oraliq nazoratlar bo'yicha aniq mezonlar ishlab chiqilib, kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanadi va talabalarga e'lon qilinadi. Jumladan, "Iqtisodiy nazariya (umumiqtisodiy fanlar)" kafedrasidagi barcha fanlar bo'yicha tayyorlangan oraliq nazorat savollari kafedraning 2010 yil 28 avgustdagi 1-majlis bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

15. Yakuniy baholashda yozma ishni o'tkazish tartibi.

Fanlar bo'yicha yakuniy nazorat semestr oxirida yozma ish shaklida o'tkaziladi. Yozma ish savollari va variantlari har o'quv yilining boshida kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan yangidan tuzilib, kafedra majlisida muhokama etiladi va tasdiqlanadi.

Yozma ishning har bir varianti bo'yicha qo'yilgan savollarning mazmuni, qamrov darajasi va ahamiyatligi darajasi kafedra mudiri tomonidan tekshirilib, uning imzosi bilan tasdiqlanadi. Yozma ishni o'tkazish asosan har bir semestrning so'nggi o'quv haftasiga mo'ljallangan bo'lib, u belgilangan haftalardagi mazkur fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlari chog'ida o'tkaziladi. Yozma ish variantida 5 ta savol tayanch iboralari bilan keltiriladi. Yozma ishlarni baholash mezonlari yakuniy baholashga ajratilgan 30 balldan kelib chiqqan holda ishlab chiqiladi, ya'ni har bir savolga maksimum 6 balldan to'g'ri keladi. Yozma ish o'tkazilgandan keyin ikki kun davomida professor-o'qituvchilar uni tekshirib baholaydilar. Yozma ish hajmi talabani fan bo'yicha tasavvuri, bilimi, amaliy ko'nikmasini baholash uchun yetarli bo'lishi zarur. Agar talaba yakuniy nazoratda shu nazorat turi bo'yicha saralash balidan yuqori ball to'plasa, bu ball joriy va oraliq nazoratlarda to'plangan ballarga qo'shiladi. Aks holda talabani fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi faqat joriy va oraliq nazoratlarining ballari yig'indisidan iborat bo'ladi.

Fanlar bo'yicha talabalarining yozma ishlari ikki yil mobaynida dekanatda saqlanadi.

16. Talabalarining o'quv fani bo'yicha mustaqil ishi joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar jarayonida tegishli topshiriqlarni bajarishi va unga ajratilgan ballardan kelib chiqqan holda baholanadi.

17. Talabani fan bo'yicha bir semestrda reytingi quyidagicha aniqlanadi:

$$R_f = \frac{V \cdot O'}{100}$$

bu yerda:

V – semestrda fanga ajratilgan umumiy o'quv yuklamasi (soatlarda);

O' – fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi (ballarda).

18. Fan bo'yicha joriy, oraliq nazoratlarga ajratilgan umumiy ballning 55 foizi saralash ball hisoblanib, ushbu foizdan kam ball to'plagan talabalar yakuniy nazoratga kiritilmaydi.

Joriy va oraliq nazorat turlari bo'yicha 55 va undan yuqori ballni to'plagan talaba fanni o'zlashtirgan deb hisoblanadi va ushbu fan bo'yicha yakuniy nazoratga kirmasligiga yo'l qo'yiladi.

19. Talabaning semestr davomida fan bo'yicha to'plagan umumiy bali har bir nazorat turidan belgilangan qoidalarga muvofiq to'plagan ballari yig'indisiga teng.

IV. Nazorat turlarini o'tkazish muddati

20. Oraliq va yakuniy nazorat turlari kalendar tematik rejaga muvofiq dekanat tomonidan tuzilgan reyting nazorat jadvallari asosida o'tkaziladi. Yakuniy nazorat semestrning oxirgi 2 haftasi mobaynida o'tkaziladi.

21. Talaba fan bo'yicha kurs loyihasi (ishi)ni ushbu fan bo'yicha to'plagan ballari umumlashtirilishiga qadar topshirishi shart.

22. Joriy va oraliq nazoratlarda saralash balidan kam ball to'plagan va uzrli sabablarga ko'ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turigacha, so'nggi joriy va oraliq nazoratlar uchun yakuniy nazoratgacha bo'lgan muddat beriladi.

Kasalligi sababli darslarga qatnashmagan hamda belgilangan muddatlarda joriy, oraliq va yakuniy nazoratlarni topshira olmagan talabalarga fakultet dekani farmoyishi asosida, o'qishni boshlaganidan so'ng ikki hafta muddatda topshirishga ruxsat beriladi.

23. Talabaning semestrda joriy va oraliq nazorat turlari bo'yicha to'plagan ballari ushbu nazorat turlari umumiy balining 55 foizidan kam bo'lsa yoki semestr yakunida joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlari bo'yicha to'plagan ballari yig'indisi 55 balldan kam bo'lsa, u akademik qarzdor deb hisoblanadi.

Akademik qarzdor talabalarga semestr tugaganidan keyin qayta o'zlashtirish uchun bir oy muhlat beriladi. Shu muddat davomida fanni o'zlashtira olmagan talaba, fakultet dekani tavsiyasiga ko'ra belgilangan tartibda rektorning buyrug'i bilan talabalar safidan chetlashtiriladi.

24. Talaba nazorat natijalaridan norozi bo'lsa, fan bo'yicha nazorat turi natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab bir kun mobaynida fakultet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakultet dekanining taqdimnomasiga ko'ra rektor buyrug'i bilan 3 (uch) a'zodan kam bo'lmagan tarkibda apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

Apellyatsiya komissiyasi talabalarining arizalarini ko'rib chiqib, shu kunning o'zida xulosasini bildiradi.

25. Baholashning o'rnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o'tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi fakultet dekani, kafedra mudiri, o'quv bo'limi hamda ichki nazorat va monitoring bo'limi tomonidan nazorat qilinadi.

V. Reyting natijalarini qayd qilish va tahlil etish tartibi

26. Talabaning fan bo'yicha nazorat turlarida to'plagan ballari semestr yakunida reyting qaydnomasiga **butun sonlar** bilan qayd qilinadi. Reyting daftarchasining "O'quv rejasida ajratilgan soat" ustuniga semestr uchun fanga ajratilgan umumiy o'quv yuklama soatlari, "Fandan olingan baho" ustuniga esa 100 ballik tizimdagi o'zlashtirishi qo'yiladi.

Talabaning saralash balidan past bo'lgan o'zlashtirishi reyting daftarchasiga qayd etilmaydi.

27. Har bir fan bo'yicha o'tkaziladigan nazorat turlarining natijalari guruh jurnali hamda qaydnomada qayd etiladi va shu kunning o'zida (nazorat turi yozma ish shaklida o'tkazilgan bo'lsa, 2 (ikki) kun muddat ichida) talabalar e'tiboriga yetkaziladi.

28. Yakuniy nazorat natijalariga ko'ra fan o'qituvchisi talabalarning fan bo'yicha reytingini aniqlaydi hamda reyting daftarcha va qaydnomaning tegishli qismini to'ldiradi.

29. Talabaning reytingi uning bilimi, ko'nikmasi va malakalari darajasini belgilaydi. Talabaning semestr (kurs) bo'yicha umumiy reytingi barcha fanlardan to'plangan reyting ballari yig'indisi orqali aniqlanadi.

30. Talabalar umumiy reytingi har bir semestr va o'quv yili yakunlangandan so'ng e'lon qilinadi.

31. Talabaga imtiyozli diplom belgilashda uning har bir semestr yakunidagi fanlar bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi hisobga olinadi.

Diplom ilovasi yoki akademik ma'lumotnomani dekanat tomonidan rasmiylashtirishda fan bir necha semestr davom etgan bo'lsa, reytinglar yig'indisi olinadi.

32. Talabalarning nazorat turlari bo'yicha erishgan natijalari kafedralar, dekanatlar va o'quv-metodik bo'linmalarda kompyuter xotirasiga kiritilib, muntazam ravishda tahlil qilib boriladi.

33. Joriy, oraliq va yakuniy nazorat natijalari kafedra yig'ilishlari, fakultet va oliy ta'lim muassasasi Ilmiy kengashlarida muntazam ravishda muhokama etib boriladi va tegishli qarorlar qabul qilinadi.

VI. Yakuniy qoidalar

34. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi test baholari va reyting ballarining xolisligini tekshirishni tashkil etadi va nazorat qiladi.

35. Ushbu Nizomda belgilangan masalalar bo'yicha kelib chiqqan nizolar qonun hujjatlari asosida hal qilinadi.

36. Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi, Xalq ta'limi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Madaniyat va sport ishlari vazirligi, O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi, "O'zbekiston temir yo'llari" DAK, Davlat soliq qo'mitasi, O'zbekiston Badiiy akademiyasi va Navoiy kon-metallurgiya kombinati bilan kelishilgan.

Ilova

Toshkent davlat sharqshunoslik instituti
bo'yicha tasdiqlangan o'quv jarayoni rejasiga muvofiq 100 ballik baholash
turlarining namunaviy taqsimoti:

Maksimal ball	Maksimal ballning nazorat turlari bo'yicha taqsimoti		Qoniqarli	Yaxshi	A'lo
			55-70%	71-85%	86-100%
100	JB 40	1-JB 20	11,0	14,2	17,2
		2-JB 20	11,0	14,2	17,2
	OB 30	1-OB 15	8,2	10,7	12,9
		2-OB 15	8,2	10,7	12,9
	YaB 30	30	16,6	21,2	25,8
	JAMI 100	100	55	71	86

Talabanning fan bo'yicha nazorat turlarida to'plagan ballari semestr yakunida reyting qaydnomasi hamda reyting daftarchasiga butun sonlar bilan qayd qilinishi kerak.

Fandan reyting ishlanmasi

1. Joriy nazorat

№	Joriy nazorat turlari	Umu miy ball	Baholash mezonlari	Ballarning Maks. va Min. chegaralari
1.	Amaliy mashg'ulotlarni bajarish	2,0	4. "A'lo" - talabning amaliy mashg'ulotlarda faol ishtirok etish orqali berilgan topshiriqlarini to'la sifatli bajarishi; - talabning amaliy mashg'ulotlarda mustaqil mushohada yurita olishi va ijodiy fikrlashi; - ma'ruza va amaliy mashg'ulotlardagi qo'yilgan savollarning mohiyatini tushunishi va bilishi, tasovvurga ega bo'lishi hamda ularga to'laqonli javob qaytara olishi; - talabning dars jarayonida olgan bilimlarini amaliy mashg'ulotlardagi berilgan topshiriqlarni bajarish jarayonida qo'llay olishi. 3. "Yaxshi" - talabning amaliy mashg'ulotlarda doimiy ishtirok etib, uning topshiriqlarini to'laqonli va sifatli bajara olmasligi; - talabning amaliy mashg'ulotlarda mustaqil mushohada yurita olishi va ijodiy fikrlashi; - ma'ruza va amaliy mashg'ulotlardagi qo'yilgan savollarning mohiyatini tushunishi va bilishi, tasovvurga ega bo'lishi, ammo ularga to'laqonli javob qaytarishda bilim saviyasining biroz yetishmasligi; - talabning dars jarayonida olgan bilimlarini amaliy mashg'ulotlardagi berilgan topshiriqlarni bajarish jarayonida qo'llay olishi. 2. "Qoniqarli" - talabning amaliy mashg'ulotlardagi topshiriqlarini bajarishda bilim saviyasining pastligi; - talabning amaliy mashg'ulotlarda mustaqil mushohada yurita olishi va ijodiy fikrlash qobiliyatining pastligi; - ma'ruza va amaliy mashg'ulotlardagi qo'yilgan savollarning mohiyatini yetarlicha tushunmasligi va bilmasligi, ularga javob qaytarishda bilim saviyasining yetishmasligi; - talabning dars jarayonida olgan bilimlarini amaliy mashg'ulotlardagi berilgan topshiriqlarni bajarish jarayonida qo'llay olish darajasining pastli. 1. "Qoniqarsiz" - talabning amaliy mashg'ulotlardagi topshiriqlarini bajarishda bilim saviyasining umuman yetishmasligi; - talabning amaliy mashg'ulotlarda mustaqil mushohada yurita olishi va ijodiy fikrlash qobiliyatining pastligi; - ma'ruza va amaliy mashg'ulotlardagi qo'yilgan savollarning mohiyatini tushunmasligi va bilmasligi, ularga javob qaytarishda bilim saviyasining umuman yetishmasligi; - talabning dars jarayonida olgan bilimlarini amaliy mashg'ulotlardagi berilgan topshiriqlarni bajarish jarayonida qo'llay olish mahoratining yo'qligi.	1,7-2,0 1,4-1,6 1,1-1,5 0-1
2.	Mavzuni mustaqil o'zlashtirish (konspekt-	2,0	1. "A'lo" - topshiriqni bajarish jarayonida mustaqil ravishda zaruriy va qo'shimcha o'quv adabiyotlardan, internet manbalaridan foydalanib mavzuni to'liq konspektlash-tirilganligi; - tayanch iboralarning mohiyatini anglagan holda mavzuga taalluqli savollarga to'liq javob tayyorlanganligi; - mustaqil o'zlashtirilgan mavzu bo'yicha tayyorlangan matnning kafedrada yuqori saviyada himoya qilinganligi.	1,7-2,0

	lashtirish va savollarga javob tayyorlash).		2. "Yaxshi" - topshiriqni bajarish jarayonida mustaqil ravishda zaruriy va qo'shimcha o'quv adabiyotlardan, internet manbalaridan foydalanib mavzuning to'liq konspektlash-tirilganligi; - tayanch iboralarning mohiyatiga yetarli e'tibor bermasdan mavzuga taalluqli savollarga yetarli javob tayyorlanmaganligi; - mustaqil o'zlashtirilgan mavzu bo'yicha tayyorlangan matnning kafedrada yetarli saviyada himoya qilinmaganligi. 3. "Qoniqarli" - topshiriqni bajarish jarayonida mustaqil ravishda zaruriy va qo'shimcha o'quv adabiyotlardan, internet manbalaridan foydalanib mavzuning yetarlicha konspekt-lashtirilmaganligi; - tayanch iboralarning mohiyatiga e'tibor bermasdan mavzuga taalluqli savollarga tayyorlangan javoblarning talab darajasida emasligi; - mustaqil o'zlashtirilgan mavzu bo'yicha tayyorlangan matnning kafedrada past saviyada himoya qilinganligi. 4. "Qoniqarsiz" - topshiriqni bajarish jarayonida mustaqil ravishda zaruriy va qo'shimcha o'quv adabiyotlardan, internet manbalaridan foydalanib mavzuni konspektlashtirishning qonun-qoidalariga umuman amal qilinmaganligi; - tayanch iboralarning mohiyatiga e'tibor berilmaganligi va mavzuga taalluqli savollarga tayyorlangan javoblarning tizimli bayon etilmaganligi; - mustaqil o'zlashtirilgan mavzu bo'yicha tayyorlangan matnning kafedrada himoya qilish qobiliyatining umuman yetishmasligi.	1,4-1,6 1,1-1,3 0-1,0
3.	Referat.	10,0	1. "A'lo" Referat ishida tanlangan mavzuning to'liq hamda muammoli tarzda yoritib berilganligi, uning rasmiylashtirilishi hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida ham kamchiliklarning mavjud emasligi. 2. "Yaxshi" Referat ishida tanlangan mavzuni to'liq yoritib berilganligi, ammo uning rasmiylashtirilishi hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida ba'zi-bir kamchiliklarning mavjudligi. 3. "Qoniqarli" Referat ishida tanlangan mavzu to'liq yoritib berilmaganligi, shuningdek uning rasmiylashtirilishi hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida ayrim kamchiliklarning mavjudligi. 4. "Qoniqarsiz" Referat ishida tanlangan mavzuning qisman yoritilganligi, shuningdek uning rasmiylashtirilishi hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatining mutlaqo talab darajasida emasligi.	8,2-10,0 7,5-8,1 5,5-7,4 0-5,4
4.	Ko'rgazmal vositalar (jadval, chizmalar, rasmlar, grafiklar, namunalar va h.k.) tayyorlash.	2,0	1. "A'lo" - tayyorlangan ko'rgazmal vositalar miqdori va shaklining to'g'ri tanlanganligi; - ulardan foydalanish bo'yicha tayyorlangan tavsiyalar mazmunining yuqori saviyada ekanligi; - ulardan foydalanish bo'yicha tayyorlangan tavsiyalarni kafedrada yuqori saviyada himoya qilinganligi. 2. "Yaxshi" - tayyorlangan ko'rgazmal vositalar miqdori va shaklining to'g'ri tanlanganligi; - ulardan foydalanish bo'yicha tayyorlangan tavsiyalar mazmunining yetarli saviyada ekanligi; - ulardan foydalanish bo'yicha tayyorlangan tavsiyalarni kafedrada yuqori yetarli saviyada himoya qilinmaganligi. 3. "Qoniqarli" - tayyorlangan ko'rgazmal vositalar miqdori va shaklining yetarli darajada to'g'ri tanlanmaganligi; - ulardan foydalanish bo'yicha tayyorlangan tavsiyalar mazmunining yetarli saviyada emasligi; - ulardan foydalanish bo'yicha tayyorlangan tavsiyalarni	1,7-2 1,4-1,6 1,1-1,3

			kafedrada himoya qilish saviyasining pastligi. 4. “Qoniqarsiz” - tayyorlangan ko‘rgazmali vositalar miqdori va shaklining to‘g‘ri tanlanmaganligi; - ulardan foydalanish bo‘yicha tayyorlangan tavsiyalar mazmuni saviyasining pastligi; - ulardan foydalanish bo‘yicha tayyorlangan tavsiyalarni kafedrada himoya qilishda bilim darajasining past darajadali.	0-1,0
5.	Mavzu bo‘yicha testlar, munozarali savollar, taqdimot va topshiriqlar tayyorlash.	3,0	1. “A’lo” - mavzu bo‘yicha tayyorlangan testlar, munozarali savollar, taqdimot va topshiriqlarning qo‘yiladigan talablar va qonun-qoidalarga to‘liq mosligi; - tayyorlangan testlar, munozarali savollar, taqdimot va topshiriqlarda ko‘zda tutilgan maqsadning aniq bayon etilganligi; - muammoli savollar tuzishda mavzuning munozarali momentlarining aniq ajratib ko‘rsatilganligi; - topshiriqlarni tuzish usul-uslublariga yetarlicha e’tibor qaratilganligi. 2. “Yaxshi” - mavzu bo‘yicha tayyorlangan testlar, munozarali savollar, taqdimot va topshiriqlarning qo‘yiladigan talablar va qonun-qoidalarga mosligi; - tayyorlangan testlar, munozarali savollar, taqdimot va topshiriqlarda ko‘zda tutilgan maqsadning yetarlicha bayon etilganligi; - muammoli savollar tuzishda mavzuning munozarali momentlarini ajratib ko‘rsatishda ayrim kamchiliklarning mavjudligi; - topshiriqlarni tuzish usul-uslublariga yetarlicha e’tibor qaratilmaganligi. 3. “Qoniqarli” - mavzu bo‘yicha tayyorlangan testlar, munozarali savollar, taqdimot va topshiriqlarning qo‘yiladigan talablar va qonun-qoidalarga ma’lum darajada mosligi; - tayyorlangan testlar, munozarali savollar, taqdimot va topshiriqlarda ko‘zda tutilgan maqsadning yetarlicha bayon etilmaganligi; - muammoli savollar tuzishda mavzuning munozarali momentlarini ajratib ko‘rsatishda ayrim kamchiliklarning mavjudligi; - topshiriqlarni tuzish usul-uslublariga yetarlicha e’tibor qaratilmaganligi. 4. “Qoniqarsiz” - mavzu bo‘yicha tayyorlangan testlar, munozarali savollar, taqdimot va topshiriqlarning qo‘yiladigan talablar va qonun-qoidalarga umuman mos kelmasligi; - tayyorlangan testlar, munozarali savollar, taqdimot va topshiriqlarda ko‘zda tutilgan maqsadning to‘g‘ri tanlanmaganligi; - muammoli savollar tuzishda mavzuning munozarali momentlarini ajratib ko‘rsatishda aniq kamchiliklarga yo‘l qo‘yilganligi; - topshiriqlarni tuzish usul-uslublariga amal qilinmaganligi.	2,6-3,0 2,1-2,5 1,6-2,0 0-1,5
6.	Ilmiy maqola, tezislar va ma’ruzalar.	5,0	1. “A’lo” - talabada berilgan mustaqil ishni bajarishga bo‘lgan ishtiyoq va uni bajarish bo‘yicha aniq yondashuvning mavjudligi; - talabaning berilgan mustaqil ishning mohiyatini tushunishi, ma’lum darajada bilishi, tasovvurga ega bo‘lishi va uni namunali tarzda tayyorlay olishi; - talabada berilgan mustaqil ishni bajarishda mustaqil mushohada yuritish qobiliyatining mavjudligi; - talabaning berilgan mustaqil ishni tayyorlash usul va uslublarini tanlay olishi. 2. “Yaxshi”	4,3-5,0 3,6-4,2

		- talabada berilgan mustaqil ishni bajarish bo'yicha ishtiyoq va uni bajarishda aniq yondashuvning mavjudligi; - talabaning berilgan mustaqil ishning mohiyatini tushunishi, ma'lum darajada bilishi, tasovvurga ega bo'lishi va uni tayyorlay olishi; - talabada berilgan mustaqil ishni bajarish bo'yicha noyob qobiliyat va mustaqil mushohada yuritish qobiliyatining mavjudligi.	2,8-3,5
		3. "Qoniqarli" - talabada berilgan mustaqil ishni bajarishga bo'lgan ishtiyoqning mavjudligi va uni bajarish bo'yicha loqaydlik holatlarining qisman kuzatilishi; - talabaning berilgan mustaqil ishning mohiyatini tushunishi, ma'lum darajada bilishi, tasovvurga ega bo'lishi va uni qisman bajara olishi. 4. "Qoniqarsiz" - Talabada berilgan mustaqil ishni bajarishga bo'lgan ishtiyoqining yuqligi; - talabaning berilgan mustaqil ishning mohiyatiga tushunib yetmasligi va aniq tasavvurga ega bo'lmasligi; - talabada berilgan mustaqil ishni bajarish bo'yicha loqaydlik holatining kuzatilishi.	0-2,7

2. Oraliq nazorat

№	Oraliq nazorat turlari	Umu miy ball	Baholash mezonlari	Ballar ning Maks. va Min. Chegaral ari
1.	Og'zaki (3 ta savol)	5,0 (5x3=15)	1. "A'lo" - talaba tayyorlangan variant savollarning mohiyatini tushunishi va tasavvurga ega bo'lishi; - talabaning variant savollari haqida mustaqil mushohada yurita olishi; - talabaning berilgan variant savollari bo'yicha ijodiy fikrlay olishi va mustaqil xulosalarni chiqara olishi; - talabaning berilgan savollarni yuqori saviyada bilishi va aytib bera olishi; - talabada og'zaki nutq va fikrlarni bayon etishda notiqlik san'atining yuqori darajadali. 2. "Yaxshi" - talaba tayyorlangan variant savollarning mohiyatini tushunishi va tasavvurga ega bo'lishi; - talabaning variant savollari haqida mustaqil mushohada yurita olishi; - talabaning berilgan savollarni ma'lum darajada bilishi va aytib bera olishi; - talabada og'zaki nutq va fikrlarni bayon etishda notiqlik san'atining me'yorda ekanligi. 3. "Qoniqarli" - talaba tayyorlangan variant savollarning mohiyatini tushunishi va tasavvurga ega bo'lishi; - talabaning berilgan savollarni qisman bilishi va aytib bera olishi; - talabada og'zaki nutq va fikrlarni bayon etishda notiqlik san'atining o'rta darajadali. 4. "Qoniqarsiz" - talaba tayyorlangan variant savollarning mohiyati to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lmasligi; - talabaning berilgan savollarga to'liq javob bera olmasligi; - talabada og'zaki nutq va fikrlarni bayon etishda notiqlik	4,3-5,0 3,6-4,2 2,8-3,5 0-2,7

			san'atining umuman yetishmasligi.	
2.	Yozma ish (3 ta savol)	5,0 (5x3=15)	1. "A'lo" - talaba tayyorlangan variant savollarning mohiyatini tushunishi va tasavvurga ega bo'lishi; - talabani variant savollari haqida mustaqil mushohada yuritish olishi va ularni yozma bayon etishi; - talabani berilgan variant savollari bo'yicha ijodiy fikrlay olishi va mustaqil xulosalarni chiqara olishi; - talabani berilgan savollarni yuqori darajada bilishi va yozib bera olishi; - talabani variant savollariga yozma javob qaytarishi jarayonida iqtisodiy tahlildan foydalanilganligi hamda statistik ma'lumotlarning yetarli darajada qo'llanilganligi; - talabada fikrlarni bayon etishda yozma savodxonlik darajasining yuqori darajadali. 2. "Yaxshi" - talaba tayyorlangan variant savollarning mohiyatini tushunishi va tasavvurga ega bo'lishi; - talabani variant savollari haqida mustaqil mushohada yuritish olishi va ularni yozma bayon etishi; - talabani berilgan savollarni ma'lum darajada bilishi va yozib bera olishi; - talabani variant savollariga yozma javob qaytarishi jarayonida iqtisodiy tahlildan foydalanilganligi hamda statistik ma'lumotlarning me'yorida qo'llanilganligi; - talabada fikrlarni bayon etishda yozma savodxonlik darajasining mavjudligi. 3. "Qoniqarli" - talaba tayyorlangan variant savollarning mohiyatini tushunishi va tasavvurga ega bo'lishi; - talabani berilgan savollarni qisman bilishi va yozib bera olishi; - talabani variant savollariga yozma javob qaytarishi jarayonida iqtisodiy tahlildan foydalanilganligi hamda statistik ma'lumotlarning yetishmasligi; - talabada fikrlarni bayon etishda yozma savodxonlik darajasining pastligi. 4. "Qoniqarsiz" - talaba tayyorlangan variant savollarning mohiyati to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lmasligi; - talabani berilgan savollarga yozma tarzda to'liq javob bera olmasligi; - talabani variant savollariga yozma javob qaytarishi jarayonida iqtisodiy tahlilning o'z o'rnida qo'lanilmaganligi hamda statistik ma'lumotlarning yo'qligi; - talabada fikrlarni bayon etishda yozma savodxonlik darajasining umuman yetishmasligi.	4,3-5,0 3,6-4,2 2,8-3,5 0-2,7
3.	Test (30 ta savol)	15,0 (0,5x30=15)	1. "A'lo" - talaba tayyorlangan test savollarining mohiyati to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lishi; - talabani berilgan test savollariga javob qaytarishda mustaqil mushohada yuritish qobiliyatining yuqori darajada ekanligi; - talabani berilgan test savollari javoblarini 25-30 tasiga to'liq javob bera olishi. 2. "Yaxshi" - talaba tayyorlangan test savollarining mohiyati to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lishi; - talabani berilgan test savollariga javob qaytarishda mustaqil mushohada yuritish qobiliyatining me'yorida ekanligi;	12,9-15,0 10,6-12,8

**“O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI”
FANI BO‘YICHA KURS ISHLARI**

O‘QUV REJADA KO‘ZDA TUTILMAGAN.

**“O’ZBEKISTON IQTISODIYOTI”
FANNING NAZORAT TURLARI UCHUN TAYYORLANGAN
TOPSHIRIQLAR VARIANTI**

**“O’ZBEKISTON IQTISODIYOTI” FANI BO’YICHA
1 - JORIY NAZORAT**

1. “Ўзбекистон иқтисодиёти”нинг предмети
2. Курсни ўрганиш усуллари ва бошқа иқтисодий фанлар билан алоқалари
3. “Ўзбек модели”га ўтиш зарурати ва шарт-шароитлари
4. “Ўзбек модели”нинг моҳияти ва шакл-шамойиллари
5. “Ўзбек модели” ва иқтисодий ўсиш
6. Миллий ҳисоблар тизими
7. Макроиқтисодий кўрсаткичлар
8. Макроиқтисодий пропорциялар
9. Макроиқтисодий барқарорлик ва иқтисодий ўсиш
10. Мамлакатнинг иқтисодий салоҳияти тушунчаси
11. Аҳолининг табиий ўсиши
12. Аҳоли таркиби
13. Меҳнат ресурслари ва улардан фойдаланиш
14. Меҳнат бозори ва бандлик
15. Минерал-хом ашё ресурсларининг табиати
16. Минерал-хом ашё ресурслари
17. Минерал-хом ашё ресурсларидан фойдаланиш
18. Ер ресурслари
19. Сув ресурслари
20. Ер ресурсларидан фойдаланиш
21. Ишлаб чиқариш салоҳияти тушунчаси
22. Давлатнинг илмий, илмий-техника ва инновация сиёсати
23. Илмий, илмий-техника салоҳияти
24. Инновация салоҳияти
25. Инновация фаолиятини бошқариш
26. Минтақа – миллий иқтисодиётнинг муҳим таркибий қисми
27. Иқтисодий районларнинг Ўзбекистон иқтисодиётида тутган ўрни ва роли
28. Ўзбекистон минтақаларининг ривожланиш тенденциялари
29. Ўзбекистон ижтимоий-иқтисодий ривожланишида минтақавий тафовутлар ва уларни юмшатиш омиллари
30. Саноат мажмуасининг тавсифи ва тузилиши
31. Миллий иқтисодиётда саноатнинг ўрни
32. Миллий саноатнинг ривожланиш босқичлари
33. Давлат саноат сиёсати ва тармоқдаги таркибий ўзгаришлар
34. Асосий саноат тармоқларининг ривожланиши
35. Агросаноат мажмуасининг таркибий тузилиши
36. Миллий иқтисодиётда қишлоқ хўжалигининг ўрни
37. Қишлоқ хўжалиги ривожланишининг тавсифи
38. Давлат аграр сиёсатининг асосий йўналишлари

- 39.Транспорт мажмуасининг умумий тавсифи
- 40.Транспорт соҳаси ривожланишининг асосий кўрсаткичлари
- 41.Транспорт йўналишлари ва йўл-транспорт инфратузилмасини тараққий эттириш
- 42.Алоқа ва телекоммуникация мажмуасининг умумий тавсифи
- 43.Алоқа ва телекоммуникация соҳаси ривожланишининг асосий кўрсаткичлари
- 44.Алоқа ва телекоммуникация соҳасини ривожлантириш йўналишлари
- 45.Қурилиш мажмуасининг умумий тавсифи
- 46.Қурилиш мажмуасининг ривожланиш кўрсаткичлари
- 47.Қишлоқда уй-жой қуриш ва ижтимоий инфратузилмани ривожлантириш
- 48.Истеъмол бозорининг тавсифи
- 49.Истеъмол бозори ривожланишининг умумий кўрсаткичлари
- 50.Истеъмол бозори ривожланиши ижтимоий-иқтисодий жараён
- 51.Ўзбекистонда истеъмол бозори ривожланиш кўрсаткичлари
- 52.Истеъмол бозорини тартибга солиш ва ривожлантириш

“O’ZBEKISTON IQTISODIYOTI” FANI BO’YICHA 2-JORIY NAZORAT

- 1 Хизматлар тушунчаси ва хизматлар соҳасининг тавсифи
- 2 Ўзбекистонда хизматлар соҳасининг ривожланиш кўрсаткичлари
- 3 Хизмат кўрсатиш соҳасини ривожлантириш сиёсати
- 4 Инвестицияларнинг моҳияти ва таснифланиши
- 5 Ўзбекистонда инвестиция фаолиятининг меъёрий-ҳуқуқий асослари
- 6 Ўзбекистон иқтисодиётига жалб этилган инвестициялар динамикаси ва таркиби
- 7 Ўзбекистон иқтисодиётига хорижий инвестициялар жалб этиш
- 8 Мулк муносабатларининг моҳияти ва иқтисодий мазмуни
- 9 Мулк шакллари
- 10 Ўзбекистонда мулкни давлат тасарруфидан чиқариш ва хусусийлаштириш
- 11 Рақобатнинг моҳияти ва турлари
- 12 Рақобат муҳити ва унга таъсир этувчи омиллар
- 13 Ўзбекистонда рақобат муҳитини шакллантириш ва монополияга қарши фаолият юритишнинг меъёрий-ҳуқуқий асослари
- 14 Ўзбекистонда рақобат муҳитининг шаклланиш хусусиятлари
- 15 Давлат ва хусусий сектор ҳамкорлигининг моҳияти ва объектив зарурлиги
- 16 Давлат ва хусусий сектор ҳамкорлигининг асосий йўналишлари
- 17 Ўзбекистонда давлат ва хусусий сектор ҳамкорлигининг меъёрий-ҳуқуқий асослари
- 18 Давлат ва хусусий сектор ҳамкорлиги – фан, таълим, ишлаб чиқариш ва молия соҳалари интеграциясининг муҳим омили
- 19 Корпорацияларнинг моҳияти ва миллий иқтисодиёт ривожланишида тутган ўрни
- 20 Бозор иқтисодиётининг корпоратив модели, корпоратив бошқарув ва корпорацияларнинг кўринишлари

- 21 Ўзбекистонда корпорациялар ривожланишининг ўзига хос хусусиятлари
- 22 Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг моҳияти
- 23 Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг иқтисодийётдаги ўрни ва роли
- 24 Ўзбекистонда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг меъёрий-ҳуқуқий асослари
- 25 Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик ривожланишининг тенденциялари
- 26 Миллий иқтисодийётни бошқариш ва тартибга солишнинг зарурати
- 27 Молия тизими ва молия сиёсати
- 28 Давлат бюджети молия тизимининг асосий бўғини сифатида
- 29 Солиқларнинг иқтисодийётни тартибга солишда тутган ўрни
- 30 Миллий банк-кредит тизимининг ташкилий жиҳатлари
- 31 Марказий банкининг пул-кредит сиёсати
- 32 Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг пул-кредит сиёсати
- 33 Ижтимоий соҳанинг тузилиши
- 34 Турмуш даражаси ва сифати тушунчаси. Турмуш даражаси кўрсаткичлари
- 35 Аҳолининг истеъмол даражаси кўрсаткичлари
- 36 Ижтимоий сиёсатнинг асосий йўналишлари
- 37 Ўзбекистоннинг очиқ иқтисодийётга ўтиши
- 38 Ўзбекистоннинг ташқи иқтисодий фаолияти
- 39 Ўзбекистоннинг халқаро интеграцион жараёнларда иштироки
- 40 Ўзбекистон ва Марказий Осиё
- 41 Ўзбекистон ва МДҲ

“O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” FANI BO‘YICHA

1-ORALIQ NAZORAT

Bilet 1

1. O‘zbekiston iqtisodiyotining shakllanishi va rivojlanishiga Sobiq Ittifoq ta’sir o‘tkazdi?
2. Dehqon xo‘jaliklari, fermer xo‘jaliklari, qishloq xo‘jaligi korxonalari faoliyati haqida ma’lumot bering.
3. Jahon iqtisodiy inqirozi mamlakatimiz iqtisodiyotiga qay darajada ta’sir o‘tkazdi?

Bilet 2

1. O‘zbekiston Sobiq Ittifoq tarkibida bo‘lgan davrda iqtisodiyoti qanday holatda edi?
2. Mahsulotlar miqdorini ko‘paytirish va assortimentini yaxshilash uchun nimalar qilish kerak?
3. Jahon iqtisodiy inqirozi mamlakatimiz iqtisodiyotining qaysi sohalariga ta’sir o‘tkazdi?

Bilet 3

1. O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlanishiga ijobiy ta’sir etuvchi o‘ziga xos xususiyatlari qaysilar?
2. Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning tannarxi past bo‘lishini ta’minlash uchun nimalar qilish kerak?

3. 2008 yilda mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi qay darajada rivojlandi?

Bilet 4

1. 90-yillarning boshlarida O'zbekistonning oldida bir qator strategik rivojlanish yo'llari paydo bo'lgan edi ular qaysilar?
2. Mahsulot eksportini ko'paytirish, xorijiy davlatlarning ilg'or tarjibasini o'rganish uchun nimalar qilish kerak?
3. Prezident I.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan inqirozga qarshi choralar dasturining konkret bo'limlari qaysilar?

Bilet 5

1. Iqtisodiy taraqqiyot modeli tushunchasi nima va u qachon paydo bo'ldi?
2. Majmua tarmoqlarining bir – biri bilan mutunosib holda rivojlanishni ta'minlash uchun nimalar qilish kerak?
3. Fermer xo'jaliklari qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni tashkil etish bo'yicha 2008 yilda qanday ishlar amalga oshirildi?

Bilet 6

1. Postsovet iqtisodiy taraqqiyot modeli qaysi mamlakatlarga xos va u qanday ko'rinishga ega?
2. Mamlakat agrosanoat majmuasi tarmoqlarida, ayniqsa, qishloq xo'jaligida, mehnat unumdorligini oshirish uchun nimalar qilish kerak?
3. 2008 yilda ishga tushirilgan va hozirgi kunda qurilayotgan yirik ishlab chiqarish inshootlari qaysilar?

Bilet 7

1. Aholining turmush darajasini belgilab beruvchi ko'rsatkichlar?
2. O'zbekiston Respublikasi agrosanoat majmuasi tarmoqlari oldida turgan asosiy vazifalar.
3. Yil yakunlari hisoboti bo'yicha tashqi savdo tarkibida qanday o'zgarishlarga erishildi?

Bilet 8

1. Tabiiy resurs imkoniyatlari deganda nimani tushunasiz?
2. Bugungi kunda yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish dehqon xo'jaliklari, fermer xo'jaliklari, qishloq xo'jaligi korxonalari hissasiga qanday nisbatda to'g'ri kelmoqda.
3. Mamlakatimiz iqtisodiyotiga jalb etilgan xorijiy investitsiyalar hajmi.

Bilet 9

1. Tug'ilish va o'lim koefitsientlari dinamikasini ko'rsating.
2. Agrar islohotlar va ularning natijalari.
3. Ishlab chiqarish infratuzilmasini modernizatsiya qilish borasida qanday ishlar amalga oshirildi?

Bilet 10

1. Aholi tabiiy o'sishining ijobiy va salbiy oqibatlari?
2. Agrosanoat majmuasi tarkibi.
49. Истеъмол бозори ривожланишининг умумий кўрсаткичлари
50. Истеъмол бозори ривожланиши ижтимоий-иқтисодий жараён
51. Ўзбекистонда истеъмол бозори ривожланиш кўрсаткичлари
52. Истеъмол бозорини тартибга солиш ва ривожлантириш
53. Хизматлар тушунчаси ва хизматлар соҳасининг тавсифи
54. Ўзбекистонда хизматлар соҳасининг ривожланиш кўрсаткичлари
55. Хизмат кўрсатиш соҳасини ривожлантириш сиёсати
56. Инвестицияларнинг моҳияти ва таснифланиши
57. Ўзбекистонда инвестиция фаолиятининг меъёрий-ҳуқуқий асослари
58. Ўзбекистон иқтисодиётига жалб этилган инвестициялар динамикаси ва таркиби
59. Ўзбекистон иқтисодиётига хорижий инвестициялар жалб этиш
60. Мулк муносабатларининг моҳияти ва иқтисодий мазмуни
61. Мулк шакллари
62. Ўзбекистонда мулкни давлат тасарруфидан чиқариш ва хусусийлаштириш
63. Рақобатнинг моҳияти ва турлари
64. Рақобат муҳити ва унга таъсир этувчи омиллар
65. Ўзбекистонда рақобат муҳитини шакллантириш ва монополияга қарши фаолият юритишнинг меъёрий-ҳуқуқий асослари
66. Ўзбекистонда рақобат муҳитининг шаклланиш хусусиятлари
67. Давлат ва хусусий сектор ҳамкорлигининг моҳияти ва объектив зарурлиги
68. Давлат ва хусусий сектор ҳамкорлигининг асосий йўналишлари
69. Ўзбекистонда давлат ва хусусий сектор ҳамкорлигининг меъёрий-ҳуқуқий асослари
70. Давлат ва хусусий сектор ҳамкорлиги – фан, таълим, ишлаб чиқариш ва молия соҳалари интеграциясининг муҳим омили
71. Корпорацияларнинг моҳияти ва миллий иқтисодиёт ривожланишида тутган ўрни
72. Бозор иқтисодиётининг корпоратив модели, корпоратив бошқарув ва корпорацияларнинг кўринишлари
73. Ўзбекистонда корпорациялар ривожланишининг ўзига хос хусусиятлари
74. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг моҳияти
75. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг иқтисодиётдаги ўрни ва роли
76. Ўзбекистонда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг меъёрий-ҳуқуқий асослари

77. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик ривожланишининг тенденциялари
78. Миллий иқтисодиётни бошқариш ва тартибга солишнинг зарурати
79. Молия тизими ва молия сиёсати
80. Давлат бюджети молия тизимининг асосий бўғини сифатида
81. Солиқларнинг иқтисодиётни тартибга солишда тутган ўрни
82. Миллий банк-кредит тизимининг ташкилий жиҳатлари
83. Марказий банкининг пул-кредит сиёсати
84. Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг пул-кредит сиёсати
85. Ижтимоий соҳанинг тузилиши
86. Турмуш даражаси ва сифати тушунчаси. Турмуш даражаси кўрсаткичлари
87. Аҳолининг истеъмол даражаси кўрсаткичлари
88. Ижтимоий сиёсатнинг асосий йўналишлари
89. Ўзбекистоннинг очиқ иқтисодиётга ўтиши
90. Ўзбекистоннинг ташқи иқтисодий фаолияти
91. Ўзбекистоннинг халқаро интеграцион жараёнларда иштироки
92. Ўзбекистон ва Марказий Осиё
93. Ўзбекистон ва МДҲ


**“O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” FANIDAN
TARQATMA VA TAQDIMOT MATERIALLARI
(Diskda ilova qilinadi)**

“O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” FANI BO‘YICHA MUSTAQIL ISH MAVZULARI

1. Bozorga o‘tishning zarurligi.
2. ”O‘zbek modeli”ning xususiyati.
3. O‘zbekistonning demografik xususiyatlari.
4. Mehnat resurlarining holati va dinamikasi.
5. Agrar munosabatlar va islohotlar.
6. Suv resurslarining holati, manbalari.
7. Yer va suv resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatlari.
8. Mineral xom ashe resurslarining joylashishi
9. Mineral-xom ashyo resurslaridan samarali foydalanish muammolari.
10. Yoqilg‘i resurslari zahirasi va turlari.
11. Energetika manbalari, ularning joylashishi.
12. Sanoat ishlab chiqarishining tarmoq va hududiy tarkibi.
13. Milliy sanoat rivojlanishining bosqichlari.
14. Agrosanoat majmuasi va uning tarkibiy qismlari.
15. Agrar munosabatlarni takomillashtirish bosqichlari.
16. Investisiyalarning iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyati.
17. Investisiya siyosatining asosiy yo‘nalishlari.
18. Xorijiy investisiyalarning iqtisodiy o‘rni ta’minlashdagi o‘rni va roli.
19. Ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma.
20. Ilmiy-texnika taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlari.
21. Fan va ta’lim tizimi islohoti yo‘nalishlari.
22. Makroiqtisodiy o‘zgarishlar va makroiqtisodiy barqarorlik
23. Iste’mol bozori, uning mohiyati va tarkibi.
24. Aholi turmush darajasini yaxshilash imkoniyatlari.
25. Moliya munosabatlari, moliya tizimi va moliya siyosati.
26. Davlat byudjeti, uning tarkibiy qismlari.
27. Soliq tizimi.
28. Banklar va bank tizimi.
29. Tashqi iqtisodiy faoliyatning tashkiliy-huquqiy asoslari.
30. TIFni boshqarish usullari.
31. Tashqi savdo, uning tarkibi va dinamikasi.
32. O‘zbekiston xo‘jaligining jahon xo‘jaligidagi o‘rni va roli.
33. O‘zbekistonning mintaqaviy integrasion aloqalari.


**“O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI”
FANINI O‘ZLASHTIRISH BO‘YICHA MASLAHAT VA TAVSIYALAR**

“O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI”
fanini o‘zlashtirishda quyidagi maslahat va tavsiyalarga amal qilinsa maqsadga muvofiq bo‘ladi:



Milliy modellarining tasniflanishi				

Venna diagrammasi



“B.B.B.” usuli asosida bilimlarni aniqlash bo’yicha tushuncha va atamalar

		Bilaman Q”, Bilmayman “-”.	Bildim “Q”, Bila olmadim “-”.
1	Makroiqtisodiyot		
2	Mikroiqtisodiyot		
3	Resurslar		
4	Ehtiyoj		
5	Alternativ xarajatlar		
6	Bozor		
7	Uy xo‘jaliklari		
8	Firma		
9	Davlat		
10	Bozor iqtisodiyoti tizimi		
11	Aralash iqtisodiyot		

“Insert usuli”

Insert - samarali o‘qish va fikrlash uchun belgilashning interfaol tizimi hisoblanib, mustaqil o‘qib-o‘rganishda yordam beradi. Bunda ma’ruza mavzulari, kitob va boshqa materiallar oldindan talabaga vazifa qilib beriladi. Uni o‘qib chiqib, «V; Q; -; ?» belgilari orqali o‘z fikrini ifodalaydi.

Insert jadvali

Tushunchalar	V (men bilgan narsani tasdiqlaydi)	Q (yangi ma’lumot).	- (men bilgan narsaga zid)	? (meni o‘ylantirdi. Bu borada menga qo‘shimcha ma’lumot zarur).
Yalpi ichki mahsulot				
Yalpi milliy mahsulot				
Sof ichki mahsulot				
Milliy daromad				
Shaxsiy daromad				
Tasarrufdagi daromad				

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

ASOSIY DARSЛИKLAR VA O'QUV QO'LLANMALAR

1. To'xliiev N., Xaqberdiev Q., Ermamatov Sh., Xolmatov N. O'zbekiston iqtisodiyoti asoslari. O'quv qo'llanma. T. O'zME. 2006, 280 b.
2. Ата-Мирзаев О., Тухлиев Н.. Узбекистан: природа, населения, экономика. «УзМЭ», 2009
3. Касымов Г.М., Махмудов Б.Ж. Основы национальной экономики. Учебник. Т.: Мехнат, 2004, 384 с.
4. Ishmuhamedov A., Asqarova M. O'zbekiston milliy iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma T.: TDIU,. 2004, 342 b.
5. To'xliiev N., Xaqberdiev Q., Ermamatov Sh., Xolmatov N. Iqtisodiy bilim asoslari. Qo'llanma. T. O'zME. 2004, 96 b.
6. O'lmasov A. Iqtisodiy bilim asoslari. T. Mehnat, 2001.
7. Xolmatov N., Imomova N. «Mikroiqtisodiyot» fanidan ma'ruzalar kursi. – T.: ToshDSHI, 2012, 132 bet.
8. Xolmatov N., Imomova N. «Makroiqtisodiyot» fanidan o'quv qo'llnma. – T.: ToshDSHI, 2013, 158 bet.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Islom Karimov “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralari”, T.:“O'zbekiston”. 2019.
2. Karimov I.A. O'zbekiston Respublikasining 2013 yildagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining yakunlari va 2014 yildagi islohotlarning ustuvor yo'nalishlari. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning Vazirlar Mahkamasining yil yakunlariga bag'ishlangan majlisdagi ma'ruzasi. // Xalq so'zi 16 yanvar. 2014 yil.
3. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T.: O'zbekiston, 1999, -48
4. Республика Узбекистан: за годы независимости (1991-1996 гг.) Т. 1997г.
5. Йиллик статистик тўплам. 2008. Т. ЎзР ДСҚ., 2009. 386 б.
6. Ўзбекистон иқтисодиёти. 2013. Статистик тўплам. Т. ЎзР ДСҚ., 2014.
7. Йиллик статистик тўплам. 2012. Т. ЎзР ДСҚ., 2013. 392 б.
8. Ўзбекистон иқтисодиёти. 2014. Статистик тўплам. Т. ЎзР ДСҚ., 2015.

Internet veb-saytlari

1. www.mf.uz O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi
2. www.custom.uz O'zbekiston Respublikasi Bojxona qumitasi
3. www.cbu.uz O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki
4. www.nbu.uz O'zbekiston Respublikasi Milliy banki
5. www.izoone.uz O'zbekiston Respublikasi Hukumatining barcha idoralari va rasmiy tashkilotlari elektron manzillari va Veb sahifalari jamlangan Internet resurs.
6. www.cer.uz Iqtisodiy tadqiqotlar markazi
7. www.imf.org Xalqaro Valyuta Jamg'armasi
8. www.ilo.org Xalqaro mehnat tashkiloti
9. www.wto.org Xalqaro savdo tashkiloti

XORIJİY ADABIYOTLAR

1. Курс микроэкономики: учебник / Р.М. Нуреев.- 2-е изд., изм. – М.:Норма : Инфра-М, 2010. -576 с.
2. Сборник задач по микроэкономике. К «Курсу микроэкономике» Р.М.Нуреева. – М.: Норма, 2008. – 432 с.
3. Экономическая теория: учебник / И.К. Станковская, И.А. Стрелец.- 5-е изд., перераб. и доп.–М.:Эксмо, 2010.- 480 стр.- (Полный курс МВА)
4. Мэнкью Н.Г. Принципы микроэкономики: учебник. 4-е изд. /Пер. с англ. – СПб.: Питер, 2009. – 592 с.
5. Курс экономической теории: учебник – 6-е исп. - Киров: «АСА», 2009.- 848с.
6. Макроэкономика: теория и Российская практика./Под ред.проф.А.Г.Грязновой и проф.Н.Н.Думной. Москва-2008
7. Кейнс Д.М. Общая теория занятости, процента и денег. М.:Економиа, 1978.
8. Мэнкью Н.Г. Принципы макроэкономики. 4-е изд. /Пер. с англ.- СПб.: Питер, 2009.-544с.
9. Вечканов Г.С., Вечканова Г.Р. Макроэкономика. Завтра экзамен. 8-е изд.- СПб.: Питер, 2008.-288с
10. Макконелл К., Брю С. Экономикс М.: Республика 1992.
11. Самуэлсон П. Экономика., Полный курс рыночной экономики в 2-х томах.М. 2003
12. Мировая экономика и МЕО. Под ред. Булатова А.С. М.: 2008 г.

GLOSSARIY/LUGAT

Resurslar - inson uchun kerakli bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarishda foydalaniladigan moddiy ne'matlar va xizmatlar yig'indisidir.

Ehtiyoj - shaxsni xayot faoliyatini ushlab turish uchun shart bo'lgan obyektiv ehtiyojlar. Ehtiyojlar birlamchi (oziq – ovqat mahsulotlari) va ikkilamchi (tafakkurni kuchaytirish) bo'lishi mumkin.

Bozor - alohida, mustaqil qaror qabul qiluvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar hamda sotuvchi va xaridorlar o'rtasidagi o'ziga xos shakldagi munosabatlar yig'indisidir.

Uy xo'jaliklari - moliyaviy masalalarni birgalikda xal qiluvchi, bir tom ostida yashaydigan shaxslardan iborat xo'jalik birligidir. Uy xo'jaliklari iste'molchilar sektoriga tegishlidir.

Firma - ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanadigan, asosiy ishlab chiqarish muammolarini shaxsan o'zi xal qiladigan iqtisodiy subyektdir. Firma ishlab chiqaruvchi sektoriga tegishlidir.

Mehnat – aqliy va jismoniy qobiliyat orqali iqtisodiy ne'matlarni yaratish bo'yicha insonning faoliyati.

Investitsion resurslar - ilgari inson mehnati orqali yaratilgan ne'matlar.

Real kapital – iste'molchilar uchun xizmatlar ko'rsatishda tovarlar ishlab chiqarish va tashishda foydalaniladigan binolar, stanoklar, mashinalar, asbob – uskunalar, vositalar, inshootlar va boshqalar.

Moliyaviy kapital – (ular, obligatsiyalar, bank depozitlari va pullari) ishlab chiqarish omillariga kirmaydi, chunki real ishlab chiqarish bilan bog'liq emas, faqatgina real kapitalga erishishda foydalaniladigan bir vosita bo'lib xizmat qiladi.

Yer – qishloq xo'jaligi, shahar sanoat, tovar va xizmatlar ishlab chiqarishda foydalaniladigan foydali resurslar, suv resurslari.

Tadbirkorlik iqtidori – ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish, asosiy masalalarni hal qilish, tavakkalchilikka yo'l qo'yish, yangi texnologiyalarni jalb qilish qobiliyatlari majmui.

Axborot - “Jahon xo'jaligi va undagi jarayonlar haqida ma'lumotlar”. Aniq ma'lumot, axborotga ega bo'lish, iqtisodiy subyektlar oldida turgan global muammolarni hal qilishga turtki bo'ladi.

Bilim – boshqaruv, savdo-sotiq, iste'molchilarga xizmat ko'rsatish sohasidagi malakali kadrlar tomonidan eng to'g'ri qarorni qabul qilishda asosiy vosita sifatida qo'llaniladi.

Iqtisodiy model – iqtisodiyotni kichik bir ko'rinishda yaqqol namoyon etuvchi bir ko'rinishi, shakli hisoblanadi. Iqtisodiy model – iqtisodiyot haqida hech qanday ma'lumotlar yo'qligida yoki olish mumkin bo'lmagan xolatlarida, iqtisodiyotni bashorat qilish, unga real baho berish imkoniyatini beradi.

Davlat - keng ma'noda xo'jalik subyekti va bozorni nazorat qilish xuquqiga ega yuridik va siyosiy xokimiyat organlari yig'indisidir. Davlat o'z faoliyatida jamiyatdagi farovonlik, samaradorlikni oshirishga xarakat qiladi.

An'anaviy iqtisodiy tizim – tabiiy, ya'ni qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga asoslanadi.

Bozor iqtisodiyoti tizimi - xususiy tadbirkorlik, tanlash erkinligi, raqobat muhitiga asoslanadi. Bozor iqtisodiyotida alohida subyektlarning shaxsiy qiziqishlari inobatga olinadi. “Sof bozor iqtisodiyoti” – davlatning iqtisodiyotga aralashuvini, boshqaruvini to'liq inkor etadi. Davlat faqat “o'yin qoidalariga” rioya qilinishini

nazorat qilib turadi. Bozordagi subyektlar faqatgina shaxsiy manfaatlari, foydalarini koʻzda tutib, faoliyat olib boradilar.

Ma'muriy buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiy tizim – bozor iqtisodiyotiga teskari tizim boʻlib, davlat mulkchiligiga asoslanadi, ya'ni barcha vositalar davlatga tegishli boʻladi.

Infratuzilma – bozorga xizmat koʻrsatuvchi, uning me'yorda faoliyat borishi, tovar va xizmatlarni xarakatlanishiga yordam beruvchi institutlar majmuasini tashkil qiladi.

Bozor tarkibi – alohida bozor elementlarining tartib bilan joylashuvi.

Bozor muvafaqqiyatsizliklari – bozor mexanizmining iqtisodiy resuslarni samarali taqsimlab bera olmaydigan iqtisodiy vaziyatdir.

Bozordagi talab – bozordagi tovar yoki xizmatga boʻlgan insonlarning ehtiyojini bilvosita koʻrinishidir. Ehtiyoj biror bir narsaga erishish istagini koʻzda tutadi.

Talab (D)– bu nafaqat istak, balki bozordagi narx bo'yicha uni olish imkoniyatini bildiradi. Talab – tovar yoki xizmatga boʻlgan to'lov qobiliyatli ehtiyojdir.

Ekspert tahlili – mutaxassislar, ekspertlar tomonidan manfaatdor kompaniyalar buyurtmasiga asosan tovarga boʻlgan talabni, uning dinamikasini aniqlash uchun amalga oshiriladigan tahlil. Bu usul qimmat usul hisoblanadi, lekin xatolar qilish saqlanib qolinadi.

Bozor eksperimenti (tadqiqoti) – yangi parametrlar, yangi narxlar oʻrnatilganda, iste'molchilarni solishtirma taxlil qilinganda tovarni to'g'ridan-to'g'ri test qilishni koʻzda tutadi.

Statistik usul - real statistik ma'lumotlarni oʻrganish asosida ma'lum davr uchun aniq bir tovarga boʻlgan talab va narxni oʻzaro bogʻliqligi, talabga ta'sir etuvchi boshqa omillar tadqiq qilinadi.

Bozor muvozanati – iqtisodiy subyektlarni qoniqtiradigan va unga xech qanday oʻzgartirish kiritishni talab etmaydigan bozor xolati.

Elastiklik koeffisienti E – bir omilning boshqa bir omil bir foizga oʻzgarishi natijasida son jihatidan oʻzgarishi darajasini bildiradi.

To'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik – (ijobiy koeffisient) bunda bir omilni oʻsib borishi boshqa bir omilni oshib borishiga turtki boʻladi.

Qarama-qarshi bog'liqlik – (salbiy koeffisient) bunda bir omilning ortib borishi boshqa bir omilni yoʻq boʻlib ketishiga olib keladi. Masalan, daromad bo'yicha talab elastikligining ortib borishi natijasida birmuncha pastroq darajadagi tovarlarning yoʻq boʻlib ketishiga olib keladi.

Iste'molchi – bozor mexanizmining asosiy subyektlaridan biri boʻlib uning bozordagi iqtisodiy ahamiyati va roli juda muhim hisoblanadi.

Iste'molchilik xatti-harakati – bu iste'molchilarning turli tovar va xizmatlarga talabini shakllantirish jarayoni.

Naflilik (Utility) – tovar va xizmatlarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlar qondirilishini ta'minlash, ya'ni ularning qanoatlantirish manbai bo'lish xususiyati hisoblanadi.

Naflilik – jamiyat yoki biror bir shaxsni ehtiyojlarini qondira olish qobiliyatidir. Tovlar va xizmatlarning nafliligi ularning sifati bilan bogʻliq.

Byudjet chegarasi – ma'lum qiymatdagi tovar miqdorini xarid qilish uchun umumiy xarajatlarning daromadga teng bo'lishini ko'rsatadi. Byudjet chegarasi iste'molchi uchun qaysi tovarlar guruhi ko'proq nafliroq ekanligini ko'rsatadi.

Iste'molchilik xatti-harakati qoidasi – bir tovarga sarflangan pul qiymati hisob-kitobining yuqori foydaliligi, boshqa tovarga sarflangan pul qiymatining yuqori foydaliligiga teng bo'lsa optimumga intiladi.

Iste'molchilik muvozanati iste'molchining byudjet harajatlari tarkibi, unga xarid qilingan jami iste'mol ne'matlari to'plamidan katta umumiy foydalilikni ta'minlovchi holatdir.

Iste'molchining yalpi nafliligini maksimallashtiruvchi tovarlar yig'imi ***iste'molchining optimal nuqtasi*** hisoblanadi.

Ideal rasional iste'molchi – Homo economicus (tejamkor kishi) – shaxsiy afzalliklari tizimini mutlaqo aniq biladigan, barcha muqobillarni hisobga oladigan va o'zi uchun maksimal foyda olish tamoyiliga muvofiq holda qaror qabul qiladigan kishi.

Ishlab chiqarish - korxonalarining asosiy faoliyati turi bo'lib, bu jarayon cheklangan resurslardan foydalangan holda amalga oshiriladi. Ishlab chiqariladigan mahsulot miqdori, ushbu tovarlarni ishlab chiqarish uchun sarflanadigan resurslar hajmidan va ishlab chiqarishda foydalanilayotgan texnologiyaning holati va darajasiga bog'liqdir.

Iqtisodiy samaradorlik - firmaning ishlab chiqarish xarajatlari va daromadlari o'rtasidagi qiymat ko'rinishidagi bog'liqlikni ko'rsatadi.

Texnologik samaradorlik - foydalanilayotgan resurslar va natural ko'rinishda olinayotgan mahsulot o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi.

Ishlab chiqarish omillarini yiriklashgan uch guruhga bo'lib qarash mumkin: **mehnat, kapital va materiallar**.

Buyurtma asosida ishlab chiqarish – individual ravishda ishlab chiqarish bo'lib, o'z sohasida yagona bir mahsulotni yuzaga chiqaradi. Bunda nafaqat san'at asari balki, yirik samolyot, bino, elektrostansiyalar ham misol bo'la oladi. Bunday ishlab chiqarish malakali mutaxassislarni va zamonaviy texnika va texnologiyalarni talab etadi.

Ommaviy ishlab chiqarish – katta yoki kichik partiyada, ko'p turdagi, bir ko'rinishdagi standart tovarlar ishlab chiqarishni ko'zda tutadi.

Oqim shaklida ishlab chiqarish - ya'ni uzluksiz jarayon shaklida ishlab chiqarish – xom-ashyoni tinimsiz iste'mol qilish, materiallardan foydalanish va mahsulotlarning tinimsiz oqimi bilan izohlanadi.

Materiallar deganda, ishlab chiqarish jarayonida tayyor mahsulotga aylanadigan har qanday moddiy narsani qarashimiz mumkin: butlovchi qismlar, yarim fabrikatlar, temir, po'lat, shisha, yoqilg'i, yog'och, paxta va boshqa xom ashyolar tushuniladi.

Texnologiya - bu tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish to'g'risidagi amaliy bilimlardir.

Doimiy resurslar - ishlab chiqarish hajmiga bog'liq bo'lmagan va ko'rib o'tilayotgan davr mobaynida o'zgarmas holatda qoladigan resurslardir. Ularga ishlab chiqarish maydonlari (bino yoki inshoot o'lchami), yuqori malakali mutaxassislarning mehnati va o'ziga xos bilimi misol bo'la oladi.

O'zgaruvchan resurslar - ishlab chiqarish hajmiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq resurslardir.

Qisqa muddatli davr - firma o'z resurslarining bir qismini son jihatdan o'zgartirib qolgan qismini o'zgarmas holatda qoldirish davriga aytiladi.

Tadbirkorlik – ishlab chiqarish jarayonida uning omillari: yer, mehnat, kapitalni birlashtiruvchi, bilim va tashabbuskorlik va tavakkalchilik asosida daromadli ishlab chiqarishni tashkil etishni nazarda tutuvchi ishlab chiqarishning maxsus omili.

Tadbirkorlikka quyidagilar xos: Faoliyatning usul va yo'nalishlarini tanlashdagi iqtisodiy erkinlik; faoliyat yakuniga ko'ra o'z mulki bo'yicha to'liq moddiy javobgarlik; foyda – yuqori foyda olishni mo'ljallash.

Tadbirkorlikning ob'ektlari - korxona (firma), daromadli ish.

Tadbirkorlik subyektlari tadbirkor, ishlab chiqarish omillari mulkdorlari, menejerlar (boshqaruvchilar), aksionerlar, tovarlarni yetkazib beruvchilar (xaridorlar), davlat, kasaba uyushmalari.

Firma (korxona) - bu ishlab chiqarish resurslari egalarining qarorlarini va manfaatlarini muvofiqlashtiruvchi institusional tuzilma hisoblanadi.

Tadbirkorlik firmalarining asosiy tashkiliy shakllari: xususiy tadbirkorlik firmasi, mas'uliyati cheklangan va cheklanmagan jamiyatlar, korporatsiya (ochiq va yopiq turdagi aksionerlik jamiyatlari).

Xususiy tadbirkorlik firmasi - bu firmaning egasi ishni mustaqil, o'z manfaatidan kelib chiqib olib boradi, u tavakkalchilikni o'z zimmasiga oladi, firmaning barcha majburiyatlari bo'yicha to'liq javobgarlikni bo'yniga oladi (ya'ni, mas'uliyati cheklanmagan jamiyat hisoblanadi), qolgan daromadni o'zi o'zlashtiradi.

Mas'uliyati cheklanmagan jamiyat - firmani birgalikda tashkil qilib, birgalikda egalik qiluvchi va boshqaruvchi shaxslar guruhi bo'lib, ular firmaning barcha majburiyatlari bo'yicha to'liq javobgarlikni cheklanmagan ravishda o'zlarining zimmalariga oladilar.

Korporatsiya - paychilikka asoslangan jamiyat bo'lib, har bir mulk egasining mas'uliyati ushbu korxonaga qo'shgan hissasi bilan cheklangan. Korxona aksiyalarini sotib olgan shaxslar korxona mulki egalariga aylanadilar. Korporatsiya faoliyatini aksionerlar majlisi nazorat qiladi. Aksiyadorlar o'z aksiyalariga daromad (dividend) oladilar. Korporatsiya kreditorlari o'z talablarini aksiyadorlarga emas, korporatsiyaga qo'yadilar.

Foyda olmaydigan tashkilotlar - bozor sharoitida bunday turdagi tashkilotlarga foyda olish maqsadida harakat qilmaydigan kasaba uyushmalari, klublar, machitlar, kasalxona, kollejlari, xayriya jamiyatlari va boshqalar kiradi.

Kooperativlar - kooperativlar o'z a'zolarining resurslarini foyda olish maqsadida birlashtirish asosida vujudga keladi.

Ichki xarajatlar sifatida quyidagilar qaraladi: 1) tadbirkorning o'ziga tegishli resurslarga bo'lgan xarajati; 2) tadbirkorlik qobiliyatiga to'g'ri keladigan va tadbirkorga tegishli bo'lgan normal foyda.

Iqtisodiy xarajatlar – bu boshqa nematlarning (tovar va xizmatlarning) qiymati. Iqtisodiy xarajatlar firma faoliyatini buxgalter va iqtisodchi tomonidan baholanishni farq qilishga imkon beradi. Buxgalterni birinchi navbatda, firmaning ma'lum muddat davomidagi (hisobot davrida) faoliyati natijalari qiziqtiradi.

Raqobat – bu ne'matlar miqdori va iste'mol talabi cheklangan joyda yuzaga keladigan manfaatlar to'qnashuvi. Iste'molchilar ham, firmalar ham raqobatlashishi mumkin.

Sun'iy to'siqlar (institusional) - faoliyat turi bo'yicha cheklangan firmalar uchun patent va lisenziyalar berish.

Tabiiy to'siqlar - ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish uchun kerak bo'ladigan investision xarajatlar, bozordagi mahsulotlarning yuqori darajada diversifikatsiyalashganligi, iste'molchilarning mavjud firma savdo belgisiga bo'lgan ishonchi, mahsulotlarni taqsimlash kanallariga bo'lgan yo'llar.

Monopoliya – monopol yuqori narxlarni o'rnatish hamda monopol yuqori foyda olish maqsadida tarmoqlar, bozorlar va yaxlit makroiqtisodiyot ustidan hukmronlikni amalga oshiruvchi yirik korxonalar (firma, korporatsiyalar)ning birlashmalari.

Sof monopoliya – ma'lum mahsulot turini ishlab chiqarish va sotish bo'yicha yakka hukmron bo'lgan bozor tuzilmasidir.

Tabiiy monopoliya – korxonaning texnologik xususiyatlari sababli mahsulotga bo'lgan talabni qondirish, raqobat mavjud bo'lmagan sharoitda samaraliroq amalga oshiriluvchi tovar bozorining holati. Bunday samaradorlik ishlab chiqarish hajmining ko'payib borishi bilan tovar birligiga to'g'ri keluvchi xo'jalik xarajatlarining ahamiyatli darajada pasayib borishida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, tabiiy monopoliya subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar iste'molini boshqa turdagi mahsulotlar bilan almashtirib bo'lmaydi.

Legal (qonuniy) monopoliya – bu qonuniy tarzda tashkil etiluvchi monopolistik holat.

Patent tizimi – bu ixtirochi va mualliflar tomonidan yaratilgan ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari tasdiqlovchi hamda ularga mutlaq huquqni taqdim etish tizimi. Bu jarayon maxsus guvohnomalar – patentlar orqali amalga oshiriladi;

Mualliflik huquqi – ilmiy, badiiy va san'at asarlari, ijro san'ati fonogrammalari, ko'rsatuvlar, efir to'lqini yoki kabel orqali tasvir uzatish kabilarni yaratish va ulardan foydalanish munosabatlarini qonuniy tarzda tartibga solish shakli. Mualliflik huquqi faqat mualliflar tomonidan o'z mahsulotlarini ma'lum vaqtga yoki butunlay sotish, ulardan nusxa olish va ko'paytirishga ruxsat berish imkonini ta'minlaydi;

Tovar belgilari – bu savdo belgilari, nishonlari, maxsus ramzlari, nomi va boshqalarni ro'yxatga olish, huquqiy jihatdan himoya qilish va ulardan foydalanish bo'yicha paydo bo'lgan munosabatlarni qonuniy tarzda tartibga solish shakli.

Sun'iy monopoliya – monopol foyda olish maqsadida tashkil etiluvchi birlashmalarning shartli (tabiiy monopoliyalardan ajratib turish uchun) nomi.

Resurslarning oqilona taqsimlanmasligi - bu holat monopoliyalarning yuqori foyda ketidan quvib, sun'iy ravishda ishlab chiqarishni cheklash vositasida narxlarni ko'tarishi, mahsulotlarning u qadar yaxshi bo'lmagan turlarini, past texnikaviy darajasini, past sifati hamda sotishning yomon sharoitlarini vujudga keltirishi orqali namoyon bo'ladi. Natijada, raqobat sharoitida amal qiluvchi iqtisodiyot samaradorligini bozor vositasida tartibga solish mexanizmi ishdan chiqadi. Monopoliyalar bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy faoliyatlar erkin hamda oqilona tanlov imkoniyatidan mahrum bo'ladi, monopoliyalarning iqtisodiy jihatdan asoslanmagan shart-sharoit va narxlari tazyiqiga chiday olmaydi, ish faolligini pasaytirib, ba'zi hollarda xonavayron bo'ladilar.

Daromadlardagi tengsizlikning kuchayishi - bu holat ham narxlarning monopol tarzda oshirilishi (pasaytirilishi) hamda yuqori foyda olinishi bilan bog'liq bo'lib, bu aholi qolgan qismi daromadlarining nisbatan kamayishiga olib keladi.

Monopol raqobat – tarmoqdagi ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchilar soni ko'p hamda ular o'rtasida ma'lum darajada raqobat mavjud bo'lgan, biroq har bir ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchi o'z tovar yoki xizmatining alohida, maxsus xususiyatlari mavjudligi sababli ularning narxi va ishlab chiqarish hajmini belgilashdagi ma'lum darajada hukmronlik holati hisoblanadi.

Monopol raqobat bozorining asosiy xususiyati bu - tovarlarning differentsiatsiyasi. Sotuvchilar sonining ko'pligi narxni o'zaro kelishib olish imkonini bermaydi, bozordagi narxlarga ta'sir ko'rsata olmaydi. Monopol raqobat sharoitida bozorga kirish nisbatan erkin bo'ladi, chunki bozordagi korxonalar xajmi kichik, ularning birlamchi investisiyalari, kapitali ham past darajada.

Oligopoliya – tarmoqdagi bir necha yirik ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchining narx va ishlab chiqarish hajmini belgilashdagi hukmronlik holati hisoblanadi.

Oligopol bozor - biri bu biror bir firma faoliyatidagi o'zgarish, albatta boshqa xuddi shunday tovar ishlab chiqarayotgan firmaga ta'sir o'tkazishidir.

Masshtab samarasi - bu ishlab chiqarish masshtabining kengayishi surati bilan mahsulot ishlab chiqarishni o'sish surati o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalaydi. Ishlab chiqarishda foydalaniladigan omillar miqdoriga ishlab chiqarish masshtabi deyiladi.

Mehnat bozorida monopsoniya — bu mukammallashtirilgan raqobatdagi mehnat bozorining alohida bir chekli ko'rinishi bo'lib, bunda biror kichik shaxardagi yagona firma maxalliy aholining ko'p qismini ish bilan ta'minlaydi.

Mukammal raqobatlashgan bozor - agar bozor quyidagi xususiyatlarga ega bo'lsa: bozor sub'ektlar tovar narxiga tasir qila olmaydi; firmalarni bozorga kirish va chiqishi erkinligi; sotuvchilar birgalikda xarakat qilmaydi; bozor tugrisidagi barcha axborotlar bilan bozor sub'ektlari tanish.

Avtonom iste'mol (autonomic consume)– shaxsiy iste'mol xarajatlarning yalpi milliy daromad (shaxsiy tasarrufdagi daromad -shtd) o'zgarishiga bog'liq bo'lmagan qismi. Shtd nolga teng bo'lganda ham avtonom iste'mol to'plangan mulk va jamg'armalarning kamayishi, yoki qarz hisobiga amalga oshirilaveradi.

Avtonom investisiyalar (autonomic investment)– asosiy kapitalga qilingan investisiyalarning yalpi ichki mahsulot hajmi o'zgarishiga bog'liq bo'lmagan qismi.

Akselerator (acselerator) – sof investisiyalar darajasi bilan yalpi ichki mahsulot (milliy daromad)ning o'sish sur'atlari o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalovchi iqtisodiy ko'rsatkich.

Aktivlar (actifs, issus)– iqtisodiy faoliyat sub'ektlarining pul va moliyaviy mablag'lari, asosiy va aylanma fondlarining qiymati.

Amortizatsiya (deprication) – foydalanish jarayonida asosiy kapital qiymatining kamayishi.

Banknota (banknote)- mamlakat markaziy banki tomonidan chiqariladigan naqd qog'oz pullar bo'lib, iqtisodiyotdagi pul taklifining bir qismini tashkil etadi.

Bank zahiralar (bank reserves) – bankda saqlanayotgan naqd pullar, markaziy bankda tijorat banklari tomonidan saqlanayotgan foizsiz depozitlar.

Bank tizimi (bank system)- tijorat banklari majmui. Bank tizimi jismoniy va yuridik shaxslarining omonatlarini (depozitlarini) qabul qiladi, pul o'tkazmalarini amalga oshiradi, qarz va kreditlar beradi, davlat va aksiyadorlik jamiyatlarining qimmatli qog'ozlariga investisiya qiladi.

Baholar indeksi (price index)- tovarlar va xizmatlar, yoki aktivlar o'rtacha bahosining o'zgarishi ko'rsatkichi. Baholar indeksi bozor savati deb yuritiladigan ma'lum to'plamdagi tovarlar va xizmatlarning joriy yildagi baholari yig'indisini bazis yildagi baholari yig'indisiga bo'lib topiladi.

Boylik (wealth) - bozor qiymatiga ega va pulga yoki boshqa ne'matlarga almashinishi mumkin bo'lgan barcha narsa. Fizik aktivlar, moliyaviy aktivlar, ko'nikmalar, tadbirkorlik malakasi, savdo markalari xullas daromad keltiradigan barcha narsalar.

Byudjet taqchilligi (deficit of budjet) – moliyaviy yil natijalariga ko'ra davlat byudjetida xarajatlarning daromadlardan ustun bo'lishi.

Valyuta kursi – mamlakat pul birligining boshqa mamlakat pul birligida ifodalangan bahosi.

Giperinflyatsiya– haddan tashqari inflyatsiya, narxning shiddat bilan o'sishi, pul qadrining g'oyat tez pasayishi. Inflyatsiyaning oylik darajasi 50 % dan ortishi va bu holat 6 oydan ortiq davom etishi uning giperinflyatsiya darajasiga o'tganligini anglatadi.

Davlat qarzi (debts of government) – davlatning o'z fuqarolari, banklar, korxona va tashkilotlar, shuningdek xorij mamlakatlaridan qarzi.

Daromad (income) – ishlab chiqarish natijasida tushgan pul.

Debitor – korxona, tashkilot yoki muassasadan qarzi bo‘lgan yuridik yoki jismoniy shaxs.

Debitorlik qarzi – o‘zaro xo‘jalik aloqalarini olib boruvchi korxona, tashkilotlarning bir-biridan qarzi summasi.

Devalvatsiya – qayd qilingan valyut kursi tizimi amal qilayotgan sharoitda hukumat tomonidan milliy valyutaning boshqa valyutalarga nisbatan kursini tushirishga qaratilgan tadbiri. Devalvatsiya to‘lov balansi taqchilligini bartaraf qilish, eksportni arzonlashtirish, importni qimmatlashtirish imkonini beradi.

Demping - tovarlarni tannarxiga qaraganda yoki ichki bozordagiga qaraganda past bahoda eksport qilish.

Deflyatsiya – iqtisodiyotda baholar umumiy darajasining pasayishi.

Depozitlar – 1) moliya-kredit muassasalariga qo‘yilgan omonatlar; 2) bank daftariidagi yozuvlar; 3) kredit muassasalariga saqlash uchun topshirilgan qimmatli qog‘ozlar.

Diversifikatsiya – korxonaning faoliyat soxalari va ishlab chiqaradigan maxsulot turlarining kengayishi.

Diskriminatsiya baholari (price discrimination) – ma’qul kelmagan xaridorlar uchun, ayniqsa davlatlar orasidagi munosabatlar, xaqiqiy siyosiy muhit buzilgan davrda o‘rnatiladi. Bu narxlar o‘ta yuqori, tovarni sotib oluvchiga bir necha marotaba qimmat qilib belgilanadi.

Dotatsiya – davlat byudjetidan qaytarib bermaslik sharti bilan mablag‘ ajratish: iqtisodiyotga byudjet orqali ta’sir etish vositalaridan biri.

Yopiq iqtisodiyot (closed economy) – tashqi iqtisodiy bozorda keng savdo-iqtisodiy imkoniyatlarga ega bo‘lmaydigan iqtisodiyot.

Jamg‘arishga chegaralangan moyillik (marginal propensity to saving) – jamg‘arish hajmi o‘zgarishning bu o‘zgarishni keltirib chiqargan daromadlarning (shtdning) o‘zgarish miqdoridagi ulushi.

Jahon valyuta tizimi – jaxon bozorining rivojlanishi asosida shakllangan va davlataro bitimlar bilan mustaxkamlangan xalqaro pul-kredit munosabatlari.

Jahon puli – xalqaro mikiyosida xama uchun umumiy xarid vositasi, umumiy to‘lov vositasi, boylikning umumiy moddiy timsoli, baynanminal qiymat ifodasi bo‘lgan pul.

Import (import) – mamlakat ichki bozorlarida sotish uchun chet el mollarini, kapitalini va texnologiyasini olib kelish. Import xalqaro mehnat taqsimoti natijasidir.

Importga chegaralangan moyilik (marginal propensity to import) – importga qilingan xarajatlardagi o‘zgarishning YaIM yoki YaMD o‘zgarishiga nisbatan ulushi. Importga qaratilgan xarajatlar hissi.

Investisiya (investment) – ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadida mamlakat yoki chet ellarda iqtisodiyotning turli tarmoqlariga uzoq muddatli kapital kiritish. Uning moliyaviy va real turlari mavjud.

Investor – bu qaror qabul qiluvchi va o‘zining shaxsiy, qarzga olingan mablag‘larini va boshqa jalb qilingan mulkiy va madaniy boyliklarini investision loyihaga kirituvchi jismoniy va yuridik shaxsdir. U omonatchi va qarz beruvchi rolida chiqishi mumkin bo‘lib amalga oshiruvchi investisiyalarning yo‘nalishini, samarasini erkin holda aniqlaydi. Investor qarori bilan investisiyalarga egalik qilish, ishlatish, foydalanish xuquqi va ularning natijalari bilan jismoniy va yuridik shaxslarga qonunda ko‘rilgan tartibda berishi mumkin.

Indeksatsiya – iqtisodiyotdagi narxlarning o‘rtacha darajasi o‘zgarishiga bog‘liq ravishda ish haqi va boshqa daromadlarni tuzatish, kelishtirish.

Inflyatsiya (inflation) – baholar umumiy darajasining ko‘tarilishi, milliy pul birligi xarid qobiliyatining pasayishi.

Inflyatsiya darajasi (rate of inflation) – ma’lum vaqt ichida (oy, yil) narx darajasining foizdagi o‘zgarishi.

Iste’mol (consumption) – kishilarning iqtisodiy talablarini qondirish jarayonida ijtimoiy mahsulotdan foydalanish, ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonining oxirgi bosqichi.

Iste’mol xarajatlari (consumption costs) – tovarlar va xizmatlarni yakuniy iste’mol qilish maqsadida xarid qilish uchun qilingan xarajatlar. Uy xo‘jaliklari va davlatning iste’mol xarajatlariga bo‘linadi. Yaimning xarajatlariga ko‘ra tarkibida eng katta va barqaror komponent.

Iste’mol narxlar indeksi (consumer price index) – o‘rtacha oila tomonidan, odatda, iste’mol qilinadigan tovar va xizmatlar narxining bazis davriga nisbatan o‘zgarishi o‘rtacha darajasini aks ettiradigan ko‘rsatkich, inflyatsiya ko‘rsatkichi sifatida ishlatiladi.

Ishsizlik (unemployment) – mamlakatda ish bilan band bo‘lmagan ishchi kuchi guruhining mavjud bo‘lishi, aholi iqtisodiy faol qismining o‘ziga ish topa olmasdan qolishi, ishchi kuchidan to‘liq foydalanmaslik.

Ishsizlikning darajasi (unemployment rate) – ishsizlar umumiy sonining ishchi kuchiga bo‘lgan nisbati.

Ishsizlikning tabiiy darajasi (natural rate of unemployment) – real va potensial yalpi ichki mahsulotning o‘sishi bir-biriga mos keladigan iqtisodiy rivojlanish davri oraliqlariga xos bo‘lgan ishsizlik darajasi. U shuningdek, iqtisodiy rivojlanishning haqiqiy va tarkibiy ishsizlik ko‘rsatkichlari yig‘indisi sifatida hisoblanishi mumkin.

Ishchi kuchi – ishga layoqatli, ishlayotgan va faol ish izlayotgan aholi.

Iqtisodiy kon’yunktura – iqtisodiy o‘sinh, tuzilmaviy siljishlar, moliyaviy ahvol, eksport imkoniyatlari kabilarni xarakterlab beruvchi iqtisodiy holat.

Iqtisodiy o‘sinh (economic growth) – real yalpi ichki mahsulotning umumiy hajmining yoki aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan real yalpi ichki mahsulotning o‘sishi.

Iqtisodiy o‘sinh sifati (quality of economic growth) – iqtisodiy o‘sinhning umumlashgan sifat xarakteristikasi bo‘lib, uning qanday sarflar bilan ta’minlangani va qanday ijtimoiy-iqtisodiy natija berganligini ifodalaydi.

Kvota – davlat va xalqaro tashkilotlar tomonidan tovarlarni ishlab chiqarish, ularni eksport va import qilish yuzasidan cheklashlarning joriy etilishi, kvota o‘rnatish xalqaro bitimlarga binoan amalga oshiriladi.

Kon’yunktura – bozorning aloxida segmentida talab, taklif, narx va raqobat xolatini xarakterlovchi omillar tizimi.

Kutilayotgan inflyatsiya darajasi – mavjud ijtimoiy - iqtisodiy axborotlar, ma’lumotlar asosida alohida shaxs va korxonalar tomonidan kutiladigan bo‘lg‘usi davrdagi inflyatsiya darajasi.

Likvidlilik – a) turli firmalar va banklarning o‘z qarzini to‘lay olish yoki boshqa majburiyatlarini bajara olish imkoniyati; b) bir aktivning ikkinchisiga qanchalik tez almashina olinishi o‘lchovi. Naqd pul eng yuqori 100% likvidlilikka ega.

Likvidlilik tuzog‘i – foiz stavkasi juda past bo‘lgan shunday vaziyatki, odamlar pulni naqd ko‘rinishda saqlab turishni afzal ko‘radilar. Tadbirkorlar esa foiz stavkasi bundan ko‘ra pasayishi mumkin emasligi sababli investisiyalarni ko‘paytirmaydilar. Minimal foiz stavkasi sharoitida pulga talab egrir chizig‘i cheksiz elastik bo‘lib qoladi.

Markaziy bank (central bank) – mamlakatning bosh banki. Asosiy funksiyasi mamlakat iqtisodiyotidagi pul massasini nazorat qilishdan iborat. Markaziy bank mamlakatlarning jami kredit tizimiga rahbarlik qiladi, davlat pul-kredit siyosatini amalga oshiradi, pul va qimmatli qogʻozlar emissiyasini monopoliya huquqida amalga oshiradi.

Milliy valyuta – muayyan mamlakatning pul birligi.

Milliy valyutaning qadirsizlanish – qayd qilinmagan valyuta kursi tizimi amal qilayotgan sharoitda chet el valyutalariga nisbatan milliy valyutaning kursining kamayishi.

Milliy valyutaning qimmatlashishi – qayd qilinmagan valyuta kursi tizimi amal qilayotgan sharoitda chet el valyutalariga nisbatan milliy valyutaning kursining koʻtarilishi.

Moliya bozori - mamlakatdagi moliya xizmatlari bozori: moliya mablagʻlariini vaqtincha xaq toʻlab ishlatish yoki ularni sotib olish yuzasidan boʻlgan munosabatlar.

Milliy daromad – (national income) – Sof ichki mahsulotdan egri soliqlarni ayirish orqali hosil qilinadi. Milliy daromad mahsulotning shunday umumiy qiymatini koʻrsatadiki, bunda mahsulot egalari sotuvdan tushgan tushumni daromad sifatida qabul qilishadi.

Narxlar indeksi (price index) – har xil vaqt oraligʻida tovar va xizmatlarga narxning muvozanati oʻzgarishini aks ettiruvchi koʻrsatkich.

Nominal YaIM – joriy narxlarda aks ettirilgan yalpi ichki mahsulot.

Oraliq isteʼmol (intermediate consumption) – ishlab chiqarishning bir bosqichida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning boshqa bosqichida mehnat predmetlari sifatida ishlatilishi.

Oraliq mahsulot – ishlab chiqarish va muomala jarayonidan chiqib ketmagan, yakuniy isteʼmol uchun yetib bormagan, qayta ishlash yoki sotishga moʻljallangan mahsulot.

Ortiqcha talab – mavjud baholar darajasida tovarlar va xizmatlar taklifidan ularga boʻlgan talabning koʻpligi. Toʻliq bandlilik sharoitida inflyatsiya darajasining oshishiga olib keladi.

Ochiq iqtisodiyot (open economy) – tashqi iqtisodiy bozorda keng savdo-iqtisodiy va moliyaviy aloqalarga ega boʻlgan iqtisodiyot.

Potensial YaIM – toʻliq bandlilik sharoitida, yoki mavjud sarmoya resurslari va ishchi kuchidan toʻliq foydalanish hisobiga erishilishi mumkin boʻlgan ishlab chiqarish hajmi.

Pul aktivlari – maʼlum sohada korxonaning hisob raqami, kassasida boʻlgan pul mablagʻlari.

Pul bazasi – bank tizimidan tashqaridagi naqd pullar va markaziy bankdagi tijorat banklarining zahiralar

Pulga boʻlgan talab – uy xoʻjaliklari va firmalar tomonidan bitimlarda toʻlov vositasi sifatida foydalanish, koʻzda tutilmagan xarajatlar uchun saqlab turish, moliyaviy aktivlar sifatida foydalanib daromad olish uchun jamgʻarish maqsadida ega boʻlishga intilgan pul miqdori.

Pulning miqdoriy nazariyasi – pul taklifi va iqtisodiyotdagi baholarning umumiy darajasi oʻrtasidagi toʻgʻridan-toʻgʻri bogʻliqlikni oʻrnatuvchi nazariya. Birinchi bor ingliz faylasufi va iqtisodchisi d.yum tomonidan XVIII asrda ilgari surildi, amerikalik iqtisodchi I. Fisher tomonidan 1911 yilda rivojlantirildi va keyinchalik Kembrij universiteti iqtisodchilari tomonidan takomillashtirildi.

Pulning xarid qobiliyati – aniq pul birligining bozordagi tarif va narxlar darajasi sharoitida maʼlum miqdordagi tovar va xizmatlarga almashinuv qobiliyati.

Raqobat – mustaqil ishlab chiqaruvchilar o‘rtasida tovarlarni qulay sharoitda ishlab chiqarish va yaxshi foyda keltiradigan narxda, katta xajmda sotish, bozorda o‘z mavkeini mustaxkamlash uchun kurash.

Raqobat ustunligi – kapital va aktivlar mukamal tuzilishi, muamala xarajatlarning past darajasi, boshqarishni yaxshi tashkil etish xisobiga bozorning boshqa ishtirokchilaridan ustunlik.

Real almashinuv kursi – ikkala mamlakatdagi baholar darajasining o‘zaro nisbatini hisobga oluvchi almashinuv kursi. Solishtiralayotgan mamlakatlardagi nominal almashinuv kursini baholar indekslarining o‘zaro nisbatiga ko‘paytirish yo‘li bilan topiladi..

Real YaIM – qiyosiy baholarda aks ettirilgan yaim. U joriy baholarda hisoblangan nominal yaimni deflyatorga bo‘lib topiladi..

Real foiz stavkasi – inflyatsiya sur‘ati hisobga olinib tuzatilgan nominal foiz stavkasi.

Revalvatsiya– qayd qilingan valyut kursi tizimi amal qilayotgan sharoitda hukumat tomonidan milliy valyutaning boshqa valyutalarga nisbatan kursini oshirishga qaratilgan tadbiri. Importni arzonlashtiradi va eksportni qimmatlashtiradi.

Rezident – xo‘jalik faoliyatida milliy qonunchilikka to‘liq amal qiladigan, mazkur mamlakatda ro‘yxatga olingan yoki doimiy yashaydigan yuridik yoki jismoniy shaxs.

Rezerv valyuta – xalqaro hisob-kitob ishlarida, jumladan savdo-sotiq, kredit va investisiya ishlarida, shuningdek xorijiy valyuta rezervlarini jamlashda qo‘llanadigan, jaxon bozorida tan olingan, lekin kelib chiqishi milliy bo‘lgan valyuta.

Reeksport – mamlakatga oldin import qilingan tovarlarni hech qanday savdo-texnologik ishlov bermasdan eksport qilish.

Sof ichki mahsulot (net domestic product) – makroiqtisodiy ko‘rsatkich bo‘lib, YaIMdan amortizatsiya ajratmalari miqdorini ayirib tashlash yo‘li bilan topiladi.

Soliq islohoti- soliq tizimini qayta ko‘rish va uni yangilash, moliyaviy munosabatlarning o‘zgarishi tufayli yuzaga keladi.

Soliq ob‘ekti- soliq solinadigan daromad yoki mol-mulk.

Soliq tizimi (system of tax)- davlat foydasiga undiriladigan soliqlar turi majmui.

Soliq yuki - milliy iqtisodiyot darajasida davlat byudjetiga soliq tushumlarining (yaimning davlat byudjeti orqali qayta taqsimlanadigan qismining) yaim dagi ulushi. Korxona darajasida korxona yil davomida to‘lagan jami soliqlar hajmining shu davrda olingan daromadlaridagi ulushi.

Stagflyatsiya- iqtisodiyotda baholar va ishsizlik darajalarining bir vaqtning o‘zida o‘sishi.

Subvensiya – davlat byudjetidan muxim xo‘jalik va ijtimoiy-madaniy tadbirlarni amalga oshirish uchun xokimiyat organlariga ajratilgan pul mablag‘i.

Subsidiya (subsidy) – davlat byudjeti hisobidan korxonalar, tashkilotlar va xorijiy davlatlarga beriladigan mablag‘. Subsidiya bozor iqtisodiyotini tartibga solish vositasi hisoblanadi.

Shaxsiy daromad (personal income) - milliy daromaddan korxona yoki firmaning foyda solig‘i, foiz va dividendlar to‘lab bo‘linganidan keyin qolgan foydasi, ijtimoiy sug‘urta badallari va dividendlarini ayirish va davlat tomonidan transfer to‘lovlarini qo‘shish orqali hosil qilinadi.

Talab inflyatsiyasi (inflation of demand) - iqtisodiyotda talab keskin oshib ketishi va uni ishlab chiqarishning real hajmi bilan qondirish mumkin bo‘lmay qolgan sharoitlarda kelib chiqqan inflyatsiya.

Tashqi dunyo – shu mamlakatni tashqi iqtisodiy aloqalar olib boruvchi iqtisodiy agentlar bilan birlashtiruvchi institusional sektor.

Tarkibiy ishsizlik (structural unemployment) – iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish oqibatida ishchi kuchiga talab tarkibida o'zgarish ro'y berishi natijasida yuzaga keladigan majburiy ishsizlikning ko'rinishi.

Transfert to'lovlari – evaziga hech qanday tovar yoki xizmatlar olinmaydigan davlat xarajatlari (pensiya, stependiyalar, ishsizlik nafaqasi va boshqalar).

Foiz (interest) – daromad, o'z mulkining boshqa jismoniy va huquqiy shaxslarga foydalanishga berib, shundan foyda olish.

Foiz stavkasi (interest rate) – kredit yoki qarz kapitali evaziga to'lovning foiz ko'rsatkichi. Odatda, qarzga olingan pul belgisining bir- birligiga to'g'ri keladigan yillik to'lovni aks ettiradi.

Xalqaro savdo nazariyasi - iqtisodiy nazariyaning bir qismi. Ishlab chiqarish tva ayirboshlashga xalqaro ixtisoslashuv sabablarin, amda bundan mamlakatlar oladigan manfaatlarni o'rganadi.

Xarid qobiliyati pariteti – valyutalar almashinuv kurslarining shunday darajasiki, bunda har bir valyutaning xarid qobiliyati tenglashadi.

Eksport (export) – tovarlar, xizmatlari va kapitalni mamlakat tashqarisiga sotish; mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarni sotib olish uchun boshqa mamlakatlar jismoniy shaxslari, firmalari va hukumatlarining qilgan xarajatlari.

Emissiya – yangi pullar yoki qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish. Pul emissiyasi davlat (markaziy bank) tomonidan amalga oshiriladi.

Yalpi ichki mahsulot (gross domestic product)– ma'lum vaqt davomida mazkur mamlakat rezidentlari tomonidan ishlab chiqarilgan yakuniy mahsulotlarning bozor baholari yig'indisi.

Yalpi milliy mahsulot (gross national product) – bu mamlakat rezidentlari tomonidan ma'lum vaqt mobaynida ishlab chiqarilgan yakuniy tovar va xizmatlarning bozor baholari yig'indisidir. YaMMga mamlakat ichkarisidagi hamda xorijdagi ushbu mamlakat rezidentlari, korxonalari tomonidan yaratilgan tovarlar va xizmatlar yig'indisi ham kiritiladi.

Yalpi taklif (aggregate supply) – mamlakatda, ma'lum vaqt davomida, tadirakorlik sektori va davlat tomonidan ishlab chiqarilgan, va baholarning turli darajasida taklif qilinadigan tovar va xizmatlarning umumiy hajmi.

Hisob stavkasi (qayta moliyalash stavkasi) – markaziy bank tijorat banklari veksellarini hisobga olishda va ularga kredit berishda qo'llaydigan foiz stavkasi.

MUALLIFLAR HAQIDA MA'LUMOT

To'xliiev Nurislom

1947-yil tug'ilgan. 1969 yilda SamDUni tugatgan. 1990 yildan TDSHda ishlaydi. Iqtisod fanlari nomzodi (1973 yil). Iqtisod fanlar doktori (1983 yil). Professor (1984 yil). O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi (1997 yil)

Ilmiy faoliyat yo'nalishi: 08.00.01 - Iqtisodiy nazariya, turizm, iqtisodiy integratsiya

To'xliiev Nurislom 15 dan oshiq monografiyalar va o'quv qo'llanmalar, lug'atlar, 300 dan oshiq ilmiy maqolalar muallifidir.

Xolmatov Nemat Boymirzaevich

1971-yil tug'ilgan. Toshkent davlat universitetining iqtisod fakulteti "Iqtisodiy nazariya" bo'limini tamomlagan. "Iste'dod" jamg'armasi granti sohibi (2001 yil).

Bugungi kunda ToshDSHI «Iqtisodiyot nazariyasi» kafedrasi mudiri. Iqtisod fanlari nomzodi (2003 yil), Dotsent (2008 yil).

Ilmiy faoliyat yo'nalishi: 08.00.01 - Iqtisodiy nazariya, "Milliy ishlab chiqarishni sanoatlashtirishning nazariy asoslari va qonuniyatlari". Xolmatov N.B. 10 dan oshiq o'quv, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, 30 dan oshiq "O'zME" 4-11 jildlarida turkum ilmiy maqolalar (Iqtisodiy siyosat, Iqtisodiy tizim, Iqtisodiy tangliklar, Klassik siyosiy iqtisod maktablari. Nominal ish haqi, Real daromad, Real ish haqi, Omonat, Omonatlarni indekslash, Pablik rileyshnz, Pablisiti, Pay, Pareto, Xalqaro iqtisodiy hamkorlik, Xalqaro kredit, Erxard rejasi, Yagona iqtisodiy makon va boshq.) hamda ilmiy jurnallarda va ilmiy-amaliy anjumanlarda 30 dan oshiq maqola va tezislar muallifi.

Imomova Nilufar Asomiddinovna

1984-yil tug'ilgan. ToshDSHIning Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik fakultetini 2008-yili tamomlagan. ToshDSHI «Iqtisodiyot nazariyasi» kafedrasi katta o'qituvchisi.

Ilmiy yo'nalishi: "Sanoatlashuv jarayonini chuqurlashtirishda xususiy tadbirkorlikning rolini oshirish qonuniyatlari". 08.00.01. - Iqtisodiy nazariya.

Respublika va xorij ilmiy jurnallari va ilmiy-amaliy anjumanlarida 30 dan oshiq maqola va ilmiy tezislar muallifi. Asosiy ilmiy maqolalari O'zbekistonda sanoatlashtirish siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishning ilmiy-nazariy jihatlarini, sanoatlashtirish siyosatining asosiy tamoyillari, milliy sanoat salohiyatini yuksaltirishda modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarining o'rni, inqiroz oqibatlarini bartaraf etishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli masalalariga bagishlangan.

MUNDARIJA

T/R	MAZMUNI	betlar
1.	ANNOTASIYA.	
2.	KIRISH	
3.	ME'YORIY HUJJATLAR (DISKDA)	
4.	FANNING O'QUV DASTURI	
5.	FANNING IShChI DASTURI.	
6.	FANNING MA'RUZA MATNI	
7.	SEMINAR MASHG'ULOTLARI UChUN TOPShIRIQLAR TO'PLAMI.	
8.	O'QUV MATERIALLARI (DISKDA)	
9.	TA'LIM TEXNOLOGIYASI	
10.	TALABALAR BILIMINI BAHOLASH REYTING ISHLANMASI	
11.	REFERATLAR VA KURS ISHLARI MAVZULARI	
12.	JORIY NAZORAT. ORALIQ NAZORAT. YAKUNIY NAZORAT	
13.	TEST SAVOLLARI.	
14.	UMUMIY SAVOLLAR.	
15.	TARQATMA VA TAQDIMOT MATERIALLARI (DISKDA)	
16.	MUSTAQIL ISH MAVZULARI.	
17.	FANNI O'ZLASHTIRISH BO'YICHA MASLAHAT VA TAVSIYALAR.	
18.	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI ...	
19.	XORIJIY ADABIYOTLAR.	
20.	GLOSSARIY/ LUG'AT	
21.	MUALLIFLAR HAQIDA MA'LUMOT.	
22.	MUNDARIJA	